

# SUG'URTA BIZNESI

**I.G'. KENJAYEV  
M.A. ABDURAIMOVA,  
N.A. ABDULLAEYA**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

I.G. KENJAYEV  
M.A. ABDURAIMOVA, N.A. ABDULLAEYA

# SUG'URTA BIZNESI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy  
o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etgan


Toshkent 2020

УДК: 368  
ББК: 65.271  
К 35

**Sug'urta biznes:** darslik / I.G'. Kenjayev M.A. Abduraimova,  
N.A. Abdullaeva-T. «NUR DURDONALARI»-2021y 271b.

**Taqrizchilar:** "Sug'urta va pensiya ishi kafedrası" dotsenti, i.f.n. X.M.Shennayev  
"KAFOLAT-sug'urta kompaniyasi" AJ Sug'urta bo'yicha  
direktori i.f.n. A.Sharobiddinov

Mualliflar tomonidan tayorlangan mazkur o'quv qo'llanmada sug'urta biznesi fanining redmeti ob'ekti sug'urta biznesini sug'urta faoliyati bo'yicha turkumlash, sug'urta mahsulotini yaratish texnologiyasi, sug'urta bozorining institutsional tuzilishi, uning umumiy xarakteristikasi, sug'urta biznesida sug'urta vositachilarining tutgan o'rni va ular bilan o'zaro munosabatlarni tashkil etish tartibi, sug'urta biznesida moliyaviy faoliyatini byudjelashtirish, sug'urta tashkilotlarida moliyaviy natijaning shakllanishi, aktuariylar boshqarmasi va uning faoliyatini tashkil etish sikllari, sug'urta zahiralari va ularning umumiy xarakteristikasi, sug'urta biznesini soliqqa tortish va uning tartiblari, sug'urta tashkilotining aktuar hisoboti va uning auditorlik tekshiruvini tashkil etish, sug'urta biznesida sug'urta tashkilotining bo'limlari faoliyatini tashkil etishga oid mavzular keng yoritilgan.



ISBN: 978-9943-7371-8-1

© XK «NUR DURDONALARI», 2021

**MUNDARIJA**

|  |            |
|--|------------|
| <b>KIRISH</b>  | <b>12</b>  |
| <b>I BOB. SUG'URTA BIZNESI FANINING PREDMETI VA OB'YEKTI</b>   | <b>14</b>  |
| §1.1 Sug'urta biznesi haqida tushuncha va uning boshqa biznes turlaridan farqli jihatları                                    | 14         |
| §1.2 Sug'urta biznesining huquqiy asoslari   | 18         |
| §1.3 Sug'urta tashkilotlarida biznes jarayonini tashkil etilishi   | 25         |
| <b>Nazorat savollari</b>   | <b>29</b>  |
| <b>II BOB. SUG'URTA BIZNESINI SUG'URTA FAOLIYATI BO'YICHA TURKUMLANISHI</b>  | <b>30</b>  |
| §2.1 Sug'urta biznesini sug'urta faoliyati bo'yicha turkumlash   | 30         |
| §2.2 Sug'urta biznesini ob'ektlari bo'yicha turkumlash   | 35         |
| §2.3 Sug'urta biznesini yevropa talablari bo'yicha turkumlash  | 43         |
| <b>Nazorat savollari</b>   | <b>50</b>  |
| <b>III BOB. SUG'URTA MAHSULOTINI YARATISH VA UNI SOTISH TEXNOLOGIYASI</b>  | <b>51</b>  |
| §3.1 Sug'urta mahsulotiga bo'lgan talabni o'rganish va sug'urta mahsulotini yaratish texnologiyasi                           | 51         |
| §3.2 Sug'urta mahsulotini sotish texnologiyasi   | 53         |
| §3.3 Sug'urta mahsulotini sotishda reklamani rejalashtirish usullari   | 56         |
| <b>Nazorat savollari</b>   | <b>61</b>  |
| <b>IV BOB. SUG'URTA BOZORINING INSTITUTSIONAL TUZILISHI VA UNING UMUMIY XARAKTERISTIKASI</b>                                 | <b>62</b>  |
| §4.1 Sug'urta bozori sub'ektlari va ularga tavsif  | 62         |
| §4.2 Sug'urta bozori sub'ektlari faoliyatining tashkiliy va huquqiy asoslari   | 65         |
| §4.3 Sug'urta biznesida sug'urta vositachilarining tutgan o'zni va ular bilan o'zaro munosabatlarni tashkil etish tartibi    | 71         |
| §4.4 Sug'urta vositachilarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi                        | 82         |
| <b>Nazorat savollari</b>   | <b>84</b>  |
| <b>V BOB. SUG'URTA BIZNESIDA SUG'URTA VOSITACHILARNING TUTGAN O'RNINI VA ULAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLARNI TASHKIL ETISHI</b> | <b>85</b>  |
| §5.1 Sug'urta biznesida sug'urta vositachilarning tutgan o'zni   | 85         |
| §5.2 Sug'urta vositachilarning davlat ro'yxatidan o'tkazish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi                       | 93         |
| §5.3 Sug'urta brokerlarining faoliyat yo'nalishlari  | 101        |
| §5.4 Sug'urta biznesini rivojlanishida sug'urta agentlarining roli   | 108        |
| <b>Nazorat savollari</b>   | <b>116</b> |
| <b>VI BOB. SUG'URTA BIZNESIDA MOLIYAVIY FAOLIYATNI BYUDJETLASHTIRISH</b>   | <b>117</b> |
| §6.1 Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy resurslarni joylashtirishning o'ziga xos xususiyatlari                               | 117        |



|  |            |
|--|------------|
| §6.2 Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy resurslarni joylashirishning nazariy asoslari                                  | 119        |
| §6.3 Sug'urta tashkilotlari moliyaviy resurslari shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari                             | 123        |
| <b>Nazorat savollari</b>   | 129        |
| <b>VII BOB. SUG'URTA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY NATIJANING SHAKLLANISHI</b>   | <b>130</b> |
| §7.1 Sug'urtalovchining moliyaviy barqarorligini asosiy yo'nalishlari  | 130        |
| §7.2 Sug'urta tashkilotining ay lanma mablag' lari uning o' ziga xos xususiyatlari                                     | 133        |
| §7.3 Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslari va uning shakllanishining o' ziga xos xususiyatlari               | 136        |
| <b>Nazorat savollari</b>   | 144        |
| <b>VIII BOB. AKTUARIYLAR BOSHQARMASI VA UNING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH</b>  | <b>145</b> |
| §8.1 Aktuariylarga umumiy tavsif   | 145        |
| §8.2 Aktuar hisob-kitobini metodologiyasi  | 154        |
| §8.3 Hay ot sug' urtasida aktuar hisobini yuritilishi  | 160        |
| <b>Nazorat savollari</b>   | 165        |
| <b>IX BOB. SUG'URTA ZAHIRALARI: SUG'URTA ZAHIRALARI VA UNING UMUMIY XARAKTERISTIKASI</b>                               | <b>166</b> |
| §9.1 Sug'urta zahiralari va uning umumiy xarakteristikasi  | 166        |
| §9.2 Sug'urta zahiralarning turlari va tuzilishi   | 170        |
| §9.3 Sug'urta zahiralarni investitsiya ob' ektlariga joy lashirish tartibi   | 183        |
| <b>Nazorat savollari</b>   | 186        |
| <b>X BOB. SUG'URTA BIZNESINI SOLIQQA TORTISH TURLARI VA UNING TARTIBI</b>  | <b>187</b> |
| §10.1 Sug'urta biznesini tartibga solishda soliqqlarning zarurligi va ahamiyati  | 187        |
| §10.2 Sug'urta faoliyatini soliqqa tortishning huquqiy asoslari  | 194        |
| §10.3 Sug'urta tashkilotlarini soliqqa tortishning xorij tajribasi (AQSH sug'urta kompaniy alari misolida)             | 199        |
| <b>Nazorat savollari</b>   | 205        |
| <b>XI BOB. SUG'URTA TASHKILOTINING AKTUAR HISOBOTI VA UNING AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISH</b>                  | <b>206</b> |
| §11.1 Sug'urta tashkilotining aktuar hisoboti  | 206        |
| §11.2 Sug'urta biznesida sug'urta tarifi stavkalarini qo' llanishi   | 207        |
| §11.3 Sug'urta tashkilotlarning auditorlik tekshiruvini tashkil etish  | 213        |
| §11.4 Sug'urta tashkilotlarning auditorlik tekshiruvi natijalari bo' yicha xulosa va hisobotni rasmiylashirish tartibi | 230        |
| <b>Nazorat savollari</b>   | 235        |
| <b>XII BOB. SUG'URTA BIZNESIDA SUG'URTA TASHKILOTINING BO'LIMLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH</b>                        | <b>236</b> |
| §12.1 Sug'urta tashkilotining boshqaruv tuzilmasi  | 236        |
| §12.2 Sug'urta tashkilotining bo'limlari faoliyatini tashkil etishda kuzatuv kengashining vakolatlari                  | 239        |

|   |     |
|---|-----|
| §12.3 Sug'urta tashkilotlarida xodimlar bilan ishlash departamentining faoliyatini tashkil etilishi | 244 |
| 12.4 Sug'urta tashkilotlar faoliyanda sugurta xizmatlarini tashkil etilishi ..                      | 253 |
| <b>Nazorat savollari</b>  | 259 |
| <b>GOLASSARIY</b>   | 260 |
| <b>FÖYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b>   | 277 |

## ОГЛАВЛЕНИЕ

|  |            |
|--|------------|
| <b>ВВЕДЕНИЕ</b>  | <b>12</b>  |
| <b>ГЛАВА 1. ОБЪЕКТ И ПРЕДМЕТ ДИСЦИПЛИНЫ СТРАХОВОГО БИЗНЕСА</b>   | <b>14</b>  |
| §1.1 Понятие страхового бизнеса и его отличия от других видов бизнеса  | 14         |
| §1.2 Правовые основы страхового бизнеса  | 18         |
| §1.3 Организация бизнес-процессов в страховых организациях   | 25         |
| <b>Контрольные вопросы</b>   | <b>29</b>  |
| <b>ГЛАВА 2. ГРУППИРОВАНИЯ СТРАХОВОГО БИЗНЕСА ПО ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СТРАХОВАНИЯ</b>                                 | <b>30</b>  |
| §2.1 Группирование страхового бизнеса по деятельности страхования  | 30         |
| §2.2 Группирование страхового бизнеса по объектам  | 35         |
| §2.3 Группировать страхового бизнеса по требованию Европч  | 43         |
| <b>Контрольные вопросы</b>   | <b>50</b>  |
| <b>ГЛАВА 3. РАЗРАБОТКА СТРАХОВЫХ ПРОДУКТОВ И ТЕХНОЛОГИИ ИХ РЕАЛИЗАЦИИ</b>                                    | <b>51</b>  |
| §3.1 Изучить спрос на страховые продукты и технология их создания  | 51         |
| §3.2 Технология продаж страховых продуктов   | 53         |
| §3.3 Планирование рекламы на продажу страховых продуктов   | 56         |
| <b>Контрольные вопросы</b>   | <b>61</b>  |
| <b>ГЛАВА 4. ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ СТРУКТУРА И ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СТРАХОВОГО РЫНКА</b>                          | <b>62</b>  |
| §4.1 Субъекты рынок страхования и их обзор   | 62         |
| §4.2 Организационно-правовые основы деятельности субъектов страхового рынка                                  | 65         |
| §4.3 Роль страхового посредника на страховом бизнесе и порядок организации взаимоотношений с ними            | 71         |
| §4.4 Sug'urta vositachilarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi        | 82         |
| <b>Контрольные вопросы</b>   | <b>84</b>  |
| <b>ГЛАВА 5. РОЛЬ СТРАХОВОГО ПОСРЕДНИКА НА СТРАХОВОМ БИЗНЕСЕ И ПОРЯДОК ОРГАНИЗАЦИЯ ВЗАИМООТНОШЕНИЯ С НИМИ</b> | <b>85</b>  |
| §5.1 Роль страхового посредника на страховом бизнесе   | 85         |
| §5.2 Порядок государственной регистрации и лицензирования страхового посредника                              | 93         |
| §5.3 Направления деятельности страхового брокера   | 101        |
| §5.4 Роль страховых агентов в развитии страхового бизнеса  | 108        |
| <b>Контрольные вопросы</b>   | <b>116</b> |
| <b>ГЛАВА 6. БЮДЖЕТИРОВАНИЕ ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СТРАХОВОГО БИЗНЕСА</b>                                    | <b>117</b> |
| §6.1 Особенности размещения финансовых ресурсов в страховых организациях                                     | 117        |

|   |            |
|---|------------|
| §6.2 Теоретические основы размещения финансовых ресурсов в страховых организациях                                 | 119        |
| §6.3 Необходимость и значение государственного контроля над размещением финансовых ресурсов страховых организаций | 123        |
| <b>Контрольные вопросы</b>  | 129        |
| <b>ГЛАВА 7. ОРГАНИЗАЦИЯ ФИНАНСОВЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ СТРАХОВОЙ ОРГАНИЗАЦИИ</b>   | <b>130</b> |
| §7.1 Основные направления финансовой устойчивости страховщика   | 130        |
| §7.2 Оборотные средства страховой организации и их особенности  | 133        |
| §7.3 Финансовые ресурсы страховых организаций и их особенности формирования                                       | 136        |
| <b>Контрольные вопросы</b>  | 144        |
| <b>ГЛАВА 8. УПРАВЛЕНИЯ АКТУАРИЕВ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЕГО ДЕЯТЕЛЬНОСТИ</b>   | <b>145</b> |
| §8.1 Общее описание актуариев   | 145        |
| §8.2 Методологии актуарные расчеты  | 154        |
| §8.3 Актуарные расчеты в страховании жизни  | 160        |
| <b>Контрольные вопросы</b>  | 165        |
| <b>ГЛАВА 9. СТРАХОВЫЕ РЕЗЕРВЫ: СТРАХОВЫЕ РЕЗЕРВЫ И ИХ ОБЩИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ</b>                                    | <b>166</b> |
| §9.1 Страховые резервы и их общие характеристики  | 166        |
| §9.2 Виды и структура страховых резервов  | 170        |
| §9.3 Порядок размещения страховых резервов на объектах инвестирования   | 183        |
| <b>Контрольные вопросы</b>  | 186        |
| <b>ГЛАВА 10. ВИДЫ И ПОРЯДОК НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ СТРАХОВОГО БИЗНЕСА</b>  | <b>187</b> |
| §10.1 Необходимость и значение налогов в регулировании страхового дела  | 187        |
| §10.2 Правовые основы налогообложения в страховой деятельности  | 194        |
| §10.3 Зарубежный опыт налогообложения страховых компаний (на примере страховых компаний США)                      | 199        |
| <b>Контрольные вопросы</b>  | 205        |
| <b>ГЛАВА 11. АКТУАРНЫЕ РАСЧЕТЫ СТРАХОВЫХ КОМПАНИИ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЕГО АУДИТОРСКИЕ ПРОВЕРКИ</b>                      | <b>206</b> |
| §11.1 Актуарные расчеты страховых организации   | 206        |
| §11.2 Применение страховых тарифов в страховом бизнесе  | 207        |
| §11.3 Организация аудиторской проверки в страховых организациях   | 213        |
| §11.4 Порядок составления заключений и отчетов по результатам аудиторской проверки страховых организаций          | 230        |
| <b>Контрольные вопросы</b>  | 235        |
| <b>ГЛАВА 12. ОРГАНИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОТДЕЛЫ СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИИ НА СТРАХОВОМ БИЗНЕСЕ</b>                       | <b>236</b> |
| §12.1 Структура управления страховой организации  | 236        |
| §12.2 Полномочия наблюдательного совета при организации деятельности  | 239        |

|   |     |
|---|-----|
| страховой компании  |     |
| §12.3 Организация отдела кадров в страховых организациях            | 244 |
| §12.4 Организация страховых услуг в деятельности страховых компаний | 253 |
| <b>Контрольные вопросы</b>  | 259 |
| <b>ГЛОССАРИЙ</b>  | 260 |
| <b>СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ</b>                             | 277 |



## CONTENTS

|   |            |
|---|------------|
| <b>INTRODUCTION</b>   | <b>12</b>  |
| <b>I CHAPTER. OBJECT AND SUBJECT OF THE DISCIPLINE OF INSURANCE BUSINESS</b>  | <b>14</b>  |
| §1.1 The concept of insurance business and its differences from other types of business   | 14         |
| §1.2 Legal basis of the insurance business  | 18         |
| §1.3 Organization of business processes in insurance organizations  | 25         |
| <b>QUESTIONS FOR CONTROL</b>  | <b>29</b>  |
| <b>II CHAPTER. GROUPING INSURANCE BUSINESS BY INSURANCE ACTIVITY</b>  | <b>30</b>  |
| §2.1 Grouping of the insurance business by insurance activity   | 30         |
| §2.2 Grouping of insurance business by object   | 35         |
| §2.3 Group the insurance business at the request of Europe  | 43         |
| <b>QUESTIONS FOR CONTROL</b>  | <b>50</b>  |
| <b>III CHAPTER. SALE OF INSURANCE PRODUCTS AND THE TECHNOLOGY OF ITS CREATION</b>   | <b>51</b>  |
| §3.1 To study the demand for insurance products and the technology of their creation  | 51         |
| §3.2 Technology of sales of insurance products  | 53         |
| §3.3 Planning advertising for the sale of insurance products  | 56         |
| <b>QUESTIONS FOR CONTROL</b>  | <b>61</b>  |
| <b>IV CHAPTER. INSTITUTIONAL STRUCTURE AND GENERAL CHARACTERISTIC OF THE INSURANCE MARKET</b>                                       | <b>62</b>  |
| §4.1 Actors of the insurance market and their review  | 62         |
| §4.2 The legal framework of the activities of the insurance market  | 65         |
| §4.3 The role of insurance intermediaries in the insurance business and the procedure for organizing relationships with them        | 71         |
| §4.4 Sug'urta vositachilarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi                               | 82         |
| <b>QUESTIONS FOR CONTROL</b>  | <b>84</b>  |
| <b>V CHAPTER. THE ROLE OF THE INSURANCE INTERMEDIARY ON THE INSURANCE BUSINESS AND ORDER ORGANIZATION OF RELATIONSHIP WITH THEM</b> | <b>85</b>  |
| §5.1 The role of the insurance intermediary in the insurance business.  | 85         |
| §5.2 The procedure for state registration and licensing of an insurance intermediary  | 93         |
| §5.3 Activities of the insurance broker   | 101        |
| §5.4 The role of insurance agents in the development of the insurance business  | 108        |
| <b>QUESTIONS FOR CONTROL</b>  | <b>116</b> |
| <b>VI CHAPTER. BUDGETING FINANCIAL ACTIVITIES OF INSURANCE BUSINESS</b>   | <b>117</b> |
| §6.1 Features of the placement of financial resources in insurance organizations  | 117        |
| §6.2 Theoretical foundations of the allocation of financial resources in insurance  | 117        |

|   |            |
|---|------------|
| organizations   | 119        |
| §6.3 The need and importance of state control over the allocation of financial resources of insurance organizations | 123        |
| <b>QUESTIONS FOR CONTROL</b>  | 129        |
| <b>VII CHAPTER. ORGANIZATION FINANCIAL RESULTS OF THE INSURANCE ORGANIZATION</b>                                    | <b>130</b> |
| §7.1 The main direction of the financial stability of the insurer   | 130        |
| §7.2 Working capital of the insurance organization and their features   | 133        |
| §7.3 Financial resources of insurance organizations and their formation features                                    | 136        |
| <b>QUESTIONS FOR CONTROL</b>  | 144        |
| <b>VIII CHAPTER. MANAGEMENT OF ACTUARIES AND ORGANIZATION OF ITS ACTIVITIES</b>                                     | <b>145</b> |
| §8.1 General description of actuaries   | 145        |
| §8.2 Methodology actuarial calculations   | 154        |
| §8.3 Actuarial calculations in life insurance   | 160        |
| <b>QUESTIONS FOR CONTROL</b>  | 165        |
| <b>IX CHAPTER. INSURANCE RESERVES: INSURANCE RESERVES AND THEIR GENERAL CHARACTERISTICS</b>                         | <b>166</b> |
| §9.1 Insurance reserves and their general characteristics   | 166        |
| §9.2 Types and structure of insurance reserves  | 170        |
| §9.3 The procedure for placing insurance reserves at investment objects   | 183        |
| <b>QUESTIONS FOR CONTROL</b>  | 186        |
| <b>X CHAPTER. TYPES AND ORDER OF TAXATION OF INSURANCE BUSINESS</b>   | <b>187</b> |
| §10.1 The need and importance of taxes in the regulation of insurance business.....                                 | 187        |
| §10.2 Legal basis of taxation in insurance activities   | 194        |
| §10.3 Foreign experience in taxation of insurance companies (on the example of US insurance companies)              | 199        |
| <b>QUESTIONS FOR CONTROL</b>  | 205        |
| <b>XI CHAPTER. ACTUARY CALCULATIONS OF INSURANCE COMPANIES AND ORGANIZATION OF ITS AUDIT INSPECTIONS</b>            | <b>206</b> |
| §11.1. Actuarial calculations of insurance organizations  | 206        |
| §11.2 Application of insurance rates in the insurance business  | 207        |
| §11.3 Organization of audit in insurance organizations  | 213        |
| §11.4 Procedure for drawing up conclusions and reports on the results of an audit of insurance organizations        | 230        |
| <b>QUESTIONS FOR CONTROL</b>  | 235        |
| <b>XII CHAPTER. ORGANIZATION OF ACTIVITIES DEPARTMENTS OF THE INSURANCE ORGANIZATION IN THE INSURANCE BUSINESS</b>  | <b>236</b> |
| §12.1 Management structure of the insurance organization  | 236        |
| §12.2 The powers of the Supervisory Board in organizing the activities of the insurance company                     | 239        |
| §12.3 Organization of the personnel department in insurance organizations   | 244        |

|   |     |
|---|-----|
| §12.4 Organization of insurance services in the activities of insurance companies | 253 |
| <b>QUESTIONS FOR CONTROL</b>  | 259 |
| <b>GLOSSARY</b>   | 260 |
| <b>LIST OF USED LITERATURE</b>  | 277 |

## Kirish

Respublikamiz sug'urta bozorini yanada rivojlantirish, aholini sifatli moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olish ko'lamini kengaytirish, sug'urta tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ushbu sohada iste'molchilarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari izchil amalga oshirilmoqda.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirish maqsadida "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunni yangi tahrirda ishlab chiqish, barcha majburiy sug'urta turlarini yagona hujjatga mujassamlashtirish va majburiy sug'urtalanadigan faoliyat turlarini kengaytirish, banklarga sug'urta agenti maqomini berish hamda interaktiv, shu jumladan onlayn sug'urta xizmatlarini kengaytirish masalalari kiritildi<sup>1</sup>.

Shu bilan bir qatorda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlar yili"da ilg'or xorijiy tajriba asosida tibbiy sug'urta mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha konsepsiya ishlab chiqish kabi vazifalar belgilab berildi<sup>2</sup>.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustda "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-sonli qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi<sup>3</sup>.

Mazkur o'quv-qo'llanmada sug'urta biznesi fanining predmeti va ob'yekti, sug'urta biznesini sug'urta faoliyati bo'yicha turkumlanishi, sug'urta mahsulotini sotish va uni yaratish texnologiyasi, sug'urta bozorining institutsional tuzilishi va uning umumiy xarakteristikasi, sug'urta biznesida sug'urta vositachilarning tutgan o'rni va ular bilan o'zaro munosabatlarni tashkil etilishi, sug'urta biznesida moliyaviy faoliyatni byudjetlashtirish, sug'urta tashkilotlarida moliyaviy natijaning shakllanishi, aktuariylar boshqarmasi va uning faoliyatini tashkil etish, sug'urta zahiralari: sug'urta zahiralari va uning umumiy xarakteristikasi, sug'urta biznesini soliqqa tortish turlari va uning

<sup>1</sup>2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ID-1678.

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi PF-5308-sonli "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risidagi Farmoni".

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustda PQ-4412-sonli "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

tartibi, sug'urta tashkilotining aktuar hisoboti va uning auditorlik tekshiruvini hamda sug'urta tashkilotining bo'limlar faoliyatini tashkil etish bo'yicha nazariy va amaliy jihatlarini o'z aksini topgan.



## I BOB. SUG'URTA BIZNESI FANINING PREDMETI VA OB'YEKTI

### 1.1 Sug'urta biznesi haqida tushuncha va uning boshqa biznes turlaridan farqli jihatlari

Biznes tushunchasi bugungi kunda jamiyatni ajralmas qismiga aylanib qoldi. Xususiy tadbirkorlik kapitalistik davlatlarning hal qiluvchi kuchiga aylandi. Biznes – bu shaxsiy daromad, foyda olishga qaratilgan fuqarolarning mustaqil faoliyatidir. Biznes faoliyati tadbirkorning o'z nomidan, o'z mulkiy mas'uliyati va yuridik shaxsning yuridik mas'uliyati evaziga amalga oshiriladi. Biznes qonun tomonidan ta'qiqlanmagan barcha turdagi xo'jalik faoliyatlari bilan shug'ullanishi mumkin. Biznes faoliyati bu tavakkalchilik asosida amalga oshiriladigan faoliyatdir. Biznesmen (tadbirkorlik) so'zi birinchi marotaba Angliya iqtisodiyotida XVIII asrda paydo bo'lib, u "Mulk egasi" degan ma'noni bildiradi. Jumladan, Adam Smit tadbirkorni mulk egasi sifatida ta'riflab, uni foyda olish uchun qandaydir tijorat g'oyasini amalga oshirish maqsadida iqtisodiy tavakkalchilikka boradigan kishidir, - deb ta'kidlaydi. Tadbirkorni o'zi, o'z ishini rejalashtiradi, ishlab chiqarishni tashkil etadi, mahsulotni sotadi va olgan daromadiga o'zi ho'jayinlik qiladi. Biznes - bu avvalo ishlab chiqarishni tashkil etish, iqtisodiy faoliyat va munosabatlar, hayotni o'zi so'ngra esa pul ishlash demakdir. Biznes- bu xorijiy so'zdir. U butun dunyo bo'yicha tarqalgandir, undan barcha mamlakatlarda foydalanadilar. O'zbek tilida esa biznes so'zi tadbirkorlik, biznesmen esa tadbirkor demakdir. O'zbekcha so'z xorijiy so'zga to'g'ri keladi, lekin unga qo'shimcha ma'no ham beradi. Bu so'zlarni ortida "ish" ya'ni ish bilan shug'ullanish yoki korxonani tashkil qilish yotadi. Shunday qilib, biznes - bu korxonani tashkil qilish demakdir (sanoat korxonasi, savdo do'koni, xizmat ko'rsatish korxonasi, auditorlik kontorasi, advokat idorasi, bank. Demak, biz bu yuk narsadan pul qilish emas, balki murakkab ishlab chiqarishni yoki xizmat ko'rsatishni tashkil etish demakdir. Tadbirkorlik - bu doimo o'z ishining fidoiysi, bilimdonidir. Tadbirkorlik uchun o'qish kerak, nafakat dastlabki paytlarda, balki tadbirkor bir umir o'qishi, izlanishda bo'lishi kerak. Tadbirkor nimalarni bilishi va qilishi kerak? U eng avvalo, tadbirkorlik faoliyatini qanday amalga oshirishni, qanday sharoitda amaliy xarakat qilishni, tadbirkor oldida uchraydigan to'siqlarni hal qilish yo'llarini va qanday yutuqlarga erishishni bilishi kerak. Tadbirkor - ishlab chiqarishni tashkil etishni, hamda mahsulotni sotishni bilishi kerak. U bozor munosabatlari sharoitida yuzaga keladigan aniq

sharoitlarni baxolashni va to'g'ri yo'l tanlashni bilishi kerak. Hech kim, hech qachon tadbirkorga nima qilishni o'rgatmaydi va og'ir paytlarda yordamga kelmaydi. Har bir tadbirkor faqat o'z biznesini sug'urtalash orqali o'z o'ziga yordam berishi mumkin. 1995-1999 yillarda kichik va hususiy korxonalar tashkil qilishga eng katta ahamiyat berildi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish davriga O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, "...qishloq joylarida ixcham ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish hisobiga aholining ish bilan bandligini ta'minlash siyosatini faol amalga oshirishimiz". Mamlakatimizda bu siyosatni amalga oshirishda asosan tadbirkorlikni rivojlantirishni taqozo etadi. Tadbirkorlikning keng ko'lamda rivojlanishiga ko'makdosh sug'urta tizimi hisoblanadi. Bu rivojlanishda biznes sug'urtasining o'rnini albatda muhimdir.

Biznes faoliyatida mavjud bo'lgan bu uchta xususiyat tadbirkorni ijodkorligini kuchaytiradi, yangi-yangi biznes g'oyalarni ishlab chiqib, uni amalga oshirish uchun ishtiyoqini va shijoatini o'stiradi. Lekin baribir o'z biznesining har hili kutilmagan baxtsiz tasodiflar natijasida katta zarar ko'rish xavfi bo'ladi. Bu xavfni kamaytirishning yo'llaridan biri albatta biznesni xavf-xatardan sug'urtalashdir. Rivojlanayotgan bozor sharoitida, bozor mexanizmlaridan samarali foydalanayotgan mamlakatlarda fuqarolar, tadbirkorlar, biznesmenlar, firmalar, kompaniyalar va davlat o'zlarining mulkiy manfaatlarini himoya qilishda sug'urtadan keng foydalanmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqqan holda mamlakatimizda ham mustaqillik yillarida sug'urta sohasida keskin islohotlar amalga oshirildi. Yagona davlat sug'urta tashkiloti tugatilib, turli mulk shaklidagi sug'urta tashkilotlar tashkil etildi. Mazkur tashkilotlar faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy jihatdan shart-sharoitlar yaratildi, jumladan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonun ishlab chiqilib takomillashtirildi, fuqarolik kodeksida alohida bob sug'urtaga bag'ishlandi, majburiy sug'urta turlari qonun asosida kuchga kiritildi va sug'urta faoliyatini tartibga solish maqsadida sug'urta kompaniyalarini litsenziyalash yo'lga qo'yildi hamda sug'urtaning barcha jihatlarini nazarda tutuvchi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Natijada bugungi kunda sug'urta iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan yirik sohaga aylanmoqda. Sug'urta va tadbirkorlik faoliyati bir-biri bilan bog'liq sohalar bo'lib, tadbirkorlik faoliyati sug'urta xizmatlariga doimiy ravishda ehtiyoj sezadi. Tadbirkorlik sohasi yangiliklarga intiluvchan, resurslarni tejash va

samarali foydalanish imkoniyatini beruvchi usullarni qidirib topishga harakat qiluvchi, tavakkalchilikka asoslangan soha hisoblanadi.

Ma'lumki, tadbirkor o'z ishini o'zi rejalashtiradi, ishlab chiqarishni tashkil etadi, mahsulotni sotadi va olgan daromadiga o'zi egalik qiladi. O'z o'rnida tadbirkorning faoliyati davomida yuz bergan turli hodisalar tufayli ko'rilgan zararini uning o'zi qoplashi kerak. Ko'p hollarda bunday zararlarni tadbirkor qoplash imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Bunday imkoniyatga jamiyatda faqatgina sug'urta kompaniyasi egadir. Shu munosabat bilan tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasi tadbirkor faoliyatida zarur ko'makchi hisoblanadi. Tadbirkorlik tavakkalchiliklari bilan bog'liq risklar sug'urtasi turli ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish faoliyati davomida yuz berishi mumkin bo'lgan tabiiy va boshqa kutilmagan hodisalardan ko'riladigan zararlarni qoplashni ko'zda tutuvchi sug'urta faoliyatidir. Turli sabablar (xom-ashyoning etishmay qolishi, elektr va yoqilg'i moylash materiallarining etishmay qolishi, ish joyida yong'in chiqishi va hokazolar) oqibatida yuz beradigan ishlab chiqarishdagi uzilishlar natijasida ko'riladigan zararlarni, bankrotlik holatlari, tayyor mahsulotning sotilmay qolishi yoki sotilgan mahsulot uchun to'lovning amalga oshmay qolishi va boshqalar sug'urta hodisasi sifatida qabul qilinishi mumkin. Tadbirkorlik tavakkalchiligi sug'urtasi birinchi marta Angliya iqtisodiyotida o'n sakkizinchi asrda paydo bo'lgan. Keyinchalik ushbu sug'urta turlari Evropaning boshqa malakalarida, AQSHda va boshqa mamlakatlarda qo'llanila boshlagan. O'zbekistonda tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasi mustaqillik yillarida paydo bo'lib boshladi. Bu sug'urta turi bo'yicha sug'urta klassifikatorida ham klasslar nazarda tutilgan. Ammo bu sug'urta turi hozircha keng rivojlanish darajasiga etgani yo'q. Tadbirkor faoliyatidagi ishlab chiqarish hajmining kamayishiga sabab bo'luvchi bir qancha xatarlar, masalan xom-ashyoni etkazib berishning to'xtab qolishi, ish kuchining etishmay qolishi, elektr energiya va boshqa energiya vositalarini etkazib berishning to'xtab qolishi va boshqa holatlar ishlab chiqarishdagi uzilishlarga sabab bo'lishi va natijada ko'zlangan foydaga erisholmaslik holatlari yuz berishi mumkin.

Tijorat faoliyatida tovar uchun to'lovlar bilan bog'liq xatarlar yuz berishi mumkin, ya'ni etkazib berilgan tovar uchun xaridorning to'lovga qobiliyatsizligi yuz berishi va natijada to'lovni amalga oshira olmasligi mumkin. Ma'lum mamlakat miqyosidagi siyosiy holatlar natijasida sotuvchi yoki xaridorga mahsulotni sota olmaslik yoki sotib ololmaslik holatlari yuz berishi mumkin. Hozirgi zamon sharoitida tijorat risklari sug'urtasiga bo'lgan ehtiyoj keskin oshib bormoqda, chunki ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan



sub'ektlar soni oshib ketdi va o'z o'rnida mazkur sohaga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi ham ortib bermoqda. Ammo sug'urtaning bu turi eng murakkab bo'lib, sug'urta kompaniyasining javobgarligi yuqorida ko'rsatib o'tilgan risklardan hosil bo'lgan zararlarni qoplashda hosil bo'ladi. Bunda sug'urta summasini aniqlashning ikkita varianti mavjud. Birinchi variantda sug'urta summasi sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta ob'ektiga yo'naltirilgan kapital mablag'lar hajmidan kelib chiqib belgilanadi, ikkinchi variantda sug'urta summasi sug'urta ob'ektiga qilingan kapital mablag'dan tashqari olinishi kutilayotgan foydani ham qo'shib hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik xatarlari ko'p hollarda tabiiy hodisalar natijasida yuz berishi mumkin, ya'ni turli tabiiy hodisalar tufayli hosildorlikning kamayishi yoki umuman bo'lmay qolishi, sifatli mahsulot etishishi va hokozolar natijasida kutilgan natijaga erishilmay qolinishi mumkin. Bundan tashqari ishlab chiqarish va mahsulotni sotish bilan bog'liq boshqa xatarlar ham yuz berishi mumkin. Tashqi faoliyat bilan bog'liq xatarlar ko'p holatlarda siyosiy xatarlar, mahsulotni tashish bilan bog'liq xatarlar, to'lovga qobiliyatsizlik va boshqa xatarlar bo'lishi mumkin.

Kredit risklari sug'urtasining ob'ekti bo'lib, xaridorga beriladigan tijorat kreditlari, sotuvchi yoki xaridorga beriladigan bank ssudasi, kredit bo'yicha majburiyat yoki kafillik, uzoq muddatli investitsiyalar va boshqalar hisoblanadi. Ushbu sug'urta turi sotuvchi yoki bank-kreditor manfaatlarini qarzdorning to'lovga qobiliyatsizlik holatidan himoya qiladi.

Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlarning barchasida kredit risklarini sug'urtalashga ixtisoslashgan sug'urta kompaniyalari bo'lib, ular eksport kreditlari sug'urtasini amalga oshiruvchi tizimga va chet el investitsiyalarini sug'urtalash sxemalariga ega. Kreditni qaytara olmaslikdan sug'urtalash turi bozor iqtisodiyoti sharoitida keng rivojlangan sug'urta turlaridan biri hisoblanadi. Bu sug'urta turi banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasida hankorlikning kuchayishi bilan yanada keng rivojlandi. Bizning mamlakatimizda ham bu sug'urta turi birmuncha rivojlanmoqda, banklar tomonidan xo'jalik sub'ektlariga berilayotgan kreditlarni to'liq bo'lmasada ma'lum qismini qaytara olmaslikdan sug'urtalash amalga oshirilib kelinmoqda. Tadbirkorlik faoliyatining maqsadi foyda olish. Shuning uchun ushbu foydani ololmaslikdan sug'urtalash muhim hisoblanadi. Foydani ololmaslikning sabablarini ikki guruhga bo'lish mumkin: 1) stixiyali hodisalar tufayli ishlab chiqarish jarayonining buzilishi; 2) bozor kon'yunkturasi o'zgarishi. Bu sabablardan ham sug'urtalash, kelajakda kutilayotgan foydani ololmaslikdan

himoyalanihdagi muhim omil sanaladi. Yangi texnikani joriy etilayotganda texnik va texnologik risklardan sug'urtalash ham muhim hisoblanadi.

## 1.2 Sug'urta biznesining huquqiy asoslari

Sug'urta huquqi sug'urta tashkilotlari bilan sug'urtalanuvchilar, hamda kredit tashkilotlari o'rtasidagi xuquqiy munosabatlari ifodalaydi. Bunday munosabatlar mamlakatimiz konstitutsiyasi asosida vujudga kelgan qator huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topadi. Bu huquqiy hujjatlarga quyidagilar kiradi:

1. Fuqarolik kodeksi;
2. Sug'urta faoliyati to'g'risidagi Respublika qonuni;
3. Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi qonuni;
4. Davlat sug'urta tashkilotlari xaqidagi nizomlar;
5. Xususiy sug'urta tashkilotlarining nizomlari;

6. Sug'urta nazorati xaqidagi xukumat qarori va boshqalar. Fuqarolik kodeksi O'zR 30.08.1997 y. 477-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan, O'zR OM 30.08.1997 y. 477a-I-son Qaroriga muvofiq 01.01.1998 yildan amalga kiritilgan bo'lib, fuqarolik kodeksining 52-bobi 914-961-moddalar sug'urta masalalariga bag'ishlangan, bunda sug'urtaning eng muhim huquqiy masalalari sug'urta shartnomalarini tuzish, ikki tomonlama sug'urtalash, hamkorlik sug'urtasi, qayta sug'urtalash masalalari yoritilib, bundan tashqari tadbirkorlik xavfini sug'urtalashni amalga oshirish, tomonlarning javobgarligi va boshqalar kodeks doirasida xuquqiy jihatdan tushuntirib berilgan Fuqarolik kodeksining biznes sug'urtasiga doir moddalarini bilan tanishib chiqsak: Fuqarolik kodeksining 915-moddasi "Mulkiy sug'urta shartnomasi"ga bag'ishlangan bo'lib, unda tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilarning mulkiy manfaatlarini sug'urtalash nazarda tutilgan. Mulkiy sug'urta shartnomasiga muvofiq bir taraf (sug'urtalovchi) shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea (sug'urta hodisasi) sodir bo'lganda boshqa tarafga (sug'urta qildiruvchiga) yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxsga (naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug'urtalangan mulkka etkazilgan zararni yoxud sug'urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog'liq zararni shartnomada belgilangan summa (sug'urta puli) doirasida to'lash (sug'urta to'voni to'lash) majburiyatini oladi. Mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha quyidagilar sug'urtalanishi mumkin:

- muayyan mol-mulkning yo'qotilishi (nobud bo'lishi), kam chiqishi yoki shikastlanishi xavfi;



▪ fuqarolik javobgarligi xavfi-boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar bo'yicha javobgarlik, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, shuningdek shartnomalar bo'yicha javobgarlik xavfi;

▪ tadbirkorlik xavfi-tadbirkorning kontragentlari o'z majburiyatlarini buzishi yoki tadbirkorga bog'liq bo'lmagan vaziyatlarga ko'ra bu faoliyat shart-sharoitlarining o'zgarishi tufayli tadbirkorlik faoliyatidan kutilgan daromadlarni ololmaslik xavfi. Mulkiy sug'urta shartnomasiga ko'ra biznes va tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar o'z mulklarining saqlanishi va o'z faoliyatining davomiyligini kafolatlab oladi desak adashmagan bo'lamiz. Bu sug'urta turi iqtisodiyotning inqirozga uchramasligiga ko'makdosh, yordamechi va himoyachi vazifalarini bajaradi. Biznes bilan shug'ullanuvchilar tadbirkorlik xavfini sug'urtalash natijasida mulkiy manfaatlar natijasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklarni xal qilishda ko'makdosh sanaladi. Fuqarolik kodeksining 917-moddasida «Mol-mulkni sug'urta qilish» shartnomalari va shartlari yozilgan ya'ni, mol-mulk uning asralishidan qonun hujjatlariga yoki shartnomaga asoslangan manfaatga ega bo'lgan shaxs (sug'urta qildiruvchi yoki naf oluvchi) foydasiga, uning mulkdori, mol mulkka nisbatan boshqa ashyoviy huquqqa ega bo'lgan shaxs, ijarachi, pudratchi, saqlovchi, vositachi va boshqa shu kabilar foydasiga sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalanishi mumkin. Bundan ko'rinish turibdiki mol-mulkni sug'urta qilish ixtiyoriy. Bu bilan tadbirkor mol-mulkini sug'urtalashi mumkin. Sug'urtalangan mol-mulkning asralishidan sug'urta qildiruvchida va naf oluvchida manfaat bo'lmagan paytda tuzilgan mol-mulkni sug'urta qilish shartnomasi haqiqiy emas deb xisoblanadi. Naf oluvchi foydasiga mol-mulkni sug'urta qilish shartnomasi naf oluvchining ismi yoki nomi ko'rsatilmasdan tuzilishi mumkin. Bunday shartnoma tuzilganda sug'urta qildiruvchiga egasining nomi ko'rsatilmagan polis beriladi. Bunday shartnoma bo'yicha huquqlarni amalga oshirishda bu polisni sug'urtalovchiga taqdim etish zarur xisoblanadi va bu qonunlarda ko'rsatilgan tartibda o'z echimini topadi. Ushbu kodeksning 919-moddasida "Shartnoma bo'yicha javobgarlikni sug'urta qilish" to'g'risida bayon etilgan. Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfini sug'urta qilishga qonunda nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi. Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha faqat sug'urta qildiruvchining o'zining javobgarlik xavfi sug'urtalanishi mumkin. Ushbu talabga muvofiq bo'lmagan sug'urta shartnomasi o'z-o'zidan haqiqiy emas deb hisoblanadi. O'z navbatida shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfi, bu shartnoma shartlariga ko'ra

sug'urta qildiruvchi qaysi taraf oldida tegishli javobgarlikni zammatisiga olishi lozim bo'lsa, o'sha taraf naf oluvchi foydasiga, hatto sug'urta shartnomasi boshqa shaxs foydasiga tuzilgan yoxud unda kimning foydasiga tuzilgani aytilmagan taqdirda ham, sug'urtalangan hisoblanadi. Fuqaroli kodeksining 920-moddasida "Tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish" to'g'risida bayon etilgan. Ushbu moddada tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha faqat sug'urta qildiruvchining o'z tadbirkorlik xavfi va faqat uning foydasiga sug'urtalanishi mumkin deb ta'kidlab o'tilgan. Sug'urta qildiruvchi bo'lmagan shaxsning tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi o'z-o'zidan haqiqiy emas. Chunki tadbirkorlik bilan shug'ullanmaydigan sug'urta qildiruvchida sug'urta qilinadigan xavf xatarning o'zi bo'lmaydi. Sug'urta qildiruvchi bo'lmagan shaxsning foydasiga tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi sug'urta qildiruvchi foydasiga tuzilgan hisoblanadi. Bu modda sug'urta sohasidagi tovlamachiliklarni oldini oladi. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 mayda qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni ham biznesni sug'urtalashga asos bo'lib hizmat qiluvchi qonunlardan biri bo'lib sanaladi. Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi qonunning 15-moddasi tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarini kreditlash va sug'urta qilishga bag'ishlangan. Tadbirkorlik faoliyati sub'ektiga kredit berilayotganda bank muassasalari, boshqa kredit yoki sug'urta tashkilotlari kafil bo'lishlari mumkin. To'lovga qobiliyatli yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kafil bo'lishlari mumkin. Tadbirkorlik faoliyati sub'ekti kredit shartnomalari bo'yicha majburiyatlarni ta'minlash tariqasida o'z mol-mulkidan, shu jumladan, ashyolari va mulkiy huquqlaridan, shuningdek o'zi olgan kreditni to'lay olmaslik xavfi sug'urtasi to'g'risidagi sug'urta polisidan foydalanishi mumkin. Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarini sug'urta qilish sug'urta tashkilotlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

"Sug'urta xizmatlari bozorini bundan-buyongi isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2007 yil 10 apreldagi Prezident qaroriga ilova sifatida tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini 2007-2010 yillarda isloh qilish va rivojlantirish dasturida tadbirkorlik sohasi bilan bog'liq sug'urta turlari sifatida ko'zlangan foydani ololmaslik sug'urtasi, loyihalashtirishdagi xatoliklarni sug'urtalash, bankrotlikdan sug'urtalash, eksport bilan bog'liq sug'urta turlari, ko'zda tutilmagan xarajatlar sug'urtasi, sud xarajatlari sug'urtasi, professional javobgarlik sug'urtasi kabi sug'urta

turlarini rivojlantirish va shu maqsadda tadbirkorlik risklarini sug'urtalashning namunaviy qoidalarini ishlab chiqish. biznes sohasi uchun sug'urta xizmatlarini taqdim qilishning yagona talab va standartlarini belgilash masalalari ko'zda tutilgan edi. Ushbu ko'zda tutilgan vazifalar asosan bajarildi va bu bilan tadbirkorlik faoliyatini sug'urta xizmatlari bilan ta'minlashning me'yoriy-huquqiy jihatlari takomillashirildi. 2008-2013 yillarda sug'urta bozorini rivojlantirishga oid qonunlar amalga oshirildi. xususan, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining Buyrug'i asosida "Biznes sohasi uchun sug'urta xizmatlari ko'rsatishning yagona talablari va standartlari to'g'risida"gi Nizomi qabul qilingan. Bu nizom o'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009 yil 28 yanvarda 1891-sonli raqam bilan ro'yxatdan o'tgan. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi PQ-618-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 15-son, 158-modda) muvofiq biznes sohasi uchun sug'urta xizmatlari ko'rsatishning yagona talablari va standartlarini belgilaydi. Ushbu Nizom biznes sohasi uchun sug'urta xizmatlarini ko'rsatish deganda tadbirkorlik xavflarini sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta himoyasini taqdim etish tushuniladi. Mazkur Nizom bilan belgilangan yagona talablar biznes sohasi uchun sug'urta xizmatlarini taqdim etayotgan sug'urtalovchilar uchun majburiydir. Biznes sohasi uchun sug'urta xizmatlari ko'rsatishning standartlari standart tushunchalar va sug'urta xizmatlari ko'rsatishning standart shartlaridan iboratdir. Sug'urta xizmatlari ko'rsatishning standartlari, agar qonun hujjatlarida yoki sug'urta shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, biznes sohasi uchun sug'urta xizmatlarini ko'rsatishda qo'llaniladi. Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urtalovchi iste'molchiga (tadbirkorlik xavfini sug'urtalash shartnomasini tuzmoqchi bo'lgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorga) quyidagilar haqida haqqoniy va to'liq axborotni taqdim etishi shart: a) sug'urtalovchi haqida (oshkora axborotni); b) sug'urtalovchi nomidan va topshirig'iga binoan faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta vositachilari (sug'urta agentlari) haqida (agar iste'molchi tomonidan bunday talab mavjud bo'lgan taqdirda); v) sug'urta xizmati, ya'ni uning narxi (sug'urta mukofoti), qoplamasi, shartlari, xizmatning maqsadlari, tavakkalchilik omillari, kafolatlar, maxsus istisnolari haqida; g) sug'urta xizmatining iste'molchi uchun afzalliklari va kamchiliklari haqida; d)sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchining majburiyatlari haqida; e)sug'urta mukofotlari va mablag'larning kutilayotgan qaytarilishi haqida; j)sug'urta da'volarini hal etish tartibi va

sug'urta shartnomasining boshqa shartlari haqida. Sug'urtalovchi taqdim etayotgan axborot barcha muhim shartlar bo'yicha aniq va ravshan, yanglishtirmaydigan, oson tushuniladigan va yozma shaklda yoki tegishli elektron tashuvchilarda bo'lishi shart. Sug'urtalovchi: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq bo'lgan sug'urta xizmatlari va taqdim etishi, sug'urta xizmatlarini, hatto ular amalga oshirilishining o'ziga xos shartlariga ega bo'lgan holatlarda ham, mazkur Nizomning talablariga muvofiq ko'rsatishi; o'z xodimlarining barcha ishlarini qonun hujjatlariga muvofiqligini ta'minlashi; ko'rsatilayotgan xizmatlar haqida to'liq ma'lumot, shuningdek sug'urta shartlaridagi o'zgarishlar haqida o'z vaqtida axborot taqdim etishi; iste'molchining talablariga aynan mos keluvchi sug'urta xizmatlarini tanlashga yordam berishi; sug'urta hodisasi yuz berganda, sug'urta tovonni o'z vaqtida to'lanishini ta'minlashi; o'z ishidagi xatolarni so'zsiz tuzatishi hamda sug'urta qildiruvchilarning shikoyatlarini ko'rib chiqishi shart. Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 929-moddasida nazarda tutilgan sug'urta shartnomasining muhim shartlari bo'yicha kelishuvga erishilishi hamda ular sug'urta shartnomasida aniq va ravshan bayon etilishi shart. Sug'urta shartnomasi yanglishtiruvchi tasvirlovchi harakatlar yoki ta'riflardan holi bo'lishi shart. Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urtalovchi qonun hujjatlarida va/yoki umum qabul qilingan amaliyotda nazarda tutilgan sug'urta qildiruvchi oldidagi qaysidir majburiyatini yoki javobgarligini istisno qilish yoki cheklashga intilib, qaysidir me'yorni asossiz ravishda dalil qilib ko'rsatishga haqli emas. Agar sug'urta shartnomasi sug'urtalovchining qaysidir savollariga sug'urta qildiruvchining javoblari bo'lmagan holda tuzilgan bo'lsa, sug'urtalovchi tegishli holatlar sug'urta qildiruvchi tomonidan ma'lum qilinmaganligiga asoslanib keyinchalik shartnomani bekor qilishni yoxud uni haqiqiy emas deb topishni talab qila olmaydi.

Sug'urtalovchilar sug'urta da'volarini ko'rib chiqish va hal etish tizimini yaratishlari va qo'llab-quvvatlashlari shart. Sug'urtalovchilar sug'urta da'volarini o'z vaqtida va odilona hal etishlari shart. Sug'urta da'volarini samarali va tez hal etish mumkin bo'lgan sug'urta da'volarini va nizolarni hal etishning sodda va ob'ektiv jarayoni mavjud bo'lishi lozim. Ushbu jarayon aniq va oson tushuniladigan bo'lishi lozim. Sug'urtalovchi sug'urta da'volarini ko'rib chiqishning muqobil mexanizmi sifatida o'zidan mustaqil bo'lgan tashkilotga (masalan, Assistans xizmati yoki adjasterlarga) murojaat qilishga haqli. Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan voqea sodir

bo'lganligi to'g'risida xabarni va ushbu voqeaga aloqador hujjatlarni olgandan keyin uch bank kuni bo'lgan muddatdan kechiktirmay etkazilgan zararlarning sabablari va miqdorlarini aniqlash uchun ahamiyatga ega bo'lgan qo'shimcha hujjatlarni so'rashga haqli. Agar sug'urtalovchi voqeani sug'urta hodisasi deb tan olsa, u sug'urta hodisasi to'g'risida dalolatnoma tuzishi, unda sug'urtalovchi tomonidan sug'urta qildiruvchiga to'lashi lozim bo'lgan sug'urta tovonining miqdorini ko'rsatishi va sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma tuzilgan kundan boshlab besh bank kuni bo'lgan muddatdan kechiktirmay sug'urta tovonini to'lashi shart. Voqea sug'urta hodisasi deb tan olinmasa, sug'urta qildiruvchi zararlarni qoplash talabi bilan murojaat etgan kundan boshlab o'n besh kun bo'lgan muddatdan kechiktirmay sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchiga rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini o'z ichiga olgan xabarnomani yo'llashi shart. Sug'urta shartnomasi sug'urta qildiruvchining quyidagi hujjatlar ilova qilingan yozma arizasi asosida tuziladi: a) sug'urta qildiruvchi faoliyatining qonuniyligini belgilaydigan hujjatlar; b) sug'urta himoyasi so'ralayotgan kontrakt nusxasi; v) sug'urtalovchiga tavakkalchilik darajasini baholashga imkon beruvchi boshqa hujjatlar. Sug'urtalovchi taqdim etilgan hujjatlar asosida sug'urta shartnomasini tuzish imkoniyati to'g'risidagi qaror qabul qiladi. Sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchi tomonidan xabar qilingan, sug'urta shartnomasiga aloqador ma'lumotlarni tekshirishga haqli. Xususan, sug'urtalovchi yoki uning vakillari sug'urta qildiruvchining kontragenti bilan kontrakt munosabatlariga aloqador hujjatlarni yoki ularning nusxalarini tekshirish huquqiga ega. Sug'urta shartnomasi tuzilgandan so'ng ariza uning ajralmas qismi hisoblanadi. Bir yil davomida amalda bo'ladigan bir nechta kontraktlarga nisbatan Bosh sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urta mukofotlarini tegishli kontraktlar sug'urtalashga qabul qilinishi bilan to'lashga yo'l qo'yiladi. Bosh sug'urta shartnomasi quyidagi shartlarga amal qilinganda tuzilishi mumkin: a) kontraktlar bir xil turda bo'lishi lozim; b) kontragentlar tarkibi bosh sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan muddatda doimiy bo'lishi va uni tuzishdan oldin sug'urtalovchiga ma'lum bo'lishi lozim. Sug'urta qildiruvchining talabiga binoan sug'urtalovchi bosh sug'urta shartnomasining ta'sir doirasida bo'ladigan alohida kontraktlar bo'yicha sug'urta polislarini berishi shart. Sug'urta polisining mazmuni Bosh sug'urta shartnomasiga nomuvofiq bo'lgan taqdirda, sug'urta polisi afzal ko'riladi. Tavakkalchilik darajasi o'zgariganda qoplanayotgan tavakkalchiliklarning tavsifidan kelib chiqib, sug'urtalovchi maxsus ishlab chiqilgan tariflarni qo'llashga haqli Sug'urtalovchidan sug'urta



tovoni talab etilganda sug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasi sodir bo'lganligini va zararining miqdorini tasdiqlovchi hujjatlarni yoki ularning nusxalarini, yoki boshqa dalillarni hamda voqeaning sodir bo'lish sabablaridan kelib chiqib boshqa hujjatlarni taqdim etadi. Sug'urta tovonining miqdorini aniqlashda arizada ko'rsatilgan daromadni olish uchun sug'urta qildiruvchi ko'rgan chora-tadbirlari va shu maqsadda amalga oshirgan tayyorgarliklarini tasdiqlovchi hujjatlar sug'urtalovchi tomonidan inobatga olinadi va o'rganib chiqiladi (sug'urta qildiruvchi tomonidan tovarlar, uskunalar etkazib berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish bo'yicha tuzilgan shartnomalari (kontraktlari), yangi uskunalarni o'rnatish bo'yicha tayyorgarlik ishlarini olib borilishi va boshqa shu kabi dalillar. Agar sug'urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar voqeani sug'urta hodisasi deb tan olish to'g'risida qaror qabul qilish uchun etarli bo'lmasa, sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchidan tushuntirishlar va tegishli qo'shimcha hujjatlarni (buxgalteriya, bank hujjatlarini), shu jumladan dalolatnomalar hamda auditorlik va baholovchi tashkilotlarning xulosalarini so'rashga, zarur hollarda esa, sodir bo'lgan voqeaning tafsilotlari, sug'urta qildiruvchining ololmagan daromadlarni sabablari va miqdorini ekspert baholash uchun mutaxassislarni jalb qilishga, shuningdek sodir bo'lgan voqeaning tafsilotlarini va zararining miqdorini aniqlash bo'yicha boshqa harakatlarni amalga oshirishga haqli. Sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda tegishli ravishda jo'natilgan tovarlar uchun sug'urtalovchi tomonidan zararni qoplash bo'yicha talablar zarar yuz bergan paytdan boshlab uch yil mobaynida qabul qilinadi.

Sug'urta qildiruvchi zararni keltirib chiqargan voqeaning sodir bo'lganligi haqida xabar qilganda, sug'urtalovchi sug'urta da'vosini ko'rib chiqish va sodir bo'lgan voqeaning turi, sabablari va tafsilotlarini batafsil o'rganib chiqish uchun o'z xodimini yoki boshqa shaxsni yuborishga haqli. Sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchining vakiliga sodir bo'lgan voqeaning turi, sabablari va tafsilotlarini o'rganib chiqish imkoniyatini ta'minlashi yoki zararni keltirib chiqargan voqea sodir bo'lganligini tasdiqlovchi video-fotomateriallarni va boshqa hujjatlarni taqdim etishi lozim. Sug'urta hodisasining sodir bo'lishi munosabati bilan jinoyiy ish, fuqarolik sud ishi yoki ma'muriy jazolar qo'llash haqida ish qo'zg'atilgan bo'lsa, sug'urtalovchi tegishli summalarni to'lash to'g'risidagi qarorning qabul qilinishini mutasaddi idoralar tomonidan tegishli qaror qabul qilingunga qadar kechiktirishga haqli. Sodir bo'lgan voqea, zararlar hajmi va sug'urta tovonni miqdori bo'yicha tomonlar o'rtasida kelishmovchiliklar bo'lmasa, sug'urtalovchi to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta

tovoni miqdori ko'rsatilgan sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnomani (sug'urta dalolatnomasini) tuzadi. Bu biznes egalarini sug'urta bilan bo'ladigan munosabatlarni tartibga soluvchi muxim ahamiyat kasb etadi. Sug'urta xizmatlari iste'molchilarining manfaatlarini himoyalash, ya'ni sug'urta munosabatlarida ular uchun adolati sharoitlarni ta'minlash, sug'urtalovchilar tomonidan ular huquqlarining buzilish holatlarini kamaytirish yuzasidan davlat xamisha qayg'uradi. Qayta sug'urtalovchilar huquqlarini himoyalash maqsadida sug'urtalovchilarning to'lov kobilyatini, ular faoliyatining qonuniyligini nazorat qilish yo'li bilan qayta sug'urta faoliyati davlat tomonidan tartibga solinishi muhimdir.

### **1.3 Sug'urta tashkilotlarida biznes jarayonini tashkil etilishi**

O'zbekiston sug'urta bozori Markaziy Osiyoda eng tezkor sur'atlar bilan rivojlanayotgan bozorlardan biri hisoblanadi. Bozor bir necha yildan beri barqaror o'sishi sur'atiga ega bo'lib kelmoqda, bu esa o'z navbatida uning mamlakat iqtisodiyotidagi rolini oshirib bormoqda. Ma'lumki, mamlakat moliya sektorining, shu jumladan, sug'urta sohasining rivoji mamlakatning unumiqtisodiy ahvoli bilan chambarchas bog'langan. Sug'urta sohasi mamlakat iqtisodiyotining rivoji bilan uzviy bog'liqligi sababli, ushbu soha biznesni sug'urtalash mamlakatdagi unumiqtisodiy o'zgarishlarga juda tez ta'sirchan hisoblanadi. O'zbekistonning hozirgi zamon iqtisodiyotida biznesni sug'urtalash tizimi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Buning boisi sug'urta tizimining davlat siyosati darajasiga kutarganligi, sug'urta bozorining davlat boshqaruvi idoralari (organlari) tomonidan mamlakatning bozor infratuzilmasining ajralmas qismlaridan biri sifatida ko'rib chiqilayotganligidadir. Undan tashqari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka katta e'tibor berilayotganligi va ishlab chiqarishning uzliksizligini ta'minlashga qaratilayotgan keng ko'lamdagi tadbirlarda ham ko'rishimiz mumkin.

So'nggi yillarda biznesni sug'urtalashning rivojlanishi asosan sug'urtalovchilar soni jadal sur'atlarda ko'payishi va biznesni sug'urtalashdan tushgan sug'urta mukofoti hajmi ancha oshishi bilan tavsiflanadi. O'zbekistonda sug'urta bozorining rivojlanishi davlat miqyosida ijtimoiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralgan bo'lib, mavjud shart-sharoitlar, milliy sug'urta an'analari va madaniyati hisobga olingan xolda isloh etilgan va milliy sug'urta bozori tashkil topishi va shakllanishi sekin - astalik bilan tubdan o'zgarib borgan va bir nechta bosqichlarni bosib o'tgan.

Respublikamiz sug'urta bozori isloh etilishini birinchi bosqichi (1991-1996 yillar) sug'urta bozoriga xususiy sug'urta kompaniyalarni kirib kelishi va Davlat sug'urtasini transformatsiyasi jarayoni boshlanishi bilan bog'liq bo'lib, shakllanayotgan tadbirkorlikning huquqiy bazasi bilan qo'llab-quvvatlangan.

Ikkinchi bosqich (1997-2002 yillar) ni bugungi kunda peshqadam bo'lgan sug'urta bozorining asosiy ishtirokchilari shakllangan bosqich deb atasak mubolag'a bo'lmaydi. Bu bosqichda, hukumatimiz rahnamoligida bozor iqtisodiyoti sharoitiga xos yirik sug'urta kompaniyalari tashkil etildi. Bu bosqichni O'zbekistonda sug'urta faoliyatini Davlat tomonidan nazorat qilishni shakllanishi bosqichi deb xam atash mumkin. O'zbekiston sug'urta bozori shakllanib, rivojlanishining uchinchi bosqichi 2002 yil boshida "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi bilan boshlanib bugungi kunda ham davom etmoqda. Bu bosqichda bir qator sug'urta agentlari faoliyatini, sug'urtalovchilarning aktivlari va majburiyatlarini tartibga soluvchi, sug'urtalovchining rahbariga va bosh buxgalteriga bo'lgan malaka talablari me'yorlari, sug'urta tashkilotlari tomonidan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarini shakllantirishning o'ziga xos hususiyatlari borasidagi, sug'urtalovchilarning alohida sug'urta tavakkalchiliklari bo'yicha majburiyatlari, jami majburiyatlarning yo'l qo'yiladigan eng ko'p xajmi va to'lov qobiliyati me'yorlarini aniqlashni tartibga soluvchi me'yoriyhuquqiy xujjatlar qayta ishlandi va yangilari qabul qilindi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan biznesni sug'urtalash tizimi shakllandi va uning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratildi. Endilikda biznesni sug'urtalashda sug'urta bozorining professional qatnashchilari erkin sharoitda bozorda o'z mavqeini egallash uchun har doimgidan faolroq harakat qila boshladilar.

Sug'urtasi biznesi mamlakatimizdagi hali yaxshi rivojlanmagan, lekin sug'urta istiqbolli tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tarmoqdagi ahvol ko'p jihatdan milliy iqtisodiyotda va jamiyatda biznesning rivojlanganlik darajasiga bog'lidir. Hozirgi kunda mamlakatimizda sug'urta bozori, xususan biznes sug'urtasi bozoridagi asosiy muammo- talabning etishmasligidir. Respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish uchun tadbirkorlarga byudjetdan tashqari fondlar va tijorat banklarining imtiyozli kreditlari hamda chet el kredit liniyalari va xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari ajratilmoqda. O'z o'rnida bu mablag'larning sug'urtaviy kafolatini ta'minlash zarurati hosil bo'lmoqda. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta tariflarini ishlab chiqish va zaxiralarini shakllantirishda aktuar hisobkitoblarning zamonaviy uslublaridan foydalanish qoniqarsizdir. Hali

yosh tarmoq bo'lganligi sababli, bu sohada ishlovchi zamonaviy bilim va etarli darajada malakali mutaxassislarning etishmovchiligi ham sezilib turadi. Tajribali mutaxassislarning tanqisligi biznes sug'urtasi mahsulotini yaratishdan boshlab, uni sug'urtalanuvchilarga etkazishgacha va undan keyinga jarayonlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Sug'urta bozori professional ishtirokchilar assotsiatsiyasi o'tkazgan tadqiqotlariga ko'ra, sug'urta kompaniyalarda kuyidagi mutaxassislarga talab yuqori: sug'urta agentlariga, anderrayerlarga, hamda sug'urta ekspertlariga. Shuni ham ta'kidlash joizki, sug'urta biznes buyicha mutaxassislarga talab eng yuqori darajada, undan so'ng qayta sug'urtalash va javobgarlik sug'urtasi mutaxassislari turadi. Hozirgi vaqtda respublikamizda sug'urta biznesi, MDHning barcha respublikalaridagi kabi, bozor tamoyillariga o'tish bosqichidadir. Shuni aytish mumkinki, sug'urta biznesi mahalliy ixtisoslashgan sug'urta kompaniyalarining sug'urta portfelida munosib o'rinni egallashi va ular to'plangan xalqaro va mahalliy tajribalarni hisobga olgan holda o'z faoliyatini jadallashirishlari lozim. O'zbekiston sug'urta bozorida biznes sug'urtasi vazifalari, bir shaxs tomonidan emas balki sug'urta agenti, sug'urta brokeri, sug'urta syurveyeri hamda adjaster kabi sug'urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan yoki sug'urta kompaniyalarining professional bilim va malakaga ega bo'lgan xodimlari tomonidan bajarilmoqda. Qaltisliklarni sug'urtaga qabul qilish jarayoni metodik ta'minlanmaganlik va sug'urta bozori rivojlanib borayotgan bir paytda sug'urta kompaniyalarining biznes sug'urtasi turlari bo'yicha sifatli sug'urta mahsulotlarini amalga oshirilishiga bo'lgan talablari kuchayib bormoqda. O'zbekiston sug'urta bozoridagi raqobat, sug'urta kompaniyalari oldiga yangi pog'onadagi masalalarni qo'ymokda: qanday qilib mijozlarni ushlab qolish, qanday qilib sug'urta xizmatlari sifatini oshirish va biznes sug'urtasi rentabelligini kerakli darajasini saqlab qolish. Bungi kunda sug'urta kompaniyalari asosan majburiy sug'urta turi bilan shug'ullanib qolayotgani hech kimga sir emas. Bozor iqtisodiyoti sharoitida biznes sug'urtasi tadbirkor va biznesmenlarni ish faoliyatini sug'urtalashda amaliy ko'makchi bo'lishi lozimdir. Agar sug'urta kompaniyalari biznes sug'urtasi mahsulotining qanchalik foyda berishini o'z mijozlariga etkaza olishsa, bu ularning eng ommabob sug'urta mahsulotiga aylanishi aniq. Respublika bo'yicha sug'urta xizmatlari ko'rsatish qamrovi yildan-yilga sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu esa, sug'urta kompaniyalarining sug'urta bozorida sug'urta mahsulotlarini taklif qilishi va mijozlarga sifatli sug'urta xizmatlari ko'rsatishi yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi. Rejali iqtisodiyot davrida korxonalarining aksariyati davlat



tasarrufida bo'lganligi va bu xususiy mulkchilik rivojlanishiga to'sqinlik qilganligi, keyinchalik mulklarni davlat tasarrufidan chiqarilishi korxonalarining biznes sug'urtasiga ya'ni himoyaga ehtiyoji borligini ko'rsatib berdi. Oxirgi yillar davomida tadbirkorlarning sug'urtaga bo'lgan munosabatlari tobora yaxshilanib, fuqarolarning sug'urtalovchilarga bo'lgan ishonchi ortib, sug'urta ishiga jiddiy yondoshilmoqda.

So'ngi yillarda sug'urta biznesi bo'yicha qabul qilingan qonunlar barcha sug'urta kompaniyalarda o'zlarining yangi sug'urta turi bo'yicha sug'urta mahsulotlarini kengaytirish ustida ish olib borishlariga turtki bo'ldi. Buning natijasida respublikamizning barcha hududlarida agentlik tarmoqlarini moddiy texnika bazalari mustahkamlandi va mutaxassislar tayyorlandi.

Sug'urta bozorida sug'urtasi biznesini xarakterlovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri, shubhasiz yil davomida sug'urtalovchilar tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlarining hajmi hisoblanadi. Sug'urta bozorida sug'urta biznesining kengayish hajmini, shuningdek rivojlanish darajasini kuzatish uchun sug'urta mukofotlari hajmi va tarkibi bilan bog'liq ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi turli nodavlat mulkchilik shakllari va xususiy manfaatdorlik tushunchalari rivojlanib, sug'urta biznesining ahamiyatini tobora oshirib, ularga bo'lgan ehtiyoj va talabning ortishiga olib kelmoqda. Tahlillarga ko'ra, respublikamiz bo'yicha biznesni sug'urtalash xizmatlari ko'rsatilishi qamrovi oxirgi besh yilda sezilarli darajada oshgan. Bu holat sug'urta kompaniyalarni sug'urta bozorida biznes sug'urtasi mahsulotlarini taklif qilishi va mijozlarga sifatli sug'urta xizmatlari ko'rsatilishi yaxshilanib, biznes sug'urtasi asta sekin rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi. Bugungi kunda mamlakatimiz sug'urta bozorining keskin sur'atlar bilan rivojlanib borishiga guvoh bo'lmoqdamiz. Buni hukumatimiz tomonidan sug'urta sohasini rivojlantirishga qaratilgan alohida e'tibor tufayli deyish mumkin.

Sug'urta faoliyatini yanada takomillashtirish dasturi doirasida hukumat miqyosida sohaga oid bir nechta qonun va qator me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, sug'urta bozori ishtirokchilariga faoliyatlarini yanada rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratilib berildi. Shu bilan birga, jahon sug'urta bozori bosib o'tgan yo'l va O'zbekiston sug'urta bozorida to'plangan tajribaga asoslanib doimiy tarzda qonunchilik hujjatlari takomillashtirib borilmoqda. O'z navbatida, sug'urta tashkilotlari ham bunday e'tiborga javoban respublika ijtimoiy-iqtisodiy hayotini barqarorlashtirishda va tadbirkorlarning ishlash farovonligini yanada oshirishda o'zlarining munosib ulushini qo'shib kelmokda.

Biznesni sug'urtalash turlaridan baxtsiz hodisalardan sug'urtalash, ishlab chiqarish imoratlari va mol-mulkini sug'urtalash, transport vositalari sug'urtasi, garovga qo'yilgan mulkni sug'urtalash, ipoteka sug'urtasi, lizinga berilgan mulk sug'urtasi, moliyaviy tavakkalchiliklarda sug'urtalash kabi qator sug'urta turlari bilan aholiga xizmat ko'rsatilmoqda.

Tadbirkorlar bilan ishlashni faollashtirish va mazkur sug'urta turlarini rivojlantirish borasida bir qator rejali chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lib, bular qatoriga kompaniyada mazkur segmentga oid reklama ishlarini kuchaytirish, ommaviy axborot vositalarida reklama roliklarini joylashtirish, kompaniya tomonidan tadbirkorlarga ko'rsatiladigan sug'urta turlari bo'yicha tahliliy materiallar tayyorlash va chop etib borish, sug'urta agentlarining bevosita tadbirkorlar bilan joylarda ishlarini takomillashtirish maqsadida har bir filial va bo'linmalarda plastik kartochkalar orqali hisob-kitob qilish uchun simsiz ishlaydigan terminal bilan ta'minlashni bosqichma-bosqich amalga oshirishni kiritish mumkin.

Sug'urta kompaniyalari tomonidan ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlarida imtiyozlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sug'urta bozorini rivojlantirish hamda yuridik va jismoniy shaxslarning biznesini sug'urtalashda keng qatnashishini rag'batlantirish uchun mol-mulkni va hayotni uzoq muddatga sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlari soliqqa tortilmasligi, ko'rilgan zararlar bo'yicha kompaniya tomonidan to'langan mablag'lar soliqqa tortilmasligi, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urta mukofotini hisoblashda bir qator sug'urta qildiruvchilarga sug'urta mukofoti summasining 50 foizi miqdorida siylov berilishi ko'zda tutilgan.

#### **Nazorat savollari:**

1. Sug'urta biznesi deganda nimani tushunasiz.
2. Sug'urta biznesining huquqiy asoslarini tushuntirib bering.
3. Sug'urta tashkilotlarida biznes jarayonini tashkil etish asoslarinin aytib bering.
4. Sug'urta tashkilotining biznes jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni tushuntirib bering.



## II BOB. SUG'URTA BIZNESINI SUG'URTA FAOLIYATI BO'YICHA TURKUMLANISHI

### 2.1 Sug'urta biznesini sug'urta faoliyati bo'yicha turkumlash

Sug'urta biznesi iqtisodiy infratuzilmaning ajralmas qismi sifatida bir tomondan, ijtimoiy kafolatni ta'minlansa, ikkinchi tomondan, shartnomaviy majburiyat va tariflar mexanizmi orqali turli sug'urta risklaridan ogoh etish negizida iqtisodiyot sub'yektlari manfaatlarining himoyasini ham o'z zimmasiga oladi. Sug'urta biznesini sug'urta faoliyati bo'yicha rivojlantirish zarurati uning quyidagi xususiyatlariga egaligi bilan asoslash mumkin:

- bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday munosabatlarda xavf-xatar, tavakkalchilik va qaltisliklarning mavjudligi.

- sug'urta tashkilotlarining xo'jalik sub'yektlarini favqulodda yuz bergan hodisalar oqibatida yetgan zararlardan himoyalash, ya'ni favqulodda holat natijasida korxonaning faoliyati to'xtab qolmasligi va davom ettirilishini ta'minlashi;

- mamlakat iqtisodiyotiga katta miqdordagi investitsiyalarni kiritilishi munosabati bilan ularni sug'urtalash zaruriyatining kelib chiqishi;

- hayot sug'urtasi orqali aholining ijtimoiy-iqtisodiy himoyasini bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida ta'minlashi;

- mamlakat umumiy iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanishi va boshqalar.


O'zbekiston Respublikasi sug'urta xizmatlari bozorida keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish turli mulkchilik shaklidagi sug'urta tashkilotlarining vujudga kelishi bilan bir qatorda yangi sug'urta xizmatlarini yo'lga qo'yilishiga qulay shart-sharoit yaratdi.

Sug'urta biznesi mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiy munosabatlar tizimida muhim o'rin tutadi. U moliya, kredit kabi iqtisodiy kategoriyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Moliya yalpi ichki mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida vujudga keladigan maqsadli pul fondlarini shakllanishi va undan foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlarini ifodalasa, kredit – aholi, korxonalar va tashkilotlar ixtiyorida vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni jalb etish va undan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir. Sug'urta oldindan ko'rib bo'lmaydigan tabiiy, stixiyali hodisalar ro'y berishi natijasida ko'riladigan zararlarni qoplash bilan bog'liq maqsadli pul fondlarini shakllanishi va undan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq sug'urta quyidagi sohalarga ajratilgan, ya'ni:

- hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'filgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi);

- umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari).



**1-rasm. Sug'urta biznesini sug'urta faoliyati bo'yicha turkumlash<sup>4</sup>**

Sug'urta biznesida ikkita yo'nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Bevosita "sug'urta" deyilganda ko'z oldimizga har xil risklar keladi, shunday ekan bu yo'nalishlarning ham asosiy vazifasi risklarni oldini olish hisoblanadi. Hayot sug'urtasi bo'yicha biznes jarayonlarining yuzaga kelishi shaxsiy sug'urta tarmog'ining asosini tashkil etib, mazkur sug'urta orqali insonning hayoti uning vafot etishidan, ma'lum yoshga etishidan, kasallikdan, baxtsiz hodisadan, inson hayotidagi muhim voqealar hisoblanuvchi farzand tug'ilishi, nikohga kirishish va boshqa holatlar natijasida yuzaga keladigan moddiy manfaatlar tomonlar o'rtasida ixtiyoriylik asosida tuzilgan sug'urta shartnomasida kelishilgan sug'urta summasi doirasida sug'urtalovchi tomonidan qoplab berilishidan iborat sug'urta faoliyati bo'lib xizmat qiladi.

Hayot sug'urta kompaniyalari faoliyatining olib borilishi hamda hayot sug'urtasidan samarali foydalanish yo'llarini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, hozirgi paytda sug'urta

<sup>4</sup>Muallif ishlanmasi

kompaniyalari jahondagi har bir davlatning eng muhim moliyaviy institutlaridan biri hisoblanadi. Uning samarali faoliyat ko'rsatishi iqtisodiy o'sishning sifatiga, ijtimoiy farovonlikning darajasiga, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va milliy iqtisodiyorda investitsion faoliyatni rivojlantirish masalalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shuning uchun ham sug'urta biznesini rivojlantirish uchun avvalo, hayot va umumiy sug'urta tarmog'iga katta e'tibor qaratish lozim.

Ma'lumki, sug'urta biznesida sug'urta kompaniyasi belgilangan to'lov (sug'urta mukofoti) evaziga o'z nujozining risklarini qabul qiladi. Sug'urta kompaniyasi mijoz o'zida saqlab tara olmaydigan risklarni sug'urtaga qabul qiladi, chunki u risklarni umumlashtirish prinsipidan foydalanadi. Misol tariqasida bir yil muddatga vafot etishdan sug'urtalashni olib qaraydigan bo'lsak, sug'urta kompaniyasi biladiki, sug'urtalanganlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, ularga nisbatan sug'urta davri mobaynida vafot etadiganlar soni kam bo'ladi. Bunday natijani har qanday odam ham va ehtimollar nazariyasi qonuniyati ham tasdiqlaydi. Bu sug'urtalanuvchidan kam miqdordagi sug'urta mukofotini olish bilan katta javobgarlikni zimmaga olish imkoniyatini beradi. Demak, hayot sug'urtasiga nisbatan kutiladiga talab bevosita sug'urta shartnomasini rasmiylashtirish tomon yetaklaydi. Hayot sug'urtasi shartnomalarining asosiy turlari boshqalaridan ko'ra muhim mezonlar va xususiyatlarini (komponentlarini) ochib berib, turli xil hayot sug'urtasi shartnomalarining yo'nalishlarini aniqlab olib, sug'urta bozorida ko'p ishlatiladigan sug'urta shartnomalari majmualarini yaratish mumkin. Hayot sug'urtasi amaliyotida sug'urta polislarining muhim ahamiyatga ega bo'lgan uchta bazaviy turini ajratish mumkin:

- tezkor hayot sug'urtasi - aniq muddatga vafot etishdan sug'urta qilish. Sug'urta kompaniyasi sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan mukofotni sug'urta hodisasi qachon yuz berishidan qat'iy nazar, shartnoma muddatida yuzaga kelgan bo'lsa to'lab berishi shart;

- umrbod hayot sug'urtasi - shaxs hayotini umrining oxirigacha shartnoma tuzilgan vaqtdan boshlab sug'urta qilishi tushuniladi. Sug'urta kompaniyasi sug'urta shartnomasi tuzilgan vaqtdan boshlab sug'urta hodisasi yuzaga kelganda sug'urta summasini to'lab berishga majburdir;

- aralash hayot sug'urtasi - shaxsni ma'lum muddatga ham o'lim ham qolgan umrini sug'urta qilish hisoblanadi. Sug'urta kompaniyasi shartnoma amal qilib turgan muddatda o'lim hodisasi yuz berganda yoki shartnoma

muddati tugagan vaqtda sug'urtalanuvchi hayot bo'lsa shartnomada ko'rsatib o'tilgan sug'urta summasini to'lab berishi shart.

Hayotni uzoq muddatga sug'urta qilish shakli – bu sug'urtalangan shaxsning butun umri davomida vafot etishidan sug'urtalash bo'lib, bunda sug'urta hodisasi qayerda va qachon yuz berishi hech qanday rol o'ynamaydi. Shartnomada sug'urtalanuvchining sug'urtalovchi daromadida ishtirok etishi, investitsion daromadidagi ishtiroki va boshqa shu kabi holatlar ko'zda tutiladi, bu sug'urta hodisasining qachon yuz berishiga qarab sug'urta summasining turlicha bo'lishiga olib kelishi mumkin. Sug'urta shartnomasining muddati belgilanmaydi. Sug'urta mukofoti bir marotabada yoki bo'lib-bo'lib sug'urta shartnomasi amala qilishi davomida to'lab borilishi mumkin. Sug'urtalangan shaxs 75-80 yoshga to'lgandan keyin sug'urta mukofotini to'lashdan ozod etiladi.

## 1-jadval

### O'zbekistonda faoliyat yuritadigan sug'urta tashkilotlari uchun 2020 yil 1 iyuldan boshlab belgilangan ustav kapitali minimal miqdori<sup>5</sup>

| t/r | Sug'urta faoliyati turlari   | mlrd.so'm |
|-----|--|-----------|
| 1.  | Umumiy sug'urta yoki hayotni sug'urta qilish tarmog'ida ixtiyoriy sug'urta | 15        |
| 2.  | Umumiy sug'urta yoki hayotni sug'urta qilish tarmog'ida majburiy sug'urta  | 25        |
| 4.  | Faqat qayta sug'urta   | 35        |

Hayot sug'urtasi amaliyoti sug'urta kompaniyalari tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomalarining har xilligini ko'rsatadi. Aholi daromadlarini sug'urtalash bilan ishlaydigan bu sug'urta tarmog'i moliya bozori ishlashiga o'zining ta'sirini juda tez ko'rsatadi. Barcha tuziladigan shartnomalar hayot sug'urtasi tarixi davomida ishlab chiqilgan o'ziga xos xususiyatga egadir. Hayot sug'urtasining asosiy farqli tomonlari quyidagilar:

- sug'urta ob'ekti;

<sup>5</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustidagi PQ-4412-son "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining 3-ilovasi



- sug'urta predmeti;
- sug'urta mukofotlarini to'lash tartibi;
- sug'urta qoplamasining amal qilish davri;
- sug'urta qoplama shakli;
- sug'urta to'lovlari ko'rinishlari;
- shartnoma tuzish shakllari.

Hayot sug'urtasi ob'ekti quyidagilar bo'yicha farqlanadi:

- shaxsiy sug'urta bo'yicha tuzilgan shartnomada sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi bitta shaxs bo'ladi;

- boshqa shaxsning hayotini sug'urta qilishda sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi turli shaxslar bo'ladi;

- birgalikdagi hayot sug'urtasining birinchi yoki ikkinchi o'lim prinsipi asosida shartnoma tuziladi.

Umumiy faoliyati bo'yicha turkumlash hayot faoliyatidan o'zining xususiyatlari bilan farq qiladi, ya'ni muddati, davriyligi, zahiralarni shakllantirish tartibi. Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalari soni 35 ta bo'lib, mijozlarga turli yo'nalisdagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatib, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushining oshishini ta'minlab bermoqda. Mazkur kompaniyalarning 27 tasi umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat ko'rsatadi. Demak, mamlakat sug'urta biznesi turli yo'nalisdagi sug'urtaviy xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan sug'urta kompaniyalari bilan to'yingan, deb aytay olamiz.

Sug'urta biznesini rivojlantirish maqsadida quyida strategiyani ishlab chiqish maqsadga muvofiq:

1. Aholiga ma'qul tushadigan va daromadlilikini hisobga olgan holda sug'urta turlarini aniqlab, ular bo'yicha yengilliklar yaratish.

2. Aholining sug'urta madaniyati darajasini oshirish. Bu sug'urta sohasi rivojlanishi, avvalo shakllanishining asosiy sharti hisoblanadi. Odamlarning sug'urta madaniyatini shakllantirish yo'llari quyidagilar, ya'ni ularga sug'urtaning asl mohiyatini ochib berish, u qachon zaruratga aylanishini tushuntirish, uning afzal tomonlarini ko'rsatish, namoyon qilish, har qadamda xavf-xatarning mavjudligi, uning qachon sodir bo'lishi noma'lumligi va aynan shu davrda sug'urtaning ahamiyati beqiyosligini anglatish hisoblanadi.

3. Sug'urta kompaniyalarining shaffofligini saqlab qolish, ya'ni potensial mijozlar sug'urta kompaniyalarining faoliyat yo'nalishlari, moliyaviy

barqarorligi, to'lovga layoqatligi to'g'risidagi ma'lumotlarga hech to'sqinliksiz ega bo'lsinlar

4. Sug'urta xizmatlarining mamlakatimizning eng chekka hududlargacha yetib borishini ta'minlash, u yerlik aholi uchun sug'urtaning mohiyatini ochib berishga harakat qilish.

5. Sug'urta sohasidagi mutaxassislarning malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash, xorij amaliyotini o'rganib, uni mamlakatimizda qo'llash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishiga shart-sharoit yaratib berish.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, sug'urta tashkilotlari keng qatlamli salohiyatli mijozlarni sug'urta himoyasiga jalb etish uchun ularning manfaatiga mos keladigan yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqmoqdalar. Bunga ular o'rtasida raqobat muhitini kuchayotganligi ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, O'zbekistonda sug'urta sohasini rivojlantirish uchun hukumat tomonidan qabul qilinayotgan farmon va qarorlar sug'urta xizmatlari ko'rsatish sifatini yuqori bosqichga ko'tarilishiga qo'llay shart-sharoitlar yaratmoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimiz rivojlanishining ustivor yo'nalishlari fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning ishonchli tizimini, aholi turli qatlamlarining ijtimoiy himoyasini sug'urta bozorida huquqiy ta'minlashning doirasini yanada kengaytirishni taqozo etmoqda. Sohani rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlar, sug'urta faoliyatiga oid qonunchilikning takomillashtirilayotgani aholining sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchini mustahkamlamoqda.

Sug'urta xizmatlarining raqobat bozorini yanada rivojlantirish, sug'urta faoliyatining zamonaviy turlarini takomillashtirish va sifatini oshirish, sug'urtalovchilarning kapitallashuv darajasini ko'paytirish borasida salmoqli ishlarning natijasi o'laroq sug'urta biznesi kundan-kunga rivojlanmoqda, bu esa o'z navbatida iqtisodiy sohaning balki O'zbekistonning rivojlanishiga zamin yaratadi deb aytishimiz mumkin.


## **2.2 Sug'urta biznesini ob'ektlari bo'yicha turkumlash**

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu jarayonda sug'urta faoliyati ham rivojlanib, ravnaq topmoqda. Sug'urta instituti bozor infratuzilmasining tarkibiy qismi sifatida uning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, sug'urta faoliyatida risklar transferi ham o'z navbatida, bozor infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir.



Mamlakatimizda sug'urta bozorini rivojlantirish, sug'urta tashkilotlarining samarali faoliyat yuritishi uchun huquqiy, tashkiliy-texnik sharoitlar yaratish, aholi va mijozlar uchun qulay joy va hududlarda sug'urta xizmatlari shoxobchalarini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Buning samarasida yil sayin mahalliy kompaniyalar soni ortmoqda va bu sug'urta bozorida sog'lom raqobat muhitini yaratish, taqdim etilayotgan xizmatlar sifatining oshishiga xizmat qilmoqda. Sug'urta biznesini o'rganishda ob'yektlar bo'yicha turkumlash sug'urta bozoriga yanada chuqurroq kirishimizni ta'minlab beradi.

Sababi, o'rganmoqchi bo'lgan ob'jekt haqida o'rganuvchi qanchalik aniq ma'lumotlarni to'play olsa, dastlabki tasavvurlar bilan bir qatorda uning kamchiliklari ham ko'zga tashlana boshlaydi va rivojlantirishga keng imkoniyat ochiladi. biz sug'urta biznesini hayot va umumiy ob'jekti bo'yicha turkumlanishini quyida keltirilgan rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin:



**2-rasm. Hayot sug'urtasi bo'yicha ob'jekt turlari**

Hayot va annuitetlar ob'jekti, sug'urta summalari to'lash bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlarini nazarda tutuvchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami:

- sug'urta qilinuvchining sug'urta muddati tamom bo'lgungacha yoki sug'urta shartnomasida belgilangan yoshgacha yashashi;
- sug'urta qilinuvchining vafot etishi; shuningdek sug'urta shartnomasi amal qilishi davridagi joriy to'lovlar ya'ni annuitetlarni ifodalaydi.

Nikoh va tug'ilish - nikohga kirishida yoki bola tug'lganda sug'urta summasi to'lanishini ta'minlovchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami.

Hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish - umrbod renta to'lanishi bilan birgalikda hayotni sug'urta qilish turlari jami.

Sog'liqni sug'urta qilish-ko'rsatib o'tilgan sug'urta davri kamida besh yildan kam bo'lmagan muddatga yoki sug'urta qilinuvchining pensiya yoshiga etguniga qadar belgilanishi sharti bilan baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa yoki kasallik yoki kasallanish tufayli qattiq shikastlanish natijasida mehnatga layoqatlilikni yo'qotganda sug'urta summalari to'lanishini ta'minlovchi hayotni sug'urta qilish turlari jami. Bunda shartnomada ko'rsatilgan sug'urta davri sug'urtalovchi tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin emas.

Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish- Quyidagi hollarda:

a) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sog'liqning qattiq shikastlanishi, yoxud;

b) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, yoxud;

v) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yo'qotish, shu jumladan ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari, biroq 2-klass va IV klass bo'yicha sug'urta shartnomalarini istisno qilgan holda, sug'urta qilingan shaxsga sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami.

Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish-Sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi to'lanishini yoki kasallik yoki sog'liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi (yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi)ni ta'minlovchi sug'urta turlari jami, biroq hayotni sug'urta qilish tarmoqlarining IV klassi bo'yicha shartnomalarni istisno qilgan holda.

Umumiy sug'urta biznesini biz quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin.

1. mulkiy sug'urta;

2. shaxsiy sug'urta;

3. javobgarlik sug'urtasi;

4. tadbirkorlik bilan bog'liq xavf - xatar sug'urtasi.

1. Mulk sug'urta ham o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

- yuridik shaxslar mol-mulkini sug'urtalash;

- jismoniy shaxslar mol - mulkini sug'urtalash.

2. Shaxsiy sug'urtalash quyidagilarga bo'linadi:

- hayotni sug'urta qilish;
- baxtsiz hodisalardan fuqarolarni sug'urtalash;
- tibbiy sug'urtalashdan iborat.

3. Javobgarlik sug'urtasi quyidagilarga bo'linadi.

- fuqarolik javobgarligi sug'urtasi (transport egalari, sanoat va qurilish - montaj korxonalari, tovar ishlab chiqaruvchilar va boshqalar);

- kasbiy javobgarligi sug'urtasi (vrach, yurist, hisobchilar va x.k.).

4. Tadbirkorlikka bilan bog'liq xavf - xatar sug'urtasi quyidagilarga bo'linadi:

- tadbirkorlik tavakkalchiligini sug'urtalash (savdo-sotiq tavakkalchiligini, ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishdagi xavf - hatar);

- moliya tavakkalchiligini sug'urtalash (to'lanmagan kredit xatari).

- xavf - xatar turlari bo'yicha guruhlash mol-mulk strukturasi tuzilishiga tegishli soha hisoblanadi. Bunda sug'urta puli mol-mulkning shartnoma tuzilayotgan vaqtda haqiqiy qiymatidan oshmasligi kerak. Bu sohada guruhlash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- uy-joyning yong'in va boshqa ofatlardan;

- qishloq xo'jaligi ekinlarini qurg'ochilik kabi tabiiy ofatlardan sug'urtalash (masalan, O'zbekistonda ketma - ket 3 yil qurg'ochilik bo'ldi, ko'pgina fermer xo'jaliklari zarar ko'rdi, vaqtida sug'urtalangan xo'jaliklarning zarari qoplandi, sug'urtalanmagan, ishiga befarq qaragan fermer xo'jaliklari esa og'ir ahvolda qoldi. Shu bilan bir qatorda, sug'urta biznesida sug'urta faoliyatini amalga oshirish sug'urtalashning majburiy yoki ixtiyoriy qilish orqali amalga oshiriladi. Majburiy va ixtiyoriy sug'urtaning bir biridan farqi, shundaki, majburiy sug'urta yoppasiga amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, ixtiyoriy sug'urta esa tanlov yo'li bilan, sug'urtalanuvchining xohish istagi bilan amalga oshiriladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda quyidagi sug'urta turlari majburiy hisoblanadi:

- qurilish - montaj ishlari;
- avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish;
- ish beruvchining fuqorolik javobgarligini sug'urtalash;
- tashuvchining fuqorolik javobgarligini sug'urtalash;
- xavfli sohalardagi ishlovchi ishchi xizmatchilarni sug'urta qilish.

Sug'urta biznesi xususiyatlariga ko'ra ham shaxsiy, mulkiy va javobgarlik sug'urta bozorlariga bo'linadi. Ma'lumki, sug'urta bozorlari, ko'pincha maxsus kredit va sarmoya institutlari funksiyalarini bajaradi. Shu bois sug'urta kompaniyalarda katta mablag'lar to'lanadi. Bu mablag'lar qimmatli qog'ozlarga aylanib bozorlarda uzoq muddatli kredit berish imkonini tug'diradi. Shu sababdan sug'urta kompaniyalari moliya bozorida ham mavqeyga ega bo'ladi bularning qay darajada mavqei egallab turishini esa sug'urta biznesi ko'rsatib beradi.

Mol-mulk sug'urta qilinganda sug'urta puli mol-mulkning shartnoma tuzilayotgan vaqtdagi haqiqiy qiymatidan oshmasligi lozim.

Mulk sug'urtasining shartlari.

Mol-mulk sug'urtasining tarif stavkalari quyidagicha tarmoqlanadi:

- sanoat va boshqa xo'jalik tarmoqlari;
- mol-mulkning to'la yoki qisman sug'urtalanishi bo'yicha tarmoqlar;
- mol-mulkning bir necha sug'urta xodisalaridan sug'urtalanishi bo'yicha tarmoqlar.

Odatda sug'urta hodisasi sodir bo'lgandan so'ng sug'urtalanuvchi bu haqida 3 kun muddatda sug'urta tashkilotiga xabar berishi kerak. Maxsus komissiya sug'urta hodisasi sabablarini o'rganadi va zarar qiymatini aniqlaydi. Ko'rilgan zararining hisob-kitobi 10 kun muddatda aniqlanadi. Sug'urta qoplamalari 20 kun ichida to'lanadi. Bu shartlar sug'urta tashkilotlarida har xil bo'lishi mumkin.

Shaxsiy sug'urtada sug'urtalovchi sug'urta pullarini vaqtida undirish, hodisa yuz berganda zararni qoplash majburiyatini zimmasiga oladi.

Sug'urta pullari fuqarolarni xohish va imkoniyatlarini hisobga olgan holda belgilanadi.

Shaxsiy sug'urta quyidagi turlarga bo'linadi:

- majburiy va ixtiyoriy;
- uzoq muddatli va qisqa muddatli.

Sug'urtaning turlari buyicha alohida shartnoma tuziladi. Bu shartnomalar muddati har xil: sug'urta turlariga qarab 1, 10 va inson umrining oxirigacha muddatga sug'urtalash mumkin.

Shaxsiy sug'urta xodisalariga quyidagilar kirish mumkin:

- insonni baxtsiz xodisa oqibatida shikastlanishi;
- odamlarni turli -tuman sifatsiz oziq-ovqatdan zaxarlanishi;
- insonlarning baxtsiz xodisa oqibatida nogiron bo'lishi;
- baxtsiz xodisa tufayli oyoq —qo'lni sinishi, kuyish oqibati, noto'g'ri tibbiy davolash natijasida kerakli a'zolari jaroxatlanishi.



Shaxsiy sug'urtalash turkumlari quyidagicha:

- hayotni sug'urtalash;
- baxtsiz xodisalardan sug'urtalash;
- tibbiy sug'urtalash.

Hayotni aralash sug'urtasi turi ham mavjud. Shaxsiy sug'urtada hayotni aralash sug'urtalash muhim o'rin tutadi. Bunga baxtsiz xodisalardan sug'urtalash, vafot etish hodisasidan sug'urtalash va boshqalar kiradi. Hayotni aralash sug'urtalash shartnomasi 1 yildan xatto 10-15 yilgacha bulishi mumkin.

Tibbiy sug'urta. Bunday sug'urta tuzilayotganda sug'urtalanuvchi, albatta, tibbiy (vrach) ko'rigidan o'tishi lozim. SPID ga qarshi testdan o'tishi kerak. Sug'urtalanuvchining salomatligi talabga javob bergandagina u bilan sug'urta shartnomasi tuziladi.

Tadbirkorlik tavakkalchiligi sug'urtasi. Har bir tadbirkor o'zining yo'qotishi mumkin bo'lgan faoliyatini zarar ko'rishdan sug'urtalab qo'yadi. Uning faoliyati tashabbusiga, sohani yaxshi bilishiga, shart-sharoitni o'rganishiga bog'liq. Omadi kelsa, foyda oladi, aksida zarar ko'radi, chunki u faoliyatini tavakkalchilik asosida yurg'izadi. Tadbirkor ish boshlashdan avval sug'urta tashkiloti bilan shartnoma tuzadi. Sug'urta tashkiloti tadbirkorga ko'radigan zararlarni oldini olish va ularni kamaytirishga ko'mak beradi.

Tadbirkor zarar ko'rishi mumkin hollar:

- ishlab chiqarish va savdoda buzilish bo'lsa;
- bozor sharoiti o'zgarsa;
- tovar yetkazib beradigan tomon shartnomani buzsa va iste'molchi shartnomaga rioya qilmasa.

Sug'urta tashkilotlari tadbirkor ko'rgan barcha zararni, qoplashga harakat qiladi. Sug'urta summasini aniqlashda shartnomada ikki xil usul qo'llaniladi: sug'urta summasi, sug'urta operatsiyalariga ishlatilgan mabag'lar asosida belgilanadi. Demak, sug'urta biznesi ob'yekt bo'yicha sug'urta bozorini tahlil qilar ekan, unda yuzaga keladigan risklarni chetlab o'tmaydi, negaki, sug'urta biznesiga eng ko'p ta'sir qiladigan narsa bu risk hisoblanadi. Shunday qilib, sug'urta biznesi riskni ham alohida xarakterlaydi.

Risklarni sof va sun'iy risklarga ajratish mumkin. Aslida esa risklarni minglab turlarini uchratishimiz mumkin. Sof risklarga tabiiy, siyosiy, transport va tijorat risklarining bir qismi (mulkiy, ishlab chiqarish va savdo) kiradi.

Sun'iy risklar tijorat riskining bir qismi bo'lgan moliyaviy risklar tarkibida hisoblanadi. Risklar paydo bo'lish sabablariga ko'ra tabiiy, ekologik, siyosiy, transport va tijorat risklariga bo'linadi. Zilzila, suv toshqini, bo'ron,



chaqmoq urishi, yong'in va har xil yuqumli kasalliklar tabiiy risklar hisoblanadi. Atrof-muhitni ifloslanishi bilan bog'liq risklar ekologiya risklari hisoblanadi. Siyosiy risklar bevosita hukumat tomonidan urush holatlarini e'lon qilinishi, harbiy harakatlar, fuqarolar g'alayonlari, ish tashlashlar, davlat tuzumining o'zgarishi, qonunchilik hujjatlarining o'zgarishi ehtimollarini o'z ichiga oladi. Tijorat risklari xo'jalik yurituvchi sub'etlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi bilan faraqlanadi. Investitsion loyihalarni amalga oshirishda kredit riski, operatsiya riski, huquqiy risk, mamlakat riski, transfert riski, bozor riski, foiz riski, likvidlik riski, reputatsiya riski, siyosiy risklar, tadbirkorlik risklari yuzaga keladi.

Shuni alohida ta'kidlab joizki, sug'urta biznesi sug'urta kompaniyalarining ish yuritishi samaradorligini belgilab, sug'urta bozori va sug'urta faoliyatini tartibga solishda ishtirok etuvchi ob'yekt bo'lib hisoblanadi. Sug'urta faoliyatini tartibga solish esa quyidagi mustahkamlangan manbaa asosida o'rganiladi.

1. Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi umumfuqarolik qonunchiligi;
2. Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus sug'urta qonunchiligi;
3. Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi tegishli vazirlik va idoralarning qarorlari va me'yoriy hujjatlari.

Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi umumfuqarolik qonunchiligi birinchi galda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1 va 2-qismlari, soliq kodeski, banklar to'grisidagi qonun hamda bir qator shunga o'xshash huquqiy-normativ hujjatlar joy olgan.

Fuqarolik qonunchiligi fuqarolik huquqiy munosabatlari sub'yektlari orasida yuzaga keladigan mulkiy va nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu munosabatlarning sub'yektlari bo'lib fuqarolar, korxonalar va tashkilotlar hamda davlat boshqaruv organlari hisoblanadi. Fuqarolik huquqiy munosabatlarining ob'ekti bo'lib moddiy va nomoddiy boyliklar hisoblanadi. Sug'urta munosabatlarining ob'ekti bo'lib esa moddiy va pul ko'rinishidagi qimmatliklar (mulk, xarajatlar, daromadlar) va insonning shaxsiy nomoddiy boyligi – hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va shu kabi sug'urta shartnomasi amal qilish davrida sog'liqni yo'qotilishi yoki vafot etish hodisasi bilan oilaviy daromadni yo'qotilishi bilan bog'liq bo'lgan qaltisliklar hisoblanadi. Sub'yekti bo'lib, sug'urtalovchilar, sug'urta qildiruvchilar va uchinchi shaxslar hisoblanadi. Bulardan ko'rinib turibdiki, sug'urta munosabatlari umumfuqarolik huquqlari asosida tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1-qismida sug'urtaviy huquqiy munosabatlar, ya'ni jismoniy va yuridik shaxslar, tijorat va notijorat

faoliyat, tadbirkorlik faoliyatining asosiy tashkiliy-huquqiy shakllari kabi tushunchalar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksining "Sug'urta" deb atalgan 52-bobi qayd etilgan bo'lib, unda iqtisodiy munosabatlarning alohida turi sifatida sug'urta munosabatlarining asosi belgilangan.

Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus sug'urta qonunchiligi Bu turga sug'urta masalalarini boshqaruvchi va tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining alohida qonunlari kiradi. Bunday qonunlarga O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 5 aprelda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi, 2015 yil 26 mayda qabul qilingan "Tashuvchining fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi, 2008 yil 21 aprelda qabul qilingan "Transport vositasi egalari fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi, 2009 yil 16 aprelda qabul qilingan "Ish beruvchining fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonunlar hamda Prezident qarorlari va farmonlari kiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni sug'urta bozoridagi barcha sug'urtalovchilar uchun sug'urtani amalga oshirishlari uchun birdek sharoit yaratish, sug'urta qildiruvchilarning manfaatlarini himoya qilishni kafolatlash, sug'urta ishini tashkil etishning yagona metodik qo'llanmasini belgilash va sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy tamoyillarini belgilashda namoyon bo'ladi.

Sug'urta munosabatlarini va ularning qatnashchilarini huquqiy tartibga solish jarayonida ularning huquq va majburiyatlari belgilangan bo'lib, sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchiga sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan shartlar va muddatlarda sug'urta himoyasini taqdim etadi. Sug'urta qildiruvchi esa sug'urtalovchiga shartnomada shartlashilgan sug'urta mukofotini belgilangan muddatda va xajmda to'lash orqali ularning huquq va majburiyatlari amalga oshiriladi.

Yuqoridagi birinchi va ikkinchi tur qonunchilikda sug'urta munosabatlarining asosiy tushunchalari, majburiy va ixtiyoriy sug'urta shartnomalariga bo'lgan umumiy talab qayd etiladi. Qonun osti xujjatlarida esa sug'urta faoliyatidagi alohida masalalar bo'yicha talablar belgilangan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik Kodeksining 920-moddasi shartlariga ko'ra, shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha bir taraf (sug'urtalovchi) boshqa taraf (sug'urta qildiruvchi) to'laydigan, shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta qildiruvchining o'zining yoxud shartnomada ko'rsatilgan boshqa fuqaro (sug'urtalangan shaxs)ning hayoti yoki

sog'lig'iga zarar yetkazilgan, u muayyan yoshga to'lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug'urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug'urta pulini) bir yo'la yoki vaqti-vaqti bilan to'lab turish majburiyatini oladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 914-moddasiga asosan shaxsiy sug'urta shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi. Shu munosabat bilan bu turdagi sug'urta shartnomasiga mazkur Kodeksning ommaviy shartnomaga oid shartlari ham tadbiiq etiladi.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi kimning foydasini ko'zlab tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxs sug'urta pulini olish huquqiga ega bo'ladi. Agar shartnomada naf oluvchi sifatida boshqa shaxs ko'rsatilmagan bo'lsa, shaxsiy sug'urta shartnomasi sug'urtalangan shaxs foydasiga tuzilgan hisoblanadi. Boshqa naf oluvchi ko'rsatilmagan shartnoma bo'yicha sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda, sug'urtalangan shaxsning merosxo'rlari naf oluvchilar deb tan olinadi.

Ta'kidlash lozimki, sug'urtalangan deb hisoblanmaydigan shaxs foydasiga, shu jumladan sug'urtalangan shaxs hisoblanmaydigan sug'urta qildiruvchi foydasiga shaxsiy sug'urta shartnomasi faqat sug'urtalangan shaxsning yozma roziligi bilangina tuzilishi mumkin. Bunday rozilik bo'lmagan taqdirda, sug'urta shartnomasi sug'urtalangan shaxsning da'vosi bo'yicha, bu shaxs vafot etgan taqdirda esa, uning merosxo'rlari da'vosi bo'yicha haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

### **2.3 Sug'urta biznesini yevropa talablari bo'yicha turkumlash**

Iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlarda sug'urta kundalik hayotning ajralmas bir qismiga aylanganligini alohida qayd etish lozim. Bugungi kunda AQSH, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi davlatlarida ko'pchilik fuqarolar faqat o'z hayotlarinigina emas, balki butun mol-mulkini, farzandlarining hayotini to'liq sug'urtalagani ayni haqiqatdir.

Sug'urtaning tarix davomida shakllanib kelgan va bugungi kundagi ahamiyati nafaqat ko'zda tutilmagan zararlarni qoplash, balki shu bilan birga jamiyat quyidagi funksiyalarni bajarishi bilan ham belgilanadi:

- sug'urta ijtimoiy ta'minot vazifasini o'taydi, ya'ni davlatning muhim ijtimoiy elementi bo'lib hisoblanadi. Rivojlangan bozor iqtisodiyotidagi mamlakatlarda aholi himoyasi tizimi davlat ijtimoiy ta'minoti, korporativ sug'urta, yakka tartibdagi sug'urta, nodavlat pensiya jamg'armalarini o'z ichiga oladi;

- sug'urtaning yana bir funksiyasi iqtisodiy sohaga investitsion resurslarni



jalb qilish bilan namoyon bo'ladi.

Rivojlangan davlatlarning ko'pchilik soni Yevropa davlatlariga borib taqaladi, shunday ekan sug'urta biznesini rivojlantirish maqsadida ularning tajribasini o'rganib chiqamiz.

Yaponiya sug'urta bozori qadimga borib taqalsada, XIX asrlarda shakllana boshlagan va XX asrning 70-yillariga kelib sug'urta kompaniyalarining faoliyati ichki iqtisodiy sektorning sug'urtasiga yo'naltirilgan edi. Shu bilan birga jahon arenasidagi eng asosiy vazifalardan biri turli yapon sug'urta kompaniya mahsulotlarini dunyo sug'urta bozoriga olib chiqish va sotishni rag'batlantirish edi. Yaponiyaning dunyo sug'urta bozoriga astoydil kirib borishiga sabab mamlakatning turli ko'rsatkichlarda, xususan iqtisodiy sohada ham ancha ilgari ketganidir. Jumladan, oxirgi 55 yilda yalpi eksport hajmi 95 martaga oshib ketdi va bu rivojlangan mamlakatlar eksporti hajmidan 3 barobar ko'p deganidir. 80-yillarga kelib Yaponiyaning tovar eksportiga yo'naltirilgan iqtisodiyot kapital eksportiga asoslangan iqtisodiyotga aylandi. 70-80 yillarda Yaponiyaning yirik sug'urta kompaniyalari tomonidan savdo ekspansiyalari amalga oshirila boshlandi. Bugungi kunda Yaponiya sug'urta bozorida hayot sug'urtasi bo'yicha 31 ta milliy va 3 xorijiy kompaniyalar faoliyat yuritadi. Xorij amaliyotida hayot sug'urta sohasining to'lov koeffitsenti umumiy sohasiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatadi. Biroq akkumulyativ davrining uzoqligi sug'urtalovchilarga to'plangan sug'urta mukofotlarini investitsion faoliyatga yo'naltirib yuqori daromadlar olish imkonini beradi. Bu o'z navbatida hayot sug'urtasining mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatida muhim o'rin tutishini yana bir bora isbotlaydi. Shu maqsadda sug'urtachi polis egasiga moliyaviy instrumentlar yordamida daromad keltiruvchi sug'urta mahsulotlarini takdim etadi hamda kompaniyaning daromadi yuqoriligiga erishadi.

Yaponiyada hayot sug'urta kompaniyalari umumiy tarmoq sug'urta kompaniyalariga nisbatan kam, biroq hayot sug'urta mukofotlari ulushi 80% ni tashkil qiladi. Sug'urta faoliyati "Sug'urta to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. Sug'urtalanuvchilar hayot sug'urtasi va riskli sug'urtaga oid manfaatlarini ko'zlovchi ikkita Korporatsiya mavjuddir. Ular sug'urtalovchi bankrot bo'lgan xolatda qoplamalarni to'lovchi fond bo'lib hisoblanadi. Sumitomo Life, Nippon Life Insurance Company, Meiji Life Insurance Company singari yirik hayot sug'urta kompaniyalari mijo'larga hayot sug'urtasi takdim etadi va shu bilan bir kator investitsion faoliyatdan daromad oladi. Yaponiya sug'urta kompaniyalarining hozirgi kundagi asosiy faoliyati asosan ichki bozorga karatilgan bo'lib, bozor asosiy yirik kompaniyalardan iborat.

Xorijiy ishtirokchilar uchun bu bozorga kirish oxirgi 15 yil ichida ruxsat berilgan bo'lib, xorijiy sug'urta kompaniyalar juda kichik segmentni egallagan. Sug'urta mahsulotlariga asosan individual hayot sug'urtasi, kollektiv hayot sug'urtasi, sog'likni saqlash doirasida maxsus dasturlar tibbiy sug'urta va rentalarni kiritish mumkin.

Hayot sug'urtasi muddatli va umrbod bo'ladi. Muddatli hayot sug'urtasida shartnoma ma'lum muddatga (bir yil, 5 yil, 10 yil) yoki ma'lum yosh (70 yosh) ga to'lgunga qadar tuzilib, shu muddat ichida sug'urta hodisasi yuz bersa sug'urta summasi to'lab beriladi. Muddatli sug'urtaning shartnoma tugagunga qadar doimiy, sug'urtaga aylanadigan va shartnoma tugaganidan so'ng sog'ligiga bog'lik yoki bog'liq bo'lmagan holda doimiy sug'urtaga aylanadigan turlari mavjud. Umrbod sug'urta turida insonning butun hayoti davomiyligiga shartnoma tuziladi va bu dastur qimmatroq hisoblanadi. Mijoz hayot sug'urtasidan oladigan daromadi sug'urta kompaniyasi tanlagan bankning foizlariga yoki aksiya dividendlariga bog'liq bo'ladi. Umrbod hayot sug'urtasi ikki xil bo'ladi. Universal sug'urta to'lovlar qat'iy belgilanmagan va mijozning ikoniyatlariga qarab o'zgarib turadigan hamda an'anaviy sug'urta - sug'urta badallari va summasi shartnoma oxirigacha bir xil bo'lib o'zgarmay qoladigan sug'urta.

Doimiy sug'urtaning universal turida mijoz moliyaviy holatni o'zi boshqarish imkoni paydo bo'ladi, ya'ni yillik sug'urta badallari miqdorini har yil o'zining mavjud ehtiyoj va imkoniyatiga qarab o'zgartirishi mumkin. Bunda tushgan sug'urta mukofoti uch qismga ajratiladi. Birinchi qismi sug'urta hodisasi yuz berganda to'lov uchun ajratilsa, ikkinchi qismi daromad olishga yo'naltiriladi. Olingan daromad hisobiga sug'urta badallarini to'lab borish imkoni mavjud bo'lib, ko'p yil mobaynida ham sug'urta mukofotlari, ya'ni sug'urta badallari sezilarli o'zgarmasligi mumkin. Uchinchi qism sug'urta kompaniyalari xarajatlarini koplash uchun ajratiladi. Demak, badallar va sug'urta summasi natijaviy miqdori daromad olishga yo'naltirilgan qismdan keladigan foizga bog'liq bo'ladi.

Sug'urta mahsulotlarining ommabop bo'lishi aholining turmush tarzi o'zgarishiga bog'liq. Masalan, Yaponiyada kech turmush qurish odatiy tusga kirib yolg'iz yashab qolayotgan insonlar soni ortib bormoqda. Insonlarning hayotiy bosqichlari turli hodisalardan iboratligini inobatga olib Yaponiya hayot sug'urta kompaniyalari aralash sug'urta turlariga asosan vafot etishdan, tibbiy yordam, g'amxo'rlik, jamg'arma va pensiya, farzand ko'rish va boshqa sug'urta turlarini jamlanmasini kiritishadi. Shuningdek, sug'urtalanuvchi hayotining turli



bosqichlarida tanlangan sug'urta mahsulotlarini qayta ko'rib chiqishi va o'zgartirish kiritishi mumkin bo'ladi. Tibbiy sug'urtaning jamg'arib boriladigan sug'urta turlariga kiritilishi mijozlarga sug'urtaning aralash turlarini keng tanlash imkonini yaratadi.

Yaponiyada bugungi kunda asosan quyidagi hayot sug'urta turlari ommabop hisoblanadi<sup>6</sup>:

1. Ma'lum holatlarga sug'urtalanish:

- sug'urtalanuvchini butun umri davomida vafot etishidan sug'urta qilish (umribod sug'urta);

-sug'urtalanuvchini ma'lum muddatga vafot etishdan sug'urta qilish.

-ma'lum muddatga vafot etishdan sug'urta va qo'shimcha ta'minotli sug'urta qilish. Masalan, har 3 yilda qo'shimcha 3% li nafaqa va muddat tugaganda 30% nafaqa bilan ta'minlanish.

2. Og'ir kasalliklar, kasalga g'amxo'rlik va boshqalardan sug'urta: -serebral insult, o'tkir infarkt miokard, saraton va vafot etish holatlarini qamrab oluvchi sug'urta turi.

3. Jismoniy nogiron bo'lishdan va vafot etish holatlaridan sug'urta qilish turlari.

4. Hamshirani talab qiluvchi kasalliklar va o'lim holatlarini qamrab oluvchi sug'urta turlari.

5. Gospitalizatsiya va xirurgik yordamni o'z ichiga oluvchi sug'urta turi.

6. Nafaqa yoshiga chiqish va kelgusidagi daromadlarni shakllantirishni ko'zda tutuvchi sug'urta turlari.

Albatta bu sug'urta turlarining kombinatsiyalashgan turlari ham ishlab chiqilib, mijozga hayoti davomida xohlagan dasturga almashish imkoni beriladi va oxirigacha bitta sug'urta kompaniyasini tanlashi va o'zining oila a'zolarini ham shu kompaniyada sug'urtalashi uchun e'tibor karatiladi. Yaponiyada yaratilayotgan sug'urta mahsuloti asosan yoshi va jinsi, yashash tarzi, hududi bo'yicha segmentlarga xos qilib yaratiladi. Bundan ko'rinadiki, mahsulot yaratishda mijozga mo'ljal olish va bozorni segmentlarga ajratish O'zbekiston sug'urta kompaniyalari uchun ham samarali yo'l bo'lib hisoblanadi.

Yaponiyada hayot sug'urtasi savdosini pochta bo'linmalari orqali amalga oshirish ommabop hisoblanadi. Shuningdek *on-line* tizimida sug'urtalanish, eshikdan eshikkacha sotish, *bank-insurance* yaxshi yo'lga ko'yilgan.

Investitsion faoliyat nuqtai nazaridan qaralganda, Yaponiya hayot sug'urta

<sup>6</sup>Katrin Barigou, Ze chen, Jan Dhaene, Fair dynamic valuation of insurance liabilities, 2019 <https://doi.org/10.1016/j.oen>

kompaniyalari o'z mablag'larini davlat qarzdorlariga, qarz beruvchi va xorijiy obligatsiya qarzlarni joylashtirish bilan shug'ullanuvchi sindikatlarga qo'yishadi. Shuningdek, tijorat va moliyaviy kompaniyalar bilan uzviy hamkorlik olib borishadi. Hamkorlik asosan aksiyalarni sotib olish, ishchi va xodimlarni jamoaviy sug'urtalash, pensiya fondlarini boshqarish, kredit berish va ularning obligatsiyalariga egalik qilishda namoyon bo'ladi. Biroq *on-line* tizimida sotishning rivojlanib borishi sug'urtalovchi uchun sotish xarajatlarini kamayishiga olib kelmoqda va natijada agentlarga qaram bo'lishga qarshi eng yaxshi vosita bo'lib turibdi.

Fransiyada esa asosiy e'tibor mol-mulk sug'urtasiga qaratilgan bu degani hayot sug'urta biznesiga e'tibor berilmaydi degani emas aksincha hayot ham mol-mulkdan qolishmaydi.

1985 yilda Fransiyada hayot sug'urtasi polislarining banklar va boshqa nosug'urta vositachilar orqali sotilishi 35% dan oshmas edi, bugungi kunda esa bu ko'rsatkich 80% ga yaqinlashib bormoqda. Fransiya Yevropa bo'yicha bu sohada yetakchilik qilib turibdi. Biroq boshqa mamlakatlarda nosug'urta vositachilar (banklar, pochta) orqali sotuv ancha tez rivojlanib bormoqda.

Biron davlatning moliya bozorida bancassurance kontseptsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng muhim omili bu davlatning milliy qonunchiligidir. Ba'zi mamlakatlarda banklarning sug'urta biznesida ishtirok etishlari uchun qonunchilik tomonidan hech qanday cheklashlar yo'q. Biroq, o'tgan asrning 90-yillariga qadar ko'pgina rivojlangan davlatlarda banklarning sug'urta biznesida ishtiroki taqiqlangan edi. Chunki banklar bilan sug'urta tashkilotlari o'rtasidagi bunday hamkorlik moliya bozorida banklarning ta'sir doirasining kuchayib ketishiga olib keladi deb hisoblanar edi. Keyinchalik esa etakchi banklar va sug'urta kompaniyalarining bosimi ostida ba'zi mamlakatlardagi davlat organlari bu masalada o'z pozitsiyalarini o'zgartirishga majbur bo'ldilar. Fransiyada esa moliyaviy va soliq imtiyozlari hayot sug'urtasining uzoq muddatli yig'ma turlarining jadal sur'atda rivojlanishi uchun imkoniyat yaratdi. Bunday qulayliklardan foydalangan xolda banklar keskin raqobat sharoitiga qaramasdan ipoteka krediti olayotgan mijozlari uchun hayot sug'urtasi polislarini sotish tarmoqlarini yo'lga qo'ydilar. Lekin mijozlarda sug'urta tashkilotini erkin tanlash yoki umuman sug'urta xizmatini rad etish huquqini saqlab qolar edi. Sug'urtaga bunday yondashish Frantsiyaning yevropada hayot sug'urtasi bo'yicha etakchi o'ringa chiqishiga olib keldi. Bank tarmog'ida sug'urta faoliyati odatda bank jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan mahsulotlarni sotishdan boshlanadi. Ya'ni, hayotni sug'urtalash dasturlari, bank

va kredit bitimlarini sug'urtalash. Hayot sug'urtasi mahsulotlarini sotish bilan banklar o'zlarining uzoq muddatli foydalanishga yo'naltirilgan aktivlari ulushlarini oshirishga muvaffaq bo'ladilar. Sug'urta risklarini birlamchi qabul qilishda ularni ikkilamchi, uchlamchi va hokazo tartibda qabul qilish munosabatlari, ya'ni qayta sug'urtalashning taraqqiy etganligi katta ahamiyat kasb etadi. Qayta sug'urtalashning mamlakat miqyosida rivojlanganligi, sug'urta munosabatlarining iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga kirib borishiga hamda sug'urtalovchilar to'lov qobiliyatining barqaror bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi.

Shuningdek mamlakatda amalda tibbiy sug'urtaning bir necha turlaridan foydalanishadi. Ayniqsa, kompensatsiya sug'urtasi deb ataladigan xizmat, ya'ni «xizmat uchun to'lovlar» sug'urtasi keng tarqalgan. Bunda ish beruvchi tegishli polis bilan ta'minlangan har bir xodim uchun sug'urta kompaniyasiga sug'urta mukofoti to'laydi. Keyin sug'urta kompaniyasi kasalxona yoki boshqa tibbiyot muassasasi, yo vrach tomonidan taqdim etilgan cheklar uchun pul to'laydi. SHu tariqa, sug'urta rejasiga kiradigan xizmatlar uchun xaq to'lanadi. Odatda sug'urta kompaniyasi davolanish xarajatlarining 80 foizini qoplaydi, qolgan qismini esa sug'urtalanuvchining o'zi to'lashi kerak. Boshqariladigan xizmatlar sug'urtasi muqobil tur sanaladi. Sug'urtaning mazkur turi bilan qamrab olingan amerikaliklar soni jadallik bilan oshib bormoqda. Bunda sug'urta kompaniyasi vrachlar, boshqa tibbiyot xodimlari, shuningdek, muassasalar, shu jumladan, kasalxonalar bilan sug'urtaning mazkur turida ko'zda tutilgan barcha xizmatlarni ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzadi. Odatda, tibbiyot muassasalari xar bir sug'urtalanuvchi uchun oldindan to'lanadigan o'zgarmas summani oladi. Ikkala sug'urta turi o'rtasidagi farq ancha katta. «xizmat uchun to'lovlar» sug'urtasida bemorlarga amalda ko'rsatilgan xizmatlar qiymati to'lanadi. «Boshqariladigan xizmatlar» sug'urtasida tibbiyot muassasasi ko'rsatilgan xizmat xajmidan qat'iy nazar, faqat sug'urta qilingan xar bir bemor uchun belgilangan summani oladi. Tibbiy xizmat xarajatlarining katta qismi AQSHda ish beruvchilar, shuningdek, xukumat tomonidan to'lanadigan ixtiyoriy tibbiy sug'urta hisobidan qoplanadi. Shunga qaramay, tibbiy xizmat xarajatlarining kattagina qismi fuqarolar zimmasiga tushadi. Bu to'lovlarni muvofiqlashtirish mexanizmi bo'lib, xarajatlarni kamaytirishga olib boradi. Chunki fuqarolar xarajatlarning bir qismini to'laganlari uchun xam vrachga kamroq murojaat qilishadi.

Germaniyada ijtimoiy sug'urtaga daromadlarni taqsimlashning muhim mexanizmi sifatida yondashiladi. Bunda majburiy tibbiy sug'urta bilan aholining



talminan 95% qamrab olingan. Aholining taxminan 5% yuqori daromadga ega qatlami faqat ixtiyoriy tibbiy sug'urta xizmatlaridan foydalanadi, majburiy tibbiy sug'urta tizimiga kiruvchi taxminan yana 5% aholi qo'shimcha ravishda ixtiyoriy tibbiy sug'urtadan ham foydalanadi, bu esa boshqa shifokorni tanlash, kasallanganda qo'shimcha tovon puli olish imkonini yaratadi. Germaniyada har bir tizim faoliyat ko'rsatish manbalarining shakllanishiga ko'ra quyidagicha moliyalashtiriladi, sog'liqni saqlashni moliyalashtirishning 60% majburiy tibbiy sug'urta fondlariga to'lanadigan badallar orqali, 10% tijorat asosidagi sug'urtalash mablag'lari hisobiga, taxminan 15% davlat byudjeti resurslari hisobiga va taxminan 15% fuqarolarning shaxsiy mablag'laridan tashkil topadi. Xorijiy sug'urta kompaniyasi, qoidaga ko'ra, sug'urtalanuvchiga tibbiy yordam olish bilan bog'liq bo'lgan tibbiy xarajatlarini qoplashning ikkita:

a) sug'urtalovchi tibbiyot muassasasi bilan ana shunday shartnomaviy munosabatlarga ega bo'lsa, yoki tibbiy muassasa ko'rsatilgan xizmatlarga dalolat asosida to'lov o'tkazilishiga rozilik bergan bo'lsa, tibbiyot muassasasi bilan bevosita hisob-kitobni amalga oshirish.

b) sug'urtalanuvchi ana shu tibbiy xizmat xarajatlarini amalga oshirib bo'lganidan so'ng xarajatlarni uning o'ziga tibbiyot muassasasi tomonidan qo'yilgan hisob-kitob asosida qoplab berish shaklini tavsiya etadi.

Angliya sug'urta biznesi dastlab 16-17 asrlarda shakllanib, sug'urta kompaniyalari milliy sug'urta va xalqaro sug'urta bozorda turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatib kelganlar. Ular hozirgi davrda halkaro sug'urta bozorida xam peshqadamlik qilib kelmoqdalar. Angliyaning sug'urta kompaniyalari dunyoning turli mamlakatlarida 600 dan ortiq bo'limlariga ega bo'lib, ular orqali xorijiy fuqarolarning milliardlab kapitali Angliya iqtisodiyotiga kirib kelmoqda. Hozirgi paytda Angliya sug'urta kompaniyalarining 400 ga yaqin filiali AQSHda, 100ga yaqin filiali Fransiyada va 100 dan ortiq filiali Shveytsariyada faoliyat ko'rsatib kelmoqda. O'z o'ruida Angliya sug'urta tizimi ham iqtisoslashgan bo'lib, bu mamlakatda 143 ta xorijiy sug'urta kompaniyalari Angliya erkin qonunlari asosida faoliyat yuritishmoqda. Jumladan, "O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasi ham Angliya sug'urta tizimining faol ishtirokchisi bo'lib, u etakchi sug'urta markazlari bilan xar tomonlama hamkorlik qilib kelmoqda. Bu o'zaro hamkorlik va ilg'or tajriba respublikamiz sug'urta tizimining rivojiga istiqbolda katta ijobiy foyda keltiradi. Angliyada qayta sug'urta faoliyati xam rivojlangan bo'lib, ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar qayta sug'urta kompaniyalari xalqaro assotsiatsiyasi (LIRMA) a'zolari hisoblanadi. Angliyada sug'urta faoliyati 1982

yilda qabul qilingan sug'urta kompaniyalari to'g'risidagi qonun asosida amalga oshiriladi. Qonunga asosan sug'urta turlari xayot sug'urtasi va ushbu sug'urta tarmog'iga kirmaydigan boshqa sug'urta turlari tarmog'idan iborat. Sug'urta vositachilari faoliyati sug'urta brokerlarini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi qonun asosida tartibga solinadi. Angliya sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati bo'yicha tajribalarni o'rganish maqsadga muvofiqdir. Angliyada xar bir sug'urta tashkiloti investitsiya dasturlariga ega. Moliyaviy bozorlarning rivojlanishi natijasida sug'urta tashkilotlarining investitsiya siyosatida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. SHunday bo'lishiga qaramasdan, hozirga paytda Angliya sug'urtalovchilari o'z investitsiya faoliyatlarini amalga oshirishda o'tgan asrning 40-yillari oxirida London aktuariyalar instituti tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillarga asoslanadi. Unga ko'ra uzoq muddatli xayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar quyidagi tamoyillarga rioya etishlari lozim:

❖ menejment faoliyatining maksadi kapitalini saqlashni kafolatlagan holda, yuqori darajada daromad olishdan iborat bo'lishi lozim.

❖ kompaniya mablag'lari turli tuman ob'ektlarga joylashtirilishi bunda iqtisodiy va siyosiy omillarning salbiy ta'sirini mumkin bo'lgan darajada kamaytirishni xisobga olish;

❖ sug'urta tashkiloti kelgusida iqtisodiyotda va siyosatda extimol tutilgan o'zgarishlarni xisobga olgan xolda o'z menejment dasturlarini ishlab chiqishi lozim;

❖ sug'urta tashkilotning investitsiya faoliyati istiqbolli iqtisodiy va ijtimoiy loyixalarga mo'ljallangan bo'lishi zarur.

Angliya sug'urta tashkilotlari, odatda bankdagi joriy hisob raqamlarida kundalik ehtiyoj uchun mo'ljallangan pul mablag'laridan ortiqcha bo'lgan mablag'larni saqlamaydilar.

### Nazorat savollari

1. Sug'urta biznesi sug'urta faoliyati bo'yicha qanday turlarga ajratiladi?
2. Hayot sug'urta biznesi faoliyati bo'yicha turkumlanishini tushuntirib bering?
3. Umumiy sug'urta biznesi tarkibini sanab bering?
4. Sug'urta biznesini sug'urta ob'yekti bo'yicha qanday turlarga ajratish mumkin?
5. O'zbekiston sharoitida shakllanadigan sug'urta mukofotlarining ulushi ixtiyoriy va majburiy sug'urtada qanday aks ettirilgan?



### III BOB. SUG'URTA MAHSULOTINI YARATISH VA UNI SOTISH TEKNOLOGIYASI

#### 3.1 Sug'urta mahsulotiga bo'lgan talabni o'rganish va sug'urta mahsulotini yaratish texnologiyasi

Sug'urta mahsuloti – sug'urtalanuvchiga sug'urta shartnomasi tuzish orqali taqdim etiladigan asosiy va yordamchi xizmatlar yig'indisidir. Sug'urtalovchining marketing strategiyasi quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- ❖ sug'urta mahsuloti sohasidagi siyosat;
- ❖ narx-navo siyosati;
- ❖ sug'urta mahsulotining sotilishini tashkil etish usuli va taqsimot siyosati;
- ❖ sotuvni rag'batlantirish va o'tkazish tizimlari;
- ❖ iste'molchilar bilan muloqot (ijtimoiy munosabatlar va sug'urta xizmatlari reklamasi va boshqalar).

Bu strategiyani savodli va samarali amalga oshirish uchun uning barcha vositalarini o'zaro aloqadorlikda hamda o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ko'rib chiqish zarur. Biron vositaga taa'lluqli u yoki bu qarorning qabul qilinishi umumiy holatda sug'urtalovchi marketing siyosatining boshqa tarkibiy qismlaridagi qaysi imkoniyatlarni afzal ko'rishiga qarab belgilanadi. Shuningdek, sug'urta bozorlari va mahsulotlarining dinamikasini hisobga olish ham muhim ahamiyatga ega. Sug'urta marketingi sohasidagi ko'pgina mutaxassislar aynan mahsulot marketing strategiyasining hal qiluvchi bo'g'inini tashkil etadi deb hisoblaydilar.

Sug'urta mahsulotlari sotuvini tashkil etishda uning marketing ifodasi asosiy o'rin tutadi. Sotuvni yuksak darajada o'tkazilishini ta'minlash uchun sug'urta mahsuloti iste'molchi uchun tushunarli bo'lgan va uning sotib olinishini oqlaydigan bir yoki bir necha g'oyaga ega bo'lishi, raqobatchilarning xuddi shu turdagi mahsulotlaridan afzal bo'lishi, o'xshash turdagi mahsulotlar orasida narxining balandligi bilan ajralib turmasligi shart. Tajribaning ko'rsatishicha, sug'urta mahsulotlari sotilishining ancha ko'tarilishida mahsulot iqtisodiy mexanizmining, hamda mahsulotni ta'minlab beradigan manfaatlarining mijozlar tushunishi uchun oson bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonlarni yuzida nur paydo etishdan ham foydaliroq bo'lgan boshqa natijalarga ham erishish mumkin. Biroq, shunga qaramay, bu ko'p hollarda sug'urta agenti mijozlarga u yoki bu xizmatni ko'rsatganida va moliyaviy mahsulotni to'q'ri sotganida qo'shadigan hissasining qiymatini anglab yetganida

oladigan mukofotidir. Bu agentlar mijozlari o'zlarini kutgan narsani olganlarida va shu mijozlarning talablari qondirilganida foydali maqsadga erishganliklarini his etadilar. Ular o'zlariga va o'zlarining maxsulotlariga hamda o'zlarining missiyalariga ishonadilar. Va ular shu ish bilan jon-dildan shug'ullanganliklari sababli birin-ketin muvaffaqiyatlarga erishadilar. Siz hech qachon muayyan bir maqsadni ko'zlash kuchini noto'qri baholamang.

Sizning savdongiz uchun aniq maqsad tamoyilini qo'llaganda quyidagi olti asosiy afzalliklarga erishiladi:

1. Maqsadning aniqligi insonda o'z-o'zini ta'minlash kabi pozitiv xarakteristikalarini, shaxsiy tashabbusni, tasavvurni, entuziazmini o'z-o'zini tartibga solishni va xarakterlarining konsentratsiyasini kuchaytiradi. Endryu Karnegi shunday degan edi: "Fikrlarning jamlanishi mening shiorimdir - birinchi halollik, keyin hafসা, so'ngra fikrlarning bir joyga qaratilishi".

2. Maqsadning aniqligi sizni vaqtingizni tejash va har kungi savdoni rejalashtirishga motivatsiyalaydi.

3. Maqsadning aniqligi sizni savdoning imkoniyatlarini bilishga yanada sergak qiladi. Bu esa sizni ushbu imkoniyatlarga muvofiq ravishda harakat qilish zarurligini anglashga undaydi.

4. Maqsadning aniqligi sizga o'z-o'zingizga ishonch uyg'otadi va potensial mijozlarning e'tiborini tortadi.

5. Maqsadning aniqligi ishonch, deb atalmish buyuk holat uchun katta yo'l ochib beradi. Maqsad ongni ijobiy holatda ushlab turadi va uni qo'rquv va shubha, umidsizlik, tortinchoqlik va prokrastinatsiya kabi cheklolardan xalos etadi. Bu esa, shubhasiz uning ko'p sonli afzalliklaridan eng kattasidir.

6. Maqsadning aniqligi sizga yutuqqa erishishda "jo'shqin orzu" ni rivojlantirishga va ushlab qolishga yordam beradi.

Iqtisodchilarning fikriga ko'ra yaqin kelajak professional sotuvchilar uchun katta tarixdagi eng zo'r mukofotlarni taqdim qiladi. Bugungi kunda biznesda bir necha lavozimlar mavjud bo'lib, ular malakali mutaxassislar uchun boshqalarga nisbatan ko'proq imkoniyatlar va o'z ishidan qoniqish hissini hamda, xavfsizlikni ta'minlay oladilar. Bugungi kunda yon-atrofimizda faoliyat yuritadigan u yoki bu sotuvchilar ko'p yillar davomida sabr bilan kutishgan va orzu qilganlar. Ayni paytda biznesda malakali professional savdogar kasbidan ko'ra boshqalar ehtiyojini qondirish orqali katta imkoniyat, ko'proq xavfsizlik va ulkan qoniqish taklif qiladigan lavozimlar kam. Bunday kasbdagi odamlar nafaqat katta daromad keltiradilar, balki insonlar zavqlanadigan hayot darajasining yuqori bo'lishi uchun javobgarlikni o'z zimmlariga olishlari mumkin.

Va aynan siz, mamlakatimiz o'z rivojlanishining bu tarixiy kulminatsion nuqtasiga kirib borganda barchadan ko'ra eng ulkan imkoniyat bilan siylagan sug'urta agentisiz. Nima uchun? Sababi bugungi axborotga boy bo'lgan muhitdagi bozor iqtisodi sharoitida o'rtacha istiqbol hayotni sug'urta qilishni muhim xaridlar yoki qimmatbaho qog'ozlar singari qabul qiladi. Bunday o'rtacha xarajat uch yilga ham bormay o'zini oqlaydi, ya'ni keladigan daromaddan to'liq qoplanadi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda AQSh da kuniga o'rtacha 55 ming inson vafot etadi, ularning uchdan ikki qismi hayotini sug'urta qilmagan bo'lib, uncha ko'pchilik bo'lmaganlar 50 ming dollardan ko'p bo'lmagan miqdordagina sug'urtaga ega bo'ladilar. Shunga qaramay, ushbu daromadni ham avval topa olmagan bo'lib chiqadilar. Biroq ushbu istiqbolda sug'urta orqali avvalgidan ko'ra ko'proq daromad ko'rish mumkin. Iste'molchi sifatida ular ushbu daromad chegaralangan ekanligini, ya'ni oziq-ovqat, turar joy, kiyim-kechak va tibbiyot xizmatlari uchun sarf qilinadigan asosiy xarajatlardan tashqari bo'ladigan xarajatlarni uchun sarf etilishi mumkinligini tushunadilar.

Katta miqdorda pulga ega bo'lgan ko'plab korxonalar va yanada ko'proq insonlar ushbu pullarni sarf etish va investitsiya qilish maqsadida savdo-sotiq yaxshi bo'lishi uchun yangi va qulay imkoniyatlarni taklif etmoqdalar. Savdo uchun bunday qulay imkoniyatlar qo'ng'iroq qilib kerakli savolni bera oladigan va ehtiyojni aniqlay oladigan hamda qiziqish uyg'ota oladigan, taqdimot qilib, shartnoma tuzib, biznesga xizmat ko'rsatadigan va savdoni amalga oshira oladigan professional agent uchun har doim mavjuddir.

Sug'urtani amalga oshirish har doim ham murakkab bo'lgan. Odamlar o'zlari istagan narsani sotadilar va o'zlari istagan narsani sotib oladilar. Agent sifatida siz ishlamoqchi, topmoqchi bo'lgan mukofot faqat siz bilan chegaralanib qolishining sababi ham shundadir. Siz o'zingizga o'zingiz xo'jayin bo'lganligingiz sababli qanday daromad qilish va yashash sharoitingiz qanday bo'lishini xohlashingizni faqat siz hal qilasiz. Iqtisodiy o'sishlar hamda bu ko'rsatkichning keskin pasayib ketishi siz va sizning biznesingizga u darajada ta'sir etmaydi.

### **3.2 Sug'urta mahsulotini sotish texnologiyasi**

Sug'urta mahsulotini sotish texnologiyasini amalga oshirishda ish-harakat va chora-tadbirlarni tashkil qilish va ketma-ketlikda kompleks olib borishni ifodalaydi. Bu yoki boshqa texnologiyalarni ishlab chiquvchilar oldida "qanday sotish kerak?", degan savol qo'yiladi va bu savolga javob mahsulot

iste'molchiga yetib borungga qadar bo'ladigan harakatlar algoritmi (biror masalani yechish qoidalari) ishlab chiqiladi va belgilanadi.

Nazariya va amaliyotda sotishning barcha texnologiyalari shartli ravishda to'rt guruhga bo'linadi:

- A) mahsulot bo'yicha;
- B) sug'urta shartnomasiga munosabat bo'yicha;
- V) avtomatlashtirish darajasi bo'yicha;
- S) sotish usullari bo'yicha.

Mahsulotga bog'liq holda sotish texnologiyasi o'z ichiga:

- 1) monosotuvlar (sug'urta xizmatining bir turini sotish);
- 2) multisotuvlar (sug'urta xizmatlarini kompleks sotish). Masalan, banklar uchun bankni kompleks sug'urtalash polisi — Bankers Blanket Bond qarzdorlar uchun ipoteka sug'urtasi, o'z ichiga titul sug'urtani oladi. ipoteka sug'urtasi va qarzdor hayoti sug'urtasi.
- 3) kross-sotuvlar (ya'ni, sotib oluvchiga asosiy mahsulotiga qo'shimcha xizmatlar). Masalan, sug'urtalovchilar avtomobil egasiga OSAGO polisi bilan birga mas'uliyatning kengaytirilgan limiti ixtiyoriy avtograjdanklik mas'uliyati sug'urtasini, shuningdek, KASKO sug'urtasi va yo'lovchilar hayoti sug'urtasini taklif qiladilar.

### 3-jadval

Sotish texnologiyasini klassifikatsiyalash (tasniflash)

| Klassifikatsiya mezonlari                    | Sotish texnologiyasi turlari  |
|--|---|
| 1. Mahsulot bo'yicha                         | a) monosotuvlar;<br>b) multisotuvlar;<br>v) kross-sotuvlar.   |
| 2. Sug'urta shartnomasiga munosabat bo'yicha | a) sotishning yangi texnologiyasi;<br>b) muddati uzaytirilgan shartnomalar texnologiyasi  |
| 3. Avtomatlashtirish darajasi bo'yicha       | a) qog'ozdagi ma'lumotnomalardan foydalangan holda qo'l bilan;<br>b) sotuvchi ishtirokida avtomatlashtirilgan holda;<br>v) to'liq avtomatlashtirilgan |
| 4. Sotish usullari bo'yicha                  | a) to'g'ridan to'g'ri sotish texnologiyasi;<br>b) vositachilar orqali (vositali) sotish texnologiyasi   |

Sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urtalovchi yoki yangi sotish texnologiyasiga murojaat qiladi (yangi mijozlarni jalb qilish uchun reklama, agentlar, brokerlar, pochta orqali jo'natmalar, hadyalar) yoki amaldagi sug'urta shartnomalari muddatini uzaytirish texnologiyalaridan (buning uchun sug'urtalovchi bor kuchini mavjud mijozlarni ushlab qolishga qaratadi, bu esa oson bo'lmaydi, statistikaning ma'lum qilishicha, mijozlarning sug'urta kompaniyasidan shartnoma amal qilinishining ikkinchi yilida ketib qolish holatlari juda ta'sirli) dan foydalanadi.

Avtomatlashtirish darajasi bo'yicha sotish texnologiyasi quyidagicha bo'linadi:

- qog'ozdagi ma'lumotlardan foydalangan holda qo'l bilan sotish (sug'urta qildiruvchi sug'urta uchun ariza va anketani qo'l bilan to'ldiradi, sug'urta kompaniyasining xodimi sug'urta shartnomasining muhim shartlarini qayd etib, unga sug'urta polisi yozib beradi. Ushbu texnologiya juda ko'p vaqtni oladi);

- sotuvchi ishtirokida avtomatlashtirilgan sotuvlar (sotuvchi hujjatlarni kompyuter programmasida rasmiylashtiradi, bunda sug'urta mukofotini hisoblash avtomat ravishda amalga oshiriladi, polis bosib chiqariladi va sug'urta qildiruvchiga taqdim etiladi);

- to'liq avtomatlashtirilgan sotuvlar (sotuvchi sug'urta qildiruvchi bilan bevosita aloqada bo'lmaydi. Bu texnologiyani internet-magazinlar amalga oshiradi. Sug'urta kompaniyasining saytiga kirgan mijoz arizani to'ldiradi, kompyuter programmasi esa sug'urta mukofotini hisoblaydi. So'ng u naqd pulsiz elektron hamyon yoki plastik karta vositasida poligga haq to'laydi).

**Sotish usullari bo'yicha sotish texnologiyasi quyidagicha bo'linadi:**<sup>7</sup>

Agar biz sotishning to'g'ridan to'g'ri usullari haqida gapiradigan bo'lsak, u holda sug'urtalovchilar quyidagi texnologiyalarga murojaat qiladilar:

- 1) shaxsiy sotish (ofisda va ofisdan tashqari);
- 2) muhim mijozlarni boshqarish;
- 3) to'g'ridan to'g'ri pochta va elektron jo'natmalari;
- 4) telemarketing va faks-marketing;
- 5) internet-marketing.

Vositali sotishlarda quyidagi texnologiyalardan foydalaniladi:

- 1) tarmoq ichida vositali sotish;
- 2) ish joylarida polislarni sotish;
- 3) bank sug'urtasi;

---

<sup>7</sup>Jack Kinder, Jr. Garry Kinder "Secrets of Successful Insurance Sales"



- 4) agent sotuvi.
- 5) broker sotuvi.

### 3.3 Sug'urta mahsulotini sotishda reklamani rejalashtirish usullari

Reklamani joylashtirishni rejalashtirishda ommaviy axborot vositalari samaradorligini baholash lozim. Sug'urta kompaniyasi bu ishni quyidagi uslubiyatlardan foydalangan holda bajarishi mumkin:

- narx orqali: pul, tiraj eng an'anaviy baholash usullaridan biri (polosa uchun reklama tarifi nashr tirajiga bo'linadi va 1000 ga ko'paytiriladi). analogiya usuli (eng yaxshisi - raqobatchilar reklamasi bo'yicha: - reklama qiymati, soni, reklamani joylashtirish joyi).

Biroq bunda shuni aniq tushunish kerakki, ko'plab nashrlar uchun kirish va chiqish ma'lumotlarida ma'lum qilingan tiraj chop etilgan tirajdan, chop etilgan tiraj esa – haqiqatda tarqatilgan tirajdan farq qiladi. Xorijda bo'rtirilgan tirajlar "sovun pufaklari"ga qarshi kurashning amaliy natija beradigan shakllari ishlab chiqilgan. Reklama beruvchilarda o'z nufuzi haqida qayg'uradigan nashrlar tomonidan amalga oshiriladigan ko'ngilli audit jarayoni eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Maxsus auditorlar yoki auditorlik firmalari tekshiruv natijalariga ko'ra amaldagi tirajning ma'lum qilingan raqamlarga muvofiqlik haqida xulosa beradi. Bunday xulosa ancha qimmatga tushadi, tekshiruvlar o'tkazish maxsus malaka (demak, litsenziya ham) talab qiladi, shunday ekan bizning mamlakatimizda bunday amaliyotni joriy qilish faqat sinov tariqasida o'ringa ega bo'lishi mumkin. Shu sababli ommaviy axborot vositasi samaradorligini mufassal tadqiq etishni yetarlicha tajribaga, zarur axborotga va professional darajada tayyorlangan xodimlar shtatiga ega bo'lgan reklama agentligiga topshirish ishonchliroq bo'ladi.

Oliy bo'g'in rahbarlarining axborotni afzal ko'rishni tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kompaniyalar rahbarlari eng samarali reklama tashuvchilar, deb bosma nashrlar – gazeta va jurnallarni hisoblaydi. Shu bilan bir paytda matbuotda reklama kompaniyasining muvaffaqiyatga erishishi yoki muvaffaqiyatsizligi nashr etilayotgan reklamani badiiy afzalliklari va professionalligiga, sifatga bog'liq bo'ladi.

Shu bilan birga oldindan sinab ko'rish uslubiyati ko'plab cheklovlarga ega bo'lib, reklama beruvchi ularni hisobga olishi zarur. Fakt tekshiruvdan o'tgani va sun'iy vaziyat yuzaga keltirishga olib kelishidan tashqari respondentlar odatiy potensial xaridorlar rolini o'ynamay qo'yishi mumkin - ular tanqidchilar yoki bilag'onlar rolini o'ynashni istab qolishi va ularning real xulq-atvorini aks

ettirmaydigan javoblar berishi mumkin. Ularga taqdim etilgan reklama haqida aniq fikrga ega bo'lmagan iste'molchilarni qoniqtirish uchun uni o'ylab topishlari mumkin. Bunday ayrim iste'molchilar reklama ta'siriga moyil ekanini tan olishni istamaydi. Boshqalar esa intervyuerga yoqimli taassurot qoldirishni (bu esa mustaqil ekspertiza foydasiga xizmat qiladi) va aslida unga yoqadigan reklama e'lonlarini emas, balki ularga yoqishi lozim bo'lgan e'lonlarni (bu yerda ijtimoiy maqsadga muvofiqlik omili ish beradi) maqtashi.

Oldindan tekshirish odatda, oldindan sinab ko'rishdan ko'ra ko'proq vaqt va mablag' talab qiladi, lekin aynan u sun'iy yaratiladigan sharoitlardan qochgan holda real sharoitlarda reklama e'lonlari ta'sirini sinab ko'rishga imkon beradi. Bunday tekshiruvlardan maqsad shundan ham iboratki, firmalar reytingini mahsulot bo'yicha, servis bo'yicha va raqobatchining holati bilan boshqa tavsifnomalar bo'yicha taqqoslash kerak bo'ladi.

Esda saqlanib qolishni tekshirishning maqsadi reklama qilinayotgan tovar yoki xizmatga bo'lgan munosabat yoki u haqidagi fikr-mulohazalarni bilib olish emas, balki muayyan xulq-atvorni aniqlash hisoblanadi. SHu sababli mazkur holatda reklama uning tabiiy ravishda taqdim etiladigan sharoitlarda qanday amal qilishi nuqtayi nazaridan tekshiriladi. Bunday tekshiruv reklama e'lonlarining o'qilishi, ularning raqobatchilar reklamasi bilan taqqoslaganda qanday ishlashini va sug'urta qildiruvchilar ongida qanchalik mustahkam o'rnanib qolishini aniqlash uchun juda foydalidir. Bu usullar sug'urta qildiruvchilar ularga reklama beruvchining murojaati mohiyatini tushunishini aniqlashga imkon beradi va reklama e'lonlarining o'lchami, rangi yoki sug'urta qildiruvchining e'tiborini jalb qilishi lozim bo'lgan boshqa alohida reklama tarkibiy qismlarining samaradorlik darajasi haqida qimmatli natijalar beradi. Esda saqlab qolishni tekshirish reklamani ta'sir darajasini emas, balki faqat u bilan tanishlikni belgilab beradi. Reklamani ko'rishgani yoki o'qishgani hali sotuvning albatta o'sishini anglatmaydi. Sug'urta polisi u bilan tanish bo'lganlar tomonidan emas, reklamani ko'rganlar tomonidan xarid qilinishiga qaramay, reklama e'loni yagona motivatsiya qiluvchi kuch, deb hisoblanishi mumkin emas. Esda saqlanib qolishni tekshirish inson xotirasi o'zgaruvchanligini hisobga olishi lozim. Ayrim odamlar yaxshiroq eslab qoladi, boshqalar esa - yomonroq. Kimdir o'z hissiyotlarini boshqalardan ko'ra yorqinroq ifodalay oladi. Respondentlar ko'pincha sarosimaga tushib qolishi, xijolat tortishi mumkin. Bundan tashqari foydalaniladigan uslubiyat turli o'ygga borish, idrok va farosatni uyg'otishi mumkin. Boshqa tomondan tovarga munosabatning o'zgarishini tekshirish ko'pincha sotuv samaradorligini aniqlashning eng yaxshi

usuli bo'lib xizmat qiladi. Bunday tekshiruvlar o'tkazish u qadar qiyinchilik tug'dirmaydi. Ular ko'p mablag' ham talab qilmaydi, chunki telefon, pochta yoki INTERNET dan foydalanish mumkin

Sug'urta kompaniyasining bosh maqsadi o'z xizmatlarini sotish darajasini oshirish hisoblanishi sababli, sotilish ko'rsatkichlarini tekshirish eng ommaviy hisoblanadi. Shubhasizki, bu turdagi tekshiruvlar reklama sotuvni tashkil qilish borasida yetakchi element hisoblangan holatlarda reklama samaradorligini aniqlash uchun juda foydalidir.

Biroq sotuvning o'sishi borasida bunday tekshiruvlarga tamomila umid qilib, bog'lanib qolmaslik kerak. Ko'pincha to'planayotgan sug'urta mukofotlari hajmiga aynan reklama qay darajada ta'sir etganligini aniqlash qiyin bo'ladi, chunki boshqa ko'plab omillar (masalan, raqobatchilar faoliyati, yil fasli, dong'i ketgan sug'urta hodisalari va halokatlar, hattoki ob-havo ham) ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sotuv darajasining o'zgarishi reklama ta'sirining bir onda sodir bo'ladigandan ko'ra ko'proq uzoq muddatli natijasi hisoblanadi.

*Tele va radioreklama*<sup>8</sup>. Televizion va radioreklama butun dunyo bo'ylab reklama beruvchilar orasida juda ommaviy hisoblanadi, chunki u eng katta muloqot doirasiga murojaat qilish uchun imkon beradi. Biroq uning muloqot doirasi qanchalik katta bo'lsa, shunchalik xilma-xil ham hisoblanadi. «O'zining» maqsadli guruhiga ta'sir ko'rsatish qiyin, chunki ixtisoslashgan ko'rsatuvlar soni juda kam. Televidenye va radioda amaliyotning ko'rsatishicha, turli konkurslar, lotereyalar, televizion viktorinalar va "tok-shou"ga homiylik qilish va h.k. katta muvaffaqiyatga erishadi.

Televidenye yordamida firma va uning markasini targ'ib qiladigan nufuzli reklama ham, muayyan xizmatlar sotishni rag'batlantiradigan tijorat reklamasi ham amalga oshirilishi mumkin. Qoidaga ko'ra televidenyedagi reklamanning ikki turidan faqat birinchisi katta samara beradi. Bu birinchidan, muloqot doirasining bir xil emasligi bilan, ikkinchidan esa – reklamani qabul qilish psixologiyasi o'ziga xosliklari bilan izohlanadi. Televizor qarshisida dam olayotgan yoki ekranga ish orasida nazar tashlab qo'yadigan kishi ishbilarmonlik qarorlari qabul qilish va manzilni yoki telefon raqamini yozib olish uchun darhol qo'lga qalam olishga unchalik moyil bo'lmaydi.

Potensial xaridor sizning reklamangiz paydo bo'lgan vaqtda uning yordamida televizorni boshqa kanalga o'tkazishi mumkin bo'lgan masofadan boshqarish pulti ko'rinishida namoyon bo'ladigan texnika taraqqiyoti yana bir qo'shimcha to'siq hisoblanadi. Shu sababli bitta reklama roligi yoki klipini

---

<sup>8</sup>Jask Kinder, Jr Garry Kinder "Secrets of Successful Insurance Sales"

televidenyeda ko'p marta takrorlash katta ahamiyat kasb etadi. Agar sizning reklamangiz e'firda faqat 1-3 marta paydo bo'lgan bo'lsa, pulni havoga sovurdim, deb bema'lol aytishingiz mumkin. Televidenyeda uzoq muddatli va keng miqyosdagi reklama kampaniyasi faqat "Uzbekinvest" NKEIS kompaniyasi tomonidan amalga oshirilgan. Boshqa sug'urta kompaniyalarining reklamasi ekranlarda juda kam paydo bo'ladi va keng miqyosdagi reklama kampaniyasi xarakteriga ega emas. Qoidaga ko'ra radioreklamani aholi bilan ishlayotgan va o'z polislarni respublikamiz hududining katta qismini qamrab oladigan filiallar tarmog'i orqali taklif qiladigan kompaniyalar tayyorlaydi. Teleekranda eng samarali vaqt – erta tong, kech oqshom (prime-time), kun esa – shanba hisoblanadi. Eng katta foyda keltiradigan oylar -yanvar, fevral, mart. Reklama beriladigan teledastur qanchalik qiziqaril bo'lsa, reklama beruvchi uchun shunchalik yomon – dasturdan olinadigan taassurotlar reklamadan olinadigan taassurotlarni "yuvib" ketadi.

Radioreklama ko'pincha samaraliroq bo'lib chiqadi, chunki ko'plab korxonalarda butun kun davomida yangrab turadi, uyda va avtomobilda ham ko'pchilik kuni bilan radiopriemnik yoqib qo'yadi. Biroq aynan shu sababli, agarda siz muttasil yangrab turadigan ovoz fonidan keskin ajralib turadigan qila olmasangiz, sizning reklamangiz ish bermasligi ham mumkin. Sug'urta xizmatlari samarali radioreklamasi kamdan kam uchraydi. Samarali reklama sifatida Rossiyaning ROSNO sug'urta kompaniyasining reklamasini misol qilib keltirish mumkin: "Ushbu bahorda ROSNO sizni muhabbatdan sug'urta qila olmaydi". Yaxshi tanlab olingan ohang, o'zgarmas muvaffaqiyatli kontekst, ko'rsatuv vaqti va joyini to'g'ri tanlash ushbu reklamaga muvaffaqiyat bo'lmasada, shubhasiz samaradorlik ta'minladi.

Radioda sug'urta reklamasi hozircha juda ham kam, va holanki, fuqarolar mulki va avtomobillarni sug'urta qiladigan kompaniyalar uchun puxtalik bilan rejalashtirilgan reklama xabarlarini sikli, shubhasiz, yetarli darajada samarali bo'ladi. Reklama dasturi va vaqtini belgilashda radiostansiyalar va telekanallar muloqot doiralarni ijtimoiy-demografik tavsifnomalaridan foydalanish lozim.

*Tashqi reklama.* Tijorat asosidagi tashqi reklama - bizning respublikamiz uchun nisbatan yangi bo'lgan ko'rinishdir. Uning samaradorligini baholash usullarini hali mutlaqo ishonchli va shubhasiz to'g'ri, deb hisoblash mumkin emas.

O'tkazilgan so'rovlar shuni ko'rsatadiki, reklamani ushbu turi xususiy shaxslar e'tiborini jalb qilish uchun eng samarali turlardan biri bo'lib chiqdi. So'rovda ishtirok etgan, rahbar lavozimlarni egallamagan respondentlarning

usuli bo'lib xizmat qiladi. Bunday tekshiruvlar o'tkazish u qadar qiyinchilik tug'dirmaydi. Ular ko'p mablag' ham talab qilmaydi, chunki telefon, pochta yoki INTERNET dan foydalanish mumkin.

Sug'urta kompaniyasining bosh maqsadi o'z xizmatlarini sotish darajasini oshirish hisoblanishi sababli, sotilish ko'rsatkichlarini tekshirish eng ommaviy hisoblanadi. Shubhasizki, bu turdagi tekshiruvlar reklama sotuvni tashkil qilish borasida yetakchi element hisoblangan holatlarda reklama samaradorligini aniqlash uchun juda foydalidir.

Biroq sotuvning o'sishi borasida bunday tekshiruvlarga tamomila umid qilib, bog'lanib qolmaslik kerak. Ko'pincha to'planayotgan sug'urta mukofotlari hajmiga aynan reklama qay darajada ta'sir etganligini aniqlash qiyin bo'ladi, chunki boshqa ko'plab omillar (masalan, raqobatchilar faoliyati, yil fasli, dong'i ketgan sug'urta hodisalari va halokatlar, hattoki ob-havo ham) ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sotuv darajasining o'zgarishi reklama ta'sirining bir onda sodir bo'ladigandan ko'ra ko'proq uzoq muddatli natijasi hisoblanadi.

*Tele va radioreklama*<sup>8</sup>. Televizion va radioreklama butun dunyo bo'ylab reklama beruvchilar orasida juda ommaviy hisoblanadi, chunki u eng katta muloqot doirasiga murojaat qilish uchun imkon beradi. Biroq uning muloqot doirasi qanchalik katta bo'lsa, shunchalik xilma-xil ham hisoblanadi. «O'zining» maqsadli guruhiga ta'sir ko'rsatish qiyin, chunki ixtisoslashgan ko'rsatuvlar soni juda kam. Televidenye va radioda amaliyotning ko'rsatishicha, turli konkurslar, lotereyalar, televizion viktorinalar va "tok-shou"ga homiylik qilish va h.k. katta muvaffaqiyatga erishadi.

Televidenye yordamida firma va uning markasini targ'ib qiladigan nufuzli reklama ham, muayyan xizmatlar sotishni rag'batlantiradigan tijorat reklamasi ham amalga oshirilishi mumkin. Qoidaga ko'ra televidenyedagi reklamaniing ikki turidan faqat birinchisi katta samara beradi. Bu birinchidan, muloqot doirasining bir xil emasligi bilan, ikkinchidan esa – reklamani qabul qilish psixologiyasi o'ziga xosliklari bilan izohlanadi. Televizor qarshisida dam olayotgan yoki ekranga ish orasida nazar tashlab qo'yadigan kishi ishbilarmonlik qarorlari qabul qilish va manzilni yoki telefon raqamini yozib olish uchun darhol qo'lga qalam olishga unchalik moyil bo'lmaydi.

Potensial xaridor sizning reklamangiz paydo bo'lgan vaqtda uning yordamida televizorni boshqa kanalga o'tkazishi mumkin bo'lgan masofadan boshqarish puli ko'rinishida namoyon bo'ladigan texnika taraqqiyoti yana bir qo'shimcha to'siq hisoblanadi. Shu sababli bitta reklama roligi yoki klipini

---

<sup>8</sup>Jask Kinder, Jr Garry Kinder "Secrets of Successful Insurance Sales"



televidenyeda ko'p marta takrorlash katta ahamiyat kasb etadi. Agar sizning reklamangiz efrida faqat 1-3 marta paydo bo'lgan bo'lsa, pulni havoga sovurdim, deb bema'lol aytishingiz mumkin. Televidenyeda uzoq muddatli va keng miqyosdagi reklama kampaniyasi faqat "Uzbekinvest" NKEIS kompaniyasi tomonidan amalga oshirilgan. Boshqa sug'urta kompaniyalarining reklamasi ekranlarda juda kam paydo bo'ladi va keng miqyosdagi reklama kampaniyasi xarakteriga ega emas. Qoidaga ko'ra radioreklamani aholi bilan ishlayotgan va o'z polislarini respublikamiz hududining katta qismini qamrab oladigan filiallar tarmog'i orqali taklif qiladigan kompaniyalar tayyorlaydi. Teleekranda eng samarali vaqt – erta tong, kech oqshom (prime-time), kun esa – shanba hisoblanadi. Eng katta foyda keltiradigan oylar -yanvar, fevral, mart. Reklama beriladigan teledastur qanchalik qiziqaril bo'lsa, reklama beruvchi uchun shunchalik yomon – dasturdan olinadigan taassurotlar reklamadan olinadigan taassurotlarni "yuvib" ketadi.

Radioreklama ko'pincha samaraliroq bo'lib chiqadi, chunki ko'plab korxonalarda butun kun davomida yangrab turadi, uyda va avtomobilda ham ko'pchilik kuni bilan radiopriemnik yoqib qo'yadi. Biroq aynan shu sababli, agarda siz muttasil yangrab turadigan ovoz fonidan keskin ajralib turadigan qila olmasangiz, sizning reklamangiz ish bermasligi ham mumkin. Sug'urta xizmatlari samarali radioreklamasi kamdan kam uchraydi. Samarali reklama sifatida Rossiyaning ROSNO sug'urta kompaniyasining reklamasi misol qilib keltirish mumkin: "Ushbu bahorda ROSNO sizni muhabbatdan sug'urta qila olmaydi". Yaxshi tanlab olingan ohang, o'zgarmas muvaffaqiyatli kontekst, ko'rsatuv vaqti va joyini to'g'ri tanlash ushbu reklamaga muvaffaqiyat bo'lmasada, shubhasiz samaradorlik ta'minladi.

Radioda sug'urta reklamasi hozircha juda ham kam, vaholanki, fuqarolar mulki va avtomobillarni sug'urta qiladigan kompaniyalar uchun puxtalik bilan rejalashtirilgan reklama xabarlarini sikli, shubhasiz, yetarli darajada samarali bo'ladi. Reklama dasturi va vaqtini belgilashda radiostansiyalar va telekanallar muloqot doiralarning ijtimoiy-demografik tavsifnomalaridan foydalanish lozim.

*Tashqi reklama.* Tijorat asosidagi tashqi reklama - bizning respublikamiz uchun nisbatan yangi bo'lgan ko'rinishdir. Uning samaradorligini baholash usullarini hali mutlaqo ishonchli va shubhasiz to'g'ri, deb hisoblash mumkin emas.

O'tkazilgan so'rovlar shuni ko'rsatadiki, reklamani ushbu turi xususiy shaxslar e'tiborini jalb qilish uchun eng samarali turlardan biri bo'lib chiqdi. So'rovda ishtirok etgan, rahbar lavozimlarni egallamagan respondentlarning

60% dan ortig'i tashqi reklamani u yoki bu sug'urta kompaniyasi haqida asosiy axborot manbasi, deb atagan.

Aksariyat hollarda tashqi reklama shaharni bezab turadi, ayrim ijodiy yechimlar esa hattoki, eng yaxshi g'arb namunalaridan ortda qolmaydi. Tashqi reklama vositalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin. binolar va inshootlardagi reklama taxtalari, ko'rsatkichlar, binolardagi vitrinalar, tashqariga chiqarib qo'yiladigan vitrinalar, ko'chalarda joylashtiriladigan reklama taxtalari, havo sharlari va aerostatlardagi reklama, nur sochib turadigan elektron tablolar va boshqa reklama, plakatlar hisoblanadi. Muvaffaqiyatsiz tayyorlangan reklama bilan shaharning istalgan nuqtasini «buzib» qo'yish mumkin. Har qanday reklamani noto'g'ri joyga joylashtirish bilan «buzib» qo'yish mumkin.

Tashqi reklamaga qo'yiladigan asosiy talablar, umuman olganda, reklamaning aksariyat turlariga qo'yiladigan talablar kabi – aniqlik, ko'rgazmalilik, qisqalikdir. Odatiy maxsus talablar – ob-havo sharoitlari ta'siriga va ayrim toifadagi fuqarolar harakatlariga chidamlilik; yirik hajm (doim ham emas), yoritish bilan bog'liq sharoitlar va qulay joylashuvdir. Afsuski, reklamani joylashtirish uchun shubhasiz yaxshi joylar bo'lmaydi

Sug'urta kompaniyalarining tashqi reklamasi asosan axborot berish xarakteriga ega bo'lib, qoidaga ko'ra shahar ko'chalari va avtotrassalardagi katta reklama taxtalari bilan ifodalanadi.

Reklama taxtalari alohida sug'urta turlarining reklamasidan ham, imidj reklamasidan ham iborat bo'lishi mumkin, biroq bunday reklamani tez-tez almashtirib turish aholining sug'urta kompaniyalari barqarorligi, ishonchligi va doimiyligi ortishiga xizmat qilmaydi.

Sug'urta kompaniyalar va firmalar rahbarlariga reklama jo'natmalari samaradorligini tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, konvertnda adresatning familiyasi va ismi yo'qligida xatlarning faqat 10% gina manzilga yetib boradi (qolgan xatlar sekretariatlar, referentlar, kanselyariya tomonidan "uzib" qo'yiladi), familiya va ism mavjudligida esa bu ko'rsatkich qariyb 50 % ga yetadi. Yanada ko'proq miqdorga qanday qilib erishish mumkin? Sizning reklama xabaringiz maqsadli muloqot doirasi tomonidan o'qiladigan profilli obuna nashrlariga yoki boshqa har qanday adresatlar uchun mo'ljallangan jo'natmalarga hamrohlik qilishi mumkin. Bunday vaziyatda u darhol savatchaga tashlab yuborilmaydi – obuna davriy matbuotga ma'lum bir hurmat ilan munosabatda bo'lish baribir ko'pchilikning qoniga singib ketgan. Jo'natmalardan so'ng retsiyentlarga qo'ng'iroq qilib chiqish va kompaniyangiz xizmatlari haqida qiziqib qolganlikni aniqlash ham mumkin.

### Nazorat savollari:

1. Sug'urta mahsulotiga bo'lgan talabni o'rganish deganda nimani tushunasiz.
2. Sug'urta mahsulotini yaratish texnologiyasini aytib bering.
3. Sug'urta mahsulotini sotish texnologiyasi deganda nimani tushunasiz.
4. Sug'urta mahsulotini sotishda reklamani tutgan o'rmini izohlab bering.
5. Sug'urta mahsulotini sotishni rejalashtirish usullarini aytib bering.
6. Tashqi reklamaga qo'yiladigan asosiy talablarni aytib bering.
7. Tashqi reklama vositalari qatoriga nimalar kiradi.

## IV BOB. SUG'URTA BOZORINING INSTITUTSIONAL TUZILISHI VA UNING UMUMIY XARAKTERISTIKASI

### 4.1 Sug'urta bozori sub'ektlari va ularga tavsif

O'zbekiston sug'urta bozorining sub'ektlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

Sug'urta agenti - sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Sug'urta brokeri - sug'urta qildiruvchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

Adjaster - sug'urta hodisasi ro'y berishi munosabati bilan sug'urtalanuvchi tomonidan bildirilgan e'tirozni tartibga solishda sug'urta kompaniyasining manfaatlarini himoya etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs. U sug'urtalanuvchi bilan unga to'lanadigan sug'urta qoplamasi miqdorini kelishishga harakat qiladi. Adjaster sug'urta hodisasining ro'y berish sabablarini o'rganadi va tahlil etadi. Ushbu tahlil natijalari bo'yicha sug'urta kompaniyasiga ekspert xulosasini tuzadi hamda avariya komissari funksiyasini bajaradi. Adjaster vazifasini sug'urta kompaniyasining tarkibiy bo'limi yoki ixtisoslashgan tashkilot amalga oshirishi mumkin.

Aktuariy - lotin tilidan tarjima qilganda hisobchi degan ma'noni bildiradi. Aktuar hisob-kitoblar nazariyasini o'zlashtirib olgan sug'urta matematikasi sohasidagi mutaxassis. U sug'urta tariflarini hisoblash va metodologiyasini ishlab chiqish, uzoq muddatli sug'urta turlari bo'yicha sug'urta zahiralarni shakllantirish bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi.

Sug'urta tashkilotlari turli tashkiliy-huquqiy shakllarda tuzilishi mumkin. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasida sug'urtalovchilar qonunlarda nazarda tutilgan barcha tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil etilishi nazarda tutilgan. Sug'urtalovchilar qaysi mulkchilik shaklida tuzilmasin, ularning ustav kapitaliga bo'lgan talab bir xil darajada o'rnatilgan. Ma'lumki, sug'urtalovchilar ustav fondining eng kam miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilanadi.

Sug'urtalovchi ustav fondining kamida to'qson foizi muassislarning (ishtirokchilarning) pul mablag'laridan shakllantiriladi. Sug'urtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan va



boshqa jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Sug'urtalovchining ustav fondi litsenziya olinadigan paytga qadar sug'urtalovchining muassislari tomonidan to'langan bo'lishi kerak. Sug'urta tashkilotlarining faoliyati boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatidan keskin farq qiladi. Shu sababli ularning faoliyati litsenziyalanadi. Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda maxsus vakolatli davlat organi beradigan litsenziyalar asosida amalga oshiriladi.

Litsenziya sug'urtalovchiga hayotni sug'urta qilish sohasida yoxud umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun beriladi. Hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas, umumiy sug'urta sohasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ayrim turlari (klasslari) bundan mustasnodir. Umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas. Litsenziyada sug'urtalovchi amalga oshirishni nazarda tutayotgan sug'urta turlari (klasslari) ko'rsatiladi.

2019 yil 1 sentyabr holatiga mamlakatimizda 34 ta sug'urta tashkiloti faoliyat ko'rsatadi. Ularning 8 tasi hayot sug'urtasida, 26 tasi umumiy sug'urta tarmog'ida sug'urta xizmatlarini ko'rsatadi<sup>9</sup>.

Davlat ro'yxatiga olingan va sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega sug'urta tashkilotlarining aksariyati aksionerlik sug'urta tashkiloti maqomiga ega. Sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs sug'urta agenti hisoblanadi. Sug'urtalovchining boshqaruv organlari rahbarlari sug'urta agenti bo'la olmaydilar. Sug'urta agenti o'z faoliyatini sug'urtalovchilar bilan tuzilgan topshiriq shartnomalari (agent bitimlari) asosida amalga oshiradi. Respublikamizdagi olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar sug'urta faoliyatining tubdan tutgan o'rni va faoliyatini o'zgartirdi. Sug'urta milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ko'maklashadigan, ijtimoiy yo'naltirilgan noyob barqarorlashtiruvchi mexanizmdir. U mamlakatda maqroiqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir etib, turli salbiy omillarning ta'sir darajasini pasaytiradi. Har qanday iqtisodiy faoliyat foyda olishga qaratilganidek sug'urta kompaniyalari faoliyatida ko'zlangan natija - bu birinchi navbatda foyda olishdir. U esa albatta

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasining Moliya Vazirligi ma'lumotlari



risk bilan bog'liq bo'ladi. Risk tadbirkorlik faoliyatining eng asosiy elementlaridan biri hisoblanib, u keng ma'noga ega bo'lgan ko'p qirrali tushunchadir. Sug'urta mohiyatan murakkab va ko'p qirrali tushunchadir. Bu atama iqtisodiy ishlab chiqarish va iste'mol, tabiiy ofatlar va ko'ngilsiz hodisalar, shuningdek, inson hayotida sodir bo'ladigan turli favquloddagi hodisalar bilan chambarchas bog'langan. Jamiyat iste'mol qiliшни to'xtata olmaganidek, ishlab chiqarishni ham inkor qilolmaydi. Insoniyat sivilizatsiyasining moddiy asosi ishlab chiqarish hisoblanadi. Lekin ishlab chiqarishning uzluksizligiga tabiiy ofatlar, ko'zda tutilmagan favqulodda hodisalar salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning hajmini kamaytirib, mahsulotning son va sifat darajasini pasaytirib yuboradi. Ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlash uchun esa yetkazilgan zararining o'rini tezda to'ldirish, fuqarolarga esa zarar oqibatlarini tugatishda yordam berilishi kerak. Buning uchun tashqaridan, birinchi navbatda, moliyaviy yordam berilishi talab etiladi. Aynan shunday moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimida sug'urta alohida o'rin tutadi. Yetkazilishi mumkin bo'lgan katta hajmdagi zararlarni qoplash uchun yetarli miqdordagi zaxira shakllantirishi lozim. Bu fondlar asosan yuridik va jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlari hisobidan shakllantiriladi, uning hisobidan yetkazilgan zararlarni qoplanadi va 8 favqulodda hodisalarning oqibatlari tugatiladi, ishlab chiqarishning son va sifat ko'rsatkichlari o'sishiga erishiladi. Mamlakatimizda sug'urta endi rivojlanib kelayotgan sohalardan biri bo'lib, uning iqtisodiyot rivojlanishiga qo'shadigan hissasi istiqbolli ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozori yildan-yilga jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda, lekin ushbu sohaning umumiy iqtisodiyotdagi ahamiyati hali yetarli darajaga ko'tarilmagan.

Ma'lumki, har qanday bozorda sotuvchi va xaridor bo'ladi hamda ular o'rtasida tegishli tovarlar (xizmatlar) ayirboshlanadi. Xuddi shunday, sug'urta bozorida ham sotuvchi (sug'urtalovchi) va xaridor (rotentsial sug'urtalanuvchi) ishtirok etadi. Bu erda rotentsial sug'urtalanuvchi tushunchasini qanday izohlash mumkin, degan o'rinli savol tug'ilishi mumkin. Gar shundaki, basharti, rotentsial sug'urtalanuvchini to'g'ridan to'g'ri sug'urtalanuvchi, deb atasak katta xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Negaki, amaldagi qonunlarga muvofiq, sug'urta kompaniyalari bilan bevosita shartnoma tuzgan, fuqarolik salohiyatiga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urtalanuvchilar deyiladi. Aksincha, sug'urta "mahsulotini" sotib olishga ehtiyoji bor, ammo hali sug'urtalovchilar bilan tegishli sug'urta munosabatlariga kirishmagan shaxslar rotentsial sug'urtalanuvchilar deb ataladi. Endi, sug'urtalovchilar haqida

gariradigan bo'lsak, sug'urtalovchi - bu mamlakat xududida sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqi berilgan hamda sug'urtalash o'zi uchun asosiy faoliyat turi hisoblangan yuridik shaxslardir. Ko'rinib turibdiki, sug'urta kompaniyasi tegishli faoliyat yuritishi uchun vakolatli davlat organining litsenziyasiga ega bo'lishi va sug'urtaga bog'liq bo'lmagan o'rnatmalar bilan shug'ullanmasligi zarur.

Sug'urtalovchilar bozorga o'zlarini ishlab chiqargan o'ziga xos mahsuloti - sug'urta xizmatini taklif etadilar. Ushbu xizmatlar yuzlab, minglab sug'urta kompaniyalari tomonidan sotilishi mumkin. O'z-o'zidan, bu holat sug'urta bozorida rotentsial mijozlarni jalb etish uchun sug'urta kompaniyalari o'rtasida raqobatning kuchayishiga olib keladi va "mahsulot"ning sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Eng asosiysi, rotentsial sug'urtalanuvchi har tomonlama o'zining talabini qondiradigan "mahsulot"ga ega bo'ladi. Bayon etilganlar quruq gar emas, balki bugungi kunda iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlar bozorida ruy berayotgan oddiy haqiqatdir.

Sug'urta bozorining mohiyatini chuqurroq anglab olish uchun kundalik hayotimizdan oddiy bir misol keltirsak maqsadga muvofiqdir.

O'zimiz yoki bolalarimizga kiyim-kechak sotib olish uchun buyum bozoriga boramiz. Aytaylik, birorta kiyim, aniqrog'i, kuylak sotib olmoqchimiz. Bazarda kuylakning har xili mavjud, baholari xam, narxi xam turlicha. Biz, albatta, sifati yaxshisini va bahosi arzonini sotib olamiz. Sug'urta bozorida ham aynan shu jarayon yuz beradi.

#### **4.2 Sug'urta bozori sub'ektlari faoliyatining tashkiliy va huquqiy asoslari**

Sug'urta kompaniyasi o'z mahsulotini bozorda sotar ekan, zimmasiga katta mas'uliyat olganligini unutmasligi kerak. Chunki, sug'urtalovchi o'ziga sug'urta mukofoti evaziga yirik miqdordagi riskni qabul qilib oladi va sug'urta hodisasi ruy berganda zimmasidagi sug'urta qorlamasini to'lashi shart. Shu o'rinda, biz sug'urta kompaniyasiga murojaat qilishni istagan yoki muayyan sug'urta xizmatiga ehtiyoj sezgan shaxslarga sug'urta shartnomasini tuzishdan oldin sug'urta kompaniyasining moliyaviy axvoli, balansi bilan albatta tanishib chiqishlarini maslahat qilamiz.

Sug'urta xizmati bahosining yuqori chegarasi talab hajmi va bank foizining miqdori bilan aniqlanadi. Sug'urta xizmatining ma'lum bir turiga etarli darajada talab mavjud bo'lganda, sug'urta tashkiloti mazkur xizmat bahosini yuqori darajada saqlab turishi mumkin. Lekin, vaqt o'tishi bilan bozorda

sug'urta xizmati ko'rsatish turlarining ko'rayishi bilan, o'z-o'zidan tarif stavkalari kamayadi.

Sug'urta bozori hududiy joylashuviga qarab xalqaro, mintaqaviy va milliy sug'urta bozorlariga bo'linadi

Mintaqaviy sug'urta bozori deganda savdo, iqtisodiy va boshqa jihatlardan o'zaro yaqin munosabatda bo'lgan bir nechta mamlakatlarning ichki bozori tushuniladi. Yevropa Ittifoqining sug'urta bozori yirik mintaqaviy bozordir.

Xalqaro sug'urta bozori sifatida dunyo miqyosida sug'urta faoliyatini olib boruvchi alohida mamlakatlarning ichki bozori tushuniladi. Jumladan, hozirgi vaqtda Yaroniya sug'urta bozorining xalqaro darajada muximi o'ni bor va keyingi o'n yillikda Yaroniya sug'urtachilari dunyo bozorida etakchilik qilib kelishmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, 1992 yili jahondagi eng yirik 20 ta hayotni sug'urta qiluvchi kompaniyalar ichida 9 tasi yoki 45 foizi Yaroniyaga tegishlidir. Bu kompaniyalarning moliyaviy salohiyati 869 mlrd. doll. miqdorida baholangan.

Sug'urta bozorlari hududiy bo'linish bilan bir qatorda sug'urta turlariga qarab ham xilma-xil bo'lishi mumkin. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar amaliyotida sug'urta bozori ikkiga bo'linadi:

1) Hayotni sug'urta qilish bilan bog'liq sug'urta xizmatlari bozori;

2) Umumiy sug'urta xizmatlari bozori.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu jarayonda sug'urta faoliyati ham rivojlanib, ravnaq tormoqda.

Sug'urta instituti bozor infratuzilmasining tarkibiy qismi sifatida uning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqta nazardan, sug'urta faoliyatida risklar transferi ham o'z navbatida, bozor infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir.

Sug'urta bozorini tashkil etishning eng muhim unsuri bu uning infratuzilmasidir. Infratuzilma so'zining lug'aviy ma'nosi lotincha so'zdan olingan bo'lib "infra" – "tag" va "structure" – "o'zaro joylashgan, o'zaro birlashgan va tuzilgan" ma'nolarini berdi.

Shu o'rinda, «infratuzilma» haqidagi tushunchasiga barcha manbalarda turlicha tushunchalar keltirilgan va iqtisodiy ilmiy lug'atlarda: masalan, «asosiy ishlab chiqarish sohalari va aholiga xizmat ko'rsatuvchi iqtisodiy tarmoqlar yig'indisi» yoki «ma'lum tarmoqqa xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqaruvchi va noishlab chiqaruvchi tarmoqlar majmuasi» kabi ma'nolarda qo'llanilishini qayd

etish mumkin. Xususan, sug'urta bozori infratuzilmasining mazmun-mohiyatini ochib berishda, iqtisodiyot sub'ektining samarali faoliyat yuritishi uchun kafolatli shart-sharoit yaratuvchi faoliyat turlari majmuasi nazarda tutiladi. Ma'lumki, sug'urta mahsuloti sotilishining o'ziga xos jihatlari mavjud va bu jarayon:

- sug'urta riski haqida axborot to'rlash va uni aniqlashtirish;

- sug'urta shartnomasini imzolash va uning amal qilishini ta'minlash kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Sug'urta faoliyatida risklar transfering mazkur bosqichlari o'ziga xos bilimni talab etadi. Ayni vaqtda ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra, ma'lum qisqa davr oralig'ida talab etilayotgan mutaxassis komraniyaning shtatlar birligiga kiritilishi iqtisodiy jihatdan samarasiz hisoblanishi ham mumkin. Shuning uchun komraniya o'z faoliyatida, odatda boshqa soha mutaxassislari xizmatidan foydalanadi. Demak, ta'kidlash mumkinki, sug'urta bozori infratuzilmasi uning professional ishtirokchilari va boshqa soha mutaxassislari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sifatida sug'urta faoliyatida risklar transfering samaradorligini ta'minlovchi omil sanaladi.

Sug'urta bozori infratuzilmasining o'ziga xosligidan kelib chiqib, shuni qayd etish mumkinki, uning tarkibiga sug'urta vositachilari, sug'urtachilar uyushmasi, avariya komissari, syurveyer, aktuariy, sug'urta auditori, maxsus ixtisoslashgan maslahatchilar hamda baholovchi firmalar kabi sub'ektlar kiradi (9.1-chizma). Shu o'rinda, London sug'urta bozori infratuzilmasi tarkibiga sug'urta anderrayerlari ham kiritilganligini qayd etish mumkin.


O'zbekiston sug'urta bozorida o'ziga xos o'ringa egadir. Masalan, aktuariy sug'urta xizmatlari narxini aniqlashda qatnashuvchi sub'ekt sanaladi. Bunda, u katta sonlar va ehtimollik qonunlari, shuningdek, statistik ma'lumotlardan foydalanadi. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta tashkilotlari aktuariy faoliyatisiz sug'urta xizmatlariga iqtisodiy asoslangan narxlarning belgilanishini ta'minlay olmaydi. Aktuariy sug'urta faoliyatini strategik rejalashtirish, sug'urta sohalari, klass(tur)lari, shuningdek, komraniya bo'yicha sug'urta portfeli tarkibi va sifatining tahlili kabi jarayonlarda ishtirok etadi. Ayrim davlatlarda sug'urta tashkilotining hisoboti uning vakolatli shaxslaridan tashqari aktuariy tomonidan ham tasdiqlanishi talab etiladi.

Sug'urta bozori infratuzilmasining yana bir asosiy sub'ekti bu avariya komissaridir. U sug'urta hodisasi yuz berganidan so'ng shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatda ishtirok etadi. Ta'kidlash mumkinki, avariya komissari sug'urta tashkiloti bilan tuzgan shartnomasi asosida faoliyat



yuritadi. U sug'urta tashkilotining vakili sifatida sug'urta hodisasi oqibatida zarar ko'rgan mulkni ko'rikdan o'tkazadi, uning ko'lam va sabablarini aniqlaydi hamda avariya sertifikatini tuzadi. Ba'zi mamlakatlarda sug'urta tashkiloti tomonidan avariya komissariga ma'lum limit doirasida yo'qolgan mulkni qidirish xarajatlarini amalga oshirish huquqi ham berilishi mumkin.

### Sug'urta bozori infratuzilmasining sub'ektlari



Keyingi yillarda O'zbekiston sug'urta bozori jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Mazkur jarayonda avariya komissari faoliyatining yo'lga qo'yilishi va rivojlantirilishi turli sub'ektlarning sug'urtaga bo'lgan ishonchlari ortishiga omil bo'ladi.

Sug'urta bozori infratuzilmasida avariya komissari bilan «yonma-yon» syurveyer va disrasherlar kabi sub'ektlar ham faoliyat ko'rsatadi. Syurveyer - bu maxsus eksrert bo'lib, u sug'urta ob'ektlarini sug'urta tashkiloti so'roviga asosan ko'rikdan o'tkazuvchi sub'ekt sanaladi. U sug'urtalanuvchi tomonidan



ob'ektni ko'rikdan o'tkazish uchun jalb etilishi ham mumkin. Ta'kidlash lozimki, uning avariya komissari bilan o'zaro o'xshash hamda o'ziga xos farqli tomoulari ham mavjud. Bundan tashqari syurveyni ixtisoslashganlik darajasi odatda avariya komissariga nisbatan yuqori sanaladi. Shuning uchun avariya komissari ham ba'zan syurveyer xizmatidan foydalanadi.

Sug'urta bozorida avariya komissari va syurveyer bilan birgalikda disrasher ham faoliyat ko'rsatishi mumkin. Mazkur faoliyat dengiz sug'urtasi bilan bog'liqligi sababli asosan dengiz bo'yi davlatlarida rivojlangan. Mol-mulk yoki boshqa ob'ektlar dengiz orqali manzilga etkazilish jarayonida yuz berishi ehtimol bo'lgan, turli risklardan sug'urtalanadi. Ma'lumki, dengiz transrortida bir necha sub'ektlarning mol-mulki yuklangan hamda ular sug'urtalangan bo'lishi mumkin. Dengizda sug'urta xodisasi yuz berishi oqibatida mulklarning zararlanishi umumiy avariya deb nomlanadi. Umumiy avariya holatida har bir mulk egasi qancha zarar ko'rganligini aniqlash lozim bo'ladi. Aynan shunday faoliyatni disrasher amalga oshiradi, hamda u ko'rilgan zararni hisoblash va uni xolisona taqsimlash bilan shug'ullanuvchi mutaxassis hisoblanadi. Zararning hisobi bo'yicha tuzilgan xujjat disrasha deb nomlanadi. Sug'urta bozori infratuzilmasida sug'urta vositachilari professional ishtirokchilar sifatida o'ziga xos o'rinni egallaydi. Ular sug'urtachi va sug'urtalanuvchi o'rtasida vositachilik faoliyatini amalga oshirish borasida muhim sub'ektlar hisoblanadi. Sug'urta vositachilarining tarkibiga sug'urta agentlari, sug'urta va qayta sug'urta brokerlari kabi sub'ektlar kiradi. Xususan, sug'urta agenti bu sug'urta tashkilotining nomidan yoki uning torshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va uning ijro etilishini tashkil etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir. Sug'urta brokeri esa sug'urtalanuvchining nomidan yoki uning torshirig'iga asosan shartnomani tuzish va uning amal qilishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs hisoblanadi. Sug'urta vositachilari sug'urta mahsulotini sotish bo'yicha maxsus tizimga ega bo'lib, sug'urta bozorining o'ziga xos infrastrukturasini tashkil etadi.

Sug'urtachilar uyushmasi unga a'zo bo'lgan sub'ektlarning manfaatlariga xizmat qilish maqsadida (masalan, 1985 yildan boshlab faoliyat ko'rsatayotgan Britaniya sug'urtachilar assotsiatsiyasi singari) tashkil etilishi mumkin bo'lgan sug'urta bozori infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Mazkur uyushma (assotsiatsiya) ning vazifasi keng ko'lamli bo'lib, u sug'urta sohasiga oid bilimlarni ommalashtirish, maxsus bukletlar, statistik ma'lumotlarni nashr etish kabi yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadi.

Sug'urta bozori infratuzilmasida auditorlik tashkilotlari ham o'ziga xos o'ringa ega. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 mayda qabul qilingan «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq sug'urta tashkilotlari ham auditorlik tekshiruvdan o'tishlari majburiy qilib belgilab qo'yilgan. Auditorlik tekshiruvni sug'urta tashkilotining so'roviga asosan amalga oshiriladi. Uning natijasiga ko'ra, auditor sug'urta tashkilotining moliyaviy ahvoli yuzasidan o'z xulosasini beradi. Mazkur xulosada sug'urta tashkilotining moliyaviy holati aks ettiriladi. Sug'urta tashkiloti auditor taqdim etgan xulosadan kelib chiqib, o'zining moliyaviy holatini yaxshilash strategiyasini ishlab chiqadi hamda uni amalga oshiradi. Sug'urta faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ham ega bo'lib, maxsus (masalan, tijorat banklari buxgalteriyasi kabi) buxgalteriya hisobini yuritish tartibini ishlab chiqishni talab etadi. Shuni qayd etish lozimki, sug'urta faoliyatini tekshiruvchi auditor bu soha yuzasidan maxsus bilimga ega bo'lmasa, tomonlar o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelishi mumkin. Shu sababdan, sug'urta faoliyatini rivojlantirishda uning o'ziga xos bo'lgan buxgalteriya hisobini yuritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan tashqari maxsus ixtisoslashgan maslahatchilar ham sug'urta bozori infratuzilmasining sub'ekti sifatida faoliyat yuritishlari mumkin. Mazkur sub'ektlar jumlasiga ixtisoslashgan va keng qamrovli maslahat byurolari, advokatlik hamda baholovchi firmalarni kiritish mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash mumkinki, mamlakatimizda maslahatchilik xizmatining rivojlanganlik darajasi hozirda yuqori emas va mazkur mutaxassislar sug'urta faoliyatida deyarli ishtirok etishmayarti. Xalqaro tajribani o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, bozor infratuzilmasi sug'urta bozori infratuzilmasini shakllantirish bilan bir butunlikda kechadigan jarayondir. O'zbekistonda sug'urta bozori infratuzilmasining shakllantirilishi birmuncha o'zgacha tarzda kechmoqda. Sug'urta bozori infratuzilmasida alohida mustaqil faoliyat ko'rsatishi lozim bo'lgan sug'urta vositachilari, auditorlari, sug'urta ob'ektlarini baholovchi(eksrt)lar hamda boshqa sub'ektlar, xorijiy amaliyotdagidan farqli ravishda, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlarining o'ziga birlashtirilgan. Garchi, sug'urta bozori infratuzilmasining rivojlanishi sust kechayotgan bo'lsada, sug'urta tashkilotlarining o'z infratuzilmasini rivojlantirishga bo'lgan harakatlari ko'zga tashlanmoqda. Xususan, bu borada «O'zbekinvest» EIMSKning etakchi bo'layotganini, uning qoshida «Sug'urta olami» nomli sug'urta biznesini o'qitish va «Innovatsiya va sug'urta xizmatlarini rivojlantirish» markazlari, «O'zbekinvest Eksinform» marketing hamda «O'zbekinvest Assistans» servis agentliklari «O'zbekinvest Sarmoyalari»

investitsion kompaniya shuningdek, boshqa sho'ba korxonalar samarali faoliyat ko'rsatayotganligini qayd etish mumkin.

Sug'urta bozori infratuzilasini shakllantirish va uning sub'ektlari faoliyatining me'yoriy-xuquqiy bazasini takomillashtirish O'zbekistonda sug'urta bozori taraqqiyotini yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqadi. Xususan, mamlakatimizda sug'urtachilar uyushmasini tashkil etish, aktuariy, syurveyer kabi sub'ektlarning faoliyatini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'kidlash joizki, bu jarayon sug'urta bozori infratuzilmasi sub'ektlarining alohida ixtisoslashuvini hamda ularning faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

#### **4.3 Sug'urta biznesida sug'urta vositachilarining tutgan o'rni va ular bilan o'zaro munosabatlarni tashkil etish tartibi**

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasida "Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyatining subektlari hisoblanadi. Sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta bozorining professional ishtirokchilari hisoblanadilar", deb qayd etilgan.

Sug'urta bozorining asosiy professional ishtirokchisi-sug'urtalovchi. Sug'urtalovchilar sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas. Quyidagilar bundan mustasnodir:

- maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartib va shartlardagi investitsiya faoliyati;
- sug'urta sohasidagi mutaxassislarning malakasini oshirish bilan bog'liq faoliyat;
- sug'urta agenti sifatidagi sug'urta vositachiligi;
- binolarni ijaraga bepish.

O'z navbatida, sug'urtalovchilar mulkiy shakliga qarab, bir nechta turda bo'ladi. Sug'urta bozorida qayd etilgan qatnashchilardan tashqari, o'zaro sug'urtalash jamiyatlari ham faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Bu jamiyatlarning boshqasug'urtalovchilardan farqi shundaki, ular foyda olish uchun intilmasdan, ko'rilgan zararni o'zaro hamkorlikda qoplashni nazarda tutadi. Statistik ma'lumotlar bo'yicha, o'zaro sug'urtalash jamiyatlari xalqaro sug'urta bozorida to'plagan sug'urta mukofoti hamda aktivlari jihatidan salmoqli o'ringa ega. AQSH va Yaponiya milliy sug'urta bozorlarida o'zaro sug'urtalash

jamiyatlarining soni jami sug'urta tashkilotlarining 50 foizdan ko'prog'ini tashkil etadi.

Hozirgi paytda respublikamizda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlari qaysi sug'urta sohasiga ixtisoslashganligiga qarab ikkiga bo'linadi: hayotni sug'urtalashga ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari hamda umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat ko'rsatuvchi sug'urta tashkilotlari.

O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari, adjasterlar, aktuariylar, sug'urta syurveyerlari, shuningdek assistans sug'urta bozorining professional ishtirokchilaridir.

1. Sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri va sug'urta agenti sug'urta vositachilari hisoblanadilar.

**Sug'urtalovchi** - O'zbekiston Respublikasining Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunning 6-moddasida quydagicha tarif berilgan.

1. Tegishli turdagi sug'urtani amalga oshirish uchun Moliya vazirligi tomonidan litsenziyaga ega bo'lgan va sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti bo'lgan, Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxs sug'urtalovchi deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunida Sug'urtalovchilar sug'urtani amalga oshirishga bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emasligi takidlab o'tilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida quyidagi sug'urtalovchilar o'z faoliyatini ko'rsatib, mijozlar uchun tez va sifatli xizmatlarni ko'rsatmoqdalar.

#### **Sug'urtalovchining huquq va majburiyatlari**

##### *Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:*

-qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda va shartlarda sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalari tuzish;

-o'z majburiyatlarini belgilangan tartibda qayta sug'urta qilish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida qayta sug'urta qilish;

-maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda investitsiya faoliyatini amalga oshirish;

-qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi sifatida professional faoliyatni amalga oshirish. Bunda mazkur faoliyat turini amalga oshirish uchun sug'urtalovchining litsenziya olishi talab qilinmaydi;

-sug'urta (qayta sug'urta qilish) sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirish bilan bog'liq faoliyatni, shuningdek sug'urta agenti sifatida sug'urta vositachiligini amalga oshirish;

-sug'urta hodisalari yuz berishining oldini olish va ogohlantirish chora-tadbirlarini maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda moliyalashtirish;

-sug'urtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta turlariga doir qoidalarni (shartlarni) qonun hujjatlariga muvofiq belgilash;

-sug'urta hodisasi ro'y berishining sabablari va holatlarini, shuningdek sug'urta to'voni (sug'urta puli) miqdorini belgilash uchun zarur bo'lgan tegishli axborot va hujjatlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlardan, sudlar, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda so'rash va olish;

-sug'urta agentlari, sug'urta va qayta sug'urta brokerlari, sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilari bilan tegishli shartnomalar tuzish;

-sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lashni qonun hujjatlarida va (yoki) sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasida belgilangan hollarda hamda tartibda rad etish, sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasini muddatidan ilgari bekor qilish;

-sug'urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan axborotni tekshirishni, sug'urta qildiruvchining sug'urta shartnomasi talablari va shartlarini bajarishi ustidan nazoratni sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshirish;

-chet el sug'urtalovchilariga syurveyer va adjaster xizmatlari ko'rsatish;

ilgari sug'urtalovchi tomonidan o'z ehtiyojlari uchun olingan yoki sug'urta shartnomasini amalga oshirish natijasida uning ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni realizatsiya qilish yoki ijaraga berish;

-O'zbekiston Respublikasining reyting tashkilotlari va chet el reyting tashkilotlari reytinglarini olish;

-o'zining alohida bo'linmalarini tashkil etish.

Sug'urtalovchi qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### Sug'urtalovchi quyidagi majburiyatlarga ega:

-sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

-sug'urta faoliyatini amalga oshirish chog'ida olingan axborotning maxfiyligini qonun hujjatlari talablariga muvofiq ta'minlashi;

-o'zi vakolat bergan sug'urta agentlarining reestrini yuritishi;



-qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga binoan taqdim etishi;

-sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, qonun hujjatlarida yoki sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasida nazarda tutilgan muddatlarda barcha zarur hisob-kitoblarni amalga oshirishi va sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lashi;

-(firmaning nomi, tashkiliy-huquqiy shakli yoki joylashgan eri o'zgarigan taqdirda, bu haqdagi axborotni sug'urta qildiruvchilarga ushbu Qonunda belgilangan tartibda etkazishi;

-sug'urta zaxiralarini maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda shakllantirishi hamda joylashtirishi;

-qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi;

-maxsus vakolatli davlat organi belgilagan tartibda bir yilda kamida bir marta aktuar tashkilotni aktuar xizmatlar ko'rsatish uchun jalb etishi;

-maxsus vakolatli davlat organi belgilagan shaklda, tartibda va muddatlarda yillik moliyaviy hisobotni e'lon qilishi;

-qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi;

-moliyaviy, statistika, soliq hisobotlarini va boshqa hisobotlarni tuzishi shart.

Sug'urtalovchining zimmasida qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin<sup>10</sup>.

**Avariya komissari** - sug'urta kompaniyasining vakolatiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs. Sug'urtalangan kema yoki yuk bo'yicha ko'rilgan zararining xarakteri va miqdorini aniqlaydi, hodisa ro'y berganlik sabablarini o'rganadi. Sug'urta kompaniyasi avariya komissarining chet elda ham, mamlikat ichkarisida ham tayinlashi mumkin. Avariya komissarining yuridik manzili, telefon va teleks raqamlari sug'urta kompaniyasi tomonidan beriladigan sug'urta rolisida ko'rsatiladi. Sug'urtalanuvchi sug'urta xodisasi ro'y berishi zahoti avariya komissariga murojaat qilishi zarur. Avariya komissari mol-mulkning zararlanganlik darajasini aniqlaydi va sug'urta kompaniyasining torshirig'iga asosan, ko'rilgan zararni qisman qorlashi mumkin. Avariya komissari bajarilgan ishlar to'g'risida sug'urta kompaniyasi uchun avariya sertifikatini tuzadi yoki unga yozma axborot tayyorlaydi.

**Adjaster** - sug'urta xodisasi ro'y berishi munosabati bilan sug'urtalanuvchi tomonidan bildirilgan e'tirozni tartibga solishda sug'urta kompaniyasining

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasining qonuni «Sug'urta faoliyati to'g'risida» - T. 2002 y. 5 aprel. «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 28 may

manfaatlarini himoya etuvchi jismoniy yoki huquqiy shaxs. U sug'urtalanuvchi bilan unga to'lanadigan sug'urta qorlamasi miqdorini kelishishga harakat qiladi. Adjaster sug'urta xodisasini ro'y berish sabablarini o'rganadi va tahlil etadi. Ushbu tahlil natijalari bo'yicha sug'urta kompaniyasiga eksport xulosasini tuzadi hamda avariya komissari funksiyasini bajaradi. Adjaster vazifasini sug'urta kompaniyasining tarkibiy bo'limi yoki ixtisoslashgan tashkilot amalga oshirishi mumkin.

Adjaster sug'urtalovchining (sug'urta qildiruvchining) va boshqa buyurtmachining topshirig'i bo'yich quyidagi xizmatlarni ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim yoki malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir.

Adjaster o'z faoliyatini sug'urtalovchi (sug'urta qildiruvchining) va boshqa buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

•Sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish operatsiyalari o'tkazishga:

- Sug'urta bo'yich vositachilik faoliyatini amalga oshirish;
- Sug'urtalovchining ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Adjaster xizmat ko'rsatish natijalari hisobot tarzida rasmlashtirilib, undan sug'urtalovchi zararlarni o'rnini qoplash va nizolarni xal qilish chog'ida foydalanishi mumkin.

Bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida quyidagi adjasterlik tashkilotlar o'z faoliyatini ko'rsatib kelmoqdalar.

#### Adjasterlik tashkilotlar<sup>11</sup>

| № | Kompaniya nomlari | Huquqiy tashkiliy shakl        |
|---|-------------------|--------------------------------|
| 1 | ASCON SERVICE     | Mas'uliyati cheklangan jamiyat |
| 2 | Bovar Service     | Mas'uliyati cheklangan jamiyat |
| 3 | LABB              | Mas'uliyati cheklangan jamiyat |

**Aktuariy** - lotin tilidan tarjima qilganda hisobchi degan ma'noni bildiradi. Aktuar hisob-kitoblarni nazariyasini o'zlashtirib olgan sug'urta matematikasi sohasidagi mutaxassis. U sug'urta tariflarini hisoblash va metodologiyasini

<sup>11</sup>Ma'lumot [www.uzrepost.com](http://www.uzrepost.com) sayti asosida tayyorlangan.

ishlab chiqish, uzoq muddatli sug'urta turlari bo'yicha sug'urta zahiralari shakllantirish bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Hozirgi raytda Angliyada aktuariylar instituti faoliyat ko'rsatmoqda. Aktuariylarning xalqaro uyushmasi mavjud.

Aktuariy maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda aktuariy malaka sertifikatini olgan va aktuar tashkilot shtatida turgan yoki aktuar tashkilot bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzgan jismoniy shaxsdir.

Aktuariy sifatsiz aktuar xizmatlarini ko'rsatganlik, tijorat sirni yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni oshkor qilganlik va aktuar tashkilotning zarar ko'rishiga olib kelgan o'zga xatti-harakatlari natijasida etkazilgan zarar uchun aktuar tashkilot oldida javobgar bo'ladi.

Aktuar tashkilot o'z shtatida kamida bitta aktuariyga ega bo'lishi kerak. -sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish operatsiyalari o'tkazishga;

-sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga.

-sug'urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida quyidagi aktuar tashkilotlar ham mavjud bo'lib ular riskni qay darajada ekanligini aniqlab kerakli tariff stavkani hisoblab chiqishdi. Sug'urta bozorida aktuar hisobchilarni o'ni juda katta desak xato bo'lmaydi. Hozirda quidagi aktuar tashkilotlar mijozlarga o'z faoliyatini ko'rsatib kelmoqdalar.

#### Aktuar tashkilotlar<sup>12</sup>

| № | Kompaniya nomlari        | Huquqiy tashkiliy shakl        |
|---|--------------------------|--------------------------------|
| 1 | Actuarial Advisers       | Mas'uliyati cheklangan jamiyat |
| 2 | Actuarial Service Bureau | Mas'uliyati cheklangan jamiyat |

**Aktuar hisob-kitoblar** - sug'urta tarifi stavkalarini hisoblashning iqtisodiy-matematik usullari yig'indisi. Ushbu hisob-kitoblar katta sonlar qonuniga asoslanadi. Aktuar hisob-kitoblarning metodologiyasi, ehtimollar nazariyasi, demografiya qonuniyatlariga asoslanadi, tariff stavkasini miqdori sug'urta hodisalari ro'y berishining ehtimoliyligiga bog'liq. Demografiya ma'lumotlaridan fuqarolarning hayotini sug'urtalashda sug'urtalanuvchilarning yoshiga mos ravishda sug'urta tarifi stavkasini tabaqalashtirishda foydalaniladi. Uzoq muddatli hayotni sug'urtasi bo'yicha sug'urta summalari sug'urtalangan

<sup>12</sup>Ma'lumot [www.uzreport](http://www.uzreport) sayti asosida tayyorlangan.

shaxs vafot etganda yoki u ma'lum bir yoshga etganda to'lanadi. Etarli miqdordagi sug'urta fondini shakllantirish uchun, sug'urtalovchi shartnoma amalda bo'lgan davrda qancha shaxs vafot etishi yoki ma'lum bir yoshga yetishi ehtimoliyligini bilishi zarur.

**Anderrayter** - 1) turli risklarni sug'urtalash vakolatiga ega, sug'urta kompaniyasi tomonidan tayinlanadigan shaxs. Sug'urta kompaniyasining sug'urta ro'yxatini shakllanishi uchun javob beradi. U sug'urta shartnomalarini tuzish, risklarni baholash va sug'urta tarifi stavkasini belgilash yuzasidan tegishli malakaga ega bo'lishi zarur; 2) Lloyd sug'urta ro'yxatini beradigan Lloyd sug'urta korporatsiyasini a'zosi; 3) potentsial mijozlarga sug'urta ro'yxatini sotish bilan shug'ullanadigan yoki manfaatdor tomonlarga sug'urta sohasi bo'yicha yuqori darajada maslahat xizmatlarni ko'rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

**Disrasher** - dengiz transportida umumiy avariya sodir bo'lganda ko'rilgan zararni kema, yuk va fraxt o'rtasida taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblarni tuzadigan mutaxassis. Rivojlangan mamlakatlarda disrasher funksiyasini maxsus kompaniyalar bajaradi. Zararlarni taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblar disrasha deyiladi va disrashani tuzganlik uchun xaqni manfaatdor tomonlar (kema egasi, yuk egasi, yukni sotib oluvchi shaxs) to'laydi.

**Sug'urtalovchilar uyushmasi** - sug'urta faoliyatini muvofiqlashtirish, uyushma a'zolarining manfaatini davlatning qonun chiqaruvchi va ijroiya organlari oldida himoya etish hamda mahalliy sug'urta kompaniyalari va xorijiy sug'urta kompaniyalari o'rtasida o'zaro foydali aloqalarni o'rnatish maqsadida tashkil etiladigan sug'urta kompaniyalarining uyushmasi. Bunga o'zaro sug'urtalash jamiyatlarini xalqaro uyushmasini, texnik risklarni sug'urtalovchi kompaniyalar ittifoqini, Buyuk Britaniya sug'urtalovchilar uyushmasini misol keltirish mumkin. Hozirgi raytda O'zbekistonda sug'urtalovchilar uyushmasi tashkil etilmagan. Faqat, avtosug'urtalovchilar ittifoqi faoliyat ko'rsatmoqda.

### O'zbekistonda sug'urtalovchilar uyushmasi<sup>13</sup>

| № | Kompaniya nomlari  | Huquqiy tashkiliy shakl        |
|---|--|--------------------------------|
| 1 | O'zbekiston sug'urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi | Mas'uliyati cheklangan jamiyat |

<sup>13</sup>Ma'lumot [www.uzreport.sayti](http://www.uzreport.sayti) asosida tayyorlangan

**Syurveyer** - sug'urtaga tortiladigan mol-mulkni ko'rkdan o'tkazuvchi sug'urta kompaniyasining xodimi. Sug'urta kompaniyasi syurveyni xulosasi asosida sug'urta shartnomasini tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi. Chet el amaliyotida yong'in havfsizligini ta'minlovchi ixtisoslashgan firmalar, mehnat muhofazasi bo'yicha tashkilotlar syurveyer funksiyasini bajaradi.

1. Sug'urta syurveyeri quyidagilar bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir.

- sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi tuzilguniga qadar sug'urta (qayta sug'urta qilish) ob'ektini ko'zdan kechirish va tekshirish;

- sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi tuzilguniga qadar barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, tavakkalchilik darajasini aniqlash;

- tekshirilayotgan sug'urta ob'ekti bo'yicha xulosa tuzish.

Sug'urta ekspertizasini o'tkazishga vakolatli mutaxassislarning (ekspertlarning) ish tartibi sug'urta syurveyeri tomonidan belgilanadi.

Sug'urta syurveyeri o'z faoliyatini sug'urtalovchi (sug'urta qildiruvchi) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Chet el mamlakatlarida adjaster yana boshqa sug'urta turlari bo'yicha o'z faoliyatini olib boradi. Ko'proq dengiz bo'yi mamlakatlarida adjaster quyidagicha tariflangan. Sug'urtalangan kema va yuklar bo'yicha zararining sababi, tavsifi va miqdorini aniqlash bilan shug'ullanuvchi vakolatli jismoniy yoki yuridik shaxs. Sug'urtalovchi avariya komissarini mamlakat ichida hamda ushbu mamlakatning qonunchiligiga muvofiq chet elda tayinlaydi. Amalga oshirilgan ishlarning natijalariga muvofiq avariya komissari avariya sertifikatini tuzadi. Avariya komissari vazifasini adjaster bajaradi.

**Assistans** - sug'urta qildiruvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) hamda sug'urtalovchilarga sug'urta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi, shuningdek ularga moliyaviy ko'mak beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir.

Assistans o'z faoliyatini sug'urtalovchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Assistans xizmatlariga sug'urta qildiruvchilar (sug'urtalangan shaxslar) ishtirokisiz faqat sug'urtalovchilar tomonidan haq to'lanadi.

Assistans:

- sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish operatsiyalari o'tkazishga;



- sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;
- sug'urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida quyidagi assistans tashkilotlar o'z faoliyatini ko'rsatib kelmoqdalar.

#### Assistans tashkilotlar<sup>14</sup>

| № | Kompaniya nomlari      | Huquqiy tashkiliy shakl        |
|---|------------------------|--------------------------------|
| 1 | Bovar Service          | Mas'uliyati cheklangan jamiyat |
| 2 | Global Assist          | Mas'uliyati cheklangan jamiyat |
| 3 | Insurance Assist Group | Mas'uliyati cheklangan jamiyat |
| 4 | Intertich              | Mas'uliyati cheklangan jamiyat |
| 5 | O'zbekinvest Assistans | Mas'uliyati cheklangan jamiyat |
| 6 | ESADO                  | Mas'uliyati cheklangan jamiyat |
| 7 | Ascon Service          | Mas'uliyati cheklangan jamiyat |

Assistans zimmasida qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunga kelib bir qancha assistans korxonalari tashkil topdi. Ular sug'urta tashkilotlari yoki ma'suliyati cheklangan jamiyatlar tarzida o'z xizmatlariniko'rsatib kelmoqdalar. Misol uchun hozirgi kunda

- ESADO
- Global assistans
- O'zbek invest assistans
- Bovar service
- Ascon service
- Intertich
- Insurance Assist Group

Assistans firmalari mijozlarga o'z xizmatlarini ko'rsatib kelmoqdalar, ulardan ESADA va Global assistans tibbiy xizmatlar bo'yicha o'z faoliyatini amalga oshirsalar. O'zbek invest assistans, Bovar servis va Ascon servis transport vositalar yuzasidan mijozlarda tez va sifatli xizmatlar ko'rsatmoqdalar.

Assistans kompaniyalarini xizmat ko'rsatish dasturi:

<sup>14</sup>Ma'lumot www.uzreport sayti asosida tayyorlangan

Jismoniy va yuridik shaxslarga bir qanchi xizmat ko'rsatish dasturini yaratildi. Ularga:

- ❖ Adjaster
- ❖ Suyveyr
- ❖ Assistans xizmatlari

Assistans kompaniyalari xizmatlari bugungi kunga kelib quyidagi xizmatlarni taklif qilmoqda:

- 24 soatlik dispechirlik xizmati
- Sug'urta shartnomasi va sug'urta hodisalari bo'yicha turli maslahatlar berish.
- Sug'urta hodisasi yuz bergan joyga borib kerakli hujjatlarni berish
- Sug'urta hodisasi yuz bergan joyga tegishli organ hodimlar bilan boorish.
- Agar sug'urta hodisasi yuz bergan joyda jabirlanganlar bo's n yerga tibbiyot hodimlarini chaqirish.
- Sug'urta hodisasi natijasida ko'rilgan zararni ko'rib chiqish va baxolab berish.
- Sug'urta hodisasi tufayli zarar yetgan obyektini saqlab qolish va uni riskini kamaytirish.
- Sug'urta hodisasi bo'yicha kerakli hujjatlarni yeg'ish.

**Agent** - Sug'urta agentlarining faoliyati "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003 yil 28 yanvardagi 19-son bug'rug' i bilan tasdiqlangan hamda 2003 yilning 1 fevralida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1213-son bilan ro'yxatga olingan "Sug'urta agentlari to'g'risida"gi Nizomga muvofiq tartibga solinadi. Sug'urtalovchining nomidan va uning topshipig'iga muvofiq sug'urta shartnomalarini tuzish hamda uning ijrosini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxslarga sug'urta agenti deyiladi.

Sug'urta agenti- jismoniy shaxs o'z nomiga, to'lovlar naqd pul bilan amalga oshirilganida esa yaqin qarindoshlari nomiga sug'urta shartnomalari bo'yicha hujjatlar yozishga, shuningdek, o'z foydasiga sug'urta shartnomalari tuzishga va bunda mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta agenti sifatida ish ko'pishga haqli emas.

Sug'urta agenti quyidagi huquqlarga ega:

– sug'urtalovchi tomonidan berilgan vakolatlar doirasida sug'urtaning har qanday turi, shu jumladan, majburiy sug'urta turlari bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirish;

– sug'urta qabul qilinayotgan sug'urta tavakkalchiligini baholashda, sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta to'lovini to'lashda va sug'urta qildiruvchining sug'urta mukofotini to'liq hajmda hamda sug'urta shartnomasida belgilangan muddatlarda to'lashida zarur ko'mak ko'rsatish;

– sug'urtalovchidan litsenziyaning mavjudligi, ustav fondi miqdorlari, sug'urta zahiralari hamda qabul qilingan majburiyatlari to'g'risida, shuningdek, sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumotlar olish;

– sug'urta qildiruvchilarning so'roviga ko'ra ularga sug'urtaning amaldagi shartlari to'g'risida axborot bepishi;

– mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etgan ma'lumotlarning mahfiyligini saqlashi;

– tegishli bitim mavjud bo'lgan taqdirda, sug'urtalovchining torshipig'iga ko'ra va uning hisobidan sug'urta to'lovlari to'lanishini tashkil etishi shart.

Sug'urta agentining zimmasida qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Tabiiyki, agent bitimini tuzishdan oldin sug'urta tashkiloti agent bilan suhbat uyushtiradi, zaruriyat bo'lganda kasbiy faoliyatga layoqatlilik nuqtai nazaridan savol-javob tashkil etadi. Suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan shaxslar bilan agentlik bitimi imzolaniadi. Amaldagi holatdan kelib chiqqanda, ayrim sug'urtalovchilar agentni ishga qabul qilganlaridan so'ng ularni sug'urta tashkilotida tashkil etilgan agentlarni tayyorlash kurslarida bepul o'qitadilar. Shuni diqqatga sazovopki, sug'urta agentining ish vaqti sug'urta tashkiloti tomonidan belgilanmaydi. Demak, jismoniy shaxslar asosiy ishlaridan bo'sh paytlarida sug'urtalovchi bilan tuzilgan agentlik bitimiga binoan uning nomidan sug'urta polislarini mijozlarga sotishlari mumkin.

Alohida ta'kidlash lozimki, topshiriq shartnomasi (agent bitimi) tuzilgan kundan 5 kun ichida sug'urta agenti- jismoniy shaxsga guvohnoma beriladi. Shundan so'ng sug'urtalovchi agentni uning nomidan sug'urta shartnomalarini tuzish uchun kerakli bo'lgan ish qog'ozlari, sug'urta qilish qoidalari, shartnomalari, sug'urta tariflari, sug'urta polislarini, reklama va boshqa kepakli hujjatlar bilan ta'minlaydi. O'z navbatida, sug'urta agenti sug'urtalovchi tomonidan ajratilgan hujjatlarni, shu jumladan, qat'iy hisobda turuvchi hujjatlarni to'liq va butun saqlanishi uchun javobgap hisoblanadi. Agent

vaziyatga qapab va sug'urtalovchining talabidan kelib chiqqan holda haftada yoki oyda bir marta vositachilik faoliyati yuzasidan sug'urtalovchiga hisobot berib boradi- bu shartlar agent bitimida o'z aksini topgan bo'lishi kerak. Hisobotda agent tomonidan tuzilgan va sotilgan sug'urta polisleri, shunga muvofiq ravishda, sug'urta tashkiloti hisob raqamiga kelib tushgan sug'urta mukofotlari miqdori haqida ma'lumotlar batafsil bayon etiladi. Sug'urta agentlariga to'lanadigan vositachilik haqi sug'urtalovchining yoki uning filialining hisob raqamiga kelib tushgan sug'urta mukofotiga nisbatan foizlarda hisoblanadi. Sug'urta agentlari mehnatiga haq to'lash, sug'urta agenti tuzgan shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlaridan vositachilik puli shaklida amalga oshiriladi. Vositachilik puli miqdori sug'urta agenti tuzgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urtalovchi hisob raqamiga tushgan sug'urta mukofotlarining 25 foizidan oshishi mumkin emas.

Shuni takidlash lozimki bugungi kunda sug'urta tashkilotlari uchun agentlarni xizmati juda katta desak xato qilmaymiz. Agentlar yordamida juda katta summa davlat budjetiga tushmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida 8000 ming ga yaqin agentlar o'z xizmatlarini ko'rsatmoqdalar bu juda katta natija. Ularni 84% jismoniy shaxslar qolgan 16 % ni yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan agentlarni tashkil qiladi.

**Sug'urta brokeri** - Hozirgi paytda respublikamizda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlari qaysi sug'urta sohasiga ixtisoslashganligiga qarab ikkiga bo'linadi: hayotni sug'urtalashga ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari hamda umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat ko'rsatuvchi sug'urta tashkilotlari.

Sug'urta bozori professional ishtipokehilari tarkibiga sug'urta brokeri ham kiradi. Sug'urta brokeri- sug'urta qildiruvchining nomidan va topshipig'iga binoan sug'urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs. O'zbekistonda sug'urta brokerlari tizimi shakllanish jarayonini boshidan kechirmoqda. Ammo hozirgi paytda sug'urta xizmatlarining aksariyati ularning ishtirokisiz amalga oshirilmoqda.

#### **4.4 Sug'urta vositachilarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi**

Chet mamlakatlarda, ayniqsa iqtisodi taraqqiy etgan mamlakatlar sug'urta tizimida brokerlar muhim o'rin egallaydi. Mustaqillik tufayli va iqtisodiyotda ro'y berayotgan tarkibiy o'zgarishlar sug'urta sohasida ham brokerlarni faoliyat ko'rsatishiga zamin yaratdi. Tan olish zarurki, hozirgi paytda o'zbekistonda sug'urta brokerlari unchalik rivojlangan emas. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 2006 yilning 1 yanvar holatiga mamlakatimizda bitta

sug'urta brokeri faoliyat yuritish uchun tegishli litsenziya olgan. Shunisi e'tiborliki, o'zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda qabul qilingan «Sug'urta to'g'risida»gi qonunining (hozir o'z kuchini yo'qotgan) 7-moddasi «Sug'urta vakillari va sug'urta brokerlari» deb atalib, unda shunday deyilgan edi: «Sug'urtalovchilar sug'urta faoliyatini sug'urta vakillari va sug'urta brokerlari orqali amalga oshirishlari mumkin. Sug'urta vakillari o'zlariga berilgan vakolatlarga muvofiq sug'urtalovchi nomidan va uning topshirig'i asosida ish ko'radigan jismoniy yoki yuridik shaxslardir».

Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi qarori bilan "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida Nizom tasdiqlandi. Unga ko'ra, sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya talabgorlari bo'lishlari mumkin. Sug'urtalovchi va sug'urta brokerining sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaning amal qilish muddati, qoidaga ko'pa, cheklanmaydi. Litsenziyaning amal qilishi litsenziya berilgan kundan boshlanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida quyidagi brokerlik tashkilotlar o'z faoliyatini ko'rsatib kelmoqdalar.

#### Brokerlik tashkilotlar<sup>15</sup>

| № | Kompaniya nomlari       | Huquqiy tashkiliy shakl        |
|---|-------------------------|--------------------------------|
| 1 | "InRe"                  | Mas'uliyati cheklangan jamiyat |
| 2 | Insuring Brokers Servis | Mas'uliyati cheklangan jamiyat |
| 3 | ORIENT INSURANCE BROKER | Mas'uliyati cheklangan jamiyat |

Sug'urta brokerlari uchun: – sug'urta brokerining sug'urta faoliyatini amalga oshirishda shartnoma majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlash;

– sug'urta shartnomasining litsenziat mijozlari uchun qulay shartlarda tuzilishi va bajarilishi;

<sup>15</sup> Ma'lumot [www.uzreport](http://www.uzreport) sayti asosida tayyorlangan



– sug'urtalashga doir vositachilik faoliyatini asosiy faoliyat turi sifatida amalga oshirish.

Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi (1-ilovaga qarang). Ilova keltirilgan sxemadan ko'rinib turibdiki, sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash jarayoni 6 ta bosqichni o'z ichiga olib, dastlab litsenziya talabgori zarur hujjatlarni tayyorlaydi va uni ko'rib chiqish uchun Moliya vazirligiga taqdim etadi. Keyingi bosqichda hujjatlar Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadi va ko'rib chiqish uchun ekspert komissiyaga beriladi. Ekspert komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni batafsil o'rganib chiqib, sug'urtalovchiga yoki sug'urta brokeriga litsenziya berish yoxud litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Shunday qilib xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda sug'urta nazorati davlat organiga yuklatilgan sug'urta faoliyatini litsenziyalash vakolati, pirovardida, barcha sug'urtalanuvchilarning, yani sug'urta kompaniyalari mijozlarining qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Bunday tizimning yaratilganligi nafaqat sug'urtalanuvchilarning, balki davlatning manfaatlariga mos keladi.

#### **Nazorat savollari**

1. Sug'urta bozori sub'ektlari bo'lib kimlar hisoblanadi.
2. Adjaster, Aktuariy tushunchalariga izoh bering.
3. Syurveyer va dispasher tushunchalariga izoh bering.
4. Sug'urta biznesida sug'urta vositachilarining tutgan o'rni qanday.
5. Avariya komissari tushunchasiga izoh bering.

## V BOB. SUG'URTA BIZNESIDA SUG'URTA VOSITACHILARNING TUTGAN O'RNI VA ULAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLARNI TASHKIL ETIISHI

### 5.1 Sug'urta biznesida sug'urta vositachilarning tutgan o'rni

O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan qator vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda iqtisodiy faoliyatning o'zaro uyg'un dastklari majmui - bozor institutlarini, jumladan, bank va sug'urta sohalarini rivojlantirish va takomillashtirishga ustavorlik berish muhim omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda, sug'urta xizmatlari bozorining yanada rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida sug'urta operatsiyalarining hajmi barqaror o'sib bormoqda va sug'urtalovchilarning mamlakat iqtisodiyotdagi o'rni tobora katta ahamiyat kasb etib bormoqda, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning sug'urta mahsulotlariga bo'lgan manfaatdorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Sug'urta vositachilari sug'urta xizmatlarini keng miqyosda ommaga yetkazish uchun muhim rol o'ynaydi. Sug'urta vositachilari faoliyatining muhim jihatlari sug'urta xizmatlari bozorini harakat qildirish hamda sug'urta xizmatlarini qabul qiluvchisiga maslahat va yordamini ko'rsatishdan iborat. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunining 5-moddasida sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri sug'urta agenti sug'urta vositachilari deb yuritilishi aytib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasida sug'urta vositachilarining faoliyati quyidagi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi:

1. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 413-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2003-yil 28-yanvardagi 19-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida davlat ro'yxatiga olingan "Sug'urta agentlari to'g'risida"gi Nizom.
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 2010-yil 10-noyabrda tasdiqlangan "Sug'urtalovchilarning sug'urta vositachilari bilan o'zaro munosabatini tartibga soluvchi namunaviy qoidalar".

Sug'urta vositachilarining faoliyati sug'urta shartnomalarini tuzish va uning ijrosini ta'minlash bo'yicha faoliyatni tashkil etishdan iborat.

Sug'urta tashkilotlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning keng qatlamini turli qaltisliklardan ishonchli himoyasini ta'minlashda sug'urta vositachilarining o'rin muhimdir. Bugungi kunda sug'urta tashkilotlarining ham, ularning mahsulotlari iste'molchilari bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar ham sug'urta vositachilarining xizmatlariga ehtiyojlari tobora ortib bormoqda.

Sug'urta vositachilarining asosiy faoliyatlari bu mijozlarga sug'urta shartnomalari tuzish va ularni ijro etishda yaqindan ko'mak berishdan iborat. Bundan tashqari sug'urta vositachilari aholining sug'urta madaniyatini oshishida, sug'urta institutlariga, qolaversa, sug'urta institutlariga bo'lgan ishonchning vujudga kelishida katta ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda vositachilar orqali polislar xarid qilish ko'pchilik mamlakatlarda va aksariyat odamlar uchun eng umumiy tendensiya hisoblanadi.

Sug'urta vositachisining, boshqa sohalardagi, aytaylik, savdo sohasidagi vositachilardan farqi shundan iboratki, u hech qanday zahira qilmaydi va keyinchalik sotish uchun oldindan zahira jamlab qo'ymaydi<sup>46</sup>. Zamonaviy sug'urta bozori ko'p sonli sug'urtalovchilar va operatsiyalar hajmining ko'pligi, sug'urta faoliyatidagi mavjud yo'nalishlarning rivojlanishi va yangi yo'nalishlarning vujudga kelishi, raqobatning kuchayishi va milliy bozorga xorijiy sug'urtalovchilarning kelishi bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitlarda sug'urtalovchilarning sug'urta mahsulotlarining sotuvini ta'minlashda sug'urta vositachilarining ahamiyati katta. Sug'urta bozori infrastrukturasi shakllantirish va sug'urta xizmatlarini taraqqiy ettirishda ularga alohida xizmat yuklatiladi. Garchi sug'urta vositachilari sug'urta shartnomasining ishtirokchilari bo'lmasalar ham, sug'urtalovchidan sug'urta qiluvchiga ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlari: sug'urta shartnomasining ijroga muvofiqligi, shartnoma tuzilish bosqichlarida sug'urta qildiruvchiga maslahat ko'magi berish, sug'urta shartnomasining bajarilishi, modifikatsiyasi (shaklining va turining o'zgartirilishi) va shartnomaning tugatilishi hamda qaytadan sug'urta shartnomasi tuzishda ishtirok etish ularning vazifasiga kiradi.

Modomiki, sug'urta bozori turli sug'urta kompaniyalari, ularning sug'urta mahsulotlari va shartlarining son-sanoqsizligi bilan ifodalanar ekan, sug'urta vositachilari sug'urta qildiruvchiga unga mos sug'urta mahsulotini tanlashda yordam beradi. Vositachi mijozga mavjud xizmatlar to'g'risida ma'lumot beradi, tavsiya qiladi va maslahat beradi, sug'urtalashning kutilayotgan variantlari bilan sug'urta qildiruvchini ta'minlaydi.

---

<sup>46</sup>Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain, 1993

Sug'urtalash va qayta sug'urtalashda sug'urta agentlari, sug'urta brokerlarining faoliyati sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchining qiziqishlari asosida amalga oshiriladi va ularga sug'urta qildiruvchiga sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) xizmatlarini tanlashda, sug'urta (qayta sug'urtalash) shartlari, sug'urta (qayta sug'urtalash) shartnomasini rasmiylashtirish, tuzish va qaytadan tuzilgan sug'urta shartnomasi hamrohligida unga kiritiladigan o'zgarishlar, sug'urta to'lovini talab qilish tartibi va hujjatlarni rasmiylashtirish, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) bilan o'zaro ta'siri, maslahat faoliyatini amalga oshiradi.

Sug'urtalanuvchilarga tez va sifatli xizmat ko'rsatish yo'li bilan sug'urta qoplamasini to'lab berilishi: bir tomondan sug'urta kompaniyasining obro'si oshishiga va buning orqasidan yangi mijozlarni jalb qilsa ikkinchi tomondan, misol uchun katta xalokatlar yuz berganda ishlab chiqarishni tezroq tiklashga ehtiyoj seziladi, bu esa o'z navbatida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga sabab bo'ladi.

Sug'urta vositachilari bir tomondan sug'urta xizmatlarining oxirgi iste'molchilari - sug'urtalanuvchilar bilan sug'urta munosabatlariga kirishadilar, ikkinchi tomondan esa ular sug'urta qoplamalarini to'lash majburiyatlarini olmaydi va javobgarlik olib bormaydi<sup>17</sup>.

Har qanday vositachilar (sug'urta agenti, sug'urta brokeri) o'z faoliyatlarida malakali mutaxassis bo'lishlari (malaka sertifikatiga) juda muhim o'rin tutadi. Sababi, mahsulotning sifati bu ishlab chiquvchiga ayon bo'lgan holatdir, uning sifatli va afzalligini esa iste'molchilarga aynan vositachi yetkazadi. Shuningdek, xorij tajribasida mahsulotni kamdan kam holatda ishlab chiqaruvchining o'zi taqdim etadi yoki sotadi. Bu ayniqsa oxirgi yillarda elektron tijorat rivojlanishida keng kuzatiladigan odatiy holatga aylanib qoldi<sup>18</sup>.

Jahon sug'ura bozori tajribasi shuni ko'rsatadiki, sug'urta vositachilaridan sotuv kanali sifatida faol ravishda foydalanayotgan mamlakatlarda sug'urta munosabatlari eng ko'p rivojlangan. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta vositachilari sug'urta mahsulotlarini sotish uchun asosiy kanal bo'lib hisoblanadi. So'nggi paytlarda, sug'urta kompaniyalari rahbarlari amaldagi agentlik tarmoqlariga va ularni rivojlantirishga katta e'tibor bera boshladilar.

<sup>17</sup>Ищенко П. Г. Страхование право ЕС: система, исключения, основные направления развития. *Информационный юридический журнал* № 4 (83) 2015. 59-63

<sup>18</sup>Petra I.uerke, Andras Niedermayer. On the effect of aggregate uncertainty on certification intermediaries' incentives to distort ratings. *European Economic Review* 108 (2018) 20-48 r.



natijada ko'proq professional vositachilar paydo bo'ldi, albatta agentlik tarmoqlarini boshqarish turli xil qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.<sup>19</sup>

Sug'urta vositachiligini rivojlantirishning ehtiyojiga qaramasdan turli xil darajalarda hal qilinishi kerak bo'lgan muayyan muammolar mavjud. Bu ichki bozor uchun islohotlarning asosiy komponentlari sug'urta va sug'urta brokerlarining malakasini oshirish, ularni rag'batlantirish tizimlarini va mexanizmlarini ishlab chiqish, ular faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish, sug'urta mahsulotlari iste'molchilarining sug'urta madaniyatini yaxshilash uchun bo'lishi kerak deb ta'kidlangan.<sup>20</sup>

Sug'urta vositachilari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va isloh qilmasdan turib sug'urta bozorining barqaror, uzoq muddatli va dinamik rivojlanishini ta'minlash mumkin emas. Bunda sug'urta vositachilari aholi o'rtasida sug'urta madaniyatini rivojlantirishda muhim qadamni qo'yishadi va sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Sug'urta vositachilarining asosiy maqsadlaridan biri mijozga eng mos keladigan sug'urta mahsulotini tanlashga yordam berishdir. Shu bilan birga, sug'urta mahsuloti ikki omil bilan ifodalanadi: moddiy (sug'urta tariflari) va sug'urta sifati (sug'urta shartlari). Ushbu ikki omilning mijoz uchun eng yaxshi sug'urta mahsulotini aniqlashga nisbati sug'urta vositachilaridan sug'urta mahsulotlarining keng doirasi borligi bilan murakkablashadi. Hozirgi vaqtda sug'urta mahsulotlarni sifatli va sifati baholashga imkon beradigan vositalarni yaratish muammosi hal etilmagan.<sup>21</sup>

Sug'urta vositachilarini alohida turlarga ajratishning asosiy muammolari ko'pgina olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan. Olimlar sug'urta vositachilarini tasniflaydi va sug'urta orqali vositachilarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi. Jumladan, shunday xulosalarni shakllantiradi. Rossiya sug'urta bozorida sug'urta vositachilariga qonunchilik hujjatlariga asosan faqat sug'urta agentlari va sug'urta brokerlari kiritilgan. Boshqa mamlakatlar va Yevropa ittifoqi davlatlari sug'urta bozorlari tajribasida esa sug'urta vositachilarining turlari sezilarli daraja ko'pdir va ular qo'yidagilardan tashkil topgan:

- mustaqil sug'urta agentlari (self-employed insurance agents), bizning milliy sug'urta agentlariga o'xshab ketadi;

<sup>19</sup>Задорожний С. В., А.С. Ищенко //Современные проблемы института страхового посредничества, *Молодой ученый* - 2014 - № 1(03) - С. 71-74

<sup>20</sup>Карлова А.И. Проблемы и перспективы развития страхового посредничества. Серия «Экономика и управление». Том 27 (66). 2014 г. № 1. С. 38-44

<sup>21</sup>Оберемко Г.А. РОЛЬ СТРАХОВЫХ ПОСРЕДНИКОВ // Материалы VII Международной студенческой научной конференции «Студенческий научный форум» /2015/article/2015010876



- sug'urta agentlari, sug'urta tashkiloti shtatiga kiruvchi agentlar (employed insurance agents). Tasniflanishi bilan bizga o'xshab ketadi, lekin qonunchilikda sust bayon etilgan;

- bir nechta sug'urta kompaniyalari mahsulotlarini taklif qiluvchi sug'urta agentlari (multiple insurance agents);

- marketing tashkilotlari (directmarketing), bu aloqa markazlariga o'xshab ketadi (call center agents out-bound);

- banklar va boshqa kredit tashkilotlari;

- pochta va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlari;

- sug'urta qilinishi kerak bo'lgan tovarlar sotuvchilari (avtosalonlar, dillerlar);

- moliyaviy konsultantlar;

- auditor va soliq maslahatchilari va boshqalar;

Shuni alohida qayd etish kerakki, yuqorida keltirilgan vositachilar sug'urta kompaniyalarida sotuv kanallari (saleschannels) toifasiga kiradi.<sup>22</sup>

"Sug'urta vositachilar uchun professional standartlar" nomli maqolada sug'urta vositachilariga sug'urtada keng tarqalgan funksiyalarni ham kiritib vositachilarga avariya komissari, dispasherlar, syurveyerlarni ham qo'shib qo'yadi va buni ular bajaradigan xizmatlarsiz sug'urta bozori to'liq faoliyat ko'rsata olmiydi degan fikrni ilgari suradi.<sup>23</sup>

Sug'urta bozorida faqat ikkita haqiqiy vositachi bor bular sug'urta agenti va sug'urta brokeri. Sug'urta agentlari ham yuridik ham jismoniy shaxs sifatida sug'urta kompaniyalarida shtatda yoki shtatdan tashqari faoliyat yuritishlari ham mumkin.

Shunday qilib, tarixan sug'urta vositachilari deganda sug'urta agenti va sug'urta brokerlari tushuniladi.

Sug'urta bozorida sug'urta agentlarining huquqiy maqomi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sug'urta agentlarining jamiyatda sug'urta mahsulotlarini sotuvchi sifatida uning maxsus o'rnini belgilaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda Shaposhnikova hamma sug'urta agentlarini uch guruhga bo'ladi.

1. Gorizontal agentlar – bu agentlar sug'urta sug'urta tashkilotiga o'z xizmatlarni ko'satadilar va o'z huquqlarini boshqa shaxslarga bera olmaydilar;

2. Piramidal agentlar – bu o'z vakolatlarini boshqa agentlarga berishi

<sup>22</sup>Фильшешкова О.Г. Становление и развитие посреднической страховой деятельности в России. Известия Юго-Западного государственного университета. Серия: История и право. 2018. Т. 8. № 1 (26). С. 53-60

<sup>23</sup> Фомин, И.А. О профессиональных стандартах для страховых посредников / И.А. Фомин // Вестник Санкт-Петербургского университета. Серия 5 Экономика. - 2007 - № 4 - С. 160-164

mumkin bo'lgan agentlar. Bunda ular sug'urta tashkilotlari bilan bosh agentlik bitimi imzolaydilar va shu bitim asosida agentlar o'z vakolatlarini subagentlarga berishi mumkin bo'ladi;

3. Ko'p tabaqali sug'urta agentlari – bu agentlar sug'urtalanuvchi hisoblanib oldindan sug'urta kompaniyalaridan sug'urta paketlarini sotib olishadi va keyinchalik ularni mijozlarga sotishadi.

Sug'urta agentlari bilan bir qatorda sug'urta brokeri ham sug'urta vositachilari faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Bunda sug'urta brokerini yuridik yoki jismoniy shaxs sifatida qabul qilish kerak, u asosan sug'urtalanuvchiga optimal sug'urta paketini topishga yoki sug'urtalovchi uchun sug'urtalanuvchini topishda konsalting xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgandir.

Sug'urta agentidan farqli ravishda sug'urta brokeri sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchilarga o'z xizmatlarini ko'rsatishi mumkin.

Xalqaro sug'urta munosabatlari doirasida sug'urta brokerlari ko'pincha sug'urtalangan shaxs nomidan ish yuritish amaliyoti keng tarqalgan. Uning asosiy maqsadi sug'urtalanuvchiga ko'p sonli sug'urta xizmatlari orasidan maqbulini tanlashga yordam berishdan iboratdir.<sup>24</sup>

Oxirgi paytlarda sug'urta vositachilari bilan bevosita bog'liq bo'lmagan vositachilar, ya'ni asosiy faoliyati sug'urta vositachisi bo'lmagan faoliyatlar keng rivoj topmoqda. Bunday vositachilarga kredit tashkilotlari, avtosalonlar, sayyohlik agentliklari, tibbiy muassasalar va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Bunday vositachilarni "noan'anaviy vositachilar" deb tarif berish mumkin<sup>25</sup>.

Shunday qilib, bugungi kunda sug'urta vositachilarining qamrovlilik darajasi sezilarli darajada o'sganligi va yildan-yilga bu soha vakillarining turlari oshib borishi kuzatilmoqda. An'anaviy vositachilar bu shubhasiz sug'urta agentlari va sug'urta brokerlari hisoblanadi. Bundan tashqari sug'urta aktuariylari, avariya komissarlari, dispasherlar va shunga o'xshash sug'urta sohasida keng faoliyat ko'rsatuvchi vositachilari ham mavjud. Ushbu toifadagi vositachilar sug'urta shartnomasini tuzish jarayonida to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishmaydi, lekin sug'urta shartnomasining bajarilishida bevosida va asosiy ishtirokchilarga aylanib borishadi.

<sup>24</sup>Шалоншикова, И.В. Проблемы взаимоотношений страховых организаций со страховыми посредниками / И.В. Шалоншикова // Наука и общество. - 2012. - № 2. - С. 133-138.

<sup>25</sup>Халидов, Ш.А., Клишина, Ю.Е. Роль и место страховых посредников в структуре современного страхового рынка / Ш.А. Халидов, Ю.Е. Клишина // Сборник научных статей 3-й Международной молодежной научной конференции «Поколение будущего: Взгляд молодых ученых - 2014». В 2-х томах / Ответственный редактор Горохов А.А. - 2014. - С. 224-227.

Sug'urta vositachilarining asosiy muammolaridan biri bu milliy sug'urta qonunchiligida sug'urta vositachilari tushunchasining yo'qligi va sug'urta brokerlari faoliyatini tartibga solish mexanizmlarining mavjud emasligi.

Jahon amaliyotida sug'urta vositachilari tushunchasi uzoq vaqtdan beri qo'llaniladi va me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan.

Ko'p hollarda sug'urta vositachilarining faoliyati mamlakatda sug'urta tizimining rivojlanish darajasi, tarixi va nazorat qilish shakllariga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'ladi. Sug'urta bozori infrastrukturasi shakllantirish va sug'urta xizmatlarini taraqqiy ettirishda ularga alohida xizmat yuklatiladi. Garchi sug'urta vositachilari sug'urta shartnomasining ishtirokchilari bo'lmasalar ham sug'urtalovchidan sug'urta qiluvchiga ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlari: sug'urta shartnomasining ijroga muvofiqligi, shartnoma tuzilish bosqichlarida sug'urta qildiruvchiga maslahat ko'magi berish, sug'urta shartnomasining bajarilishi, modifikatsiyasi (shaklining va turining o'zgartirilishi) va shartnomaning tugatilishi hamda qaytadan sug'urta shartnomasi tuzishda ishtirok etish ularning vazifasiga kiradi. Modomiki, sug'urta bozori turli sug'urta kompaniyalari, ularning sug'urta mahsulotlari va shartlarining son-sanoqsizligi bilan ifodalanar ekan, sug'urta vositachilari sug'urta qildiruvchiga unga mos sug'urta mahsulotini tanlashda yordam beradi. Vositachi mijozga mavjud xizmatlar to'g'risida ma'lumot beradi, tavsiya qiladi va maslahat beradi, sug'urtalashning kutilayotgan variantlari bilan sug'urta qildiruvchini ta'minlaydi. Sug'urtalash va qayta sug'urtalashda sug'urta agentlari, sug'urta brokerlarining faoliyati sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchining qiziqishlari asosida amalga oshiriladi va ularga sug'urta qildiruvchiga sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) xizmatlarini tanlashda, sug'urta (qayta sug'urtalash) shartlari, sug'urta (qayta sug'urtalash) shartnomasini rasmiylashtirish, tuzish va qaytadan tuzilgan sug'urta shartnomasi hamrohligida unga kiritiladigan o'zgarishlar, sug'urta to'lovini talab qilish tartibi va hujjatlarni rasmiylashtirish, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) bilan o'zaro ta'siri, maslahat faoliyatini amalga oshiradi. Bunda agent va brokerlar ularga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishi yoki bajarilmasligi, shuningdek, sug'urtalovchining tijorat sirini oshkor qilmaslikka, sug'urta qildiruvchilarning shaxsiy ma'lumotlari haqida, ma'lumot va hujjatlarning to'g'riligi, xolisligi, mukammalligi va o'z vaqtida taqdim etilishi, ularga berilgan vakolatlarning bajarilishiga mas'uldirlar.

Sug'urta brokeri bilan xizmat ko'rsatish shartnomasi tuzilayotganda sug'urtalovchi broker tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlari, uning huquqi,

majburiyatlari, shartnomaning bajarilish tartibi, uning amal qilish muddati, broker tomonidan olingan sug'urta (qayta sug'urtalash) shartnomasi uchun sug'urtalovchilarga o'tkaziladigan pul mablag'larining muddati va tartibini kiritgan holda hisob-kitob qilish tartibi, xizmat narxlari (sug'urta brokerining mukofot miqdori)ni belgilaydi. Bunda sug'urta brokerining majburiy sug'urta bo'yicha komission haqi sug'urta mukofotining 10 % dan oshmasligi kerak.

#### 4-jadval

Sug'urta vositachilari klassifikatsiyasi<sup>26</sup>

| Ixtisoslashgan vositachilar |   | Ixtisoslashmagan vositachilar   |  |
|-----------------------------|---|---|--|
| Sug'urta agentlari          | Agentlar – jismoniy shaxslar                          | Avtosalonlar, turistik agentliklar, sport tashkilotlari, sanoat, dam olish va o'yin-kulgi sohasida ishlovchilar, banklar, aloqa salonlari, ko'chmas mulk sog'asidagi korxonalar | Pochta bo'limlari, avtosalonlar, supermarketlar, notarial idoralar, meditsina tashkilotlari, yuk tashuvchi kompaniyalar, lizing kompaniyalari va boshqalar |
|                             | Agentlar – yuridik shaxslar, chakanaga ixtisoslashgan |   |  |
| Sug'urta brokerlari         | Brokerlar, korporativ sug'urtaga ixtisoslashgan       |   |  |
|                             | Brokerlar, xoldingga kiruvchi                         |   |  |

Majburiy sug'urtalash natijasi sifatida vujudga kelgan aloqalar vositachi tomonidan o'z biznesini yanada rivojlantirish uchun foydalaniladi. Katta ishlab chiqarish tijorat risklarini sug'urta qilish oson kechmaydi. Vositachi bir tomondan, mijozlar izlab topishiga to'g'ri keladi, boshqa tomonidan esa u mijozlar ehtiyoj sezadigan zarur sug'urta qoplami taklif qilishi mumkin bo'lgan sug'urta qiluvchilar bilan aloqa qilishi lozim.<sup>27</sup>

Xulosa qilib aytish mumkinki, sug'urta faoliyatida vositachilar muhim ahamiyat kasb etadi, sug'urta bozorida samarali ish yuritilishi va ularning jozibadorligi har tomonlama vositachilarga borib taqaladi gapimizning isboti esa rivojlangan mamlakatlarning sug'urta vositachilarini keltirishimiz mumkin.

<sup>26</sup> [www.insur-info.ru](http://www.insur-info.ru) internet sayti ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlangan

<sup>27</sup> I.G. Kenjayev, S.R. Matiyazova, G.D. Adilova "Sug'urta maxsulotlari sotishni tashkil etish" Toshkent "Iqtisod va moliya" 2018 y. – 83 b.

## 5.2 Sug'urta vositachilarning davlat ro'yxatidan o'tkazish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi

Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishning muqobil yo'nalishlarini xorijiy mamlakatlar tajribasiga asoslanib aytish mumkinki, sug'urta vositachilari potensial mijozlar va sug'urta tashkilotlari o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi.

Aytish mumkinki, hozirgi kunda sug'urta vositachilarining roli sug'urta bozori bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

"Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunning 9-moddasi "Sug'urta agenti" deb yuritiladi unga asosan, Sug'urtalovchining nomidan va uning topshirig'iga muvofiq sug'urta shartnomalarini tuzish hamda uning ijrosini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxslarga sug'urta agenti deyiladi.

Sug'urtalovchining boshqaruv organlari rahbarlari sug'urta agenti bo'la olmaydilar.

Sug'urta agenti o'z faoliyatini sug'urtalovchilar bilan tuzilgan topshiriq shartnomalari (agent bitimlari) asosida amalga oshiradi.

Sug'urta agenti faqat o'zi bilan topshiriq shartnomasi (agent bitimi) tuzgan sug'urtalovchi reestriga kiritilganidan keyin o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Shuningdek, qonunga qo'shimcha holda "Sug'urta agentlari to'g'risidagi" Nizom sug'urta agentlari faoliyatini tartibga solib turuvchi asosiy normativ bo'lib hisoblanadi. Agarda topshiriq shartnomasi (agentlik bitimi)da tomonlar tarafidan boshqasi e'tirof etilmagan bo'lsa, sug'urta agentining faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Sug'urta shartnomasini tuzish uchun mijozlarni qidirish;
2. Sug'urta qilinuvchilarga sug'urtalovchi haqida ma'lumot berish;
3. Sug'urta qilinuvchilarga sug'urtalovchi tomonidan amaga oshiriladigan, ularni qiziqtiradigan sug'urta xizmatlarining turi bo'yicha maslahatlar berish, sug'urta qilinuvchilarga turli shartlarda sug'urta shartnomalarinin tuzish imkoniyatini tushuntirish va sug'urta tavakkalchiligini maksimal qoplash va zararlarni qoplash bo'yicha sug'urta qilinuvchining xarajatlarini kamaytirish maqsadida shartnomaning eng optimal turini tanlagan holda sug'urta shartnomasini tuzish imkoniyatini tushuntirish hamda umuman sug'urta bo'yicha maslahat xizmatlarini ko'rsatish;
4. Sug'urta shartnomasini (sug'urta polisini) imzolash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni tayyorlash yoki rasmiylashtirish, sug'urtalovchi nomidan shartnomani imzolash;



5. Sug'urta shartnomasi davomida tavakkalchilik shartlarning jiddiy o'zgarishiga taalluqli bo'lgan har qanday ma'lumotni sug'urtalovchi tomonidan o'z vaqtida olinishini ta'minlash;

6. Sug'urta da'vosining kelib chiqishida va ularning tartibga solinishi jarayonida sug'urta qiluvchi va sug'urtalovchi o'rtasida o'zaro axborotlar almashishini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash;

7. Tegishli kelishuv asosida sug'urtalovchining hisobidan va topshirig'i bo'yicha sug'urta to'lovlarini amalga oshirish;

8. Berilgan vakolatlarga muvofiq sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta badallarini inkassatsiya qilish;

Sug'urta agentlariga quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

➤ Tegishli litsenziya olmagan sug'urtalovchilar nomidan sug'urta shartnomasini tuzish;

➤ Belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan chet el sug'urta tashkilotlari bilan O'zbekiston Respublikasi hududida sug'urta bo'yicha sug'urta shartnomasini tuzish bilan bog'liq bo'lgan vositachilik faoliyati, agarda O'zbekiston Respublikasi ishtirokidagi xalqaro shartnomalarda boshqacha qoidalar ko'rsatilmagan bo'lsa;

➤ Sug'urta agentlari-jismoniy shaxslar sug'urta shartnomalari bo'yicha hujjatlarni o'zining nomiga yozdirishlari, to'lovlar naqd to'langan holatlarda esa-yaqin qarindoshlari (otasi, onasi,xotini, eri, o'g'li, qizi, opa-singillari va aka-ukalari) nomiga yozdirishlari, shuningdek, sug'urta shrtnomalarini rasmiylashtirishi va ushbu sug'urta shrtnomasi bo'yicha sug'urta agenti bo'lishlari mumkin emas.

Tabiiyki, agent bitimini tuzishdan oldin sug'urta tashkiloti agent bilan suhbat uyushtiradi, zaruriyat bo'lganda kasbiy faoliyatga layoqatlilik nuqtai nazaridan savol-javob tashkil etadi. Suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan shaxslar bilan agentlik bitimi imzolanadi. Amaldagi holatdan kelib chiqqanda, ayrim sug'urtalovchilar agentni ishga qabul qilganlaridan so'ng ularni sug'urta tashkilotida tashkil etilgan agentlarni tayyorlash kurslarida bepul o'qitadilar. Shunisi diqqaga sazovorki, sug'urta agentining ish vaqti sug'urta tashkiloti tomonidan belgilanmaydi. Demak, jismoniy shaxslar asosiy ishlaridan bo'sh paytlarida sug'urtalovchi bilan tuzilgan agentlik bitimiga binoan uning nomidan sug'urta polislarini mijozlarga sotishlari mumkin.

Alohida ta'kidlash lozimki, topshiriq shartnomasi (agent bitimi) tuzilgan kundan 5 kun ichida sug'urta agenti- jismoniy shaxsga guvolinoma beriladi. Shundan so'ng sug'urtalovchi agentni uning nomidan sug'urta shartnomalarini

tuzishi uchun kerakli bo'lgan ishi qog'ozlari, sug'urta qilish qoidalari, shartnomalari, sug'urta tariflari, sug'urta polislari, reklama va boshqa kerakli hujjatlar bilan ta'minlaydi. O'z navbatida, sug'urta agenti sug'urtalovchi tomonidan ajratilgan hujjatlarni, shu jumladan, qat'iy hisobda turuvchi hujjatlarni to'liq va butun saqlanishi uchun javobgar hisoblanadi. Agent vaziyatga qarab va sug'urtalovchining talabidan kelib chiqqan holda haftada yoki oyda bir marta vositachilik faoliyati yuzasidan sug'urtalovchiga hisobot berib boradi- bu shartlar agent bitimida o'z aksini topgan bo'lishi kerak. Hisobotda agent tomonidan tuzilgan va sotilgan sug'urta polislari, shunga muvofiq ravishda, sug'urta tashkiloti hisob raqamiga kelib tushgan sug'urta mukofotlari miqdori haqida ma'lumotlar batafsil bayon etiladi. Sug'urta agentlariga to'lanadigan vositachilik haqi sug'urtalovchining yoki uning filialining hisob raqamiga kelib tushgan sug'urta mukofotiga nisbatan foizlarda hisoblanadi. Sug'urta agentlari mehnatiga haq to'lash, sug'urta agenti tuzgan shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlaridan vositachilik puli shaklida amalga oshiriladi. Vositachilik puli miqdori sug'urta agenti tuzgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urtalovchi hisob raqamiga tushgan sug'urta mukofotlarining 25 foizidan oshishi mumkin emas.

Shuni alohida takidlash lozimki, bugungi kunda sug'urta tashkilotlari uchun agentlarni xizmati juda katta desak xato qilmaymiz. Agentlar yordamida juda katta summa davlat budjetiga tushmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida 8000 mingdan ortiq agentlar o'z xizmatlarini ko'rsatmoqdalar. Ularni 84% jismoniy shaxslar qolgan 16 % ni yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan agentlarni tashkil qiladi.

Sug'urta agenti o'zining faoliyatini olib borishi uchun litsenziya talab etilmaydi.

“Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi qonunning 7-moddasi “Sug'urta brokeri” deb yuritiladi unga asosan, Sug'urta qildiruvchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs sug'urta brokeri hisoblanadi.

Sug'urta brokerining faoliyati sug'urta sohasidagi boshqa faoliyat turlari bilan qo'shib olib borilishi mumkin emas, qayta sug'urta brokeriining faoliyati bundan mustasnodir.

Sug'urta brokeri sug'urtalovchining ustav fondida ishtirok etishga haqli emas. Sug'urta brokeri o'zi bilan sug'urta qildiruvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatadi.

“Sug’urta faoliyati to’g’risida”gi qonunning 8-moddasi “Sug’urta brokeri” deb yuritiladi unga ko’ra, o’z nomidan va qayta sug’urta qilish shartnomasi bo’yicha sug’urta qildiruvchi tariqasida ishtirok etuvchi sug’urtalovchining topshirig’iga binoan qayta sug’urta qilish shartnomasi tuzilishini va ijro etilishini tashkil qilish bo’yicha faoliyat yurituvchi yuridik shaxs qayta sug’urta brokeri hisoblanadi.

Qayta sug’urta brokeri sug’urtalovchining ustav fondida ishtirok etishga haqli emas. Qayta sug’urta brokeri o’zi bilan sug’urta qildiruvchi o’rtasida tuzilgan shartnoma asosida hizmatlar ko’rsatadi.

Broker quyidagi hollarda vositachilik faoliyatini olib borishga haqli emas:

- Agar sug’urta brokerlari ro’yxatidan o’tganligi to’g’risida guvohnomaga ega bo’lmasa;

- Sug’urta bo’yicha vositachilik faoliyati uning uchun yagona, beistisno faoliyat turi bo’lib hisoblanmasa;

Uning sug’urta bo’yicha vositachilik faoliyati xorijiy sug’urtalovchi foydasiga olib borilayotgan bo’lsa;

U sug’urta tashkilotining kapitali qatnashchisi bo’lib hisoblanasa, aksiyalr yoki qatnashuvning boshqa shakllariga egalik qilayotgan bo’lsa.

Broker sug’urta sohasida vositachilik faoliyatini olib borishi munosabati bilan ko’rsatishi murkin bo’lgan xizmatlari ko’lami nuqtayi nazaridan, faqat vositachigina bo’lib qolmay, u sug’urtalanuvchining, xatto, sug’urtalovchining ham maslahatchisidir. Aynan u yoki bu sug’urta turi bo’yicha tushuntirish ishlarini olib borishi, sug’urtalovchilar tomonidan taklif etilayotgan sug’urta dasturlari samaradorligi nuqtayi nazaridan tekshirishi va ulardan sug’urta qoplamasi, sug’urtalash narxi, qoplash geografiyasi jihatidan eng optimalini tanlab olishi mumkin. U sug’urta hodisasi sodir bo’lgan joyni ko’zdan kechirishda, sug’urtalanuvchining sug’urta talablarining qondirilishida, turli xildagi ekspertizalarning o’tkazilishida ishtirok etishi mumkin, shuningdek, u talablarning qondirilishini hal etish uchun talofat komissiyasining, syurver va shunga o’xshash boshqa mutaxassislarning jalb etilishini tashkil qilishi mumkin. Broker o’zi bilan sug’urtalanuvchi o’rtasida tuzilgan shartnoma asosida ish yuritadi, bunday shartnomada esa, brokerning shartnomaviy talablarni bajarmagani uchun javobgarligini ko’zda tutuvchi qoidlar kiritilishi mumkin. U faqat vositachi sifatida emas, balki, bozorning malakali qatnashchisi sifatida ham javobgarlikka ega. Shuning uchun sug’urta brokeri o’zining vositachilik faoliyati davomida yo’l qo’ygan kamchiliklari tufayli mijozga zarar yetkazishi mumkin bo’lgan kasbiy javobgarligi yuzasidan ham sug’urta shartnomasi tuzishi

mumkin. Sug'urta brokeri sug'urtalanuvchining topshirig'iga ko'ra riskni bitta sug'urta shartnoma asosida bitta sug'urta tashkilotida ham, bir nechta sug'urta tashkilotida ham joylashtirishi mumkin.

Sug'urta brokeri mustaqil vositachi sifatida sug'urtalovchining topshirig'iga ko'ra, sug'urta shartnomasini o'zi nomidan imzolash huquqiga ega emas.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27-noyabrda qabul qilingan "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 413-sonli qarori asosida sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining faoliyatini litsenziyalash tartibi tasdiqlangan. Shunga asosan, sug'urta brokerlari litsenziya olish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

1. Yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi yoki pchta manzili, bank muassasasining nomi va bankdagi hisob raqami, yuridik shaxs amalga oshirishini mo'ljallayotgan litsenziyalanadigan faoliyat turi ko'rsatilgan litsenziya berish to'g'risida ariza.

2. Yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning va uning ro'yxatdan o'tkazilgan ta'xis hujjatlarining nusxalari;

3. Litsenziya talabgorining rahbari va bosh buxgalterining sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan malaka talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjattalar (so'rovnoma, oliy ma'lumoti to'g'risidagi diplomning yoxud vakolatli davlat organining xorijiy ta'lim muassasasida olingan oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatning ekvivalentligini tasdiqlovchi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxalari hamda mehnat daftarchasi);

4. Litsenziya talabgori nomidan arizasi litsenziyalovcho organ tomonidan ko'rib chiqilishi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

5. Ustav kapitali to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar (bank ma'lumotnomasi, mol-mulkni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari va boshqa hujjatlar).

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan hujjatlar bir nusxada taqdim etiladi, litsenziya talabgorining rahbari tomonidan tasdiqlangan sug'urta qoidalari bundan mustasno.

Xorijiy mamlakatlarda ham sug'urta vositachilari muhim ahamiya kasb etishi yuqoridagi fikrlarda ta'kidlab o'tilgan edi. Shunday ekan xorijiy mamlakatlar sug'urta vositachilar faoliyatida davlatning aralashuvi qay darajada ekanini ko'rib chiqamiz. Yevropa qit'asi huquqiy modeli bo'yicha (Germaniya,

Italiya, Ispaniya va Boshqa davlatlar) sug'urta vositachilarining faoliyatlarini davlat tomonidan tartibga solish va faoliyatiga aralashish kam. Bu yerda sug'urta brokerlari emas, balki sug'urta agentlari muhim rol tutadi.

Misol sifatida Germaniya modelini keltiramiz, ya'ni bunda sug'urta agentlari faoliyati agent va sug'urta kompaniyasi o'rtasida tuzilgan shartnoma bilan tartibga solinadi ya'ni O'zbekistondagidek tartib amal qiladi, sug'urta nazorati ko'proq sug'urta brokerlari bilan shug'ullanadi.

"Anglo-Amerika" huquqi modelida sug'urta vositachilariga ko'proq e'tibor beriladi, shuningdek ayrim holatlarda davlat o'zining majburiyatlarini boshqa o'zini-o'zi boshqarish organlariga topshirishi ham mumkin.

Buyuk Britaniyada sug'urta brokerlari tarixan muhim o'rin tutadi ularning o'rni yuqori baholanadi. Bunda sug'urta kompaniyalari litsenziya olish jarayonida sug'urta brokerlari bilash ishlash uchun shartnomalarni taqdim etishadi. Shuningdek, Buyuk Britaniyada sug'urta brokerlari faoliyati litsenziyalanadi va ular har yili yangilanadigan va faoliyatni amalga oshiruvchi huquq beruvchi litsenziya olishadi. Masalan sug'urta brokerlari davlat ro'yxatga olishni sug'urta brokerlari kengashiga topshirgan.

Quyida keltirilgan jadvalda rivojlangan mamlakatlar sug'urta vositachilarining huquqiy asoslari va vositachilar institutiga tavsiflar berilgan (Fransiya, AQSH va Yaponiya davlatlari misolida).

Yevropa ittifoqi mamlakatlarida esa sug'urta vositachilarga nisbatan 2002-yilning dekabr oyida Yevropa ittifoqi kengashi tomonidan "Sug'urta vositachilari" to'g'risida qabul qilingan direktiva amal qiladi. Ushbu hujjat Yevropa ittifoqi hududida sug'urta vositachilari faoliyatining asosiy shartlarini belgilaydi, shuningdek, Yevropa ittifoqi mamlakatlarida sug'urta vositachilarining faoliyatini nazorat qilish va nazoratning asosiy tanoyillarini e'lon qiladi.

Direktivada sug'urta xizmatlari bozorida professional faoliyat bilan shug'ullanuvchi uch xil vositachilarni belgilaydi. Bular sug'urta vositachisi, qayta sug'urta vositachisi va bog'liq sug'urta vositachisi. Bizning talqinimizda bu sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri va sug'urta agenti hisoblanadi.

Ushbu direktiva sug'urta agentlarini litsenziyalash (ro'yxatga olish) uchun talablarni belgilamaydi. Tegishli talablar faqat ikki vositachi toifasidagilarga kiritiladi. Biroq 1976 yildagi qabul qilingan direktivada sug'urta agentlari sug'urta vositachilari sifatida qaralmagan. Bu o'ziga xos ijobiy holat deb baholashimiz mumkin.



Rivojlangan mamlakatlar sug'urta vositachilari institutining solishtirma tahlili<sup>28</sup>

| Davlat   | Huquqiy baza   |  |
|----------|--|--|
|          | Sug'urta agenti  | Sug'urta brokeri   |
| 1        | 2  | 3  |
| Fransiya | <b>Sug'urta kodeksi 5 jild: Sug'urta vositachilari</b>   |  |
|          | <b>Dalat ro'yxatidan o'tish, talablar:</b><br>- Yoshi (kamida 21 yosh);<br>- Fuqaroligi (milliy yoki Fransiya bilan shartnomasi bor mamlakatlar),<br>- Jinoiy javobgarlikka tortilmagan shaxs.   | <b>Ikkita brokerlar uyushmalari:</b><br>- Milliy brokerlar sindikati;<br>- Sug'urta tashkilotlari konsultati sindikati.<br>Sug'urta brokerlari faoliyati sug'urta sudyalari tomonidan tashkil etilgan an'analarga asoslanadi. Yig'ilgan sug'urta mukofotlarining 20% brokerlarga hissasiga to'ri keladi. |
| AQSh     | <b>"Sug'urta agentlari va sug'urta brokerlari faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi" Qonun</b>  |  |
|          | <b>Litsenziyalanadigan faoliyat, talablar:</b><br>- Yosh (kamida 18 yosh).<br>- Fuqarolik (hamma shtatda emas).<br>- Yaxshi reputatsiya.<br>Shuningdek muddatli litsenziyalar mavjud. Sug'urta tashkiloti sug'urta agenti bilan tuzgan shartnomani Shtat sug'urta departamentiga taqdim etadi. | <b>Litsenziya olish talablari huddi agent kabi, ayrim ko'shimchalar mavjud:</b><br>- Malaka (tajriba yoki maxsus oliy ma'lumot).<br>Yundik shaxs sifatidagi brokerning barcha xodimlari malaali bo'lishlari shart.   |
| Yaponiya | <b>"Sug'urta biznesi to'g'risidagi" Qonun</b>  |  |
|          | Sug'urta agentlari va maslahatchilari Moliya vazirligidan ro'yxatdan o'tishlari shart.<br>Hayot sug'urta sohasi agentlari faqat bitta sug'urta kompaniyasi nomidan ish yuritishadi. Yig'iladigan sug'urta mukofotlarining 90% agentlar hisobiga to'g'ri keladi.                                | Sug'urta brokerlari faoliyati 1996 yildan buyon ruxsat berilgan. Ular ham Moliya vazirligidan davlat ro'yxatdan o'tadilar.<br>Yig'iladigan sug'urta mukofotlarining 1% brokerlar hisobiga to'g'ri keladi.  |

Quyidagi jadvalda esa, O'zbekiston sug'urta vositachilarining tashkiliy-huquqiy asoslari keltirib o'tilgan.

<sup>28</sup> Xorijiy mamlakatlar sug'urta bozorini solishtirma tahlil asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

O'zbekistonda sug'urta vositachilari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari tahlili<sup>29</sup>

| Sug'urta bozori sub'yekti | shakli     | Ustav jamg'armasi    | Ro'yxatdan o'tish | Nizmatlar bozori                                     |
|---------------------------|------------|----------------------|-------------------|--|
| Sug'urtalovchi            | Yur. Shaxs | 7 500-30 000 mln.sum | Adliya Vazirligi  | Yuridik va jismoniy shaxslar                         |
| Sug'urta brokeri          | Yur. Shaxs | 40 EKIH              | Adliya Vazirligi  | Yuridik va jismoniy shaxslar                         |
| Qayta sug'urta brokeri    | Yur. Shaxs | 40 EKIH              | Yagona - darcha   | Sug'urtalovchilar                                    |
| Sug'urta agenti           | Yur. Shaxs | 40 EKIH              | Yagona - darcha   | Sug'urta tashkiloti nomidan yur va jismoniy shaxslar |
|                           | YaT        | -                    |                   |  |
| Adjaster                  | Yur. Shaxs | 40 EKIH              | Yagona - darcha   | Sug'urtachi, sug'urtalanuvchi va boshqalar           |
|                           | YaT        | -                    |                   |  |
| Aktuariy                  | Jis. Shaxs | -                    | -                 | -  |
| Aktuariy tashkiloti       | Yur. Shaxs | 40 EKIH              | Yagona - darcha   | Sug'urtalovchilar                                    |
| Syurveyer                 | Yur. Shaxs | 40 EKIH              | Yagona - darcha   | Sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchilar                  |
|                           | YaT        | -                    |                   |  |
| Assistans                 | Yur. Shaxs | 40 EKIH              | Yagona - darcha   | Sug'urtalovchilar                                    |
|                           | YaT        | -                    |                   |  |

Sug'urta vositachilari faoliyatida sertifikatlash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina mamlakatlarda sug'urta vositachilarining kasbiy malaka va saviyasiga, ular mahoratini oshirishga bag'ishlangan o'quv kurslari majburiy o'qitish amaliyoti keng qo'llanilib kelinmoqda. Masalan, turli mamlakatlarda bu o'quv mashg'ulotlari bir necha haftadan olti oygacha cho'zilishi mumkin. Davlat sug'urta nazorati organlari va sug'urta vositachilarining o'zini o'zi boshqarish organlari, uyushmalari, sindikatlari bilan birgalikda vositachilarni tayyorlash va ularning malakasini doimiy ravishda oshirib borishlarini nazorat qilib borishadi.

Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash lozimki, birinchi navbatda:

- sug'urta vositachilari faoliyatini amalga oshirilishdagi munosabatlarni me'yoriy-huquqiy jihatlarini qayta ko'rib chiqib, takomillashtirish masalalari ishlab masalari ishlab chiqish;

<sup>29</sup>Sug'urta faoliyatiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil asosida muallif tomonidan tayyorlandi

- sug'urta vositachilari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan o'quv kurslari yoki biror o'quv markazi tashkil etilishini;

- sug'urta vositachilarini professional bilim va yuqori darajali malakasiga nisbatan ularni savodxonligini baholaydigan ko'rsatmalar ishlab chiqish;

- bugungu kunda mamlakatimizda sug'urta vositachilari faoliyatini olib borish nuqtai nazaridan jismoniy shaxs sifatida faoliyat yuritadigan sug'urta agentlarini sertifikatlash va malaka imtixonidan o'tkazish tartibini shakllantirish;

- sug'urta vositachilari o'z faoliyati davomida foydalanadigan hujjatlarni reestrini yuritish va yagona bazaga kiritish kabi masalalarni ko'rib chiqish lozim.

### **5.3 Sug'urta brokerlarining faoliyat yo'nalishlari**

Sug'urta bozorining murakkab sharoitlarida faoliyat yuritadigan turli xil vositachilar mavjud. Vositachilar ikkita katta toifaga bo'linadi: brokerlar va agentlar.

Broker bu – uning asosiy faoliyati sug'urta kompaniyalarida sug'urtani joylashtirish yoki o'tkazishdan iborat bo'lgan shaxs yoki korxonaga bo'lib hisoblanadi.

Sug'urta qildiruvchi bu xizmatlar uchun unga bevosita pul to'lamagan holda brokerdan keng doiradagi sug'urta masalalari bo'yicha mustaqil maslahat olishi mumkin. Masalan, broker sug'urta qildiruvchiga uning qaysi sug'urtaga ehtiyoji borligini va qanday cheklovlar mavjudligini maslahat berishi, eng yaxshi sug'urta bozorini ko'rsatishi, polis shartlari bo'yicha sug'urta qildiruvchining majburiyatlarini, da'volarni ko'rib chiqish jarayonlarini tavsiflashi, shuningdek, vaqt o'tishi bilan bozorda ro'y beradigan o'zgarishlarni hisobga olgan holda bu axborotlarni yangilashi mumkin.

Sug'urta qiluvchilar nuqtai nazaridan, bitimlarni brokerlar yordamida tuzish osonroq va tezroq bo'ladi, chunki muhokama uchun faqat murakkab jihatlar va maxsus talablar qoladi, demak oddiy va zerikarli ishlarga sarflanadigan pul va vaqt tejab qolinadi.

Eng murakkab bozorlarda kompaniyalarni sug'urta qilishning deyarli barcha turlari ro'yxatdan o'tkazilgan brokerlar orqali amalga oshiriladi. Ko'plab holatlarda brokerlar, ko'pincha mustaqil katta kompaniyalar va korporatsiyalarga o'z xizmatlarini taklif etadi. Sug'urta brokerlari tomonidan ta'minlanadigan xizmatlar esa sug'urta shartnomalarini tuzish va rasmiylashtirishdan millionlab mukofotlar shakllanadi. Brokerlar ayrim to'lov da'volarini ko'rib chiqishi, polislar matnining xomaki nusxasini tuzishi,

ob'ektlar syurveyini o'tkazishi, risk-menejment amalga oshirishi mumkin.

Ayrim sanoat tashkilotlari o'zining sug'urta brokerlari kompaniyalarini tashkil qiladi.

Sug'urta brokerining quyidagi xususiyatlari mavjud:

– sug'urta brokeri asosan, sug'urta biznesida asosiy vazifani bajarib, professional sifatida faoliyat yuritadi;

– sug'urta brokeriga nisbatan sug'urta biznesida maxsus professional bilim, malaka va albatta ko'nikma mavjud bo'ladi;

– sug'urta brokeri umumiy sug'urta sohasidagi – kasbiy javobgarlikni sug'urta qilish polisiga ega;

– sug'urta brokeri sug'urta qiluvchining ham, sug'urta qildiruvchining ham nomidan faoliyat yuritishi mumkin;

– sug'urta brokeri sug'urta qiluvchidan (sug'urta qildiruvchidan) komission mukofot ko'rinishida to'lovlar oladi. Brokerlik mukofot pullari agentnikiga ko'ra ko'proq bo'lishi mumkin;

– ko'pgina xorijiy davlatlar qonunchiligiga muvofiq, sug'urta brokeri davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lishi lozim. Odatda, brokerlik biznesida faoliyat yuritishni xohlaydigan shaxslar sug'urta sohasiga taalluqli bilim ko'nikmalariga, tajribaga ega bo'lishi va boshqa maxsus talablar qo'yiladi.

Sug'urta brokeri o'zining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bir qancha huquq va majburiyatlarga ham egadir. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunning 8<sup>1</sup>-moddasi Sug'urta hamda qayta sug'urta brokerlarining huquq va majburiyatlari deb yuritiladi. shuningdek, sug'urta va qayta sug'urta brokerlari quyidagi huquqlarga ega:

✓ sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har qanday turi bo'yicha vakolatlar doirasida vositachilik faoliyatini amalga oshirish;

✓ sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi tuzilgan taqdirda, sug'urtalovchini tanlash;

✓ sug'urtalovchidan litsenziyaning mavjudligi, ustav fondining miqdorlari, sug'urta zaxiralari va qabul qilingan majburiyatlar to'g'risida, shuningdek sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar haqida ma'lumotlar olish;

✓ ekspert va maslahat xizmatlari ko'rsatish.

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlari qonun hujjatlariga hamda o'zlar tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlari quyidagi majburiyatlarga ega:

✓ sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

✓ sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasini tuzish va ijro etish bo'yicha to'liq, ishonchli hamda xolisona axborotni mijozlarning so'rovlariga ko'ra taqdim etishi;

✓ mijozning tijorat sirini va boshqa sirini tashkil etadigan ma'lumotlarni oshkor qilmasligi;

✓ qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga ko'ra taqdim etishi;

✓ firma nomi, tashkiliy-huquqiy shakli va (yoki) joylashgan eri o'zgargan taqdirda, bu haqda maxsus vakolatli davlat organini va sug'urtalovchilarni xabardor qilishi;

✓ qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy, statistika, soliq hisobotlarini va boshqa hisobotlarni tuzishi shart va boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Sug'urta bozorining muhim vositachisi sug'urta brokerlari ko'plab sug'urta kompaniyalari bilan hamkorlik qilishadi, lekin bunga qaramay ular faoliyati qattiq nazorat qilinadi. Sug'urta brokerlari sug'urtalanuvchilarning xavflarni joylashtirishga qaratilgan faoliyatlarni olib borishini hisobga olgan holda, shuningdek, mijozlarni moliyaviy himoya qilish maqsadida, yuqorida ta'kidlangandek qattiq nazorat ostida bo'ladilar. Sug'urta brokerlarining sug'urta kompaniyalari bilan yirik moliyaviy bitimlari doimiy tarzda nazorat organlari e'tiborida bo'ladi. Bundan tashqari, qator mamlakatlarda huquqiy cheklovlar qo'llaniladi: sug'urta brokerlari sug'urta tashkilotlarining ta'sischilari bo'la olmaydi, xodimlarni bir vaqtda sug'urta kompaniyasida va brokerlik kompaniyada faoliyat yuritishlari taqiqlanadi, shuningdek sug'urta brokerlari sug'urta kompaniyalari kengashlarida ishtirok etishlariga ham cheklovlar bor. Barcha Yevropa Ittifoqi davlatlarida sug'urta vositachilari uchun zarur bo'lgan minimal maxsus tayyorgarlik o'tish qonun bilan belgilanadi. Deyarli barcha mamlakatlarda sug'urta brokerlari va qayta sug'urta brokerlari majburiy ro'yxatdan o'tishadi va davlat reestiriga kiritiladi. Umuman olganda, barcha mamlakatlarda sug'urta brokerlarining faoliyati nazorat organlari tomonidan sug'urta agentlariga nisbatan qat'iy tartibga solinadi. Sug'urta vositachilari faoliyatini boshqarish va tartibga solishning ikkita asosiy modeli mavjud. Sug'urta brokerlari bozordagi ishtirokiga qarab nazorat kuchayib boradi (Buyuk Britaniya va Kanadada bu borada qat'iy normalar belgilangan).

Buyuk Britaniyada sug'urta brokerlarini tartibga solishning murakkab tizimi mavjud. Britaniyalik sug'urta va qayta sug'urta brokerlari har yili qaytadan ro'yxatdan o'tishlari va litsenziyalarini yangilab borishlari zarur.



Bunda 1977-yilda tashkil etilgan brokerlarni ro'yxatga olish kengashi faoliyatini olib boradi, shuningdek davlat tomonidan sug'urta brokerlarini ro'yxatdan o'tkazish va ular reestrini yuritish vakolatini bergan. Bozorda bu kengashdan tashqari boshqa tashkilotlar ham faoliyat olib boradilar ular vositachilarning malakasini oshirish va malaka talablarini ishlab chiqish, standartlarni ishlab chiqish va boshqalarni amalga oshirib boradilar hamda brokerlik faoliyatini bilvosita tartibga solishda ishtirok etadilar. Buyuk Britaniyada polis egalarining huquqlarini himoya qilish uchun boshqa mamlakatlarda bo'lmagan qator qoidalar mavjud. Sug'urta kompaniyalari qatorida sug'urta brokerlari ham majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishlari shart. Shuningdek sug'urta brokerlari o'z kasbiy javobgarliklarini sug'urtalashlari belgilab qo'yilgan. Sug'urtalovchining bankrotligi yuz bergan taqdirda sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarning bir qismi u bilan tuzilgan sug'urta shartnomasiga asosan sug'urta brokerlari hisobidan qoplanishi ham mumkin. Bundan tashqari ro'yxatga olish kengashi tarkibida intizom va tergov komissiyasi ham mavjud. Ular sug'urta polisleri egalarining huquqlari poymol bo'lgan yoki bo'lmagan holatlarni aniqlaydilar. Ro'yxatga olish kengashi brokerlarga nisbatan iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalarni qo'llashi, hamda brokerlik reestridan o'chirishlari va faoliyatlarini bekor qilishlari mumkin.

Germaniyada faqat sug'urta brokerlari sug'urta nazorati organlarida ro'yxatga olinishi mumkin. Ular o'rtasidagi sug'urta munosabatlari sug'urta shartnomasi yoki agentlik bitimi doirasida tartibga solinadi.

Fransiyada Germaniya kabi, davlatning sug'urta vositachilarini boshqarishda va nazoratida ishtirok etishi minimal darajada. Bozorda barcha sug'urta shartnomalarining taxminan 20% ini sug'urta brokerlari faoliyati davlat nazorat organi tomonidan nazorat qilinmiydi, ular faoliyati o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan nazorat qilinadi.

AQShda sug'urta vositachilari instituti ancha mustaqillikka ega bo'lgan yirik agentliklarni tashkil etadi va yirik sug'urta polislarini sotuvchi katta kuch hisoblanadi. Sug'urta faoliyati va sug'urta vositachilarining faoliyati shtatlar miqyosida o'rnatilgan qoidalar asosida tartibga solinadi. Shuningdek umumiy tomonlar ham mavjud.

Kanadada sug'urta brokerlari tartibga solinadi va nazorat ikki bosqichda amalga oshiriladi: federal va federal sub'yektlari (provinsiyalar) tomonidan amalga oshiriladi. Sug'urta brokerlari o'z faoliyatlarini amalga oshirish uchun ruxsatnoma olishlari talab qilinadi. Buyuk Britaniyada bo'lgani kabi tartibga solish va nazorat qilish vakolatlari sug'urta brokerlari assosatsiyalari tomonidan

amalgga oshiriladi. Sug'urta brokerlari faoliyatini tartibga soluvchi federal qonunga binoan 1980-yildan beri sug'urta brokerlari assosatsiyasi o'z-o'zini boshqarish organlari maqomiga ega.

Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlari yagona moliya bozorini shakllantirishda sug'urta sohasini muhim o'rin tutadi. Shuningdek bunda sug'urta vositachilarining (sug'urta brokerlari va sug'urta agentlari) o'rnini beqiyosdir. Shu bilan birga a'zo mamlakatlar o'z faoliyatini tartibga soluvchi normalari o'rtasida ayrim farqlar va umumiylik kuzatiladi. Avvalo, sug'urta brokerlari tushunchalarida bir qancha farqlar mavjud. Belarus va Qozog'iston Respublikasida sug'urta brokerlari o'z nomidan sug'urtalanuvchilar yoki sug'urta kompaniyalari ko'rsatmalari asosida ish yuritadilar. Ayni paytda Rossiya Federatsiyasida ham sug'urta brokerlari ham sug'urtalovchi ham sug'urtalanuvchilar nomidan faoliyat yuritishlari mumkin.

Armanistonda sug'urta brokerlik faoliyati faqatgina sug'urtalanuvchilar nomidan amalga oshiriladi, ammo qayta sug'urta brokerlari o'z faoliyatlarini sug'urtalovchilar nomidan va hisobidan olib boradilar.

Qozog'iston qonunlariga keladigan bo'lsak sug'urta brokeri sug'urtalanuvchilar nomidan sug'urta kompaniyalari bilan munosabatlarga kirishadi, shuningdek qayta sug'urta bilan bog'liq faoliyatga o'z nomidan ishtirok etadi. Sug'urta brokerlik xizmatlarini to'lash bo'yicha ham muhim farqlar mavjud. Qozog'iston va Armaniston qonunchilik hujjatlariga muvofiq sug'urta brokerlari o'z faoliyati uchun sug'urtalovchidan haq olishlari qonunan ta'qiqlanadi.

Rossiyada esa sug'urta brokeri uchun bunday cheklov yo'q, ammo bitta shartnoma bo'yicha ham sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchidan haq talab qilish huquqiga ega emas. Belarusiyada esa bunday cheklovlar umuman mavjud emas. Shuningdek sug'urta brokerlarining tashkiliy huquqiy asoslarida ham sezilarli farqlar mavjud. Belarus va Armanistonda sug'urta brokeri faqat tijorat tashkiloti sifatida tashkil etiladi, Qozog'istonda esa ma'suliyati cheklangan va aksiyadorlik jamiyatlari ko'rinishida tashkil etiladigan yuridik shaxslar faoliyat yuritadi. Rossiyada tijorat tashkilotlari yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslar, faqat Qirg'izistonda yuridik va jismoniy shaxslar shug'ullanishi mumkin.

Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlarda (Qirg'izistondan tashqari) sug'urta brokerlari nazorat organlaridan tanlovdan o'tishlari kerak. Shu bilan birga Rossiyada, Qozog'istonda va Armanistonda litsenziyalash shaklida, Belorussiyada ro'yxatga olish ko'rinishida amalga oshiriladi. Biroq sug'urta

brokerlariga qo'yiladigan talablar turlicha. Avvalo, bu talablar sug'urta brokerlarining moliya masalalarini qamrab oladi. Belorussiya va Qozog'istonda minimal ustav kapitali talablari ya'ni Belorussiyada 25 ming AQSh dollari Qozog'istonda 10 million tengedan kam bo'lmasligi kerak. Rossiya Federatsiyasida sug'urta brokerlari sug'urta shartnomalarini tuzish uchun va bajarilishini amalga oshirish uchun 3 million rubl yoki bank kafolatiga ega bo'lishlari kerak. Bundan tashqari Belorussiya va Armanistonda sug'urta brokerlarining kasbiy faoliyatlari bilan bog'liq fuqarolik javobgarligi sug'urtalangan bo'lishi kerak. Shuningdek, sug'urta brokerlari faoliyatiga qo'yilgan cheklovlarni tahlil qilaniz. Masalan, Belorussiya Respublikasida sug'urta brokerlari faqat ixtiyoriy sug'urta va ular bo'yicha qayta sug'urta faoliyatlarini olib borishlari mumkin, majburiy sug'urta bo'yicha faoliyat olib borishlari ta'qiqlanadi. Rossiya Federatsiyasida ham sug'urta brokerlari majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta faoliyatlarini olib borishlari mumkin emas. Rossiya, Qozog'iston va Qirg'iziston qonunchiligida xorijiy sug'urta brokerlari mamlakat hududida qayta sug'urta brokerlik faoliyatlarini olib borishlari mumkin. Bunda Qozog'istonda qayta sug'urta brokeri kasbiy javobgarligi to'g'risida sug'urta polisiga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga Armanistonda ushbu faoliyat uchun milliy ko'rinishdagi litsenziya talab qilinadi va Belorussiyada esa davlat ro'yxatidan o'tishi kerak bo'ladi.

Milliy sug'urta bozorining eng muhim vazifasi – jismoniy va yuridik shaxslar bilan ishlovchi sug'urta brokerlari sonini keskin oshirishdan iborat. Davlat tomonidan iqtisodiy rag'batlantirish ular faoliyatini resurslar bilan qo'llab – quvvatlash uchun soliq va boshqa imtiyozlarning berilishi orqali amalga oshiriladi.

Sug'urta brokerlarining samarali faoliyat asosini tashkil etuvchi tarkibiy kism bu - sug'urtalovchi tomonidan ishlab chiqiladigan uslubiy tizimi xisoblanadi. Uslubiy tizimini shakllantirishda sug'urtalovchi sug'urta turlarini hisobga olishi zarur.

O'zbekistonda sug'urta brokerlari o'z faoliyatlarida qo'llashi uchun xorijiy sug'urta kompaniyalar tajribasi asosida sug'urta brokerlarining ishlash uslublarini ishlab chiqishlari lozim. Bu o'z o'rnida sug'urta portfelini tez shakllantirish va uni samarali boshqarish imkonini beradi. Sug'urta brokerlari faoliyatini amalga oshiruvchi mutaxassislar o'z faoliyati davomida ishlatishi mumkin bo'lgan namuna va andozalar to'plamini chet el sug'urta va qayta sug'urta kompaniyalari bilan birgalikda nashr etishi maqsadga muvofiqdir.

Sug'urta brokerlari faoliyatini samarali amalga oshirishning zamonaviy usullaridan biri – informatsion texnologiyalar asosida sotuvni tashkil qilishdir. Bunda sug'urta brokerlaridan manzilma-manzil yurib mijoz izlash, ob'yektlarni sug'urtaga jalb yetish talab qilinmaydi, balki internetda sug'urta mahsulotlarini ularning shartnoma shartlari, sug'urtalash qoidalari, tarif stavkalari bilan birgalikda joylashtirish va unda sug'urta kalkulyatsiyasini o'rnatish zarur. Sug'urta mahsulotlarini sotishning zamonaviy turlarini ko'paytirish zarur, chunki yil sayin iqtisodiyotning barcha sohalari rivojlanib, avtomatlashtirilmoqda, sug'urta sohasini internet tarmog'i orqali amalga oshirish bir tarafidan faoliyatni tezlashtirsa, ikkinchi tarafidan vaqtini tejaydi va aholining katta qismini jalb qilish imkoniyatini yaratadi.

7-jadval

**O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sug'urta brokerlari**

| Sug'urta brokerlari    |                                    |
|------------------------|------------------------------------|
| Litsenziya raqami      | Nomi                               |
| SF 00185, 01.11.2013 y | MChJ «INSURANCE BROKER CONSULTING» |
| SF 00204, 15.07.2015 y | MChJ «ORIENT INSURANCE BROKER»     |
| SF 00218, 30.09.2016 y | MChJ «InRe»                        |
| SF 00239, 27.12.2018 y | MChJ «MOI Insurance Brokers Asia»  |

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ham ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritadigan sug'urta brokerlarining soni O'zbekiston sug'urta bozoridagi kompaniyalar soniga nisbatan ancha kam. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ularning mutanosibligini ta'minlash orqali ancha samaradorlik ko'rsatkichlariga ega bo'lish mumkin, sababi sug'urta brokerlari sug'urta faoliyatini rivojlantiruvchi kuch ekanligi yuqorida ta'kidlab o'tilgan edi.

O'zbekistonda sug'urta brokerlari faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish asosan quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

1. Xorijiy mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqqan holda sug'urta brokerlarining kasbiy javobgarligini sug'urtalash mexanizmini joriy etish, bu sug'urta brokerlarining sug'urtalanuvchilarga, sug'urta polisi egalariga o'z faoliyatlari davomida yuzaga keladigan salbiy oqibatlarini oldini olishga yordam beradi, shuningdek iste'molchilarning moliyaviy himoyalanganlik darajasini oshiradi. Uni amaliyotga tadbiiq etilishi sug'urta vositachilari faoliyati samaradorligini oshirishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

2. Sug'urta brokerlarini assotsatsiyasini tuzish yoki ularni mavjud assotsatsiyaga a'zo bo'lishini ta'minlash orqali sug'urta brokerlarining muammolarini tizimli yechishga va sohaga innovatsiyalarni jalb qilishga, sug'urta brokerlarini huquqiy takomillashtirishga yaqindan yordam beradi.

3. Sug'urta brokerlarining huquqiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida sug'urta brokerlarining qonunchilik hujjatlarni tashkil etish orqali sug'urta vositachilari tomonidan yillar davomida shakllantirilgan mijozlar bazasi, shuningdek, sug'urta brokerlari faoliyati natjalarini uchinchi shaxslar tomonidan asossiz foydalanish uchun moliyaviy sanksiyalar kiritish.

4. Sug'urta brokerlarining agressiv faoliyatini oldini olish maqsadida sug'urta brokerlari xizmat haqlarini to'lash yoki shakllantirish borasida me'yoriy huquqiy asoslarni bosqichma-bosqich yaratib borish.

5. Sug'urta brokerlarining faoliyatini yanada qo'llab-qo'vvatlash maqsadida sug'urta brokerlari faoliyatiga soliq imtiyozlarini joriy etish.

6. Milliy sug'urta kompaniyalarining xodimlari tomonidan sug'urta vositachilarining (sug'urta agentlari, sug'urta brokerlari va qayta sug'urta brokerlarining) malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha doimiy faoliyat ko'rsatadigan maxsus ixtisoslashtirilgan master klasslar, seminar treninglar va kurslarni tashkil etib borish.

#### **5.4 Sug'urta biznesini rivojlanishida sug'urta agentlarining roli**

Eng muvaffaqiyatli amerikalik sug'urta agentlaridan biri F.Bettджер o'z kitobida quyidagini ta'kidlaydi. Sug'urta shartnomasini tuzishning asosida mijoz bilan uni sug'urtasi tog'risida emas, balki uning biznesi va muammolari to'g'risida suhbat yotadi. shunday qilib, sug'urta kompaniyasi vakili sug'urta mahsulotini sotishni emas, balki korporativ mijozga sug'urta xavflarini boshqarish uchun ishonchli vositani taqdim etishi zarur. Buning uchun yangi mijozlarni jalb etish ustida ishlaydigan bo'limlarning funksiyalari quyidagilardan iborat: potensial mijozlarni aniqlab ular bilan uzoq muddatli aloqalarni saqlab qolish, shaxslararo do'stona va hamkorlik aloqalarini o'rnatish, har xil kompleks xizmatlarni ko'rsatish, ehtiyojlarini va sug'urta mahsulotini shakllantirish uchun mijoz talablarini aniqlash, sug'urtani sotib olish zarurligiga ishonirish va noroziliklar ustida ishlash, xavflarni boshqarish masalalari bo'yicha maslahat berishdan iboratdir.

Darhaqiqatan ham yuqoridagi fikr asosida shu narsa ayyon bo'ladiki, sug'urta biznesini sug'urta vositachilarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Vositachilarning bir bo'g'ini hisoblangan sug'urta agenti juda ma'suliyatli



faoliyat hisoblanadi. Hozirgi kunda sug'urta vositachilari orqali anchagina daromadlar byudjet parametrlarida o'z o'zini egallagan. Shundan keib chiqqan holda aytish mumkinki, sug'urta agentlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

1) Faqat bir yoki bir nechta sug'urta kompaniyalari manfaati uchun faoliyat yuritadi (turli mahsulotlar sotishda);

2) Sug'urta tashkilotining ishonchnomasi (agentlik shartnomasi) bilan tasdiqlangan vakolat doirasida xizmat turlarini ko'rsatish;

3) O'zlarining xatti-harakatlari doirasida sug'urta kompaniyasining huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Bundan tashqari sug'urta agentlariga raqobatchi sug'urta kompaniyalarining masulotlarini sotish taqiqlanadi ya'ni brokerlik faoliyati bilan shug'ullanish.

Sug'urta agentlarining vazifalariga sug'urtalovchidan sug'urta qildiruvchiga bo'lgan jarayon, sug'urta shartnomasini tuzishda yordam berish, uni bajarishda ko'maklashish kiradi. Agentlarning asosiy vazifalari quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- sug'urta qiluvchilarni qidirish va ularga maslahat berish; hujjatlarni rasmiylashtirish va imzolash; sug'urta qildiruvchiga shartnoma asosida xizmat ko'rsatish.

1) sug'urta agentlari - jismoniy shaxslar. Ular sug'urtaning chakana turlarida mayda bitimlarda vositachilik faoliyatini yuritadilar.

Ular birga ishlaydigan insonlar doirasi katta emas, lekin xizmat turlari, qo'shimchani kiritgan holda nihoyatda tor;

2) sug'urta agentlari - yuridik shaxslar. Ular chakana sug'urtalashga ixtisoslashganlar, ularning faoliyatida jismoniy va yuridik shaxslar bilan tuzilgan mayda va kamdan-kam uchraydigan bitimlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ko'pincha, ular bir nechta sug'urtalovchining vakillari sifatida mukofotlar oladilar va ularning xizmat ko'rsatish doiralari ancha kengdir.

Barcha agentlarni ikki guruxga ajratishimiz mumkin:

1) Sug'urtalovchi xodimlarining, e'tirof etilishi xizmat haqi va komissiya agentlarini o'z ichiga olgan holda tashkil etiladi. Ularga, doimiy xizmat haqiga ega sug'urta kompaniyasining shtatida turgan sug'urta agentlari kiradi. Bunday paytda ular faqatgina o'zlarining vakolat va komissiya taqdirlovini olgan sug'urta kompaniyalarini taqdim etishlari mumkin. Ularning faoliyati mehnat shartnomasi va ish vazifalarini sug'urtalovchi tomonidan to'liq boshqarib

nazorat qilinadi. Sug'urta kompaniyasi agentlarni qilgan mehnatlari uchun ta'minlab borishlari kerak.

2) Jismoniy va yuridik shaxslar, shartnoma asosida sug'urtalovchining xohish istaklari bilan tanishtiradi.

Bunday sug'urta agentlari sug'urta kompaniyasining shtat ishchilari hisoblanmaydi va ishlari uchun kommissiya taqdirlovini olishadi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Bosh sug'urta agentlari. Bu sotuvchilarning vazifasiga, mijozlar bilan muloqot qilish va tayyor mahsulotni sug'urta kompaniyasiga yetkazish kiradi.

2. Monomandat sug'urta agentlari. Bular maxsus shartnoma asosida faqat bitta kompaniya bilan bog'lanishgan va faqatgina xususiy mijozlarga xizmat ko'rsatadilar. Ularning to'lovlari faqatgina kommissiya taqdirlovidan sug'urta mukofotidan tashkil topgan. Bunday agentlar mijozlar bilan doimiy ravishda aloqada va ular bilan munosabatlari mustahkam, mijozga yangi xizmat haqidagi ma'lumotni tezda yetkazishga imkon beradi.

3. Ko'p mandali sug'urta agentlari. Bir qancha yoki bitta sug'urta kompaniyalari bilan ishlash huquqiga ega va ulardan o'z faoliyatlari uchun mandat qo'lga kiritish imkoniyatlariga egalar. Sug'urtalovchiga qulayligi shundaki, agent barcha sug'urta kompaniyalarining sug'urta mahsulotlarini tavsiya etishi mumkin, shu tarzda sug'urtalovchiga tanlash imkoniyatini yaratib beradi (bunday agentlar bizda faoliyat yuritmaydi).<sup>30</sup>

Sug'urta agenti faoliyat yuritishi jarayonida o'zining huquq va majburiyatlarini doimo yodda tutmog'i lozim. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunning 9<sup>1</sup>-moddasi Sug'urta agentining huquq va majburiyatlari deb yuritiladi va unga asosan sug'urta agenti quyidagi huquqlarga ega:

✓ sug'urtalovchi tomonidan berilgan vakolatlar doirasida sug'urtaning har qanday turi, shu jumladan majburiy sug'urta turlari bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirish;

✓ sug'urtaga qabul qilinayotgan sug'urta tavakkalchiligini baholashda, sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta to'lovini to'lashda va sug'urta qildiruvchining sug'urta mukofotini to'liq hajmda hamda sug'urta shartnomasida belgilangan muddatlarda to'lashida zarur ko'mak ko'rsatish;

✓ sug'urtalovchidan litsenziyaning mavjudligi, ustav fondi miqdorlari, sug'urta zaxiralari hamda qabul qilingan majburiyatlar to'g'risida, shuningdek sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumotlar olish;

<sup>30</sup> Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland. The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993.

✓ sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) tuzish uchun zarur hujjatlarni rasmiylashtirish;

✓ sug'urta qildiruvchidan qabul qilib olinayotgan tavakkalchiliklar to'g'risida sug'urtalovchiga to'liqroq axborot berish maqsadida barcha uchun ochiq bo'lgan manbalardan tavakkalchilik va sug'urta qildiruvchi to'g'risida sug'urta qildiruvchining shaxsiy hayotiga aralashmagan holda ma'lumotlar to'plash.

Sug'urta agenti qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Sug'urta agenti quyidagi majburiyatlarini ham unutmashligi lozim:

✓ sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

✓ sug'urta shartnomasi tuzishda va sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lashda hujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirishga ko'maklashishi;

✓ sug'urta tariflari, sug'urtalovchilar tomonidan taklif etilayotgan sug'urta shartlari haqida, litsenziyaning mavjudligi, ustav fondi miqdorlari, sug'urta zaxiralari hamda qabul qilingan majburiyatlar to'g'risida, shuningdek sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar haqida axborotga ega bo'lishi;

✓ sug'urta shartnomasini rasmiylashtirishda sug'urta qildiruvchi to'g'risida zarur axborotga ega bo'lishi, unga sug'urta tavakkalchiligini pasaytirish va sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini kamaytirishga qaratilgan aniq tadbirlarni amalga oshirishni taklif etishi;

✓ sug'urta qildiruvchilarning so'roviga ko'ra ularga sug'urtaning amaldagi shartlari to'g'risida axborot berishi;

✓ sug'urta shartnomalarini belgilangan tartibda tuzishi va yangi muddatga o'z vaqtida qayta rasmiylashtirishi;

✓ tuzilgan sug'urta shartnomalari va olingan sug'urta mukofotlari summalari hisobini belgilangan shaklda yuritishi;

✓ sug'urta hujjatlarining saqlanishini ta'minlashi;

✓ mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etgan ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashi;

✓ sug'urta shartnomasining amal qilish muddati mobaynida tavakkalchilik shart-sharoitlarining jiddiy ravishda o'zgarishiga taalluqli axborotni sug'urtalovchi o'z vaqtida olishini, shuningdek sug'urta e'tirozlari yuzaga kelganda hamda ularni tartibga solish jarayonida sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchi o'rtasida axborotning o'z vaqtida almashinishini ta'minlashi;

✓ tegishli bitim mavjud bo'lgan taqdirda, sug'urtalovchining topshirig'iga ko'ra va uning hisobidan sug'urta to'lovlari to'lanishini tashkil etishi shart

Sug'urta agentining zimmasida qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Xalqaro miqyosda olib qaraydigan bo'lsak, sug'urta biznesining harakatga kelishi sug'urta vositachilariga borib taqaladi. Xalqaro sug'urta nazorati uyushmasining (XSNU) bu boradagi tavsiyasi va talablari anchagina qattiq hisoblanadi. XSNUning "Sug'urtalashning asosiy tamoyillari va metodologiyasi" hujjatida sug'urta nazorati organi to'g'ridan to'g'ri yoki sug'urta kompaniyalari vositachilarning hatti-harakati bilan bog'liq muayyan talablarni belgilashlari kerakli ko'rsatib o'tilgan. Ushbu qoida muhim vositasi sifatida vositachilarni litsenziyalash yoki ro'yxatdan o'tkazish talablarini qat'iy belgilaydi.

Xalqaro amaliyotda sug'urta vositachilarni tartibga solishning turli xil shakl va tizimlari mavjud. Misol uchun Buyuk Britaniyada va kontinental Yevropa mamlakatlarida sug'urta agenti odatda bitta sug'urta kompaniyasi nomidan faoliyat yuritadi.

AQShda esa sug'urta agenti bir nechta kompaniyalar nomidan ish ko'radi va ular mustaqil sug'urta agentlari hisoblanadi. Xorijda sug'urta kompaniyalari sug'urta agentlariga yuqori talablarni belgilaydi.

Sug'urta agentlari sifatida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslar tur operatorlar, sayyohlik agentliklari, yuridik maslahat va notarial idoralar odatda o'z faoliyatlariga qo'shimcha tarzda sug'urta shartnomalari rasmiylashtirishni taklif qilishadi. Ular o'rtasidagi munosabatlar sug'urta shartnomalari bilan tartibga solinadi, bunday shartnomalar yuridik shaxs xodimlari bilan tuzilishi mumkin.

Sug'urta agentlarining ish haqlari ya'ni vositachilik haqlari sug'urta shartnomalarida belgilanadi yoki sug'urta mukofotlarining bir ulushi sifatida belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Sug'urta agentlarining ish haqi miqdorlari cheklanmagan, ayrim hollarda sug'urta agentlarining ish haqlari sug'urta kompaniyasi boshlig'i ish haqidan ham yuqori bo'lishi mumkin.

Shuningdek qator xorijiy mamlakatlarda sug'urta agentlari hududiy yoki mintaqaviy sug'urta assosatsiyalariga birlashishlari mumkin, ularning asosiy maqsadi sug'urta agentlariga sug'urtalanuvchilar bilan bo'ladigan huquqiy munosabatlarni shakllantirishga yordam berish, faoliyatlarini monitoring qilish, malakasini oshirish, kasbiy tayyorgarlik masalalarini hal qilish, ularning professional darajasini ifodalovchi sertifikatlarni (ruxsatnoma) berishdan iborat.

Sug'urta brokerlari faoliyatidan farqli ularoq sug'urta agentlari barcha Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqida bir xil pozitsiyaga ega bular sug'urta kompaniyalari nomidan faoliyat yuritadigan sug'urta vositachilaridir.

Amimo sug'urta agentlari kim bo'lishi mumkinligi, qanday talablarga javob berishlari va qay tarzda nazorat qilishlari borasidagi masalalarda a'zo mamlakatlar orasida farqlar mavjud.

Barcha a'zo davlatlarda sug'urta agentlari yuridik va jismoniy shaxs bo'lishlari mumkin. Biroq, Belorussiyada sug'urta agentlari sifatida faoliyat yuritadigan shaxslar doirasi cheklangan. Ular faqat jismoniy shaxslar bo'lishi kerak, yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar, sug'urta vositachiligi ularning asosiy faoliyatiga qo'shimcha faoliyat olib borilsa ham vositachilik faoliyatini olib borishlari ham mumkin emas. Shu bilan birga, sug'urta agentlari davlat tashkilotlari bo'lmagan yuridik shaxslar majburiy sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega emaslar.

Armanistonda sug'urta agentlariga qonunchilik asosida ko'plab talablar qo'yilgan. Avvalo sug'urta agenti yuridik shaxs bo'ladigan bo'lsa 2 mln.dram, agar jismoniy shaxs bo'ladigan bo'lsa 1 mln.dram miqdorida uchinchi shaxslarga (sug'urtalanuvchi va naf' oluvchi) zarar yetkazish javbgarligini sug'urtalashi kerak yoki sug'urta kompaniyasi ushbu javobgarlikni o'z zimmasiga olish kerak. Bundan tashqari, sug'urta agenti sug'urta mukofotlarini olishi yoki sug'urta qoplamalarini olishi va to'lashi bilan bog'liq faoliyatni ham amalga oshirsa u markaziy bank tomonidan o'rnatilgan kafolat mablag'iga ega bo'lishi lozim. Va nihoyat sug'urta agenti o'zining professionalligi va malakasini tasdiqlovchi hujjatga ega bo'lishi yoki u bilan ishlaydigan sug'urta kompaniyasidan sug'urta sohasida zarur bo'lgan bilim va ko'nikmaga ega ekanligi to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Qozog'iston va Belorussiyada sug'urta agenti sifatida ishlash huquqini olish uchun jismoniy shaxs o'rta ma'lumotga ega bo'lishi kerak, shuningdek Qozog'istonda uning vositachilik sohasida bilimi tekshirish uchun (Qozog'iston Milliy bankining dasturiga muvofiq) shartnoma qilinayotgan sug'urtalovchida o'qiydi va imtihondan o'tadi. Rossiya Federatsiyasida bularning barchasi talab qilinmaydi.

Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo qator mamlakatlarda sug'urta agentlarining faoliyatini nazorat qilish maqsadida ro'yxatga olish amaliyoti joriy etilgan. Masalan, Armanistonning hamma sug'urta agentlari Markaziy bankning vositachilar ro'yxatidan o'tishlari shart, Belorussiyada esa faqat yuridik shaxslar



Moliya vazirligidan ro'yxatdan o'tiladi jismoniy shaxslar esa ro'yxatdan o'tmagan holda o'z faoliyatlarini olib borishlari mumkin.

Qozog'istonda sug'urta agentlarini sug'urta kompaniyalari ro'yxatga oladi va vakolatli organga taqdim etishadi. Rossiya Federatsiyasiga kelsak, bu yerda sug'urta agentlari ro'yxatga olinmaydi va ularni nazorat qilishni sug'urta kompaniyalari o'zlari olib borishadi.

Ba'zi mamlakatlarda sug'urta agentlari ham ro'yxatdan o'tishlari talab etiladi. Masalan, Italiyada sug'urta agentlari dastlab tadbirkorlar sifatida ro'yxatdan o'tadilar va keyinchalik esa ular sug'urta agentlarining yagona reestriga kiritiladi.

Kontenital Yevropa bozorida (Germaniya, Italiya, Ispaniya va boshqalar) sug'urta vositachilari faoliyati minimal darajada tartibga solinadi. Bundan tashqari, ushbu mamlakatlarda sug'urta agentlari sug'urta vositachilarining asosiylari bo'lib hisoblanadi, sug'urta brokerlarining faoliyati ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Germaniyada faqat sug'urta brokerlari sug'urta nazorati organlarida ro'yxatga olinishi mumkin. Sug'urta agetlarining faoliyati nazorat organlari tomonidan nazorat qilinmaydi, ular o'rtasidagi sug'urta munosabatlari sug'urta shartnomasi yoki agentlik bitimi doirasida tartibga solinadi. Sug'urta qonunchiligi doirasi Germaniyada uch turdagi sug'urta agentlari mavjud: sug'urta kompaniyalari shtatidagi sug'urta agentlari, bitta kompaniya bilan ishlovchi sug'urta agentlari va bir nechta sug'urta kompaniyalari bilan ishlovchi sug'urta agentlari.

Fransiyada Germaniya kabi, davlatning sug'urta vositachilarini boshqarishda va nazoratida ishtirok etishi minimal darajada. Sug'urta vositachilarining asosiysi bu sug'urta agentlari hisoblanadi, ularning faolyati sug'urtalovchilar tomonidan nazorat qilinadi. Bozorda barcha sug'urta shartnomalarining taxminan 20% ni sug'urta brokerlari faoliyati davlat nazorat organi tomonidan nazorat qilinmaydi, ular faoliyati o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan nazorat qilinadi.

Sug'urta qonunchiligi doirasi Germaniyada uch turdagi sug'urta agentlari mavjud: sug'urta kompaniyalari shtatidagi sug'urta agentlari, bitta kompaniya bilan ishlovchi sug'urta agentlari va bir nechta sug'urta kompaniyalari bilan ishlovchi sug'urta agentlari.

AQSh da sug'urta agentlari turli darajadagi mustaqillikka ega: sug'urta kompaniyasi shtatida turuvchi sug'urta agentlari, ular odatda shu kompaniyasiga ishlaydi sug'urta shartnomalari tuzadi, shuningdek shartnoma kuchga kirgandan

keyin ham uning ijrosini ta'minlab boradi. Mustaqil sug'urta agentlari bir vaqtning o'zida bir nechta sug'urta kompaniyalari bilan hamkorlikda ishlaydilar va mijoz manfaatlaridan kelib chiqan holda ularga optimal sug'urta polislarini taulashga yaqindan ko'mak berishadi.

Mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirishdagi asosiy omillar qatoriga sug'urta polislarini sotish kanallarini kengaytirishni hamda sug'urta polislarini sotishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llashni kiritish mumkin.

Sug'urta agenti mijoz bilan o'zaro foydali muloqot o'rnatish uchun quyidagi olita muhim omilni e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim:

- ❖ *o'zaro hayrixohlik*. Bu sifat yaxshi ish munosabatlarini o'rnatish uchun muhim shart hisoblanadi. Muruvvatlilik, manfaatlarning umumiyligi hayrixohlikni oshiradi.

- ❖ *tomonlarning bir-biriga hurmati*. Savdo munosabatlari mustahkam bo'lishining yana bir muhim sharti bu hamkorlarning bir-biriga bo'lgan hurmatidir.

- ❖ *tomonlarning bir-biriga o'zaro ishonchi*. Sotish texnologiyasining muvaffaqiyati hamkorlarining bir-biriga ishonchi o'zaro ochiqchiligidagi, vijdonda, hulqining «tiniq»ligida, tartiblilikida va ishonchlilikida bilindi.

- ❖ *o'zaro tirishqoqlik*. Sug'urta mahsulotlarini sotuvchi sifatida agent hamma kuch-g'ayratini mijoz bilan yaxshi muomalada bo'lishga qaratishi lozim. Darhaqiqat, mijozni qiziqitirmay turib, agent umumiy qo'yilgan maqsad yo'lida hech qanday o'zgarish qilolmaydi. Ta'bir joiz bo'lsa, sug'urta agenti mijozga do'st bo'lishi, buning ustiga uning muammolarini yechishga yordam berishi, uning har qanday istaklarini bajarishga harakat qilishi kerak. Vazmin va bosiq bo'lish hamda kangaplik savdo munosabatlari muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, sug'urta agentining mijoz bilan suhbat olib borish mahoratini, bir-birlarining ish faoliyatiga o'zaro qiziqishlarini moslashuvchanlik, oliyjanoblilik va mustaqil bo'lish kabi fazilatlarini sotuv jarayonida ijobiy natijaga erishishning zarur shartlaridan biri sifatida ta'kidlash joiz.

- ❖ *sotuvchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlarning jadalligi*. Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, o'zaro munosabatlar ikkala tomon bir-biri bilan doimiy muloqotda bo'lib turgandagina yaxshilanadi. Agar sug'urta mahsulotlarini sotuvchi agent mijozlar bilan muntazam yaxshi va mustahkam aloqada bo'lib turish imkoniyatini topa olmasa, u holda hamma e'tiborni va harakatlarni katta daromad keltiruvchi mijozlarga qaratishi kerak. Mutaxassislarining ma'lum

qilishicha, sug'urta agenti bir paytning o'zida beshtadan ortiq bo'lmagan mijozlar bilan haqiqatda yaxshi va mustahkam aloqada bo'la oladi.

❖ puxta bilimli bo'lish. Sug'urta agenti o'z kompaniyasini mijozga tanishtirish jarayonida unga kompaniyaning erishgan yutuqlari va ijobiy tomonlari haqida haqida so'z ochadi. Agarda agent o'zini puxta bilim egasi qilib ko'rsata olmasa, mijoz bilan bo'ladigan hamma yaxshi munosabatlari izdan chiqadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi kunda sug'urta agentlari faoliyatini yuqorida aytib o'tilganidek samarali tashkil qiladigan bo'lsak, sug'urtaning YalM dagi ulushini ancha ko'targan bo'lamiz. Sababi, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning sug'urta faoliyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bitta mijozga to'g'ri keladigan agentlar soni 7-8 tani, O'zbekistonda esa buning teskarisini ko'rishimiz mumkin. Agent qanchalik yetarli bo'lib ish hajmini zo'r tashkil etsa, sug'urtaning ommaviylashuvi ham shunchalik yaxshi bo'ladi.

#### **Nazorat savollari**

1. Sug'urta vositachilarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi qanday amalga'oshiriladi?
2. Sug'urta agentlarining turlarini sanab bering?
3. Sug'urta agentlarining o'ziga xos xususiyatlarini ayting?
4. Sug'urta agenti va sug'urta brokerining o'zaro o'xshash va farqli jihatlari?

## VI BOB. SUG'URTA BIZNESIDA MOLIYAVIY FAOLIYATNI BYUDJETLASHTIRISH

### 6.1 Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy resurslarni joylashtirishning o'ziga xos xususiyatlari

Iqtisodiyotni innovasion rivojlantirish va shu asosda uning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun unga, birinchi o'rinda, etarli darajada investitsiya kiritish zarurligi jahon amaliyotida tajribadan o'tgan va o'zini oqlagan usul hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, O'zbekiston uchun ham iqtisodiyot sohalarini jadal rivojlantirish hamda tarkibiy o'zgartirish borasida yirik miqdordagi investitsiyalarni jalb etish o'ta muhim hisoblanadi. Bunday hajmdagi investitsiyalar ham ichki, ham tashqi investitsiyalarni faol jalb qilish evaziga ta'minlanishi mumkin. Shu bilan birga mamlakatdagi mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solish hamda tashqaridan mumkin qadar ko'proq investitsiyalar jalb qilish uchun, qulay investitsiya muhitini yaratish davlat oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Qulay investitsiya muhitini yaratishning muhim shartlaridan biri investitsiya uchun yo'naltiriladigan moliyaviy resurslarning samaradorligini ta'minlashdan iborat. Shu bilan bir qatorda iqtisodiyotga zarur darajadagi investitsiyalarni jalb qilish va ushbu investitsiyalarning samaradorligini ta'minlash xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsiya jarayonlarda faolligini oshirishga va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga olib keladi.

Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi holati va davlat iqtisodiy siyosatining o'zgarib borishi iqtisodiyotning dolzarb muammolarini, jumladan investitsiya bilan bog'liq masalalarni muntazam qayta ko'rib chiqish va ilmiy tadqiq etishni talab etadi.

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor A.V.Vaxabovning fikriga ko'ra, investitsiya siyosati investitsiya faoliyatning o'rta va uzoq muddatli maqsadlari hamda ularga erishish yo'llarini belgilab beradi. Investitsiya siyosati – investitsiya strategiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimi, investitsion taktikadir.

SHuningdek oqilona investitsiya siyosati birinchi navbatda, investitsiya jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Investitsiya siyosati xorijiy va milliy investorlarning xo'jalik faoliyatini yuritishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi lozim. SHu bilan birga investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda eng

muhtini va hal qilinishi lozim bo'lgan masalalardan biri – chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni hududlar bo'ylab maqbul darajada bir tekis joylashtirishdir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va strategik maqsadlarini belgilash, O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy hamjamiyatdagi roli va o'rnini aniqlash imkonini bermoqda. SHunday ekan bir narsani ta'kidlab o'tish lozimki, investitsiya jozibadorlik bo'yicha mamlakatlarning reytinglarini e'ton qilishda O'zbekiston umumiy davlatlar ro'yxatidan joy olmasdan kelmoqda.

Xuddi shuningdek, investorlar moliyaviy sarmoyalarni biror-bir mamlakatning iqtisodiyotiga kiritishidan oldin mamlakat fond bozorining faolligini namoyon etadigan indeksarga ham e'tibor qaratishadi. Bularga: DowJones va NASDAQ (AQSH), EuroCtoxx 50, FTSE (London), XETRA DAX (Germaniya), CAC-40 (Fransiya), SMI (SHveysariya), AEX (Gollandiya), MIBTel (Italiya), IBEX (Ispaniya), Nikkei (Yaponiya), HANGSENQ (Gonkong), MMVB-RTS (Rossiya). Ushbu indekslar bo'yicha ham O'zbekiston quyi pog'onadan joy egallab kelayotgani ham achiqararli jihatlardan hisoblanadi. Nimaga deganda, O'zbekiston fond bozori bugungi kunda unchalik ham rivojlanmagan va bu boradagi islohotlar sekinlik bilan kechmoqda.

Shuning uchun investitsiya siyosatining makrodarajadagi va mikrodarajadagi maqsadlaridan kelib chiqqan holda, davlat investitsiya siyosatining asosiy vazifalarini quyidagicha ta'riflash mumkin:

investitsiya faoliyatini jonlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirishga qaratilgan maqsadli yo'naltirilgan siyosat yuritish;

mahalliy mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash va mamlakatning eksport salohiyatini oshirish maqsadida ustuvor tarmoqlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

investitsiya loyihalarining tanlov asosida davlat tomonidan moliyalashtirilishini amalga oshirish;

xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida shaffof iqtisodiyot siyosatini olib borish;

ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish,

qurilish materiallari va pudrat ishlari bozorini rivojlantirish.

YUqoridagi vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda va uning samaradorligini ta'minlashda sug'urta xizmatlarining hamda sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini muhim ahamiyat kasb etadi.



Investitsiya siyosatini amalga oshirish vositalari va usullari investitsiyalarning turli yo'nalishlarda sarflanishi va joylashtirilishini rag'batlantiradi. Investitsiya qo'yimalarning amaldagi samaradorligi olingan foydaga asoslanib baholanadi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining miqdori va o'sish sur'atlari iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan investitsiyalar miqdori va tarkibiga bog'liq bo'ladi.

Sug'urta tashkilotlarining faoliyati tabiat va jamiyatda yuzaga keladigan turli ko'rinishdagi kutilmagan hodisalar yuz berishi natijasida yuzaga keladigan zararlarni qoplash maqsadida ushbu xizmat evaziga sug'urtalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan sug'urta mukofotlarini to'plash, ushbu ko'rsatiladigan xizmatlar uchun olinadigan haqni (sug'urta mukofoti) kamaytirish, hamda qo'shimcha daromad olish maqsadida o'z mablag'lari, to'plangan hamda jalb qilingan mablag'larni kelajakda ma'lum investitsiyaviy daromad olish uchun vaqtinchalik turli sohalarga joylashtirishdan iborat.

Sug'urta tashkiloti yuqorida keltirib o'tilgan xizmatlar orqali ixtiyorida shakllangan katta miqdordagi pul mablag'larini turli sohalarga joylashtirish bilan bog'liq faoliyati uning investitsiya faoliyatini tashkil etilishi bilan ajralib turadi. Sug'urta tashkilotining ushbu faoliyati uning investitsiya imkoniyatini shakllantirish jarayonida ko'zga tashlanadi. "Investitsiya potentsiali" atamasi iqtisodiy adabiyotlarda birinchi bor 1980 yillar boshida paydo bo'lgan. Bu mavzuni o'rganishga nazariy va amaliy harakatlar 90 yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan.

## **6.2 Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy resurslarni joylashtirishning nazariy asoslari**

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish faoliyati yuqori risk darajasiga ega bo'lgan sohalar biri hisoblanadi. Rossiyalik tadqiqotchi I.T.Balabanova riskka shunday ta'rif beradi: risk – yo'qotishlar xavfining mavjudligi; omadga ishongan holdagi harakat. A.Mur va K.Xiarndenlar esa risk – xavf-xatar. Istalmagan hodisaning yuz berish ehtimolligi sifatida qaraladi va uning yuz berishi qimmatliklarning yo'qotilishiga olib keladi, deya ta'rif beradi. Sharp U.F., Aleksandr G.Dj., Deyli Dj. tomonidan tayyorlangan "Investitsiyalar" nomli kitobda risk – investitsiya qiymati bilan bog'liq noaniqlik deya ta'rif berilgan.

Risk o'zi nima? Risk bu- qandaydir ko'rinishdagi xavfli holatning yuz berish ehtimolligi, ammo ushbu holatning yuz berganligi emas. Ushbu risk bizning har bir bosgan qadamimizda ham, eydigan ovqatimizda ham, ichadigan suvimizda ham va biror-bir maqsad yo'lida amalga oshiradigan ishimizda ham

mavjud Riskning yuz berishi esa bu hodisa. Hodisaning yuz berishi biz uchun hayotimizga, sog'ligimizga, mulkimizga va iqtisodimizga zarar etkazishi mumkin. Bu zararlarning hajmi o'z imkoniyatimiz bilan qoplash mumkin bo'lgan darajada kichikroq bo'lishi yoki o'z imkoniyatimiz bilan qoplash mumkin bo'lmagan darajada katta hajmda bo'lishi mumkin.

Biz o'z imkoniyatimiz bilan qoplash mumkin bo'lgan darajadagi risk ham bizning keyingi faoliyatimiz uchun salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. O'z imkoniyatimiz bilan qoplash mumkin bo'lmagan riskning yuz berishi esa bizning keyingi faoliyatimizni butunlay izdan chiqarishi mumkin. SHuning uchun ham "sug'urta" deb atalgan xizmat insoniyat jamiyatida uzoq yillar davomida shakllangan va bugungi kun darajasiga etib kelgan.

Sug'urta tashkiloti o'zining boshlang'ich kapitali, sug'urta faoliyatidan olgan foydasi hamda jalb qilingan mablag'lardan tashkil topgan vaqtinchalik bo'sh mablag'larni qo'shimcha daromad olish maqsadida ishonchli va foydali sohalarga belgilangan vaqt oralig'ida qaytib olish sharti bilan joylashtirishi investitsiya faoliyatidir. Sug'urta tashkilotining investitsiya faoliyatidan olgan daromadi sug'urta tashkiloti tomonidan ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlar narxini pasaytirish imkonini beradi va bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi.


Umuman olganda, sug'urta tashkilotining faoliyatini ikki qismga bo'lish mumkin: aktiv va passiv qismlar. Passiv qismda sug'urta tashkiloti sug'urta xizmatlarini sotish va qoplamalarni amalga oshirish maqsadida sug'urta zaxiralarini tashkil etish bilan shug'ullanadi. Aktiv qismda esa vaqtinchalik bo'sh mablag'larni foyda olish maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga joylashtirish, ya'ni investitsiya faoliyati bilan shug'ullanadi.

Iqtisodiyot uchun sug'urta tashkilotlarining aktiv hamda passiv qismdagi faoliyati ham birday muhim hisoblanadi. Passiv qismdagi faoliyati bilan iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror faoliyati ta'minlanadi. Bunga mazkur tarmoqlarda kutilmaganda yuz bergan turli hodisalar natijasida ko'rilgan katta miqdordagi zararlarni o'z vaqtida qoplab berish bilan ish faoliyatining uzilishiga barham berish orqali erishiladi. Aktiv qismda esa passiv pul mablag'larini aktiv kapitalga aylantirib, ya'ni investitsiya faoliyati orqali qo'shimcha daromad yuzaga keltiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008 yil 20 noyabrdagi 107-son buyrug'iga bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan ro'yxatga olingan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risida"gi Nizomda sug'urta tashkilotining investitsiyaga yo'naltirilgan

mablag'leri ajratilgan aktivlardan hamda o'z mablag'laridan tashkil topganligi keltirilgan.

Shundan kelib chiqib biz ushbu rasmda sug'urta tashkilotlarining daromad manbalarini quyidagicha tasvirladik.



**3-rasm. Sug'urta tashkilotining daromad manbalari<sup>31</sup>**

Sug'urta tashkiloti tomonidan investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'lar hajmi to'plangan sug'urta mukofotlari, ustav kapitali, taqsimlanmagan foyda, rezerv kapitali, qo'shilgan kapital hamda boshqa jang'arma fondlarning hajmiga bog'liq. SHundan kelib chiqib biz sug'urta tashkilotlarining investitsiya mablag'leri manbalarini quyidagicha tasvirladik.

<sup>31</sup> I.G. Kenjayevning "Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo'llari" mavzusida tayyorlangan PhD dissertatsiya avtorferati ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan



4-rasm. Sug'urta tashkilotlari investitsiya mablag'larining manbalari<sup>32</sup>

Rasmda o'z aksini topgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ustav kapitali sug'urta tashkilotining investitsiya faoliyatini kengayishida muhim rol o'ynaydi. SHuning uchun sug'urta tashkilotining ustav kapitali miqdorini oshirib borish juda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz sug'urta tashkilotlarining aksariyat qismi o'z ustav kapitalarini faqat davlat tomonidan belgilangan minimal holatdagina oshirib kelmoqda.

“Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish” tushunchasining talqini bizning fikrimizcha, ilmiy ishlar va chop etilgan maqolalarda yetarli darajada yoritilmagan. Shu munosabat bilan ushbu tushunchaga quyidagi ta'rif berishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish deganda investitsiya imkoniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmuasini va uni daromadlilik, likvidlilik va risklar o'rtasidagi balans nuqtai nazaridan investitsiya portfelining optimal tuzilmasini shakllantirish maqsadida investitsiya aktivlariga joylashtirish jarayonida investitsiya resurs sifatida qo'llanilishi tushuniladi<sup>33</sup>.

Sug'urta tashkilotlari faoliyatining o'ziga xos jihatlari nazariy tadqiq etish sug'urta va investitsiya yo'nalishlari o'rtasida juda yaqin bog'lanish mavjud ekanligi haqidagi xulosa chiqarishga olib keldi. Shuning uchun sug'urta tashkilotining moliyaviy resurslarini joylashtirish tizimini shakllantiruvchi majmual tadbirlar sug'urta tashkilotining faoliyatiga tegishli bo'lishi lozim.

<sup>32</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

<sup>33</sup>PhD I.G. Kenjayev tomonidan berilgan ta'rif.

### 6.3 Sug'urta tashkilotlari moliyaviy resurslari shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari

Ma'lumki, har qanday sohani tartibga solish qabul qilingan qonunlar hamda boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunday me'yoriy hujjatlarning amal qilishi sohani tartibga solish va sog'lom raqobatni ta'minlash bilan birga mazkur faoliyatning rivojlanishiga ham shart-sharoit yaratib beradi.

O'zbekistonda sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini qonun va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Ushbu qonun hujjatlarini biz ikki qismga bo'lib o'rganishimiz mumkin. Birinchi qism sug'urta sohasining investitsion faoliyatini tartibga soluvchi umumiy qonunlar va maxsus qonunchilik hujjatlaridan iborat.

Sug'urta sohasining investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi umumiy qonunlar sifatida 1998 yil 30 aprelda Oliy majlis tomonidan qabul qilingan "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonun va 1998 yil 24 dekabrda Oliy majlis tomonidan qabul qilingan, 2014 yil 9 dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni amal qilmoqda. Shu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgustdagi PF-5495-sonli "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni investorlarning turli siyosiy risklar natijasida ko'rishi mumkin bo'lgan zaralaridan himoyalash, ichki va tashqi investorlarga investitsiya loyihalarini amalga oshirishlari uchun zarur bo'ladigan er uchastkalari ajratish masalasidagi tartib tamoyillarni soddalashtirish borasida katta imkoniyatlar ochib berdi.

Shuningdek sug'urta va investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonun va qonunosti hujjatlari sifatida 2002 yil 5 aprelda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining "Sug'urta" deb nomlangan 52-bobi va Moliya vazirining 2008 yil 22 apreldagi 41-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2008 yil 12 mayda 1806-son bilan ro'yxatga olingan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida"gi Nizomi, 2009 yil 3 iyuldagi 68-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2009 yil 3 iyulda 1982-son bilan ro'yxatga olingan "Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyat to'g'risida"gi Nizomi hamda 2008 yil 20 noyabrdagi 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan ro'yxatga olingan



“Sug’urtalovchilarning sug’urta zaxiralari to’g’risi”gi Nizomlar amal qilib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to’g’risida”gi qonuni 30 ta moddadan iborat bo‘lib, asosiy tushunchalar deb nomlangan 3-moddasida investitsiyalar, investor, investitsiya majburiyati, investitsiya faoliyati ishtirokchisi va reinvestitsiyalar tushunchalariga ta’rif berilgan.

Bizning fikrimizcha, ushbu qonunda investitsiya faoliyati bilan bog‘liq bir nechta asosiy tushunchalarga ta’rif berilmagan va bu mazkur faoliyatni amalga oshirishda tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, mazkur qonun investitsiya faoliyati to’g’risida deb nomlangan bo‘lib, qonunda investitsiya faoliyati tushunchasiga ta’rif berilmagan. Bundan tashqari investitsiya siyosati, investitsiya muhiti, investitsiya riski kabi tushunchalar ham investitsiya faoliyatiga taalluqli bo‘lgan muhim tushunchalar hisoblanadi. Biz yuqoridagi bo‘limda ushbu so‘zlarga tushunchalar berib o‘tdik.

“Investitsiya faoliyati to’g’risida”gi qonunda investitsiyalar tushunchasiga berilgan ta’rifda shunday deyilgan: investitsiyalar – qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat ob’ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar deb ta’rif berilgan. Mazkur ta’rifda bizningcha “ne’matlar” so‘zi noto’g’ri qo‘llanilgan. Ne’mat so‘zi odatda inson tomonidan iste’mol qilinadigan narsalarga nisbatan qo‘llaniladi. Bundan tashqari, moddiy va nomoddiy ne’matlar tushunchasi umumiy tushuncha.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz investitsiyalar tushunchasiga quyidagicha ta’rif berishni taklif etamiz: investitsiyalar - qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa har qanday turdagi faoliyat ob’ektlariga kiritiladigan pul ko‘rinishidagi, moddiy vositalar, nomoddiy aktivlar ko‘rinishidagi mablag‘lar, hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiya mablag‘lardir.

2008 yil 20 noyabrdagi 107-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan ro‘yxatga olingan “Sug’urtalovchilarning sug’urta zaxiralari to’g’risi”gi Nizomda, sug’urta zaxiralari sug’urta tashkiloti tomonidan sug’urtaning har bir turi (sinf) bo‘yicha sug’urta shartnomasiga muvofiq sug’urta tovonini (sug’urta pulini) to‘lash nazarda tutilgan valyutada shakllantiriladi. Sug’urta tashkiloti buxgalteriya hisobotini tuzishda hisobot sanasiga sug’urta faoliyatini amalga oshirishdan olingan moliyaviy natijalarini aniqlashda sug’urta zaxiralari hajmini hisoblaydi.

Sug'urta zaxiralari hisob-kitobi sug'urtalovchining hisob va hisobot ma'lumotlariga asoslangan holda amalga oshiriladi. Mazkur Nizomda sug'urta tashkiloti o'zining balansida majburiyat yoki aktivlar sifatida hisobga olinuvchi quyidagi texnik zaxiralarni shakllantirishi shart:

a) ishlab topilmagan mukofot zaxirasi (umumiy sug'urta (qayta sug'urta qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda);

b) mukofotlar zaxirasi (hayotni sug'urta qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda);

v) transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi (mazkur majburiy sug'urta turini amalga oshirayotgan sug'urtalovchilar uchun);

g) ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda (mazkur majburiy sug'urta turini amalga oshirayotgan sug'urtalovchilar uchun);

d) sug'urta hodisasining yuz berishi bilan kelib chiquvchi hamda sug'urta shartnomasi shartlari bo'yicha qoplanishi lozim bo'lgan zarar hajmiga muvofiq holda aniqlanadigan va quyidagilardan tarkib topgan zararlar zaxirasi:

- xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi;

- sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi.

Sug'urta tashkiloti qo'shimcha ravishda ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasini, falokatlar zaxirasini, zararlilikning tebranishi zaxirasini, aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasini va boshqa shu turdagi zaxiralarni tashkil etishi mumkin. Mazkur Nizomda yuqorida keltirilgan zaxiralarni hisoblash usullari ham belgilab berilgan. SHu bilan birga Nizomda "ajratilgan aktivlar" tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lib, ajratilgan aktivlar sug'urta tashkilotining sug'urta zaxiralari summasiga muvofiq keluvchi aktivlardir deya tushuncha beriladi. Ushbu Nizomga asosan sug'urtalovchi sug'urta zaxiralari mablag'lari qiymatiga ekvivalent bo'lgan summadagi aktivlarni ajratishi shart ekanligi, ajratilgan aktivlarning umumiy qiymati sug'urta zaxiralari mablag'larining jami miqdoridan kam bo'lmashligi lozimligi, ajratilgan aktivlar qiymati sug'urta zaxiralari summasidan kam bo'lgan holatda, sug'urtalovchi ajratilgan aktivlar qiymatini sug'urta zaxiralari summasidan kam bo'lmagan qiymatga oshirish va sug'urta zaxiralari hajnining 105 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda ko'paytirish uchun etarli miqdordagi qo'shimcha aktivlarni ajratishi shart.

Shuningdek ushbu Nizomda ajratilgan aktivlarning 70% dan kam bo'lmagan qismi quyidagilardan tashkil topishi belgilab qo'yilgan:

- O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari;

- bank omonatlari (depozitlar);
- kassadagi yoki hisob (valyuta) raqamlardagi va o'zga bank raqamlaridagi pul mablag'lari, shuningdek ularga tenglashtirilgan mablag'lar;

- xorijiy davlatlarning davlat qimmatli qog'ozlari (Davlat sug'urta nazorati bilan kelishilgan holda);

- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida chiqarish va muomalaga kiritishga ruxsat berilgan, yoki tegishli vakolatli organ tomonidan berilgan qimmatli qog'ozlar qog'ozlar bozorida savdoni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaga (ruxsatnomaga) ega bo'lgan xorijiy emitentlar tomonidan chiqarilgan hamda qimmatli qog'ozlar bozorida muomalaga qo'yilgan qimmatli qog'ozlardan tashkil topgan bo'lishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008 yil 22 apreldagi 41-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi Nizom"ning 4-bo'limida, sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchi aktivlarini joylashtirishga oid talablar belgilangan bo'lib, ushbu talablar sifatida sug'urtalovchining boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitallariga joylashtiradigan aktivlariga nisbatan chegaralar, sug'urtalovchining har qanday bitta yuridik shaxsning ustav kapitalidagi ulushiga nisbatan chegara, sug'urtalovchi aktivlarini ko'chmas mulk ob'ektlariga joylashtirish bo'yicha chegara, kredit tashkilotlariga joylashtiriladigan mablag'lar bo'yicha chegaralar belgilangan bo'lib, bundan tashqari sug'urtalovchi aktivlarini yo'naltirish ta'qiqlangan sohalar ham belgilangan.

Mazkur Nizomda sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchilar o'z ta'sischi, aksiyadorlari va xodimlariga, shuningdek sug'urtalovchi bilan hayot sug'urtasi shartnomasini tuzgan sug'urta qildiruvchilarga ushbu shartnoma bilan kafolatlangan qarzlarni berishga haqligi ko'rsatilgan. Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchi tomonidan beriladigan qarzlarning umumiy summasi sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchi ustav kapitalining 10 foizidan oshmasligi ham belgilab qo'yilgan.

Ushbu Nizomda, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish faoliyatiga ko'p cheklorlar belgilangan bo'lib, bundan maqsad investitsiya ob'ektlariga joylashtirilayotgan mablag'larning diversifikatsiyasini, qaytishligini, foydaliligini hamda likvidligini ta'minlashdan iborat.

Yuqorida keltirilgan me'yoriy hujjatlarga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, ular tomonidan belgilangan normalar asosan sug'urta tashkilotlari tomonidan investitsion faoliyatini amalga oshirishda ushbu faoliyatni faqat son jihatidan

tartibga solishga qaratilgan bo'lib, joylashtiriladigan moliyaviy resurslarning diversifikatsiyasini ta'minlashga, risk darajasini mumkin qadar kamaytirishga e'tibor qaratilganligini ko'rish mumkin, ya'ni ushbu hujjatlarda investitsiya faoliyatiga bir tomonlama yondashuvni ko'rish mumkin. Bizning nazarimizda masalaning ikkinchi tomoni esa investitsiya faoliyatining sifati va samaradorlik masalasiga e'tibor qaratilmagan. Biz yuqorida keltirganimiz, ICOR ko'rsatkichining rivojlangan mamlakatlar darajasiga erishishimiz uchun investitsiya faoliyatining sifat va samaradorlik ko'rsatkichiga e'tiborni qaratishimiz zarur, ya'ni investitsiya uchun yo'naltirgan 2,5-3 so'mimizdan kamida 1 so'm daromad olishimiz kerak. Buning uchun investitsiya mablag'larining samaradorlik ko'rsatkichiga ham e'tiborni qaratishimiz zarur. Albatta bunda risk darajasini ham e'tibordan chetda qoldirmasligimiz kerak, demak risk va samaradorlik o'rtasidagi optimal nisbatni topishga shart-sharoit yaratilishi kerak.

O'zbekistonda sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazoratga olishning zarurligi bir qator omillarning ta'siri bilan bog'liq. Bizning fikrimizcha ushbu omillarning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

- sug'urta tarmog'i, bir tomondan davlat moliya tizimi institutlarining, ikkinchi tomondan, mulkchilikni himoya qilish institutlarining bir qismi sifatida alohida vazifalarni bajaradi. Sug'urta tarmog'i bir qator o'ta muhim ijtimoiy vazifalarni hal etadi, uni quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: sug'urta polisi sotilayotgan paytda sug'urta xizmati sifatini baholashning imkonsizligi, qiymatining noaniqligi, davlat tomonidan tartibga solishning alohida vositalardan foydalanishni talab qiluvchi sug'urta majburiyatlarini ta'minlashning katta qaltislikka ega ekanligi;

- sug'urta qildiruvchilar mulkini himoyalash omili. U ayniqsa iqtisodiy jarayonlarning beqaror rivojlanishi bilan kuzatiladigan bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim o'rniga ega;

- sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish zarurligining yana bir omili sug'urta tashkiloti sug'urta qildiruvchi oldidagi o'z majburiyatlarini bajara olmagan taqdirda sug'urta tashkilotlarining to'lovga qodir emasligi yoki moliyaviy beqarorligining umuman iqtisodiyot uchun katta, ba'zan esa fojiali oqibatlar bilan bog'liqdir. Bu nafaqat sug'urta shartnomasida ko'zda tutilgan mulkiy yoki ekologik tusdagi zararni tiklash, balki umuman sug'urta bozorining qobiliyati va istiqbollari uchun kelib chiqadigan oqibatlar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin;

- aholining ta'sir doirasidan foydalanib, ya'ni ish joyi rahbarlari buyrug'i, bog'cha, maktab mutasaddilarini majburiy sug'urta qildirishlari analiyotlari kuzatiladi. Bunday sharoitda davlat nazoratining muhim funksiyalaridan biri ushbu amaliyotning oldini olishdan iborat.

Bugungi kunda davlatning sug'urta sohasi bo'yicha faoliyati keng ko'lamli bo'lib, fikrimizcha, sug'urta faoliyatida davlat aralashuvi samaradorligining yuqori bo'lishini ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- sug'urta himoyasini ta'minlashda sug'urtalanuvchi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini o'zida mujassamlashtirgan mexanizmini ishlab chiqish;

- milliy sug'urta bozorida raqobat muhitining yuzaga kelishini ta'minlovchi, soxta sug'urta tashkilotlar faoliyatiga chek qo'yuvchi huquqiy me'yorlarni ishlab chiqish hamda ularni tatbiq etilishini ta'minlash;

- sug'urta tashkilotlarining qimmatli qog'ozlar bozori, fond birjalaridagi to'g'ridan-to'g'ri faoliyatlarini rag'batlantirish;

- sug'urta faoliyati rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish asosida xalqaro bozorga kirib borish va bu bozorda o'z o'rniga ega bo'lishni maqsad qilib qo'yish;

- sug'urta bozorida o'zaro raqobatni ta'minlash va xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida, sug'urtaning boshqa shakllarini (o'zaro sug'urta) amalga kiritishni rag'batlantirish, hamda sug'urta bozori infratuzilmasi sub'ektlari faoliyatini kengaytirish;

- aholining va yuridik shaxslarning sug'urtaga bo'lgan ishonchini ta'minlash maqsadida, sug'urta shartnomalarining ikki tomon manfaatlarini birday ko'zda tutadigan va shu asosda sug'urta hodisasi yuz berganda hech qanday mone'liksiz sug'urta qoplamasini to'lab berilishini ta'minlash;

- sug'urta sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ayniqsa aktuariylar, syurverlar, adjasterlar va asistans xizmati bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashni yo'lga qo'yish.

Butun dunyo miqyosida sug'urta xizmatlarining xalqaro savdosi rivojlanishi bilan turli mamlakatlarda sug'urta faoliyatini nazorat qilishni bir qolipga solish jarayoni ketmoqda. 1994 yilda tashkil etilgan "Sug'urta nazorati organlari xalqaro assosiasiyasi" doirasida sug'urta xizmatlari savdosini nazorat qilishning xalqaro standartlari ishlab chiqila boshlandi. Bu standartlarda har bir mamlakatning milliy siyosatidan kelib chiqqan holda sug'urta bozorini nazorat



qilishda ma'muriy yoki iqtisodiy metodlardan qay birini qo'llash mumkin ekanligini tanlash maqsad qilib olingan.

**Nazorat savollari:**

1. Sug'urta tashkilotining moliyasi degandan nimani tushunasiz.
2. Sug'urta tashkilotining moliyaviy resurslarini joylashtirish deganda nimani tushunasiz.
3. Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy resurslarni joylashtirishning nazariy asoslari bo'yicha qaysi iqtisodchi olimlar nazariyasini bilasiz.
4. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini qaysi davlat organi nazorat qiladi.
5. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini nazorat qilishning zarurligi va ahamiyati nimada.

## VII BOB. SUG'URTA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY NATIJANING SHAKLLANISHI

### 7.1 Sug'urtalovchining moliyaviy barqarorligini asosiy yo'nalishlari

Moliyaviy barqarorlik tushunchasi "to'lovga layoqatlilik" tushunchalari bilan uzviy bog'langan. Sug'urta tashkiloti qonunchilik yoki shartnomalar orqali belgilangan majburiyatlarni so'zsiz bajarishi uchun "to'lovga layoqatlilik marjasi" ga, ya'ni aktivlarining majburiyatlarga nisbatan oshishiga erishi lozim.

Sug'urta kompaniyalari faoliyatining moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilishda kompaniya faoliyatining quyidagi ikki asosiy jihati ajratib olinadi. Bular:

- ❖ sug'urta kompaniyasining to'lov qobiliyati;
- ❖ moliyaviy barqarorlik holati.

Sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) to'lov qobiliyati-sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) o'z moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajara olish qobiliyati. To'lov qobiliyatining asosi bo'lib, shakllantirilgan ustav kapitali, yetarli sug'urta zahiralari shuningdek qayta sug'urta qilish tizimining mavjudligi hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorlik bu- sug'urta kompaniyasining uning faoliyatiga noqulay ichki va tashqi ta'sirlar o'tkazilganda ma'lum vaqt davomida to'lov qobiliyatining mavjud darajasini saqlab qolish imkoniyati deyishimiz mumkin.

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holatini turli tomonlarini ifodalovchi moliyaviy ko'rsatkichlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

➤ Ishonchlilik ko'rsatkichlari bu mavjud pul mablag'lari va yoki aktivlarini sotish hisobiga sug'urta kompaniyasi tomonidan majburiyatlar o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash qobiliyatini ifodalaydi. Uni ifodalash uchun asosan shoshilinch va joriy ishonchlilik koeffitsientlaridan foydalaniladi.

➤ Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari (*kapital tuzilmasi*)- kompaniyani moliyalashtirish manbalarida xususiy va qarz mablag'lari nisbatini aks ettiradi, ya'ni kompaniyaning moliyaviy mustaqillik darajasini ifodalaydi. Bu esa kompaniyalar barqarorligining muhim xususiyati hisoblanadi. Uni ifodalash uchun asosan to'lov qobiliyati va moliyaviy mustaqillik koeffitsientlaridan foydalaniladi.

➤ Rentabellik ko'rsatkichlari bu sug'urta kompaniyalari faoliyatining foydaliligini namoyon etadi. Uni ifodalash uchun asosan sug'urta faoliyati rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi, aktivlar rentabelligi, xarajatlar rentabelligi, investitsiyalar rentabelligi koeffitsientlaridan foydalaniladi.

➤ Investitsiya portfelining sifati bu – sug’urtalovchining investitsiya strategiyasi uning passivlar tuzilmasiga qanchalik mos kelishini, shuningdek investitsiya daromadlarining kompaniya daromadliligining umumiy darajasiga ta’sir darajasini aniqlash juda muhimdir.

Sug’urta kompaniyalari investitsiyalarini sifatini tahlil qilish davomida quyidagi muhim omillar ko’rib chiqiladi:

- Investitsiya aktivlarini diversifikatsiya qilish;
- Investitsiya aktivlari sifati;
- Aktivlarni taqsimlash strategiyasi;
- Investitsiyalarning daromadliligi va hokazolar.

Sug’urta faoliyati ko’rsatkichlari sug’urta kompaniyasining asosiy faoliyati samaradorligi ta’minlangan taraqqiyot strategiyasini amaliy jihatdan amalga oshirish qobiliyati, kompaniyaning tadbirkorlik saloxiyati, soha xatarlarining kompaniya faoliyatiga ta’sir darajasini baholash ko’rib chiqiladi va baholanadi. O’zining kuchli tomonlaridan mumkin qadar foydalanish va o’zining zaif tomonlarini bartaraf etish uning joriy faoliyatida mujassamlashadi. Sug’urta kompaniyalari asosiy faoliyatini tahlil qilishda quyidagi omillar ko’rib chiqiladi. O’zining kuchli tomonlaridan mumkin qadar foydalanish va o’zining zaif tomonlarini bartaraf etish uning joriy faoliyatida mujassamlashadi. Sug’urta kompaniyalari asosiy faoliyatini tahlil qilishda quyidagi omillar ko’rib chiqiladi.

Masalan, sug’urta operatsiyalari samaradorligi bu quyidagilar sug’urta operatsiyalar samaradorligini aks ettiruvchi asosiy ko’rsatkichlar qatoriga kiradi:

- sug’urta zahiralari bilan ta’minlanganlik;
- sug’urta to’lovlar koeffitsienti;
- sug’urta mukofotlari va majburiyatlari o’sishi;
- sug’urta portfelining balansliligi;
- qayta sug’urta operatsiyalarining samaradorligi;
- sug’urtaning tuziladigan shartnomalar dinamikasi;
- ko’rsatiladigan xizmatlarni diversifikatsiya qilish;
- kompaniyaning tariff siyosati;
- ish yuritish koeffitsientlari va hokazolar.

Sug’urta kompaniyasining moliyaviy barqarorlik reytingi kompaniya tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida, shuningdek “SAIPRO” ishonchli deb lozim topgan ochiq manbalardan olingan ma’lumotlar asosida beriladi. Shu bilan bir qatorda quyidagi ma’lumot manbalari reyting baholash uchun tanlab olinadi:

- moliyaviy hisob-kitob shakllari;

- buxgalterlik balansi;
- moliyaviy natijalar to'g'risida xisobot.

Sug'urta tashkilotlari boshqa moliyaviy institutlar, xususan, banklar, investitsiya kompaniyalari, lizing tashkilotlari bilan bir qatorda moliyaviy tizimning asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Barcha moliya institutlarining umumiy xususiyati shundaki, ularning har biri maxsus pul jamg'armalarining shakllanishi va ularni boshqarish bilan shug'ullanadi. Biroq, faoliyat yo'nalishlari bo'yicha moliya institutlari bir-biridan farq qiladi.

Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy resurslarning shakllanishi quyidagi holatlar bilan bog'langan:

- sug'urta tadbirkorlik faoliyatining muhim shakli sifatida sug'urta munosabatlari ishtirokchilarining risklarini moliyalashtirishga ixtisoslashgan;
- sug'urta himoyasini taqdim etish maqsadida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan maxsus pul jamg'armalari shakllanadi, uning asosida risklar transferi yotadi;

Sug'urta tashkilotining moliyaviy holati texnik sug'urta risklari va investitsiya riskining ta'siriga beriluvchi ko'plab omillarga bog'liq.

Sug'urta kompaniyasining moliyaviy resurslarini shakllanishi va ulardan foydalanish jaroyini nemis olimi G.Lukarsh tomonidan tadqiq etilgan.

Sug'urta tashkilotini ta'sis etish jarayonida o'z mablag'lari shakllanishining asosiy va yagona moliyaviy manbasi ustav kapitali hisoblanadi. Sug'urtalovchi vakolatli davlat organi tomonidan o'rnatilgan tartibda ma'lum miqdordagi o'z mablag'lariga ega bo'lishi lozim. Ozbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 12-moddasida sug'urtalovchining ustav fondiga muayyan talablar belgilangan. Bunga quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

Sug'urtalovchilar ustav fondining eng kam miqdori qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Sug'urtalovchi ustav fondining kamida to'qson foizi muassislarning (ishtirokchilarning) pul mablag'laridan shakllantiriladi. Sug'urtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan va boshqa jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Sug'urtalovchining boshlang'ich ustav fondi litsenziya olinadigan paytga qadar muassislar tomonidan shakllantirilgan bo'lishi va qonun hujjatlarida belgilangan ustav fondining eng kam miqdoridan kam bo'lmasligi kerak<sup>34</sup>.

<sup>34</sup>Ozbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risidagi Qonuni"2002 yil 5-aprel

## 7.2 Sug'urta tashkilotining aylanma mablag'lari uning o'ziga xos xususiyatlari

Sug'urta mamlakatimiz iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Boshqa har qanday xo'jalik yurituvchi subyektlar singari sug'urta tashkiloti ham ma'lum bir resurs potentsialiga ega, ular asosan sug'urta, investitsiya va moliyaviy operatsiyalar natijasida shakllangan.

Sug'urta tashkiloti faoliyatining moliyaviy natijasi - sug'urtalovchining foyda yoki zarar ko'rinishidagi hisobot davridagi iqtisodiy natijasi bo'lib, u biznesning ham miqdoriy, ham sifat jihatidan muvaffaqiyati yoki etishmovchiligini aks ettiradi. Moliyaviy natija (foyda yoki zarar) sug'urta kompaniyasining samaradorligining umumlashtirilgan mutlaq ko'rsatkichidir. U sug'urtalovchining xarajatlar va daromadlarini taqqoslash orqali aniqlanadi. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy natijasining shaklining umumiy modeli 1-rasmda ko'rsatilgan.

1-rasmdagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sug'urta tashkilotlarida sug'urta faoliyatining yakuniy moliyaviy natijalarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Maxsus hisob-kitoblar asosida moliyaviy natijalar miqdorini aniqlashdan oldin sug'urta zaxiralariga ajratmalar miqdori va sug'urta zaxiralaridan foydalanish miqdori aniqlanadi. Shuning uchun, sug'urta faoliyatini amalga oshirishda moliyaviy natijalar 2 ta asosiy elementni o'z ichiga oladi:

- sug'urta operatsiyalariga bog'liq bo'lmagan daromadlar (xarajatlar);
- sug'urta operatsiyalari bilan bog'liq daromadlar (xarajatlar).

Albatta, bozor munosabatlari sharoitida sug'urta kompaniyalari zararlarni qoplash bilan birgalikda maksimal darajada foyda olishga ham harakat qiladi. Biroq, foyda olishning o'zi maqsad emas, chunki sug'urta tashkilotlari milliy daromadni yaratibgina qolmay, balki uni taqsimlashda ham qatnashadilar. Yakuniy moliyaviy ko'rsatkichlarning asosiy qismini investitsiya va moliyaviy operatsiyalardan keladigan daromad egallashi kerak. Sug'urta rezervlari vaqtinchalik bo'sh turgan mablag' hisoblanib, investitsion faoliyatdan daromad olish manbasi hisoblanadi.

Bu daromad quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- sug'urta qoplamalarini o'z vaqtida to'lanishiga;
- sug'urta javobgarligini kengayishiga;
- sug'urta tariflarini kamayishiga.


Investitsion daromadlar ba'zi sug'urta turlari bo'yicha sug'urta rezerv tanqisligida zararni qoplash manbasi bo'lib xizmat qiladi.



Shunga qaramay, sug'urta biznesining o'ziga xos xususiyatlari iqtisodiy faoliyatning yakuniy moliyaviy natijasini belgilaydigan asosiy ko'rsatkichlarning tarkibi, tuzilishi va tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Sug'urta kompaniyalari faoliyatining moliyaviy natijalarini aniqlash uning xizmatlarining o'ziga xosligi va xilma-xilligi tufayli murakkablashadi. Sug'urta kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot bu moliyaviy xizmat bo'lib, uning mohiyati polis egasining riskini moliyalashtirishdir, ya'ni ushbu xavf paydo bo'lganda ma'lum miqdordagi naqd pul bilan ta'minlashdan iborat. Sug'urtalovchining faoliyati inversiya tamoyiliga asoslanadi. "Inversiya - o'rin almashish" degan ma'noni anglatadi. Sug'urtalashda "inversiya"- sug'urta xizmatini to'lash, sug'urta qoplamasini taqdim etishdan oldin sodir bo'lish faktidan kelib chiqadi.

Sug'urta kompaniyalarining yakuniy moliyaviy natijasini shakllantirishning buxgalteriya modeli 2-rasmda keltirilgan. Sug'urtalovchilar faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasi.



5-rasm Sug'urta tashkilotining moliyaviy natijalarini shakllantirish modeli

Sug'urtalovchilar faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasi sug'urta va boshqa investitsiya va moliyaviy operatsiyalardan keladigan daromadlardan iborat bo'lib, ushbu operatsiyalar bo'yicha xarajatlar miqdori kamayadi.

Sug'urta tashkilotlarining xarajatlar tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 1999 y., 2-son, 9-modda) muvofiq belgilanadi, bunda sug'urta xizmatlarining tannarxi tarkibiga qo'shimcha (maxsus) xarajatlar kiritiladi:

- sug'urta qilish (birgalikda sug'urta qilish) va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta tovonlarining to'lovlari summasi (xususan, sug'urta tashkilotiga tegishli ulush);

- sug'urta holatlari bo'yicha tartibga solish hamda to'lov bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;

- sug'urta qilingan mulkning baxtsiz hodisaga duch kelishi, yo'qotilishi yoki shikastlanishini ogohlantirish bo'yicha moliyaviy chora-tadbirlar zaxirasiga bo'ladigan ajratmalar;

- qayta sug'urta qilish operatsiyalari bo'yicha hisoblab chiqilgan vositachilik mukofotlari va tant'emalar.

Sug'urta tashkilotlarining daromadlari tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 1999 y., 2-son, 9-modda) muvofiq belgilanadi, bunda sug'urta xizmatlarining sotishdan olingan sof tushum quyidagicha aniqlanadi:

- bevosita sug'urta qilish va birgalikda sug'urta qilish bo'yicha mukofotlarning (xususan, birgalikda sug'urta qilish shartnomasida belgilangan sug'urtalovchining ulushi) qayta sug'urta qilishga berilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari) chiqarib tashlangan holdagi umumiy summasi;

- qo'shuv qayta sug'urta qilishga olingan shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofotlari; qo'shuv/ayiruv ishlanmagan mukofot zaxirasi (keyinchalik matnda - IMZ) o'zgarishining qayta sug'urtalovchilarning IMZdagi ulushiga tuzatish kiritilgan natijasi;

- qo'shuv/ayiruv bayon qilingan, biroq tartibga solinmagan zararlar zaxirasi (keyinchalik matnda - BQZZ) o'zgarishining qayta sug'urtalovchilarning BQZZdagi ulushiga tuzatish kiritilgan natijasi;

- qo'shuv/ayiruv sodir bo'lgan, biroq bayon qilinmagan zararlar zaxirasi (keyinchalik matnda - SBQZZ) o'zgarishining qayta sug'urtalovchilarning SBQZZdagi ulushiga tuzatish kiritilgan natijasi;

- qo'shuv/ayiruv hayotni sug'urta qilish bo'yicha zaxiralar (keyinchalik matnda - HZ) o'zgarishining qayta sug'urtalovchilarning HZdagi ulushiga tuzatish kiritilgan natijasi;

- qo'shuv/ayiruv boshqa texnik zaxiralar o'zgarishining qayta sug'urtalovchilarning tegishli zaxiralardagi ulushiga tuzatish kiritilgan natijasi;

- qo'shuv sug'urta agenti, brokeri, vositachisining xizmat ko'rsatganligi uchun hisoblab chiqarilgan vositachilik haqlari va boshqa mukofot pullari;

- qo'shuv qayta sug'urta qilishga berilgan shartnomalar bo'yicha hisoblangan vositachilik mukofotlari;

- qo'shuv syurveyer va avariya komissari-adjasterning xizmat ko'rsatganligi uchun mukofot pullari;

- qo'shuv bevosita sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan olingan boshqa daromadlar.

Sug'urtalovchilarning moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlari tarkibiga investitsiya faoliyatidan olingan daromadlar, shu jumladan sug'urta zaxiralarini investitsiya qilishdan olingan daromadlar ham kiritiladi.

### **7.3 Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslari va uning shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari**

Sug'urta tashkilotining daromad va xarajatlari tarkibi hamda ularni hisoblash ko'p jihatdan milliy sug'urta qonunchiligi me'yorlariga ham bog'liqdir. Shuningdek, sug'urta tashkilotining daromad va xarajatlari amaldagi soliq qonunchiligiga binoan to'lanadigan daromad(foyda) solig'ining soliq bazasini aniqlash uslubiyati hamda stavkalari darajasi ham ta'sir etadi. Sug'urta tashkilotining daromad va xarajatlari tarkibi bo'yicha yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarga asoslanib, uni aniqlash bo'yicha quyidagi uslubiyatni taklif etamiz:

$$SM = SMs + SMqs + O^*MZo^* (1).$$

Bu erda: SM- ishlab topilgan sug'urta mukofotlari summasi;

SMs – bevosita sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlari summasi;

SMqs – qayta sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlari summasi;

O^\*MZo^\* – o'zlashtirilmagan mukofotlar zaxirasining o'zgarishi.

$$UNz = Nz + Nvt (2),$$

Bu erda: UNz – ko'rilgan zararining umumiy netto qismi;

Nz – ko‘rilgan zararining netto qismi,

Nvt – qayta sug‘urtalash bo‘yicha vositachilik to‘lovlarining netto qismi.

$$Nz = SM - SQs - (SQqs - SQqsq) \quad (2.1).$$

Bu erda: SQs – to‘langan sug‘urta qoplamalari;

SQqs – qayta sug‘urtalash bo‘yicha to‘langan sug‘urta qoplamalari;

TSQqsq – qayta sug‘urtalash shartnomalariga ko‘ra, qayta sug‘urtalovchilar tomonidan to‘langan sug‘urta qoplamalari.

$$Nvt = VTqs + VSqs \quad (2.2),$$

Bu erda: VTqs – qayta sug‘urtalash bo‘yicha vositachilik to‘lovlari;

VSqs – qayta sug‘urtalash bo‘yicha vositachilik siylovlari.

$$Tsx = UNz - (YUk + SMqsrr + SQs + VTqs + Zm + SQqs) \quad (3)$$

Bu erda: Tsx – sug‘urta xizmatlarining tannarxi.

YUk – sug‘urta ishini yuritish xarajatlari;

SMqsrr – qayta sug‘urtalash va retsessiyaga o‘tkazilgan risklar bo‘yicha hisoblangan sug‘urta mukofotlari;

VTqs- vositachilik to‘lovlari va brokerlik siylovlari, qayta sug‘urtalash tantemlari va yig‘imlari;

Zm – zaxira fondiga o‘tkazilgan mablag‘lar.

$$YAD(Z) = D(Z)af \pm D(Z)bf \quad (4),$$

Bunda:

YAD(Z) – yalpi daromad yoki zarar (soliq to‘langunga qadar bo‘lgan daromad yoki zarar);

D(Z)af- asosiy faoliyatdan olingan daromad yoki zarar;

D(Z)bf – boshqa faoliyatdan daromad yoki zarar.

$$D(Z)af = Ns \pm Nz \pm Nvt \pm YUk - DX \quad (4.1),$$

Bunda:

Ns – sug‘urta mukofotlarining netto qismi;

DX – davr xarajatlari.

$$D(Z)bf = Dbf - Xbf \quad (4.2),$$

Bunda: Dbf – boshqa faoliyatdan daromadlar;

Xbf – boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun qilingan xarajatlar.

Sug‘urta tashkiloti daromadi(foydasi)ni aniqlashning keltirilgan uslubiyatini joriy etish masalasiga (1-jadval) to‘xtaladigan bo‘lsak, bu borada sug‘urta ishini amalga oshirish xarajatlari kiratilgan sug‘urta xizmatlarni tashkil etish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi yangi Nizomni ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keladi. Taklif etilayotgan uslubiyatga ko‘ra, keltirilgan ma‘lumotlarda ishlab

topilgan sug'urta mukofotlari summasi 1232223,0 bo'lgan bo'lsa, shundan 910786,8 bevosita sug'urtalash mukofotlari, 6741,1 qayta sug'urtalash bo'yicha mukofotlari va nihoyat, 314695,1 so'mini o'zlashtirilmagan mukofotlar summasi tashkil etgan.

To'langan sug'urta qoplamalari 1188750,1 qayta sug'urtalash shartnomalariga binoan qoplama to'lovlari bo'yicha zararlar 506,3; ko'rilgan zararlarning netto qismi 1189256,4; qayta sug'urtalashga qabul qilingan shartnomalar bo'yicha hisoblangan vositachilik to'lovlari 840,8; qayta sug'urtalash bo'yicha vositachilik to'lovlarning netto qismi 840,8; sug'urta ishini yuritish xarajatlari 5136,5; hisoblangan vositachilik hamda brokerlar siylovlari, qayta sug'urtalash tantemlari va yig'implari 321,4; zararlarni qoplash zaxirasiga o'tkazilgan mablag'lar 1153961,8 ming so'mni tashkil qilgan.

Keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda sug'urta xizmatini ko'rsatishdan tushgan yalpi foydani aniqlash uchun ishlab topilgan mukofotlarning netto qismi (1232223), ko'rilgan zararlarning netto qismi (1189256,4), qayta sug'urtalash bo'yicha vositachilik to'lovlarning

#### Sug'urta tashkilotlari daromad va xarajatlarini hisoblash:<sup>35</sup>

| (so'm hisobida)   |           |
|---|-----------|
| (+) Bevosita sug'urtalash bo'yicha hisoblangan sug'urta mukofotlari   | 910786.8  |
| (+) Qayta sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari  | 6741.1    |
| (+) O'zlashtirilmagan mukofotlari zaxirasini o'zgartirish   | 314695.1  |
| (=) Ishlab topilgan mukofotlar  | 1232223   |
| (-) To'langan sug'urtaviy qoplamalar  | 1188750.1 |
| (-) Qayta sug'urtalash shartnomalariga binoan qilingan qoplama to'lovlari bo'yicha zararlar   | 506.3     |
| (+) Qayta sug'urtalashga taqdim etilgan shartnomalarga ko'ra, qayta sug'urtalovchilar tomonidan qilingan qoplamalar bo'yicha zararlar | -         |
| (=) Ko'rilgan zararlarning netto qismi  | 1189256.4 |
| (+) Qayta sug'urtalashga taqdim etilgan shartnomalarga ko'ra hisoblangan qayta sug'urtalash bo'yicha vositachilik to'lovlari          | -         |
| (+) Qayta sug'urtalashga qabul qilingan shartnomalar bo'yicha hisoblangan vositachilik to'lovlari                                     | 840.8     |

<sup>35</sup>O'zgaruvchi sug'urta kompaniyasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.



|  |           |
|--|-----------|
| (=) Qayta sug'urtalash bo'yicha vositachilik to'lovlarning netto qismi                                 | 840.8     |
| (-) Sug'urta ishini yuritish xarajatlari   | 5136.5    |
| (-) Qayta sug'urtalash va retrosessiyaga o'tkazilgan risklar bo'yicha hisoblangan sug'urta mukofotlari | -         |
| (-) Bevosita sug'urtalash bo'yicha sug'urtaviy to'lovlari (sug'urta qoplamalari)                       | -         |
| (-) Hisoblangan vositachilik va brokerlar siylovlari. Qayta sug'urtalash tantemlari va yig'implari     | 321.4     |
| (-) Zararlarni qoplash zaxirasiga o'tkazilgan mablag'lar   | 1153961.8 |
| (-) Qayta sug'urtalashga qabul qilingan risklar bo'yicha qilingan qoplama to'lovlarning ulushi         | -         |

**Bunda sug'urta xizmatini ko'rsatish(sotish)dan tushgan yalpi foyda quyidagicha hisoblanadi:<sup>36</sup>**

|  |           |
|--|-----------|
| (=) Ishlab topilgan mukofotlarining netto qismi  | 1232223   |
| (+) Ko'rilgan zararlarning netto qismi   | 1189256.4 |
| (-) Qayta sug'urtalash bo'yicha vositachilik to'lovlarning netto qismi                                   | 840.8     |
| (-) Sug'urta ishini yuritish xarajatlari   | 5136.5    |
| (-) Davr xarajatlari   | 226235.7  |
| (-) Xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish va xo'jalik xarajatlari   | -         |
| (=) Asosiy faoliyatdan olingan foyda   | 189246.4  |
| (+) Operatsion. Investitsion va moliyaviy faoliyatdan olingan daromad                                    | 214343.3  |
| (+) Operatsion. Investitsion va moliyaviy faoliyat uchun qilingan xarajat                                | -         |
| (=) Soliq to'langunga qadar bo'lgan daromad(foйда) yoki zarar  | 25096.9   |
| Manba: «O'zagrosug'urta» DASKning 2002 yil ko'rsatkichlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan. |           |

netto qismi (840,8) yig'indisidan sug'urta ishini yuritish xarajatlari (5136,5), davr xarajatlari (226235,7), xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish va xo'jalik xarajatlari jamisini ayirish orqali asosiy faoliyatdan olingan foyda (189246,4 ming so'm) hisoblab topiladi. Shundan so'ng, investitsion-moliyaviy faoliyatdan olingan daromad va xarajatlar yig'indisini qo'shish orqali balansdagi (25096,9

<sup>36</sup> O'zagrosug'urta AJ kompaniyasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

ming so'm) foyda summasi aniqlanadi.

Sug'urta qoplamasini ta'minlovchi pul vositalari 2-bosqichdan o'tadi. Birinchi bosqichda sug'urta resurslari va sug'urta fondlari tashkil topadi va taqsimlanadi. Ikkinchi bosqichda sug'urta fondidagi sug'urta rezervidagi vaqtincha bo'sh pul mablag'lari investitsion daromad olish maqsadida investitsiya qilinadi. Ular bir sug'urta kompaniyasi faoliyatining natijasi bu sug'urta faoliyatida ruxsat berilgan ishni bajarishdan kelib chiqqan moliyaviy mablag' ya'ni daromad yoki zarardir. O'zbekiston Respublikasining 6-moddasida binoan sug'urtalovchilar sug'urtalash bilan bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullana olmaydilar. Bunda istisno holatlar:

- davlat organi tomonidan belgilangan talablar va tartiblarga asoslangan investitsiya faoliyati;

- sug'urtalashga bog'liq bo'lgan mutaxassislar tajribasini o'ttirishga qaratilgan faoliyat;

- sug'urta agenti sifatida olib boriladigan sug'urta vositachiligi.

Yuqoridagilarni inobatga olib shuni aytish mumkinki sug'urtalovchining asosiy moliyaviy manbasi bu sug'urtalanuvchi to'laydigan sug'urta mukofotidir.

Sug'urtaning turiga qarab sug'urta mukofoti bir necha turlarga bo'linadi va ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi. Asosiy omillar deb sug'urtalanayotgan summaning o'lchami va sug'urta ta'siri o'lchamini keltirishimiz mumkin. Jami sug'urta mukofoti sug'urtalovchi o'zining sug'urtalanuvchilar oldidagi vazifalarini uzluksiz bajarilishini ta'minlab berishi kerak. Sug'urtalovchining vazifasiga sug'urta qoplamasini to'lash, ishni yuritish bo'yicha qilingan xarajatni qoplash va daromad olish kiradi. Sug'urtalovchi faoliyatini amalga oshirishda quyidagi prinsiplarga tayanadi:

- O'z-o'zini ta'minlash, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini moliyalashtirish, daromad olishga qiziqish va javobgarlik. Sug'urtalovchi kompaniya faoliyatining natijasi deb sug'urta faoliyati moliyaviy natijasi, asosiy vazifalarini nomoddiy aktivlarni va boshqa aktivlarni sotishdan tushgan tushum summasining daromad yoki zararga aytiladi.

Daromad (zarar) deb sug'urta operatsiyalarini birgalikda sug'urtalash va qayta sug'urtalash shuningdek investitsiya faoliyatidan olingan daromaddan sug'urta qoplamalariga to'langan, qayta sug'urtalashga ketgan shuningdek sug'urta rezerv va fondlarini tashkil etishga ketgan xarajatlar ayirmasiga aytiladi.<sup>37</sup> Asosiy vositalar, nomoddiy va boshqa aktivlarni sotishdan olingan,

<sup>37</sup> Insurance: Principles and Practice - Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993, p.

Shuningdek boshqa operatsiyalarni amalga oshirishdan yuzaga kelgan moliyaviy natijalar O'zbekiston Respublikasi qonunida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Sug'urtalovchi faoliyatning moliyaviy natijalari. Sug'urtalovchi faoliyatning moliyaviy holatlari uning daromad va xarajatlarini taqqoslash bilan aniqlanadi. Moliyaviy natijalar barcha sug'urta operatsiyalari uchun shuningdek alohida sug'urta mahsulotlari uchun aniqlanadi. Moliyaviy natijalar ikki limitdan iborat.

- foyda (zarar) va sug'urta o'sish (kamayish) rejalashtiring. Sug'urta kompaniyasining foydasi summa va daraja bilan o'lchanadi. Foyda summasi – bu daromadning xarajatlardan ustunligini ko'rsatuvchi ob'ekt hisoblanadi. Bundan kelib chiqib daromadi xarajatidan ko'p bo'lgan har qanday kompaniyani foyda ko'ruvchi rentabel kompaniya deyishi mumkin. Foyda darajasi rentabillik o'lchovi bo'lib xizmat qiladi. Ikkita sug'urtalovchidan foyda darajasi ko'proq bo'lgan sug'urtalovchi rentabelroq hisoblanadi. Eng keng foydalangan foydaning nisbiy ko'rsatiluvchi bu foyda summasining sug'urta mukofatlariga bo'lgan nisbati. Bu ko'rsatkich sug'urta operatsiyasining untabelligi deb ataladi. Foyda summasini sug'urta badali bilan taqqoslash sug'urta mukofatining har bir so'midan sug'urtalovchi ko'radigan foydani ko'rsatadi. Foydaning hosil bo'lishining asosiy omili bu sug'urta operatsiyalariga qo'yiladigan sug'urta ta'rifi chunki, aynan ta'rif sug'urta xizmati uchun qo'yiladigan narxni ko'rsatadi. Ko'rilgan foydadan sug'urta kompaniyasi sug'urta soliq to'g'risidagi qonunga asoslanib foydalanadi:

- soliq to'lash, rezerv fondini tashkil etish, aksionerlar qaroriga ko'ra foyda qo'shimcha sug'urta fondlarini tashkil etish uchun qonun darajasidan chiqmagan holda va sug'urtalanuvchilar qiziqishlarini buzmaganda holda yo'naltirishi mumkin.

Sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi deganda uning faoliyatida doimiy daromadning xarajatlaridan oshib ketishi tushuniladi. Sug'urtalovchining moliyaviy barqarorligining asosi bu uning ustav kapitali, sug'urta rezervi shuningdek qayta sug'urtalash tizimidir. Moliyaviy barqarorlikning asosi bo'lib sug'urta tariflarining tarif stavkalari va sug'urta rezervlaridagi etarlicha bo'lgan pul mablag'lari tashkil etadi. Shunday qilib sug'urtalovchining moliyaviy barqarorligi deganda uning sug'urta shartnomasi orqali o'ziga yuklatilgan vazifalariga ekstrimal holatlarda javob berishi holatiga aytiladi. Ya'ni uning tashqi va ichki omillariga bozor konyukturasining o'zgarishi va shu kabi salbiy holatlarga qarshi olib boriladigan choralardir.

Sug'urtalovchining moliyaviy barqarorligi haqidagi umumiy ma'lumoti uning balansidagi aktiv va passivlarini solishtirish yoki bilan olish mumkin. Bu taqqoslashdan asosiy maqsad sug'urtalovchining o'z majburiyatlarini o'z mablag'lari evaziga qanchalik bajara olishini ko'rishdir sug'urtalovchining buxgalter balansining tahlili avtonomiya ko'rsatkichlari aniqlashdan boshlanadi. Sug'urta faoliyatining boshqa faoliyatlar kabi eng muhim vazifalaridan bu o'zining uzluksiz faoliyatini olib borishi uchun chetdan mablag'lar jalb qilishdir. Aynan shuning uchun sug'urta kompaniyasi mablag'lari ko'rib chiqilayotganda uning ichida o'z va chetdan olingan mablag'lar ulushi ko'riladi. Avtonomiya ko'rsatkichida o'z mablag'larining balans valyuta summasiga aytiladi. O'z mablag'lariga asosiy vositalarni qayta baholashdan olingan qo'shilgan kapitalni o'z ichiga oluvchi ustav kapitali, rezerv kapitali, zaxira fondi, jamg'arma fondlari, taqsimlanmagan foyda kiradi. Taqsimlanmagan foydaning mavjud bo'lishi sug'urtalovchiga aylanma kapitalni ko'paytirish imkonini beradi. O'z mablag'larining ulushi qanchalik ko'p bo'lsa avtonomiya ko'rsatkichi shunchalik yuqori, moliyaviy barqarorligi shunchalik mustaxkam bo'ladi. Chetdan jalb qilingan mablag'lar tarkibini hayot va boshqa turdagi sug'urta mablag'lari, bankdan olingan uzoq muddatli kreditlar tuzilishi mumkin bo'lgan xarajatlar rezervlari tashkil etadi. Keyingi bosqichda sug'urtalovchining aktiv strukturasi o'rganiladi. Uning aktivlari sug'urtalash jarayonida ishtirok etishida likvidlik nuqtai nazaridan o'rganiladi.

Sug'urtalovchining faoliyat jarayonida asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, pul mablag'lari ishtirok etadi likvidligi yuqoriroq bo'lgan aktivlarga hisoblanadi pul mablag'lari qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar kiradi. Likvidligi eng past bo'lgan aktivlarga asosiy vositalar kiradi. Quyidagi ko'rsatkichlarga asoslanib sug'urtalovchining moliyaviy barqarorligini tahlilini o'rganish mumkin.

1) Sug'urta zahiralarning darajasi – aktivlarda qancha ulushi egallashi sug'urta zahirasining umumiy aktivda nisbati kabi aniqlanadi. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa sug'urtalovchining moliyaviy barqarorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

2) Sug'urta zaxiralarning mukofatiga nisbati sug'urta fondining sug'urta faoliyatiga qay darajada bog'liqligini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich ko'rsatkichlarining pasayishi sug'urtalovchiga sug'urtalovchining ishonchi oshishini ko'rsatadi.

3) O'z mablag'lar tarkibidagi sug'urta zahiralari ulushi – sug'urtalovchining o'z mablag'lari strukturasi ko'rsatuvchi ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich sug'urta zaxiralari o'z mablag'lariga nisbati orqali topiladi.

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy natijasi (foyda yoki zarar) odatda ikki jihatdan ko'rib chiqiladi:

- tariflardagi foyda (yilning taqsimlanmagan foydasi);
- sof foyda.

Taqsimlanmagan foyda tarifni hisoblashda sug'urta xizmatlari narxiga kiritiladi hamda netto stavkaning tarkibida bo'ladi. Bu sug'urtalovchining aniq bir sug'urta turi bo'yicha rejalashtirgan taxminiy foydasi hisoblanadi. Biroq, sug'urta uchun qabul qilingan xatarlarning ehtimoliy tabiati haqiqiy moliyaviy natijalarning hisoblangan qiymatdan og'ishiga olib keladi. Sug'urtalash turi bo'yicha yakuniy moliyaviy natijadagi sof foyda, ularni olish bilan bog'liq daromad va xarajatlarni taqqoslash asosida aniqlanadi. Daromadlar, joriy xarajatlar va sug'urta kompaniyasining sof (taqsimlanmagan) foydasini aniqlash "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi" moliyaviy hisobotida (№2- shakl) aks ettiriladi.

Yuqorida muhokama qilingan ko'rsatkichlardan tashqari, sug'urtalovchining moliyaviy faoliyati boshqa ko'rsatkichlar bilan tavsiflanishi mumkin. Ular orasida mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar ajralib turadi.

*Mutloq ko'rsatkichlarga:*

✓ tuzilgan shartnomalar soni. Ushbu ko'rsatkich sug'urta portfel va sug'urta sohasini qamrab olish darajasini, sug'urta xizmatiga bo'lgan talabni, sug'urtalovchining sug'urta bozoridagi o'rnini belgilashda ishlatiladi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha ma'lumotlar taqqoslashda, dinamikada tahlil qilinadi;

✓ sug'urtalangan ob'ektlarning sug'urta summasi. Shartnoma bo'yicha o'rtacha sug'urta summasining jami qiymati ko'rib chiqiladi. Ushbu ko'rsatkich sug'urtalovchi tomonidan qabul qilingan javobgarlik miqdorini tavsiflaydi;

✓ sug'urta tovonini to'lash. Bajarilgan javobgarlik hajmini va sug'urta tashkilotining to'lov qobiliyatining haqiqiy darajasini tavsiflaydi;

✓ sug'urta mukofotlari hajmi. Sug'urtalovchiga sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun mavjud bo'lgan moliyaviy mablag'lar miqdorini bildiradi;

✓ daromad va xarajatlar hajmi. Dinamikada ko'rish. Bunday holda tarkibi, tuzilishi, o'sishi va pasayish omillari o'rganiladi;

✓ sug'urta zaxiralari hajmi. Ularning dinamikasi, tarkibi, javobgarlik tarkibi ko'rib chiqiladi. Ushbu ko'rsatkich sug'urtalovchining to'lov qobiliyatini baholash uchun ishlatiladi.



*Nisbiy ko'rsatkichlarga:*

- rentabellik. Daromad ko'rsatkichi quyidagicha hisoblanadi:
  - a) xususiy kapitalning balans foydasiga nisbati;
  - b) xarajatlar va daromadlar ayirmasi;
- sug'urta turlari bo'yicha to'lov nisbati. Tarifda belgilangan to'lovlar darajasi haqiqiy to'lovlarning yig'ilgan sug'urta mukofotlariga nisbati sifatida aniqlanadi:
  - xarajatlar darajasi. Sug'urta kompaniyasining xarajatlari to'plangan sug'urta mukofotlari miqdori bilan taqqoslanadi;
  - foyda tarkibi. Bu sug'urta bo'lmagan faoliyatdan olingan daromadni sug'urta faoliyatidan olingan foyda bilan taqqoslash orqali aniqlanadi.

**Nazorat savollari:**

1. Sug'ortalovchining moliyaviy barqarorligi deganda nimani tushunasiz.
2. Sug'ortalovchining moliyaviy barqarorligining asosiy yo'nalishlari bo'lib nima hisoblanadi.
3. Sug'urta tashkilotining aylanma mablag'lari deganda nimani tushunasiz.
4. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslari deganda nimani tushunasiz.
5. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini shakllanish manbalari deganda nimani tushunasiz.

## VIII BOB. AKTUARIYLAR BOSHQARMASI VA UNING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

### 8.1 Aktuariylarga umumiy tavsif

Qadimgi Rimda aktuari (*actuarius*) rasmiy ravishda tayinlangan, Senat qarorlarini yozib va undagi munozaralarni kunlik qayd qilib boradigan shaxs hisoblangan. Ma'lumki, "aktuariy" atamasi birinchi marta biznes munosabatlarida 1762 yilda, Londonda "Adolatli hayotni sug'urtalash va omon qolish" jamiyati tashkil etilganida ishlatilgan. Hamkorlik to'g'risidagi hujjatda jamiyatning bosh ijrochi direktori aktuar deb nomlanishi kerakligi belgilab qo'yilgan edi. Ushbu nom jamiyatni asos solgan guruhning rahbari Edvard Rou Moreses tomonidan tanlangan bo'lib. Moresning lotin tiliga bo'lgan sevgisini aks ettirgan. Bosh ijrochi direktorning asosiy vazifalaridan biri, jamiyat tomonidan tuzilgan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish edi, bu vazifa esa Qadimgi Rimda Senat qarorlarini qayd etib boradigan aktuariylar bilan bir qator o'xshashliklari mavjud edi. Jamiyatning dastlabki yillarida aktuar lavozimi kompaniya kotibi lavozimiga ko'proq mos kelardi. U direktorlar kengashi va umumiy yig'ilishlari buyruq va bayonnomalari uchun javobgar bo'lib, shuningdek qo'shimcha ravishda jamiyat daromadlar va xarajatlar kitobini yuritishi kerak edi. 1775 yilda ushbu lavozimga matematik Uilyam Morgan tayinlandi, u o'z faoliyat doirasini maqbul sug'urta mukofotlarini hisoblash va kompaniyaning moliyaviy operatsiyalarining ishonchligini ta'minlash bilan chekladi. O'shandan beri "aktuar" nomi ushbu moliyaviy-matematik ishini bajarganlarga nisbatan qo'llanila boshlandi. "Aktuariy" atamasi birinchi marta Buyuk Britaniya qonunchiligida 1819 yilda ishlatilgan. Oldin aktuariylar asosan hayotni sug'urtalashda foydalanilgan. "Simulyatsiya qilingan o'lim va omon qolish ehtimolini moliyaviy matematika" tushunchasi bilan birlashtirish ushbu kasbning dastlabki rivojlanish belgilaridan biri bo'lgan. Keyingi davrda aktuariylar hayotni sug'urtalashdan tashqari boshqa sug'urta turlari bilan ham shug'ullana boshladi. Bu sug'urta turlarida ko'proq noaniqliklar mavjudligi sababli aktuariy hisob-kitoblarida murakkabroq matematika va statistikani qo'llash talab qilinadi. Ko'pgina mamlakatlarda aktuarilar moliya va investitsiyalar sohasida, jumladan investitsiya portfelini boshqarish, fond birjalari brokerlari va brokerlarni boshqarish bo'yicha tadqiqotlar, investitsiyalarning samaradorligini o'lchash va monitoring qilish, daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi bog'liqlikni boshqarish yoki zamonaviy moliyaviy instrumentlar (masalan, variantlar, kuponlar va fyucherslar) ni tahlil

qilish kabi sohalarda ham faol ish olib bormoqdalar. Ba'zi mamlakatlarda (Fransiya va Belgiya) aktuarilar bank va boshqa moliyaviy institutlarda ham muhim rol o'ynaydi.

**Aktuariy** (lotin tilida "actuaries" – tez yozuvchi), hayotni uzoq muddatli sug'urtalash uchun tarif stavkalarini hisoblashning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan, sug'urta matematika statistikasi sohasidagi mutaxassis<sup>38</sup>;

**Aktuariy** - sug'urtaning matematik jihatlarini bo'yicha, masalan, mukofotlarni hisoblash, polis bo'yicha majburiyatlar va boshqa qiymatlar bo'yicha malakaga ega bo'lgan shaxs<sup>39</sup>.

**Aktuariy** - ehtimoliy usullar sohasida o'qitilgan kasb bo'lib, biznes, moliya va ijtimoiy sohadagi murakkab muammolarni aniqlash, tahlil qilish va hal qilishda matematik usullardan foydalangan holda, individual va korporativ xavflarni baholaydi va moliyaviy jihatdan ishonchli sug'urta va pensiya ta'riflarini ishlab chiqadi<sup>40</sup> - deb, o'z mualliflik ta'riflarini keltirib o'tishgan chet el olimlari.

"Aktuar xizmatlarini taqdim etish tartibi" to'g'risidagi nizomda aktuariyga quyidagicha ta'rif berilgan.

**Aktuar** - maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda aktuar guvohnomasini olgan va aktuar tashkiloti shtatida bo'lgan yoki aktuar tashkilot bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzgan shaxs.

Aktuariyning ko'pgina ma'lumotlari sug'urta va investitsiya biznesida qo'llanilib, pul oqimi ehtimolini baholashda ishlatiladi.

Sug'urta biznesining muvaffaqiyatli ishlashida matematik asosni mos ravishda ishlab chiqish sug'urta sohasining jadal rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Zero, statistik va aktuar tadqiqotlar sug'urta kompaniyasiga bir tomondan, o'zining to'lov qobiliyatini va moliyaviy barqarorligini, boshqa tomondan raqobatbardoshlikni saqlab, tarif siyosatini to'g'ri shakllantirishga imkon beradi.

1992 yilda Rossiyada sug'urta sohasi qayta tiklanganidan so'ng, har yili yuzlab sug'urta kompaniyalari to'lovga qodir emas deb e'lon qilina boshlandi. 2010 yilga kelib ularning soni 2003 yilga nisbatan qariyb 2 baravar kamaydi. Buning asosiy sababi bo'lib, noto'g'ri hisoblangan sug'urta stavkalari va zaxiralar, ya'ni, noto'g'ri o'tkazilgan aktuar va statistik tadqiqotlar hisoblanadi.

<sup>38</sup>Рагзберг Е.А., Леоновский Л.И., Стародубцева Е.В. Современный экономический словарь. - 2-е изд., испр. М.: ИНФРА-М. 479 с., 1999.

<sup>39</sup>Д. Ёлдан, *Страхование: принципы и практика*. М. Финансы и статистика, 1998, с. 369

<sup>40</sup>Ж. Лемер - руководитель Департамента страхования и риска Warton School, вице-президент ASTIN

Bularning barchasi aktuar hisob-kitoblar sug'urta sohasining muhim bir bo'g'ini ekanligidan dalolat beradi.

**Aktuar hisob-kitoblar (actuarial science)** - har xil moliyaviy faoliyat turlarida, birinchi navbatda sug'urta sohasida tomonlarning moliyaviy munosabatlarini baholashda ishlatiladigan matematik, statistik, moliyaviy, demografik va iqtisodiy usullar to'plami.

Aktuar hisob-kitoblar ob'ektni sug'urta qilish uchun zarur bo'lgan xarajatlarni aniqlashda ishlatiladi. Bu tarif stavkalarini hisoblash va sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni aniqlash, sug'urta kompaniyasining bozordagi mavqeini baholash, uning ishonchlilik va moliyaviy natijalarini tahlil qilishda foydalaniladigan statistik va iqtisodiy-matematik usullar tizimidir.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, aktuariy bir necha ilmiy fanlar, ya'ni, xavflarni hisoblash bilan bog'liq matematikani (ehtimollik nazariyasi, matematik statistika, tasodifiy jarayonlar nazariyasi, aktuar va moliyaviy matematika, ekonometrika, xavflarni boshqarish), iqtisodiyot, huquq, axborot tizimlari, demografiyani yuqori darajada biladigan noyob mutaxassis bo'lishi kerak. Aslida, butun sug'urta tizimining barqarorligi, aktuarilarning mahoratiga va bilimlariga bog'liq.

Hozirgi innovatsion iqtisodiyot sharoitida sug'urta aktuarilarining asosiy vazifalari ko'lam juda keng bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- barcha sug'urtalanadigan risklarni hisoblash va guruhlash ya'ni risklarni klassifikatsiyalash;

- xavflarni boshqarish va baholash (shu jumladan, andarraytingdan foydalangan holda);

- sug'urta voqealari yuz berishining statistik ehtimolini hisoblagan holda, hodisalar takroriyiligini baholash;

- sug'urta hodisasi yuz berganda zararni alohida risklar yoki to'liq portfel bo'yicha taqsimlashni aniqlash;

- kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatini, sug'urta portfelining mahsulotlar, fihallar, agentliklar, savdo liniyalar va boshqalar kesimida zarariligini har tomonlama tahlil qilish;

- sug'urta shartnomalarining uzoq va qisqa muddatli xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir sug'urta turi uchun tarif stavkalarini belgilash;

- sug'urta mahsulotlari tannarxini hisoblash, ish-yuritish xarajatlarini matematik asoslash;

▪ kompaniyaning sug'urtalash, qo'shma sug'urtalash, qayta sug'urtalash, o'zaro sug'urtalash bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bo'lgan sug'urta zahiralari aniq sug'urta turlari va amaldagi qonunchilikdan kelib chiqqan holda baholash, zahiralarning yo'qotishlarni qoplashini tahlil qilish;

▪ kompaniyaning ma'lum ishouch bilan yashab qolishini (buzilmasligini) ta'minlovchi sug'urtalovchining o'z mablag'lari hajmi va tuzilishini aniqlash (ustav kapitali, zahira kapitali, qo'shimcha kapitali, taqsimlanmagan daromad);

▪ qayta sug'urtalash yordamida kompaniyaning barqarorligini oshirish imkoniyatlarini tahlil qilish, qayta sug'urtalash shartnomasining turli shartlarida qayta sug'urtalash hadallarini hisoblash; qayta sug'urtalash himoyasini optimallashtirish;

▪ investitsiya qilish riskini va sug'urtalovchi tomonidan to'plangan sug'urta mukofotlarini joylashtirishning boshqa usullarini baholash;

▪ sug'urta kompaniyasining sug'urta bozorida mavqecini baholash va vaziyatga qarab, kompaniyaning pozitsiyasini mustahkamlash bo'yicha hisob-kitoblar bilan tasdiqlangan tavsiyalarni shakllantirish va boshqalar.

Aktuarilar zimmasiga yuklatilgan vazifalarning muhimligini inobatga olgan holda, ko'p mamlakatlarda aktuarilar faoliyati davlat tomonidan tartibga solinadi. Bir qator mamlakatlarning sug'urta qonunchiligi ushbu sohada mutaxassisning kasbiy bilim darajasini tasdiqlovchi va sug'urta kompaniyalari bilan professional maslahat va hamkorlik qilishga imkon beradigan aktuar sertifikatini talab qiladi. Sertifikat Milliy aktuarilar assotsiatsiyasi yoki London aktuarilar instituti tomonidan malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan nomzodga beriladi.

Xalqaro aktuar uyushmasi tomonidan bir qancha asosiy fanlar ro'yxati tasdiqlangan bo'lib, bular moliyaviy matematika; ehtimollik nazariyasi va matematik statistika; iqtisodiyot; buxgalteriya hisobi; modellashirish, statistik usullar; aktuar matematika; hayotni sug'urtalash; umumiy sug'urta; pensiyalar; tibbiyotni moliyalashtirish; investitsiyalar va aktivlarni boshqarish; aktuar boshqaruvi asoslari; professionallik kabilarni o'z ichiga oladi.

Aktuarilarni tayyorlash dunyodagi eng qimmat ta'lim berish turlaridan biri hisoblanib, masalan, Angliyada to'liq kurs uchun 100 ming funt sterlingdan ko'proq pul talab qilinadi. Aktuariylikga nomzodlar kamida 15 ta imtihon topshirgan holda uch bosqichli malaka sertifikatidan o'tishadi.

O'zbekiston Respublikasida esa Moliya vazirining 2007 yil 6 sentabrdagi 82-son buyrug'i bilan "Aktuariy malaka sertifikatini berish tartibi" to'g'risidagi nizom tasdiqlangan.



Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi PQ-618-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaroriga muvofiq aktuariy malaka sertifikatini berish, amal qilish muddatini uzaytirish, amal qilishini to'xtatish va bekor qilish tartibini belgilaydi.

Aktuariy malaka sertifikatini - jismoniy shaxsga, agar u aktuar tashkilot shlatida bo'lsa yoki u bilan aktuar tashkilot o'rtasida fuqarolik-huquqiy tisdagi shartnoma fuzilgan bo'lsa, aktuar xizmatlarini ko'rsatish huquqini beruvchi hujjat.

Bu sertifikat da'vogarga malaka imtihoni muvaffaqiyatli topshirgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan beriladi. Malaka imtihoni topshirish uchun da'vogarlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

a) iqtisodiyot, matematika va informatika oliy ta'lim yo'nalishlari va ixtisosliklaridan biri bo'yicha O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida olingan oliy ma'lumotga yoki xorijiy davlatlarning oliy ta'lim muassasalarida olingan hamda qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi oliy ma'lumotga ekvivalent deb tan olingan oliy ma'lumotga ega bo'lish yoxud O'zbekiston Respublikasida yoki xorijiy davlatlarda olingan fizika-matematika yoki iqtisodiyot fanlari bo'yicha ilmiy darajaga ega bo'lish;

b) so'nggi o'n yil ichida kamida 5 yil sug'urta, matematika, statistika informatsiya sohalarida ish amaliyoti (shu jumladan o'rindoshlik asosida) yoki shu sohalarda dars berish stajiga ega bo'lishi kerak.

Aktuariy malaka sertifikatini berish uchun davogar tomonidan to'lov kunidagi eng kam oylik ish haqining bir baravari miqdorida, amal qilish muddatini uzaytirish, qayta rasmiylashtirish, shuningdek uning dublikatini berish uchun esa to'lov kunidagi eng kam oylik ish haqining 0,5 baravari miqdorida yig'in to'lanadi. Ko'rsatilgan mablag'lar Moliya vazirligining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkaziladi va malaka imtihonlarini o'tkazish, aktuariy malaka sertifikatlarini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun foydalaniladi.

Da'vogar aktuariy malaka sertifikatini olish uchun Moliya vazirligiga malaka imtihonini ruxsat berish to'g'risidagi ariza bilan quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda topshiradi:

- anketa;
- diplom;
- mehnat daftarchasidan notarial tasdiqlangan ko'chirma;
- to'rtta fotosurat (3 x 4);

■yig'im to'langanligini tasdiqlovchi bank to'lov hujjati.

Ko'rsatilgan hujjatlar bitta nusxadan taqdim qilinadi.

Moliya vazirligiga ariza kelib tushgan kundan boshlab 10 kun muddatda da'vogarga malaka imtihonini topshirishga ruxsat berish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda Moliya vazirligi da'vogarni 3 kun muddat ichida rad etilish asoslarini ko'rsatgan holda yozma ravishda xabardor qiladi. Ruxsat berish to'g'risidagi qaror qabul qilinganda esa da'vogarlarining ro'yxatini imtihon komissiyasiga topshiradi.

Malaka imtihonini tashkillashtirish va o'tkazish uchun Moliya vazirligi tomonidan imtihon komissiyasi tashkil qilinadi. Imtihon komissiyasi rais, rais o'rinbosari, kotib, va kamida uch a'zodan iborat bo'ladi. Imtihon kamida uch oyda bir marta o'tkazilib, sanasini Moliya vazirligi belgilaydi. Imtihon natijalari o'tkazilgan sanadan ikki kundan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi.

Barcha mamlakatlarda ayniqsa sug'urta bozori rivojlanayotgan davlatlarda aktuariyga bo'lgan talab doimiy ravishda o'sib bormoqda. Aktuariydan malaka sertifikatidan tashqari qobiliyat, kuch, vaqt va pul talab etiladi. Ammo chet elda aktuariy kasbi eng yuqori haq to'lanadigan va obro'li kasb hisoblanadi.

Dunyoda ko'pgina aktuar milliy tashkilotlar mavjud. Ularning eng taniiqlilari Amerika aktuarilar jamiyati, bir qancha xalqaro aktuariylar uyushmalari, Buyuk Britaniya aktuariylar instituti (1848) va fakulteti (1856) bo'lib, bu institut va fakultet 2010 yil 1 avgustda birlashgan.

1895 yilda, yuqorida aytib o'tilganidek, Belgiya, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va AQSH milliy aktuariylik jamiyatlari Bryusselda joylashgan Xalqaro aktuar uyushmasini (International Actuarial Association – IAA) tashkil etishdi. 1998 yilda Assotsiatsiyaga yangi konstitutsiya qabul qilindi va 2010 yilda qayta tashkil etildi. Hozirgi kunda Xalqaro aktuar uyushmasi professional aktuar tashkilotlarini birlashtirgan kuchli xalqaro tuzilma hisoblanib, har to'rt yilda bir marta har xil davlatlarda o'zini Kongresslarini o'tkazadi. Xalqaro aktuarilar kongresslarining an'alaridan biri bu barcha milliy aktuariylik jamiyatlarga o'zining tuzilishi, faoliyati, aktuar ilmi va amaliyotining dolzarb muammolari to'g'risida ma'lumot berish, qiziqarli statistik ma'lumotlarni taqdim etish hisoblanadi. Kongresslar haqiqiy fan vakillarini va uning amaliy dasturlari mavjud katta ilmiy dasturni o'z ichiga oladi.

Xalqaro aktuariylar kongresslari tarixi  
(International Congresses of Actuaries; ICA)<sup>41</sup>

| Soni | Yil  | Shahar             | Davlat          |
|------|------|--------------------|-----------------|
| 1.   | 1895 | Bryussel           | Belgiya         |
| 2.   | 1898 | London             | Buyuk Britaniya |
| 3.   | 1900 | Parij              | Fransiya        |
| 4.   | 1903 | Nyu York           | AQSH            |
| 5.   | 1906 | Berlin             | Germaniya       |
| 6.   | 1909 | Vena               | Avstriya        |
| 7.   | 1915 | Sankt-Peterburg    | Rossiya         |
| 8.   | 1912 | Amsterdam          | Niderlandiya    |
| 9.   | 1927 | London             | Buyuk Britaniya |
| 10.  | 1930 | Stokgolm           | Shvetsiya       |
| 11.  | 1934 | Rim                | Italiya         |
| 12.  | 1937 | Parij              | Fransiya        |
| 13.  | 1940 | Lyutsern           | Shvetsariya     |
| 14.  | 1951 | Sheveningen        | Niderlandiya    |
| 15.  | 1954 | Madrid             | Ispaniya        |
| 16.  | 1957 | Nyu York           | AQSH            |
| 17.  | 1960 | Bryussel           | Belgiya         |
| 18.  | 1964 | London va Edinburg | Buyuk Britaniya |
| 19.  | 1968 | Myunxen            | Germaniya       |
| 20.  | 1972 | Oslo               | Norvegiya       |
| 21.  | 1976 | Tokio              | Yaponiya        |
| 22.  | 1980 | Tsyurix va Lozanna | Shvetsariya     |
| 23.  | 1984 | Sidney             | Avstraliya      |
| 24.  | 1988 | Xelsinki           | Finlyandiya     |
| 25.  | 1992 | Monreal            | Kanada          |
| 26.  | 1995 | Bryussel           | Belgiya         |
| 27.  | 1998 | Birmingem          | Buyuk Britaniya |
| 28.  | 2002 | Kankun             | Meksika         |
| 29.  | 2006 | Parij              | Fransiya        |
| 30.  | 2010 | Keyptaun           | YUAR            |
| 31.  | 2014 | Vashington         | AQSH            |

<sup>41</sup> International Congresses of Actuaries ICA

|     |      |        |           |
|-----|------|--------|-----------|
| 32. | 2018 | Berlin | Germaniya |
|-----|------|--------|-----------|

2002 yil 5 - aprelda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risidagi" qonunning 9<sup>4</sup> va 9<sup>5</sup> moddalarida aktuar tashkilot, aktuariy hamda ularning huquq va majburiyatlariga bag'ishlangan.

Aktuar tashkilot quyidagilarni o'z ichiga oladigan aktuar xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxsdir:

- sug'urta voqعاتi yuz berishining matematik jihatdan ehtimolligi hisob-kitobini amalga oshirish, ham alohida tavakkalchilik guruhlarida, ham umuman sug'urta majmui bo'yicha zarar yetkazilishining takroriylikni va ularning oqibatlarini og'irligi darajasini belgilash;

- sug'urtalovchining zarur sug'urta zaxiralari va fondlarini matematik jihatdan asoslash hamda hisob-kitob qilish, ularni shakllantirish usullarini ishlab chiqish;

- sug'urtalovchining investitsiyalar sifatida to'plangan badallardan foydalanishida kapital qo'yilma normasi va netto-stavka miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni tarif stavkalarini investitsiya daromadi summasiga kamaytirishga ko'maklashadigan tarzda aniqlash;

- sug'urta jarayonini tashkilot etish uchun zarur xarajatlarni asoslash va sug'urta xizmatlari tannarxini hisob-kitob qilish;

- sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har bir turi bo'yicha tarif stavkalarini sug'urtalovchilar uchun ularni o'tkazishning uzoq muddatli va qisqa muddatli xususiyatini hisobga olgan holda belgilash;

- sug'urtalovchining investitsiya faoliyati natijalarini aktuar hisob-kitoblardan foydalangan holda baholash;

- sug'urtalovchining daromadlarini sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har xil turlari bo'yicha rejalashtirish.

- aktuar hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish;

- sug'urta bilan bog'liq boshqa aktuar xizmatlari ko'rsatish.

Aktuar tashkilot shartnomaga muvofiq to'lov asosida faqat aktuar xizmatlarini ko'rsatishi mumkin. Aktuariy maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda aktuariy malaka sertifikatini olgan va aktuar tashkilot shtatida turgan yoki aktuar tashkilot bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzgan jismoniy shaxsdir.

Aktuariy sifatsiz aktuar xizmatlarini ko'rsatganlik, tijorat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni oshkor qilganlik va aktuar tashkilotning zarar

ko'rishiga olib kelgan o'zga xatti-harakatlari natijasida yetkazilgan zarar uchun aktuar tashkilot oidida javobgar bo'ladi.

Aktuar tashkilot o'z shtatida kamida bitta aktuariyga ega bo'lishi kerak. Aktuariy:

- sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish operatsiyalari o'tkazishga;

- sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;
- sug'urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Aktuariy faoliyati natijalari hisobot tarzida rasmiylashtiriladi. Aktuariy hisobotida ko'rsatilgan xulosalar mustaqil sug'urta ekspertizasi jarayonida qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Aktuar tashkilot quyidagi huquqlarga ega:

- aktuar xizmatlari ko'rsatiladigan sug'urtalovchini va boshqa buyurtmachilarni erkin tanlash;

- aktuar xulosasini tuzish uchun zarur bo'lgan axborot sug'urtalovchi va boshqa buyurtmachilar tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, aktuar xizmatlari ko'rsatishni rad etish;

- boshqa aktuar tashkilotlarni va o'zga mutaxassislarni aktuar xizmatlari ko'rsatishda ishtirok etishga belgilangan tartibda jalb etish.

Aktuar tashkilot qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin. Aktuar tashkilot:

- sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;
- aktuar xizmatlari ko'rsatish chog'ida olingan axborotning maxfiyligiga rioya etishi;
- aktuar xulosasida aktuar hisob-kitoblarning kamchilik faktlarini va ularni bartaraf etishga doir takliflarni aks ettirishi.

- qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga ko'ra taqdim etishi shart.

Aktuar tashkilot zimmasida qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.<sup>42</sup>

Bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida akturat tashkilotlar ham mavjud bo'lib ular riskni qay darajada ekanligini aniqlab, kerakli tariff stavkani hisoblab chiqishadi. O'zbekiston sug'urta bozorida aktuar hisobchilarni o'rni juda katta desak xato bo'lmaydi. Hozirda quyidagi aktuar tashkilotlar mijozlarga o'z faoliyatini ko'rsatib kelmoqdalar.

---

<sup>42</sup> "Sug'urta faoliyati to'g'risidagi" qonun



## 8.2 Aktuar hisob-kitobini metodologiyasi

Sug'urta amaliyotining bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, uni moliyaviy tUSDagi boshqa shunga o'xshash operatsiyalardan ajratib turadi. Ularning eng o'ziga xos xususiyati quyidagilardir.

- sug'urta hodisasining tasodifan yuzaga kelishi,
- uzoq vaqt davomida to'lov uchun taqdim etilgan sug'urta to'lovlarining o'zgarishi;
- alohida shartnoma narxini emas, balki butun sug'urta aholisi uchun sug'urta xizmatlari narxini hisoblash;
- sug'urtalovchining bevosita uning ixtiyorida bo'lgan va sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi uchun zarur bo'lgan zaxiralarni aniqlash;
- tomonlarning majburiyatlarini hisoblashda foydalaniladigan iqtisodiy ko'rsatkichlar tendentsiyasini tahlil qilish;
- sug'urta hodisasi tufayli qisman zarar etkazilishi ehtimoli, uni o'sha vaqt va makonda taqsimlanishini talab qiladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek har qanday sug'urtalovchining ishida aktuar hisob-kitoblar markaziy o'rinni egallaydi. Bu uning moliyaviy ahvoli va bozordagi barqarorlikka bog'liq.

Har qanday mahsulot singari, sug'urta xizmati ikkita qiymatga ega:

- sug'urta to'lovi orqali sug'urta himoyasini ifodalovchi iste'mol narxi;
- sug'urta xizmatlari bahosida ifodalangan narx<sup>43</sup>.

Aktuar hisob-kitoblar sug'urta xizmati qiymatining ikkinchi turi bilan bog'liq, ya'ni, Sug'urtalovchining sug'urtalanganlarga ko'rsatadigan sug'urta xizmatlarining qiymati va narxini aniqlashda foydalaniladi.

Sug'urtalanuvchilar tomonidan to'langan sug'urta mukofotlari sug'urtalovchining sug'urta fondini tashkil etadi. Aktuar hisob-kitoblar yordamida har bir sug'urta qildiruvchining sug'urta fondini yaratishda ishtirok etish ulushi aniqlanadi.

Ob'ektni sug'urtalash uchun zarur bo'lgan xarajatlarni aniqlash sug'urtalovchining faoliyatidagi eng qiyin va hal qiluvchi daqiqalardan biridir. Sug'urta xarajatlari hisoblanadigan shakl sug'urta yoki aktuar hisob kitoblar kalkulyatsiyasi deb ataladi.

Aktuar hisob-kitoblarni amalga oshirish eng muhim vazifa bo'lib, sug'urta ta'rif stavkasining tarkibini aniqlaydi. Bu sizga sug'urtalovchi tomonidan

<sup>43</sup>Страхование. учебник/под ред. ред. Т.А.Федорова. М. Экономика, 2007

ko'rsatiladigan xizmatlarning narxini hisoblash va sug'urtalovchining faoliyatidagi aniq iqtisodiy natijalarni tahlil qilish imkonini beradi.


Xalqaro aktuar uyushmasi (IAA) tomonidan aktuariylar uchun standart talablar ishlab chiqilgan. Ba'zi mamlakatlarda aktuariylarni tayyorlashga bo'lgan talablar tarixan rivojlangan va milliy sug'urta bozorining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq.

Sug'urtalashning asosiy printsiplaridan biri shundaki, sug'urtalanuvchilarning ko'plab xatarlari belgilangan sug'urta mukofotlari evaziga sug'urtalovchiga beriladi. Mijoz juda katta moliyaviy yo'qotishlarini ancha kichik xarajat evaziga, ya'ni, sug'urta mukofotlari bilan almashtiradi.

Sug'urtalovchi (sug'urta kompaniyasi) uchun esa judayam murakkab vazifa paydo bo'ladi. Turli xil shartnomalar bo'yicha sug'urta portfelini tashkil etganligi sababli, uning vazifasi ikki miqdor balansi muammosiga qisqartiriladi: u tomonidan belgilangan sug'urta tarifining qiymati va uni qoplashi kerak bo'lgan jami yo'qotishlar qiymati. Turli xil shartnomalar bo'yicha sug'urta portfelini tashkil etganligi sababli, uning vazifasi ikki miqdor balansi muammosiga qisqartiriladi: u tomonidan belgilangan sug'urta tarifining qiymati va uni qoplashi kerak bo'lgan jami yo'qotishlar qiymati. Bu butun kompleks muammoni hal qilishni talab qiladi. Agar hayotni sug'urtalash haqida gapiradigan bo'lsak, demografik omillarni va aholining turli guruhlarining ijtimoiy-iqtisodiy holatini hisobga olishimiz kerak. Mulknii sug'urtalashda esa hajmiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillar o'rganiladi. Inflyatsiya, defolt, sug'urtalovchilarning bozordagi raqobati kabi noaniqliklar aktuariy hisob kitobida alohida rol o'ynaydi. Bundan tashqari, aktuar sug'urta nazorati organlarining talablarini hisobga olishi kerak. Sug'urtalanadigan risklar ularning yuzaga kelish ehtimoliga, zaraming miqdoriga qarab har xil bo'ladi, shuning uchun har bir sug'urta qildiruvchining sug'urta mukofoti u himoya qilinadigan xavf bilan mutanosib bo'lishi kerak. Shu sababli, aktuariylar yangi tarif ishlab chiqishda sug'urtalanuvchilarni har xil sinflarga bo'lishi va har bir bunday sinf uchun sug'urta mukofotining miqdorini belgilash talab etiladi. Sug'urta ta'rif stavkalarini hisoblash, zamonaviy aktuariylarning vazifalaridan biri hisoblanadi. Boshqa vazifalariga ish yuritish uchun zarur xarajatlarni matematik asoslash, ularning rivojlanish tendensiyalarini bashorat qilish, sug'urtalovchining optimal investitsiya portfelini yaratish, zarur zaxira fondlarini matematik asoslash hamda ularni shakllantirish manbalari va aniq usullari bo'yicha takliflar berish, shakllantirilgan sug'urta portfeliga qayta sug'urtaning taxminiy ehtiyojini baholash kabilarni keltirishimiz mumkin. Umuman olganda, zamonaviy sug'urta

kompaniyasi faoliyatida aktuariyning asosiy vazifasi kompaniyaning to'lov qobiliyatini ushlab turish, istalgan vaqtda o'z majburiyatlarini bajarilishini kafolatlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. Aktuariyning o'ziga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin. U biznes, moliya va ijtimoiy sohada murakkab vazifalarni belgilash, tahlil qilish va hal qilish, individual va korporativ xavflarni baholash, matematik usullardan foydalangan holda sug'urta ta'rif stavkalarini ishlab chiqadigan, ehtimoliy usullar va tasodifiy jarayonlar bo'yicha malakali mutaxassis. Shunday qilib, aktuar hisob-kitoblar har qanday sug'urtalovchining ishida muhim ahamiyatga ega va quyidagi vazifalarni hal qilishga mo'ljallangan:

- sug'urta yig'indisi doirasida risklarni guruhlash, ya'ni umumiy sug'urtadagi risklarni bir xil turini yaratish maqsadida risklarni ilmiy tasniflash talabini bajarish;
- sug'urta hodisasi ro'y berishining matematik ehtimolligini hisoblash, zarar keltirish oqibatlarining davriyligi va og'irlik darajasini alohida risk guruhlari va shuningdek umuman sug'urta yig'indisi bo'yicha aniqlash.
- sug'urtalovchining ishi yuritish uchun zarur bo'lgan xarajatlarini matematik asoslash va ularning rivojlanish tendensiyalarini bashorat qilish;
- sug'urtalovchining zarur zahira fondlarini matematik asoslash, ularni shakllantirishning aniq usullari va manbalarini taklif qilish.



5-rasm. Aktuar hisob-kitoblar turlari klassifikatsiyasi<sup>44</sup>

<sup>44</sup> "O'zbekiston sug'urta bozori" O'quv qo'llanma. X Shennayev. -T. Iqtisod-moliya 2013

Aktuar hisob-kitoblarni amalga oshirish uslubiyatining muammolari ko'p hollarda sug'urtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta turlarining ko'pligi bilan belgilanadi. Ushbu turlar mazmuni va tabiati jihatidan farq qiladi va qabul qilingan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni mos ravishda matematik o'lchashni talab qiladi. Aktuar hisob kitoblarni bir necha belgilariga ko'ra tasniflash mumkin.

Aktuar hisob-kitoblarning nazariy asoslari XVII asrda D.Graund, Ya. De Vitt, E. Galley kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan hamda hozirgi paytda ancha takomillashtirilgan.

Sug'urta tarmoqlariga ko'ra aktuar hisoblar shaxsiy sug'urta bo'yicha hisob-kitoblar, mol-mulk sug'urtasi va javobgarlik sug'urtasi bo'yicha aktuar hisob-kitoblarga guruhlanadi. Vaqt ko'rsatkichlari esa reja asosidagi hisob-kitoblarga guruhlanadi. Bu hisob-kitoblar kelajakda ushbu sug'urta turini amalga oshirishda sug'urtalovchiga tayanch bo'ladi.

Shuning uchun bu aktuar hisob-kitob turi kelgusidagi hisob-kitob deb ham ataladi.

Rejali aktuar hisob-kitoblar yangi sug'urta turini joriy qilish vaqtida risklar kuzatuv bo'yicha ko'rsatkichlar mavjud bo'lmagan taqdirda qo'llaniladi. Bunday holatda sug'urta kompaniyasi tomonidan mazkur sug'urta turiga o'xshash sug'urta turlari bo'yicha o'tkazilgan operatsiyalari natijalari asos qilib olinadi. Ma'lum bir muddat (uch yildan kam bo'lmasligi kerak) o'tgandan so'ng olingan statistik ma'lumotlar tahlil qilinadi va rejali aktuar hisob-kitoblarga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Boshqaruv xususiyatlariga ko'ra aktuar hisob-kitoblar respublika miqyosida aktuar hisob-kitoblar, viloyatlar miqyosidagi aktuar hisob-kitoblar va ma'lum bir sug'urta kompaniyasi miqyosidagi aktuar hisob-kitoblarga bo'linadi. Respublika miqyosida aktuar hisob-kitoblar respublikadagi sug'urta bozoriga tegishli, viloyatlar miqyosidagi esa viloyat xususiyatlariga ko'ra ishlab chiqiladi, shu bilan birgalikda har bir sug'urta kompaniyasi o'z zaxira fondiga ko'ra aktuar hisob-kitoblarni ishlab chiqadi.

Shunday qilib, har xil aktuar hisob-kitoblar sug'urtalovchi va sug'urtalangan shaxs o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi matematik va statistik qonunlar tizimidir. Birinchidan, bu uzoq muddatli sug'urta operatsiyalarida sug'urta fondini shakllantirish va sarflash mexanizmi, har qanday sug'urta turi uchun tariflarni hisoblash usuli, shuningdek sug'urta fondini shakllantirishda har bir sug'urtalovchining ulushini aniqlash vositasidir.

Aktuar hisob-kitoblarni yuritishda sug'urta statistikasi ma'lumotlaridan foydalaniladi. Sug'urta statistikasi sug'urta ishining umumlashgan yakuniy ko'rsatkichlarini qayta ishlash usullarini, sug'urta operatsiyalarining takrorlanish tizimini o'rganishni o'zida mujassamlashtiradi. Sug'urta statistikasining asosiy ko'rsatkichlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

N-sug'urta obyektlari soni;

L-sug'urta hodisalari soni;

M-sug'urta hodisasi ro'y berganda zararlangan obyektlar soni;

P-yig'ilgan sug'urta badallari summasi-S

B-to'lab berilgan sug'urta qoplamasi summasi;

C-jami sug'urta obyektlari sug'urta summasi;

Cm-jami sug'urta jamlanmasidan zararlangan obyektga to'g'ri keladigan sug'urta summasi-Sz.

Sug'urta amaliyotida yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlarning tahlili qo'llaniladi. Tahlil jarayonida quyidagi ko'rsatkichlar hisobi yuritiladi:

➤ sug'urta hodisalarining uzluksizligi;

➤ zararlilik koeffitsiyenti;

➤ bitta zararlangan sug'urta obyektiga to'g'ri keladigan o'rtacha sug'urta summasi;

➤ risk yuki;

➤ zararlilik normasi;

➤ zarar og'irligi;

➤ zarar davriyligi.

Sug'urta hodisalarining uzluksizligi ( $R_c$ ) bir sug'urta obyektiga to'g'ri keladigan sug'urta hodisalari soniga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$R_c = L/N$$

Bu yerda  $R_c$ -sug'urta hodisalarining uzluksizligi.

L-sug'urta hodisalari soni(donada);

N-sug'urta obyektlari soni(donada).

Zararlik koeffitsiyenti ( $K_u$ ) yoki zarar koeffitsiyenti jami sug'urta jamlanmasi summasiga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$K_u = V/St$$

Bu yerda  $K_u$ -zararlilik koeffitsiyenti

V-to'lab berilgan sug'urta qoplamasi summasi (so'mda);

St-jami sug'urta jamlanmasi summasidan zararlangan obyekt summasiga to'g'ri keladigan sug'urta summasi (so'mda).



Bitta zararlangan sug'urta obyektiga to'g'ri keladigan o'rtacha sug'urta summasi jami sug'urta jamlanmasidan bitta zararlangan sug'urta obyektiga to'g'ri keluvchi sug'urta summasini sug'urta hodisasi natijasida zararlangan obyektlar soniga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$S=St/t$$

Bu yerda S-bitta zararlangan sug'urta obyektiga to'g'ri keluvchi o'rtacha sug'urta summasi (so'mda);

St-jami sug'urta jamlanmasidan bitta zararlangan sug'urta obyektiga to'g'ri keluvchi sug'urta summasi (so'mda);

t-sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida zararlangan sug'urta obyektlar soni (donada).

Risk yuki (Tr) bir zararlangan sug'urta obyektiga to'g'ri keluvchi o'rtacha sug'urta summasini bir sug'urta obyektining o'rtacha sug'urta summasiga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$Tr=S/t/S=St/t:S/N=StxN:Sxt$$

Bu yerda Tr-risk yuki.

Zararlik normasi yoki qoplama ko'effitsiyenti (Nu) to'lab berilgan sug'urta qoplamasini yig'ilgan sug'urta badallari summasiga bo'lish va foizini aniqlash orqali hisoblanadi:

$$Nu=V/Rx100\%$$

Bu yerda Nu-zararlik normasi (foizda);

V-to'lab berilgan sug'urta qoplamasi summasi (so'mda);

R-yig'ilgan sug'urta badallari summasi (somda).

Zarar og'irligi (Tu) yoki zarar hajmi risk og'irligi va zararlik ko'effitsiyentini ko'paytirish orqali aniqlanadi:

$$Tu=KuxTr=V/StxStxN/Sxt=VxN/Sxt$$

Bu yerda Tu-zarar og'irligi.

Zararning davriyligi (Ru) sug'urta hodisalari davriyligini risk ko'effitsiyentiga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$Ru=RsxKk=L/Nxt/L=t/N$$

Bu yerda Ru-zararning davriyligi;

t-sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida zararlangan obyektlar soni;

N-sug'urta obyektlar soni.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sug'urta tashkiloti tomonidan sug'urtalash, o'zaro sug'urtalash va qayta sug'urtalash operatsiyalarini amalga oshirishda har qanday sug'urta turi bo'yicha ta'riflar hisob-kitobi aktuar hisob-kitoblarga tayanilgan holda aniq sug'urta obyektining qiymatiga nisbatan

hisoblab chiqiladi. Umuman aktuar hisob-kitoblar yordamida sug'urta xizmati hamda sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalanuvchiga ko'rsatiladigan xizmatning qancha turishi aniqlanadi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta ta'riflarini ishlab chiqishda va sug'urta zaxiralarini shakllantirishda aktuar hisob-kitoblarning zamonaviy uslublaridan foydalanish qoniqarli darajada emas. Aksariyat sug'urta kompaniyalari sug'urta ta'riflarini ishlab chiqishda aktuar hisob-kitoblardan umuman foydalanmaydi. Bunga asosiy sabablardan biri respublikamizda aktuar hisob-kitoblar metodologiyasining yaratilmaganligi va mutaxassislarining kamligidir.

### 8.3 Hayot sug'urtasida aktuar hisobini yuritilishi

Aktuar hisoblarning asosiy g'oyalarini tushunish sug'urta mahsulotining mohiyatini yaxshi tushunish imkonini beradi. Shuning uchun hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta mahsulotini yaxshi tushunib olish uchun sug'urta badali nimalardan tashkil topishini, foyda nimadan hosil bo'lishini va ushbu foyda hisobidan bonuslar qanday hisoblanishini, indeksatsiya qilish qanday amalga oshirilishini va boshqalarni bilib olish zarur.

Ma'lumki, sug'urtaga sug'urtalanuvchi tomonidan qilingan kichik to'lov kelajakda u ko'rishi mumkin bo'lgan katta zararni qoplab beradi. Sug'urta doimiy amal qilishini ta'minlash uchun kutiladigan zararlar hajmini baholash va har bir ishtirokchi tomonidan to'lanadigan sug'urta badalining miqdorini aniqlab olish zarur.

Ehtimollar nazariyasi noaniqliklarning matematik jihatdan tasvirlashga yo'naltirilgan. Ehtimollar nazariyasi aktuar hisoblar uchun baza hisoblanib, uning maqsadi hayot va sog'liqni sug'urtalashning amal qilishini ta'minlashda muhim hisoblangan sug'urta mukofoti va sug'urta zahiralari ko'rsatkichlarini aniqlashdan iborat.

Ehtimollik nima? Ba'zi hodisalarning matematik ehtimolligi 0 dan 1 gacha bo'lgan intervalda yotuvchi son bilan ifodalanadi. Agar biror hodisaning matematik ehtimolligi 0 ga teng bo'lsa, bu hodisa yuz bermaydi, agar u 1 ga teng bo'lsa hodisa yuz berishi mumkin.  $\frac{1}{2}$  ehtimollik nimani bildiradi? Masalan, tanga tashlashni misol qilib oladigan bo'lsak, tanganing burgut qismi jami tashlashning yarmida tushsa, reshka qismi qolgan yarmida tushadi.

Biror hodisaning yuz berish ehtimolligini aniqlashning umumiy prinsipi sifatida shuni aytish mumkinki, uning eng oddiy ko'rinishini quyidagi nisbat bilan ifodalash mumkin:

*Hodisalar yuz beradigan holatda ro'y berishi kutiladigan hodisalar soni*

Ehtimollik =

*Hodisalar yuz berishi mumkin bo'lgan holatdagi hodisalar soni*

Masalan, agar tangani ming marta tashlansa, unda:

- ❖ tanganing burgut tomoni tushish ehtimolligi 500 ga teng;
- ❖ hodisalar yuz berishi mumkin bo'lgan holatdagi hodisalar soni 1000 ga

teng.

Yuz berishi mumkin bo'lgan ko'plab hodisalardan bittasining yuz berish ehtimolligi birga teng bo'lganda nimadir yuz berishi kerak.

Tanga tashlashda ikki hodisa: burgut vareshkaning tushishi yuz berishi mumkin. Agar burgut tushish ehtimolligi  $\frac{1}{2}$  ga teng bo'lsa (to'g'ri tangada), reshka tushish ehtimolligi ham  $\frac{1}{2}$  ( $= 1 - \frac{1}{2}$ ) ga teng bo'ladi. Agar tanga noto'g'ri tanga bo'lsa, burgut tomonning tushish ehtimolligi  $\frac{1}{2}$  dan katta bo'lar edi, masalan  $\frac{2}{3}$  ga teng bo'lsa, reshkaning tushish ehtimolligi  $1 - \frac{2}{3} = \frac{1}{3}$  ga teng bo'lar edi.

Umumiy holatda barcha yuz berishi mumkin bo'lgan ehtimolliklarning summasi birga teng. Bu tasdiqni vafot etishdan sug'urtalash misolida ko'rib chiqamiz. Sug'urtalangan shaxs bir yil davomida vafot etishi yoki vafot etmasligi mumkin. Bu ikki holat sug'urtalangan shaxsning hayotiga nisbatan o'zaro inkor qiluvchi hodisalarning to'liq jamlanmasini ko'rsatadi.

Nogironlik holatidan bir yilga sug'urtalash amalga oshirilganda o'zaro inkor qiluvchi hodisalarning to'liq jamlanmasi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ❖ sug'urtalangan shaxs vafot etdi,
- ❖ sug'urtalangan shaxs hayot va sog'lom;
- ❖ sug'urtalangan shaxs nogiron bo'lib qoldi.

Ehtimollar nazariyasida alohida, bir-biriga bog'liq bo'lmagan hodisalar tushunchasi muhim hisoblanadi. Hodisalarning xususiyatini aniqlashda, bir-biriga bog'liq bo'lmagan hodisalar sifatida birining yuz berishi ikkinchisini keltirib chiqarmaydigan hodisalar nazarda tutiladi.

Masalan, tanga tashlashda tangani birinchi tashlanishining natijasi uning ikkinchi tashlanishining natijasiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Hattoki, agar tanganing burgut tomoni ketma-ket o'n marta tushganda ham, o'n birinchi tashlashga ularning hech qanday ta'siri bo'lmaydi.

Bir biriga bog'liq bo'lmagan ikkita hodisaning yuz berishi ular yuz berishining o'z ehtimolligiga bog'liq.

Xususan, ikkita burgut yoki ikkita reshkaning ketma-ket tushishi

$\frac{1}{2} \times \frac{1}{2} = \frac{1}{4}$  ga teng.

Hech bo'lmaganda bitta reshkaning tushish ehtimolligi  $1 - \frac{1}{4} = \frac{3}{4}$  ga teng. Bu tasdiqlar tangani ikki marta tashlashdagi ehtimolliklar 1-jadvalda o'z isbotini topganligini ko'rishimiz mumkin.

### 9-jadval

Tangani ikki marta tashlashning ehtimollik natijalari<sup>45</sup>

| Birinchi tashlash | Ikkinchi tashlash |
|-------------------|-------------------|
| Burgut            | Burgut            |
| Burgut            | Reshka            |
| Reshka            | Reshka            |
| Reshka            | Burgut            |

Faqat to'rtta bir xil ehtimollikdagi kombinatsiyalar bo'lishi mumkin.

Ehtimollar nazariyasining asosiy natijalaridan biri sifatida sug'urta faoliyatining asosida yotuvchi katta sonlar qonuni yoki Bernulli qonuni hisoblanadi. Bu qonunga ko'ra: urinishlar sonining ortishi bilan, masalan tangani tashlash sonining ortishi bilan bizni qiziqtirayotgan hodisa yuz berganda (tangani burgut tomoni tushishi) bunday holatlar sonining urinishlar soniga nisbati harakat qilinayotgan holatga tomon o'zgaradi. Bu bilan o'rganilayotgan hodisalarning mustaqil ekanligi ko'rinadi. Sug'urtalangan shaxslarning vafot etish yoki kasallanish holatlari bilan o'zaro bog'liq muammolar (falokatlar, epidemiyalar va hokazolar) boshqa jiddiy muammolarga o'lib kelishi mumkin.

Yoshga nisbatan yillik vafot etish ehtimolligining o'zaro bog'liqligini vafot etish jadvallari orqali tasvirlanadi. Yillik vafot etish ehtimolligi statistik ma'lumotlar asosida aniqlanadi. Boshqa qo'shimcha ko'rsatkichlar, masalan hayotning davomiyligi ko'rsatkichi ham yuqoridagi ma'lumotlar asosida hisoblanadi. Vafot etish jadvalini hisoblash uchun zarur ma'lumotlar:

▪ biror bir davr uchun, masalan kalendar yili uchun insonlarning jinsi va yoshi kesimida vafot etganlar soni;

▪ o'rganilayotgan davrda, masalan bir yoshgacha, bir yoshdan ikki yoshgacha va hokazo davrlarda jinsiy tarkib bo'yicha erkak va ayollar soni.

Natijada erkak va ayollar uchun yoshga nisbatan vafot etishning empirik o'zaro bog'liqligi ko'rsatkichi topiladi. Vafot etish darajasi katta yoshda kichik yoshdagilarga nisbatan past bo'lishi mumkin. Bu bir qancha qoidalardan kelib chiqishi mumkin, masalan hayotning birinchi yilida vafot etish darajasi boshqa yillarga nisbatan yuqori bo'ladi.

<sup>45</sup>Mutallif tomonidan ishlab chiqildi.

Vafot etish jadvali yangi tug'ilgan chaqaloqlarning gipotetik guruhlari uchun tuziladi, bunda bir kunda tug'ilgan 100 ming chaqaloq olinishi mumkin. Bu vafot etish jadvali quyida keltirilgan 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

10-jadval

Rossiyada keng qo'llaniladigan, erkaklarning vafot etish jadvali<sup>46</sup>

| Yoshi, $x$ | Vafot etish ehtimolligi, $q_1$ | Belgilangan yoshga etadiganlar soni, $l$ | Vafot etganlar soni, $d$ | Hayot davomiyligining qolgan qismi, $e$ |
|------------|--------------------------------|--|--------------------------|---|
| 0          | 0,01821                        | 100000                                   | 1821                     | 61.4                                    |
| 1          | 0,00139                        | 98179                                    | 136                      | 61.6                                    |
| 2          | 0,00085                        | 98043                                    | 83                       | 60.6                                    |
| 3          | 0,00064                        | 97959                                    | 63                       | 59.7                                    |
| 4          | 0,00061                        | 97897                                    | 60                       | 58.7                                    |
| 5          | 0,00053                        | 97837                                    | 52                       | 57.8                                    |
| 6          | 0,00051                        | 97785                                    | 50                       | 56.8                                    |
| 7          | 0,00049                        | 97735                                    | 48                       | 55.8                                    |
| 8          | 0,00048                        | 97687                                    | 47                       | 54.9                                    |
| 9          | 0,00047                        | 97640                                    | 46                       | 53.9                                    |
| 10         | 0,00047                        | 97594                                    | 46                       | 52.9                                    |

- vafot etishning yillik ehtimolligi,  $q_1$ ;
- navbatdagi tug'ilishga qadar yashaganlar soni,  $l$ ;
- hayotning har bir yilida vafot etganlar soni,  $d$ ;
- ma'lum yoshgacha etganlarning qolgan hayotining davomiyligi  $X$ ,  $e$ .

Vafot etish jadvallari erkaklar uchun alohida va ayollar uchun alohida tuzilishi yoki birgalikda tuzilishi mumkin, bundan tashqari quyidagilar bo'yicha ham alohida jadvallar tuzilishi mumkin:

- ❖ shahar va qishloq aholisi uchun;
- ❖ alohida hududlar uchun;

❖ aholining turli qatlamlari uchun, masalan AQSH da oq tanlilar uchun alohida, qoratanlilar va ispan tilida so'zlashuvchilar uchun alohida tuziladi.

<sup>46</sup>Rossiya Federatsiyasi statistikasi qo'mitasining ma'lumotlari asosida tayyorlangan.



Vafot etish va yashab qolish ehtimolligi hisobi<sup>47</sup>

| Yoshi, x | Vafot etish ehtimolligi, q | Yashab qolganlar soni, l | Vafot etganlar soni, d |
|----------|----------------------------|--------------------------|------------------------|
| 40       | 0,00908                    | 86855                    | 789                    |
| 41       | 0,00968                    | 86067                    | 833                    |
| 42       | 0,01029                    | 85234                    | 877                    |
| 43       | 0,01096                    | 84357                    | 925                    |
| 44       | 0,01176                    | 83432                    | 981                    |
| 45       | 0,01261                    | 82451                    | 1040                   |

Jadvallarni qanday qismlarga ajratish masalasi jadval aholining qaysi qatlami uchun tuzilayotganligi va qanday statistik ma'lumotlarning mavjudligidan kelib chiqib belgilanadi. Vafot etish darajasi 2-jadvalga mos keladi deb hisoblaganimizda sug'urta hisoblari uchun foydali bo'lgan turli ehtimolliklarni topishimiz mumkin bo'ladi. Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 40 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan 86855 erkakdan 82451 nafari belgilangan yoshgacha yashaydi. 40 yoshli erkak yana kamida 5 yil yashashi ehtimolligi quyidagiga teng:

$$\frac{82451}{86855} = 0,94929$$

Bundan yana shuni aniqlash mumkin, ya'ni 40 yoshli erkakning 5 yil davomida vafot etish ehtimolligi quyidagiga teng:

$$1 - \frac{82451}{86855} = 1 - 0,94929 = 0,05071$$

E'ton qilinadigan vafot etish jadvalarida har doim ham vafot etish ehtimolligi  $q_x$  ma'lumotlari keltirilavermaydi. Shuning uchun boshqa ma'lumotlar asosida ushbu ko'rsatkichni aniqlashni bilib qo'ygan yaxshi. Misol.

Q40 ko'rsatkichini quyidagi ma'lumotlar asosida aniqlang.

- 1)  $I_{40}$  va  $d_{40}$ ;
- 2)  $I_{40}$  va  $I_{41}$

Sug'urta adabiyotlarida quyidagi aktuar ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

<sup>47</sup>Rossiya Federatsiyasi statistikasi qo'nutasining ma'lumotlari asosida tayyorlangan

$q_x$  –  $x$  yoshga teng insonning bir yil davomidagi vafot etishining yillik ehtimolligi

$R_x$  –  $x$  yoshdagi insonning bir yildan kam bo'lmagan hayot kechirishi ehtimolligi, ya'ni  $x+1$

$tq_x$  –  $t$  yil davomida  $x$  yoshga teng bo'lgan insonning vafot etish ehtimolligi

$tR_x$  –  $x$  yoshga teng bo'lgan inson  $t$  yoshdan kam yashamasligi ehtimolligi, ya'ni  $x - t$  yoshgacha yashashi.

#### Nazorat savollari

1. Aktuar hisob-kitoblar nima?
2. Qaysi Vazirlikning buyrug'i bilan "Aktuariy malaka sertifikatini berish" to'g'risidagi Nizom tasdiqlangan?
3. Xalqaro aktuariylar assotsiyatsiga qachon asos solingan?
4. Aktuar tashkilotning huquqlari nimalardan iborat?

## IX BOB. SUG'URTA ZAHIRALARI: SUG'URTA ZAHIRALARI VA UNING UMUMIY XARAKTERISTIKASI

### 9.1 Sug'urta zahiralari va uning umumiy xarakteristikasi

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga asosan sug'urtalovchilar "sug'urta zaxiralari maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda shakllantirish hamda joylashtirish huquqiga egadirlar. Shundan kelib chiqqan holda Maxsus vakolatli davlat organi "sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari mablag'larini shakllantirish hamda joylashtirish tartibi va shartlarini, shuningdek bunday mablag'lar hisobini yuritish hamda ular bo'yicha hisobotlar tuzish tartibini belgilaydi"<sup>48</sup>. Qonun asosida belgilangan vakolatni amalga oshirish maqsadida 2008 yil 20 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 107-son buyrug'i bilan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi Nizom" tasdiqlangan. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan<sup>49</sup>.

Sug'urta zaxiralari deganda sug'urta qildiruvchi tomonidan so'm yoki xorijiy valyutada to'langan sug'urta mukofotlari hisobiga sug'urtalovchi tomonidan shakllantiriladigan hamda sug'urtalovchining balansida aktiv yoki majburiyat ko'rinishida hisobga olinadigan, sug'urta to'lovlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni bajarish, zararlarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlar va ogohlantirish chora-tadbirlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan mablag'lar tushuniladi.

Sug'urta zaxiralari sug'urtalovchi tomonidan sug'urtaning har bir turi (klassi) bo'yicha sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'vonini (sug'urta pulini) to'lash nazarda tutilgan valyutada shakllantiriladi. Sug'urtalovchi buxgalteriya hisobotini tuzishda hisobot sanasiga sug'urta faoliyatini amalga oshirishdan olingan moliyaviy natijalarini aniqlashda sug'urta zaxiralari hajmini hisoblaydi. Sug'urta zaxiralari hisob-kitobi sug'urtalovchining hisob va hisobot ma'lumotlariga asoslangan holda analga oshiriladi. Har bir hisobot sanasiga har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta zaxiralari hisob-kitob qilish uchun zarur ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi hujjatlar sug'urtalovchi tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilgan sanadan boshlab, 3 yildan

<sup>48</sup> O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonun (qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan)

<sup>49</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining "Sug'urtalovchining sug'urta zaxiralari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida" 2008 yil 20 noyabrda 107-son buyrug'i Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan - I O'zbekiston Respublikasi qonin hujjatlari to'plami, 2008 y., 52-sen

kam bo'lmagan muddatda saqlanishi lozim. Xususan, quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi hujjatlarning saqlanishi lozim:

- shartnoma (polis, guvohnoma, kvitantsiya) raqami;
- shartnomaning kuchga kirgan sanasi (sug'urtaning amal qilishining boshlanish sanasi);
- shartnomaning amal qilish muddati;
- sug'urta puli (pullari) miqdori (miqdorlari);
- hisoblangan sug'urta mukofoti (badallari) miqdori;
- sug'urta mukofoti (badallari) hisoblangan sana;
- sug'urta mukofotining (badallarining) miqdori (miqdorlari) va to'langan sanasi (sanalari);
- shartnoma tuzganlik uchun hisoblangan mukofot miqdori;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda sug'urta mukofotidan (badallaridan) ajratmalar miqdori;
- shartnomani muddatidan oldin tugatish sanasi;
- shartnoma shartlarini o'zgartirish sanasi (sanalari);
- shartnomaning muddatidan oldin tugatilishi (shartlarining o'zgartirilishi) munosabati bilan sug'urta qildiruvchilarga (qayta sug'urta qildiruvchilarga) qaytarilgan sug'urta mukofoti (badallari) miqdori;
- sug'urta mukofotini (badallarini) qaytarish sanasi;
- sug'urta hodisasi (hodisalari) to'g'risida ariza tushgan sana (sanalar);
- sug'urta hodisasi (hodisalari) yuz bergan sana (sanalar);
- xabar qilingan zarar (zararlar) miqdori (miqdorlari), shuningdek, uni bartaraf etish jarayonida xabar qilingan zarar (zararlar) miqdorining (miqdorlarining) o'zgarishi to'g'risida ma'lumot;
- sug'urta to'lovi (to'lovlari) sanasi (sanalari);
- sug'urta to'lovi (to'lovlari) miqdori (miqdorlari);
- sug'urta to'lovini (to'lovlarini) to'lashni rad etish sanasi (sanalari).

Ko'rsatilgan ma'lumotlar elektron ma'lumotlar bazasi, shuningdek, tuzilgan sug'urta shartnomalarini hisobga olish jumali, Zararlar va muddatidan oldin tugatilgan sug'urta shartnomalarini hisobga olish jurnali, Qayta sug'urta qilishga qabul qilingan shartnomalarni hisobga olish jurnali, Qayta sug'urta qilishga qabul qilingan shartnomalar bo'yicha zararlarni hisobga olish jurnali uchun ham majburiy rekvizitlar hisoblanadi. Sug'urtalovchi sug'urta zaxiralari hisob-kitobini ko'rsatilgan registrlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida amalga oshiradi.

Har bir qayta sug'urtaga qabul qilingan shartnoma (shartnomalar) bo'yicha qayta sug'urta qilish shartnomasining amal qilish doirasiga tushuvchi zararining sodir bo'lishi borasidagi sug'urtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan har bir sug'urta to'lovidagi oldindan o'rnatilgan ulushni qoplash bo'yicha qayta sug'urtalovchining majburiyati paydo bo'luvchi shartlarga ega bo'lgan proporsional qayta sug'urta qilish shartnomalari tegishli sug'urta shartnomalariga oid hisob guruhlariga kiritiladi.

Sug'urtalovchi tomonidan Nizomda belgilangan guruhlanish bo'yicha bir nechta hisob guruhlariga taalluqli bo'lgan shartnoma tuzilgan taqdirda, sug'urta zaxiralarini hisoblash maqsadida ko'rsatilgan shartnomaning muayyan hisob guruhiga to'g'ri keluvchi har bir qismi tegishli hisob guruhiga taalluqli alohida shartli shartnoma sifatida hisobga olinadi.

Shartnomaning kuchga kirish sanasi (sug'urtaning amal qilishining boshlanish sanasi) shartnoma bo'yicha sug'urta mukofotini (badallarini) hisoblash sanasidan kechroq bo'lsa va sug'urta zaxiralarning hisob-kitobi shartnomaning kuchga kirish sanasiga (sug'urtaning amal qilishining boshlanish sanasiga) qadar amalga oshirilgan taqdirda, ishlab topilmagan mukofot zaxirasini hisoblash maqsadida ishlab topilmagan mukofot zaxirasi shartnoma bo'yicha hisoblangan sug'urta mukofoti (badallari) (sug'urta brutto-mukofoti) miqdoriga teng deb qabul qilinadi.

Birinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha alohida «pro rata temporis» usuli ishlab topilmagan mukofotni hisobot sanasiga sug'urta shartnomasining tugamagan amal qilish muddatiga proporsional holda hisoblash orqali hisoblanadi. Har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot hisob-kitob uchun qabul qilingan bazaviy sug'urta mukofotining hisobot sanasiga sug'urta shartnomasining tugamagan amal qilish muddatining (kunlarda) sug'urta shartnomasining butun amal qilish muddati (kunlarda) nisbatiga ko'paytmasi sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$H_{mi} = B_{mi} \times \frac{T_i - M_i}{T_i},$$

bu erda:

$H_{mi}$  — i-shartnoma bo'yicha ishlab topilmagan mukofot;

$B_{mi}$  — i-shartnoma bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti;

$T_i$  — i-shartnomaning kunlardagi amal qilish muddati;



Mi — i-shartnomaning kuchga kirishidan boshlab hisobot sanasigacha bo'lgan kunlar soni.

Butun hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot zaxirasi har bir shartnoma bo'yicha «pro rata temporis» usuli orqali hisoblangan ishlab topilmagan mukofotlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Birinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot zaxirasi «1/24» usuli bo'yicha ham hisoblanishi mumkin. Ishlab topilmagan mukofotni (ishlab topilmagan mukofot zaxirasini) «1/24» usuli orqali hisoblash uchun bitta hisob guruhiga taalluqli bo'lgan shartnomalar kichik guruhlariga ajratiladi. Kichik guruhlariga amal qilish muddati (oylarda) bir xil bo'lgan va amal qilishining boshlanish sanasi bir xil oylarga to'g'ri keluvchi shartnomalar kiritiladi. Kichik guruhga kiruvchi shartnomalar bo'yicha bazaviy sug'urta mukofotining umumiy summasi kichik guruhga kiruvchi har bir shartnoma bo'yicha hisoblangan bazaviy sug'urta mukofotlarini qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Ishlab topilmagan mukofot (ishlab topilmagan mukofot zaxirasi) «1/24» usuli bo'yicha hisoblanganda, quyidagi shartlar qo'llaniladi:

❖ sug'urta shartnomasi amal qilishining boshlanish sanasi deb oying o'rtasi qabul qilinadi;

❖ sug'urta shartnomasining oylarning butun sonlariga teng bo'lmagan amal qilish muddati oylarning eng yaqin katta butun soniga teng deb qabul qilinadi.

Ishlab topilmagan mukofot (ishlab topilmagan mukofot zaxirasi) har bir kichik guruh bo'yicha bazaviy sug'urta mukofotlari umumiy summasini ishlab topilmagan mukofot zaxirasi miqdorini hisoblash koeffitsientlariga ko'paytirish orqali aniqlanadi. Har bir kichik guruh uchun koeffitsient kichik guruhlariga kiruvchi shartnomalarning hisobot sanasiga tugamagan amal qilish muddatining (yarim oylarda) kichik guruhga kiruvchi shartnomalar amal qilishining umumiy muddatiga (yarim oylarda) nisbati sifatida aniqlanadi. Butun hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot zaxirasi «1/24» usuli orqali har bir kichik guruh bo'yicha hisoblangan ishlab topilmagan mukofotlarni (ishlab topilmagan mukofot zaxiralarni) qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Ikkinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot sug'urta shartnomasining amal qilish muddati to'liq tugagunga qadar bazaviy sug'urta mukofoti miqdorida har bir shartnoma bo'yicha aniqlanadi.

Uchinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot hisobot sanasiga bazaviy sug'urta mukofotining 40 foizi miqdorida har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha aniqlanadi. To'rtinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab

topilmagan mukofot sug'urta shartnomasining amal qilish muddati to'liq tugagunga qadar bazaviy sug'urta mukofotining 75 foizi miqdorida har bir shartnoma bo'yicha aniqlanadi.

## 9.2 Sug'urta zahiralarning turlari va tuzilishi

2008 yil 20 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan hamda Adliya vazirligida 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan ro'yxatga olingan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risida"gi Nizomga muvofiq sug'urtalovchi o'zining balansida majburiyat yoki aktivlar sifatida hisobga olinuvchi quyidagi texnik zaxiralarni shakllantirishi shart. Bular:

a) ishlab topilmagan mukofot zaxirasi (umumiy sug'urta (qayta sug'urta qilish) bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda);

b) mukofotlar zaxirasi (hayotni sug'urta qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda);

v) keyingi yillarda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta to'lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo'ljallangan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi (FJMS BZ) (transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda);

v-1) keyingi yillarda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta to'lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo'ljallangan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi (IFJMS BZ) (ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda);

g) sug'urta hodisasining yuz berishi bilan kelib chiquvchi hamda sug'urta shartnomasi shartlari bo'yicha qoplanishi lozim bo'lgan zarar hajmiga muvofiq holda aniqlanadigan va quyidagilardan tarkib topgan zararlar zaxirasi:

❖ xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi (XZZ);

❖ sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi (SXZZ).

Ta'kidlash zarurki, yil sayin O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta tashkilotlarining sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan va sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashga sarflanadigan zaxiralar miqdori ko'payib bormoqda. Buni quyida keltirilgan diagramma ma'lumotlaridan ham bilib olish mumkin.

**Sug'urta tashkilotlarining sug'urta zaxiralari, xususiy kapitali va  
aktivlarining o'sish dinamikasi (mlrd. so'm)**

| t/r | Ko'rsatkichlar      | Yillar |       |        |        |        |
|-----|---------------------|--------|-------|--------|--------|--------|
|     |                     | 2013   | 2014  | 2015   | 2016   | 2017   |
| 1.  | Sug'urta zaxiralari | 247,8  | 345,8 | 428,4  | 566,7  | 766,0  |
| 2.  | Xususiy kapital     | 467,2  | 523,0 | 595,3  | 654,5  | 1118,3 |
| 3.  | Aktivlar            | 690,0  | 871,5 | 1043,5 | 1183,5 | 2009,7 |

Ma'lumki, davlatning birinchi va eng muhim funksiyasi fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash bo'lib, ushbu himoyani amalga oshirishda davlat sug'urta xizmatlaridan keng foydalanadi. SHu maqsadda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha risklarni davlat majburiy sug'urtani joriy etish bilan amalga oshiradi. Bizning mamlakatimizda ham xuddi shunday ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan risklar sifatida transport vositalaridan foydalanish natijasida fuqarolarning hayoti, sog'ligi va mulkiga etkaziladigan zararlarni o'z vaqtida qoplash maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 21 aprelda "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi 155-sonli Qonuni, hamda ishchi va xizmatchilarning o'z ish vazifalarini bajarayotgan paytlarida turli baxtsiz hodisalar yoki kasb kasalliklari natijasida hayoti va sog'ligiga etkaziladigan zararlarni qoplash maqsadida 2009 yil 16 aprelda "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi 210-sonli Qonuni, va turli ko'rinishdagi transport vositalarida yo'lovchilarni tashish jarayonida baxtsiz hodisalar natijasida ularning hayoti, sog'ligi yoki mulkiga etkaziladigan zararlarni qoplash maqsadida 2015 yilda 26 mayda "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi 386-sonli Qonunlari qabul qilingan. Mazkur qonunlarning amaldagi natijasida sug'urtalanuvchilarning sug'urta bo'lgan madaniyatini yanada oshishiga, sug'urta tashkilotlarida ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlar turini kengayishiga hamda ularning ixtiyorida katta miqdordagi moliyaviy resurslarni shakllanishiga olib keldi.

Mamlakatimizda belgilangan qonunchilikka ko'ra, aholi uchun poliklinikalar tomonidan ko'rsatiladigan birlamchi tibbiy xizmatlar davlat mablag'lari hisobidan tekinga ko'rsatilayotgan bo'lsada, kasalxonalarda ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar va ayniqsa murakkab operatsiyalar asosan pulli

bo'lib, oddiy aholi qatlamlari uchun bunday xizmatlardan foydalanish qiyinchilik tug'dirmoqda edi. Ushbu qiyinchiliklarni batamom bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovasion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risidagi PF-5308-sonli Farmonning 135-bandida tadbirkorlik va innovasion sohadagi istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish, 153-bandida ilg'or xorijiy tajriba asosida tibbiy sug'urta mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha konsepsiya ishlab chiqish kabi vazifalar belgilab berildi. Chunki dunyodagi juda ko'plab mamlakatlarda keng qo'llanib kelinayotgan majburiy tibbiy sug'urtani joriy etish mazkur muammoni hal etgan va shu bilan birga tibbiy xizmatlar sifatining ham oshishiga sabab bo'lgan.

Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi bilan kelishilgan holda qo'shimcha ravishda:

- ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasini (OChZ);
- falokatlar zaxirasini (FZ);
- zararlilikning tebranishi zaxirasini (ZTZ);
- aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasini (ANZ);
- sug'urta faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa turdagi sug'urta zaxiralarini tashkil etishi mumkin.

Bunda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni yoki ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshiruvchi sug'urtalovchilar tegishlicha, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasini (OChZ FJMS) yoki ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasini (OChZ IFJMS) shakllantirishlari shart.

Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasidan va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasidan tashqari, texnik zaxiralarni hisob-kitob qilish bazasi sifatida bazaviy sug'urta mukofoti — hisobot davrida sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalarini tuzish bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatilganlik uchun hisoblangan komission mukofoti

va ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasini shakllantirishga yo'naltirilgan mablag'lar summasi chegirilgan, hisoblangan sug'urta brutto-mukofoti qabul qilinadi.

Foydani aniqlashda texnik zaxiraning kamayishi sug'urtalovchining daromadini, texnik zaxiraning ko'payishi esa zararini namoyon etadi.

Ishlab topilmagan mukofot zaxirasi (IMZ) - bu sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi bo'yicha hisoblangan, keyingi hisobot davrlarida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan, kelgusi to'lovlarni ta'minlash bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun mo'ljallangan hisobot davrining chegaralaridan chiquvchi shartnomaning amal qilish davriga tegishli sug'urta mukofotining qismi. IMZ mablag'lari hisobidan sug'urta qildiruvchilarga (qayta sug'urta qildiruvchilarga) muddatidan oldin tugatilgan sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlarini qaytarish amalga oshiriladi.

IMZni hisoblash uchun sug'urta faoliyati to'rtta hisob guruhlariga bo'linadi:

a) 1-hisob guruhi:

- baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish (1-klass);
- kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish (2-klass);
- yer usti transport vositalarini sug'urta qilish (3-klass);
- harakatlanadigan temir yo'l tarkibini sug'urta qilish (4-klass);
- aviatsiya sug'urtasi (5-klass);
- dengiz sug'urtasi (6-klass);
- yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish (7-klass);
- mol-mulkni olovdan, tabiiy ofatdan (8-klass) va zarardan sug'urta qilish (9-klass);
- avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish (10-klass);
- aviatsiya (11-klass) va dengiz (12-klass) sug'urtasi doirasida javobgarlikni sug'urta qilish;
- umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish (13-klass) (qarz oluvchilarning kreditni to'lamaganligi uchun javobgarligini sug'urta qilishdan tashqari);
- huquqiy himoya bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish (17-klass);
- noproporsional qayta sug'urta qilish shartnomalari (har bir qayta sug'urtaga qabul qilingan shartnoma (shartnomalar) bo'yicha qayta sug'urta qilish shartnomasining amal qilish doirasiga tushuvchi zararining sodir bo'lishi borasida sug'urtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan har bir sug'urta to'lovidagi oldindan o'rnatilgan ulushni qoplash bo'yicha qayta



sug'urtalovchining majburiyati paydo bo'luvchi shartlarga ega bo'lgan qayta sug'urta qilish shartnomalaridan tashqari qayta sug'urta qilish shartnomalari);

b) 2-hisob guruhi:

➤ kreditlarni sug'urta qilish (14-klass);

➤ kafillikni (kafolatlarni) sug'urta qilish (15-klass);

➤ boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug'urta qilish (16-klass) (qishloq xo'jaligi ekinlarining hosilini sug'urta qilishdan tashqari);

➤ qarz oluvchilarning kreditni to'lamaganligi uchun javobgarligini sug'urta qilish (13 klass);

v) 3-hisob guruhi:

➤ sug'urta shartnomasining amal qilish muddati boshlanishining va tugashining noaniq («ochiq») sanalariga ega bo'lgan sug'urta shartnomalarini tuzish imkoniyatini nazarda tutuvchi sug'urta turlari;

g) 4-hisob guruhi:

➤ qishloq xo'jaligi ekinlarining hosilini sug'urta qilish (16 klass).

Sug'urta zaxiralarini hisoblash uchun sug'urtalovchi yuqorida ko'rsatib o'tilgan har bir hisob guruhi ichida sug'urta shartnomasining shartlari, sug'urta ob'ektlari, sug'urta ob'ektlarining joylashuvi va sug'urta tavakkalchiliklari ro'yxatiga bog'liq holda qo'shimcha hisob guruhlari kiritishi mumkin.

Biz yuqorida O'zbekiston sug'urta bozori bo'yicha sug'urta zaxiralarining miqdori doimo o'sib borganligining guvohi bo'lgan edik. Agar biz bunday holatni alohida sug'urta tashkilotlari misolida tahlil etsak, quyidagi manzara namoyon bo'lganligining shohidi bo'lamiz.

Bugungi kunda hayotni sug'urta qilish bilan shug'ullanadigan sug'urta tashkilotlari mukofotlar zaxirasini juda keng ko'lamda shakllantiradi. Chunki sug'urta mukofotlar zaxirasi keyingi hisobot davrlarida ro'y berishi mumkin bo'lgan hayotni sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha kelgusidagi to'lovlarni ta'minlashga oid majburiyatlarni bajarish va sug'urta polisining kafolati asosida qarz berish uchun mo'ljallangan. Mukofotlar zaxirasi quyidagilardan iborat:

➤ hayotni sug'urta qilishning jang'arilib boruvchi turlari bo'yicha zaxira (HJZ);

➤ hayotni sug'urta qilishning boshqa turlari (jang'arilib boruvchi turlaridan tashqari) bo'yicha zaxira (HZ).

Mukofotlar zaxirasi hayotni sug'urta qilishning jang'arilib boruvchi turlari bo'yicha zaxira va hayotni sug'urta qilishning boshqa turlari (jang'arilib boruvchi turlaridan tashqari) bo'yicha zaxirani qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Hayotni sug'urta qilishning jamg'arilib boruvchi turlari bo'yicha zaxira sug'urta shartnomasining amal qilish muddati to'liq tugagunga qadar yoki sug'urta hodisasi yuz bergunga qadar bazaviy sug'urta mukofotining 92 foizidan va uni joylashtirishdan (unga hisoblangan foizlardan) olinadigan investitsiya daromadining 50 foizidan kam bo'lmagan hajmda har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha hisoblanadi. Bunda HJZning olingan hajmi sug'urta shartnomasi bilan belgilangan qaytarib sotib olish summasidan (sug'urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilinganda kafolatlangan) kam bo'lmasligi lozim.

Umumiy holda HJZ har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha hisoblangan HJZlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Hayotni sug'urta qilishning boshqa turlari (jamg'arilib boruvchi turlaridan tashqari) bo'yicha zaxira har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha «pro rata temporis» yoki «1/24» usuli bilan hisoblanadi. Umumiy holda HZ har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha hisoblangan HZlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Zararlar zaxirasi o'z ichiga xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasini va sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasini oladi. Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi sug'urta to'lovlarini amalga oshirish, jumladan hisobot davrida yoki unga qadar bo'lgan davrlarda sodir bo'lganligi haqida qonun yoki shartnomada belgilangan tartibda sug'urtalovchiga xabar qilingan sug'urta hodisalari munosabati bilan yuzaga kelgan sug'urta qildiruvchining mulkiy manfaatlariga etkazilgan zararni (ziyonni) miqdorini baholash va kamaytirish bilan bog'liq ekspert, maslahat yoki boshqa xizmatlarga haq to'lash uchun sug'urtalovchiga zarur bo'lgan pul mablag'lari summasini to'lash bo'yicha sug'urtalovchining hisobot sanasiga bajarilmagan yoki to'liq bajarilmagan majburiyatlarining baholanishi hisoblanadi.

XZZ har bir bartaraf etilmagan da'vo bo'yicha aniqlanadi. Agarda zarar to'g'risida xabar qilingan bo'lib, uning miqdori aniqlanmagan bo'lsa, hisob-kitob uchun sug'urta pulidan katta bo'lmagan eng yuqori ehtimoli kutilgan zarar miqdori olinadi. XZZ xabar qilingan zararlarni hisobga olish jurnalida ro'yxatga olingan hisobot davridagi xabar qilingan zararlar summasining hisobot davridan oldingi davrlarda bartaraf etilmagan zararlar summasiga qo'shilgan va hisobot davrida to'langan zararlar summasiga kamaytirilgan, hamda hisobot davrida bartaraf etilmagan da'volar summasidan uch foizgacha miqdorda zararni bartaraf etish bo'yicha xarajatlar qo'shilgan summaga mos keladi.

Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi sug'urta to'lovlarini amalga oshirish, jumladan hisobot davrida yoki unga qadar bo'lgan davrlarda sodir bo'lganligi haqida qonun yoki shartnomada belgilangan tartibda

sug'urtalovchiga hisobot davrida yoki unga qadar bo'lgan davrlarda xabar qilinmagan sug'urta hodisalari munosabati bilan yuzaga kelgan, o'z ichiga zararlarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlarni olgan, sug'urtalovchining hisobot sanasiga majburiyatlarining baholanishi hisoblanadi. Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi har bir sug'urta turi bo'yicha alohida, sug'urtalovchining ushbu sug'urta turi bo'yicha sug'urta to'lovlarini amalga oshirish yuzasidan yig'ilgan statistikani inobatga olgan holda, hisoblanadi.

Umumiy holda, SXZZ har bir sug'urta turi bo'yicha hisoblangan SXZZlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Biroq ushbu summa umumiy sug'urtada (qayta sug'urta qilishda) har qanday holda hisobot davriga qadar o'n ikki oy mobaynida umumiy sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalari bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti summasining 10 foizidan kam bo'lmashligi lozim.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi (FJMS BZ) keyingi yillarda sug'urtaning mazkur turi bo'yicha sug'urta to'lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo'ljallangan.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasining hisob-kitobi quyidagi ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi:

➤ transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha hisobot davrida hisoblangan sug'urta brutto-mukofoti;

➤ transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha hisobot davrida amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari;

➤ transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni hisobot davrida amalga oshirish xarajatlari (shu jumladan, sug'urta hodisalari sedir bo'lishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar);

➤ sug'urtalovchilarning transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha To'lovlarni kafolatlash jamg'armasiga to'laydigan majburiy badallari;

➤ boshqa ko'rsatkichlar.

FJMS BZni hisoblash maqsadida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirish xarajatlari miqdori (shu jumladan, sug'urta hodisalari sodir bo'lishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar) hisobot davrida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy

sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha hisoblangan sug'urta brutto-mukofotining 25 foizi miqdorida o'ratiladi.

FJMS BZning hisob-kitobi brutto-sug'urtalash ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda (qayta sug'urtalovchilar ishtirokini (ulushini) hisobga olmagan holda) amalga oshiriladi

Sug'urtalovchi transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasini quyidagi tartibda hisoblaydi.

FJMS BZ miqdorini hisob-kitob qilish bazasi sifatida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirishdan hosil bo'lgan moliyaviy natija miqdori qabul qilinadi. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirishdan hosil bo'lgan moliyaviy natija hisobot davridagi sug'urtaning mazkur turi bo'yicha daromadlar miqdori va hisobot davridagi sug'urtaning mazkur turi bo'yicha xarajatlar miqdori o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Hisobot davrida transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha daromadlar quyidagilarning yig'indisi sifatida aniqlanadi:

➤ hisobot davrida hisoblangan sug'urta brutto-mukofotlari;

➤ ishlab topilmagan mukofot zaxirasi, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi va sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasining hisobot davrida kamayish tomonga o'zgarishi.

Hisobot davrida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha xarajatlar quyidagilarning yig'indisi sifatida aniqlanadi:

➤ hisobot davrida sug'urta shartnomalarining muddatidan oldin tugatilishi (shartlarining o'zgartirilishi) munosabati bilan sug'urta qildiruvchilarga qaytarilgan sug'urta mukofotlari (badallari);

➤ hisobot davrida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirish xarajatlari (shu jumladan, sug'urta hodisalari sodir bo'lishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar);

➤ quyidagilardan iborat bo'lgan hisobot davrida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha joriy sug'urta to'lovlarini ta'minlash xarajatlari:

a) sug'urtalovchilarning To'lovlarni kafolatlash jamg'armasiga hisobot davri uchun to'laydigan majburiy badallari;



b) ishlab topilmagan mukofot zaxirasi, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi va sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasining hisobot davrida ko'payish tomonga o'zgarishi.

v) hisobot davrida amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari.

Agar transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq ko'rsatilgan daromadlarning 5 foizidan ortiq bo'lsa, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi hisobot davri oxiriga ko'rsatilgan ortiq summaga ko'payadi. Agar transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha xarajatlar summasi daromadlar summasidan ortib ketsa, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi hisobot davri oxiriga xarajatlarning daromatlardan ortgan summasiga kamaytiriladi.

Agar sug'urtalovchi hisobot davri boshiga qadar transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasini hisoblamagan bo'lsa, mazkur zaxira hisobot davri boshiga nolga teng deb qabul qilinadi. Agar transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi hisob-kitoblar natijasida manfiy qiymatga ega bo'lsa, mazkur zaxira nolga teng deb qabul qilinadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi (IFJMS BZ) keyingi yillarda sug'urtaning mazkur turi bo'yicha sug'urta to'lovlari amalga oshirish xarajatlari qoplash uchun mo'ljallangan. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasining hisob-kitobi quyidagi ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi:

❖ ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha hisobot davrida hisoblangan sug'urta brutto-mukofoti;

❖ ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha hisobot davrida amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari;

❖ ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni hisobot davrida amalga oshirish xarajatlari (shu jumladan, sug'urta hodisalari sodir bo'lishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar).

❖ boshqa ko'rsatkichlar.



IFJMS BZni hisoblash maqsadida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirish xarajatlari miqdori (shu jumladan, sug'urta hodisalari sodir bo'lishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar) hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha hisoblangan sug'urta brutto-mukofotining 30 foizi miqdorida o'rnatiladi. IFJMS BZning hisob-kitobi brutto-sug'urtalash ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda (qayta sug'urtalovchilar ishtirokini (ulushini) hisobga olmagan holda) amalga oshiriladi.

Sug'urtalovchi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasini quyidagi tartibda hisoblaydi. IFJMS BZ miqdorini hisob-kitob qilish bazasi sifatida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirishdan hosil bo'lgan moliyaviy natija miqdori qabul qilinadi. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirishdan hosil bo'lgan moliyaviy natija hisobot davridagi sug'urtaning mazkur turi bo'yicha daromadlar miqdori va hisobot davridagi sug'urtaning mazkur turi bo'yicha xarajatlar miqdori o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha daromadlar quyidagilarning yig'indisi sifatida aniqlanadi:

- hisobot davrida hisoblangan sug'urta brutto-mukofotlari;

- ishlab topilmagan mukofot zaxirasi, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi va sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasining hisobot davrida kamayish tomonga o'zgarishi.

Hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha xarajatlar quyidagilarning yig'indisi sifatida aniqlanadi:

- ✓ hisobot davrida sug'urta shartnomalarining muddatidan oldin tugatilishi (shartlarining o'zgartirilishi) munosabati bilan sug'urta qildiruvchilarga qaytarilgan sug'urta mukofotlari (badallari);

- ✓ hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirish xarajatlari (shu jumladan, sug'urta hodisalari sodir bo'lishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar);

- ✓ quyidagilardan iborat bo'lgan hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha joriy sug'urta to'lovlarini ta'minlash xarajatlari;

- ishlab topilmagan mukofot zaxirasi, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi va sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasining hisobot davrida ko'payish tomonga o'zgarishi;

- hisobot davrida amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari.

Agar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq ko'rsatilgan daromadlarning 5 foizidan ortiq bo'lsa, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi hisobot davri oxiriga ko'rsatilgan ortiq summaga ko'payadi.

Shuningdek ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha xarajatlar summasi daromadlar summasidan ortib ketsa, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi hisobot davri oxiriga xarajatlarning daromaddan ortgan summasiga kamaytiriladi. Sug'urtalovchi hisobot davri boshiga qadar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasini hisoblamagan bo'lsa, mazkur zaxira hisobot davri boshiga nolga teng deb qabul qilinadi. Agar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi hisob-kitoblar natijasida manfiy qiymatga ega bo'lsa, mazkur zaxira nolga teng deb qabul qilinadi.

Ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasi (OChZ) baxtsiz hodisalarni, sug'urta qilingan mulkni yo'qotish yoki shikastlanishini ogohlantirish chora-tadbirlarini moliyalashtirish, shuningdek sug'urta hodisalarining sodir bo'lishini ogohlantirish va oldini olishga yo'naltirilgan boshqa chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun mo'ljallangan OChZdan moliyalashtiriladigan ogohlantirish chora-tadbirlarining aniq ro'yxati, shuningdek OChZni shakllantirish va undan foydalanish tartibi sug'urtalovchi tomonidan ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasi to'g'risidagi nizomda belgilanadi. Ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasi to'g'risidagi nizom sug'urtalovchi tomonidan tasdiqlanadi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi bilan kelishilishi lozim. OChZ sug'urta shartnomalari bo'yicha hisobot davrida hisoblangan sug'urta brutto-mukofotlaridan ajratmalar yo'li bilan shakllantiriladi. OChZga ajratmalar miqdori, tarif stavkasi tarkibida ushbu maqsadlarga ko'zda tutilgan foizlardan kelib chiqib, biroq sug'urta shartnomalari bo'yicha hisobot davrida hisoblangan sug'urta brutto-mukofotining 10 foizidan ko'p bo'lmagan holda (qonunchilik

hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari), ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasi to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga (FJMS OChZ) ajratmalar miqdori, hisobot davrida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha hisoblangan sug'urta brutto-mukofotining 5 foizi miqdorida belgilanadi. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga (IFJMS OChZ) ajratmalar miqdori, hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha hisoblangan sug'urta brutto-mukofotining 5 foizi miqdorida belgilanadi.

OChZ har bir hisobot sanasiga hisoblanadi. OChZ miqdori hisobot sanasining boshiga bo'lgan OChZ miqdoriga oshirilgan va hisobot davrida ogohlantirish chora-tadbirlariga sarflangan mablag'lar summasiga kamaytirilgan hisobot davrida ushbu zaxiraga qilingan ajratmalar miqdoriga teng bo'ladi (FJMS OChZ va IFJMS OChZ bundan mustasno). Biroq aniqlangan OChZning miqdori (FJMS OChZni va IFJMS OChZni hisobga olmagan holdagi, hisobot sanasiga bo'lgan OChZ miqdori) har qanday holatda ham umumiy sug'urta shartnomalari bo'yicha (transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomalarini hisobga olmagan holda) yalpi hisoblangan sug'urta mukofotining 10 foizidan ko'p bo'lmasligi lozim.

FJMS OChZ har bir hisobot sanasiga alohida hisoblanadi. FJMS OChZ miqdori hisobot sanasining boshiga bo'lgan FJMS OChZ miqdoriga oshirilgan va hisobot davrida ogohlantirish chora-tadbirlariga sarflangan mablag'lar summasiga kamaytirilgan hisobot davrida ushbu zaxiraga qilingan ajratmalar miqdoriga teng bo'ladi. IFJMS OChZ har bir hisobot sanasiga alohida hisoblanadi. IFJMS OChZ miqdori hisobot sanasining boshiga bo'lgan IFJMS OChZ miqdoriga oshirilgan va hisobot davrida ogohlantirish chora-tadbirlariga sarflangan mablag'lar summasiga kamaytirilgan hisobot davrida ushbu zaxiraga qilingan ajratmalar miqdoriga teng bo'ladi.

Falokatlar zaxirasi (FZ), ko'p souli sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'lovlarini amalga oshirish zaruratini keltirib chiqargan engib bo'lmas kuch yoki yirik miqyosdagi avariya oqibati hisoblangan, favqulodda etkazilgan ziyonni qoplashga mo'ljallangan. FZ shartlarida engib bo'lmas kuch yoki yirik miqyosdagi avariya oqibatida etkazilgan ziyonni qoplash munosabati bilan sug'urtalovchining sug'urta to'lovini amalga oshirishi majburiyatini ko'zda

tutuvchi sug'urta turlari bo'yicha shakllantiriladi. Falokatlar zaxirasini shakllantirish va undan foydalanish tartibi, shartlari sug'urtalovchi tomonidan belgilanadi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi bilan kelishiladi.

Zararlilikning tebranishi zaxirasi (ZTZ), sug'urta turi bo'yicha sug'urta tarifining netto-stavkasini hisoblash uchun asos bo'lgan kutilayotgan zararlilik darajasidan hisobot davridagi zararlilik darajasi yuqori bo'lgan holatda, sug'urtalovchining sug'urta to'lovlarini amalga oshirish xarajatlarini kompensatsiya qilishga mo'ljallangan. Zararlilikning tebranishi zaxirasining miqdori yalpi hisoblangan sug'urta mukofotining 10 foizidan oshmasligi lozim. ZTZni shakllantirish va undan foydalanish tartibi, shartlari sug'urtalovchi tomonidan belgilanadi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi bilan kelishiladi.

Aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi (ANZ) faqat hayotni sug'urta qilish sohasida faoliyat yuritadigan sug'urtalovchi tomonidan tashkil etilishi mumkin va mukofotlar zaxirasining 20 foizidan ortiq bo'lmasligi lozim. ANZ sug'urtalovchi tomonidan ANZni shakllantirish va undan foydalanish tartibi, shartlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi bilan kelishilgandan keyingina tashkil etilishi mumkin.

O'zida majburiyatlarni aks ettirmagan, biroq sug'urta faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa zaxiralar sug'urtalovchi tomonidan bunday zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi, shartlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi bilan kelishilgandan keyingina tashkil etilishi mumkin.

Sug'urtalovchilar sug'urta zaxiralaridagi qayta sug'urtalovchilar ishtirokinining ulushini (FJMS BZ va IFJMS BZdan tashqari) sug'urta zaxiralarini hisob-kitob qilish bilan bir vaqtda hisoblaydilar. Qayta sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchilarning) sug'urta zaxiralaridagi ulushi har bir shartnoma (shartnomalar guruhi) bo'yicha qayta sug'urta qilish shartnomasi (shartnomalari) shartlariga muvofiq holda aniqlanadi. Qayta sug'urtalovchining ishlab topilmagan mukofot zaxirasi va sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasidagi ulushi qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha olingan komission mukofotni chegirgan holdagi qayta sug'urta qilishga berilgan sug'urta mukofoti summasining sug'urtalovchi tomonidan qayta sug'urta qilishga berilgan sug'urta shartnomasi bo'yicha hisoblangan bazaviy sug'urta

mukofotiga nisbatiga proporsional ravishda aniqlanadi va quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$K_1 C_y = \frac{(E_{KM} - K_{MO}) \times III_3}{E_{OM}}$$

bu erda:

QSu — qayta sug'urtalovchining ishlab topilmagan mukofot zaxirasi yoki sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasidagi ulushi;

Bqsm — qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha brutto qayta sug'urta qilish mukofoti;

Kmo — qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha olingan komission mukofot;

Shz — sug'urtalovchi tomonidan mazkur bobga muvofiq shakllantirilgan ishlab topilmagan mukofot zaxirasi yoki sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi;

Bsm — sug'urta shartnomasi bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti.

Qayta sug'urtalovchining xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasidagi ulushi qayta sug'urta qilish shartnomasining shartlari bo'yicha qayta sug'urtalovchi tomonidan qoplanishi lozim bo'lgan zararlar miqdoridagi ulushi miqdorida belgilanadi.

### 9.3 Sug'urta zaxiralarini investitsiya ob'ektlariga joylashtirish tartibi

Sug'urta tashkilotlari tuzgan sug'urta shartnomasining boshlanishi va tugashi ma'lum bir muddatni o'z ichiga oladi. Mana shu davr mobaynida ko'p ming sonli sug'urta qildiruvchilardan kelib tushgan sug'urta mukofotlarining sug'urta zaxiralarini shakllantirishga yo'naltirilgan qismi vaqtincha bo'sh bo'ladi. Sug'urtaning ana shu xususiyatlarini hamda bo'sh turgan pul mablag'larini iqtisodiyot rivojlanishi yo'lida foydalanish uchun amaldagi qonun sug'urta tashkilotlariga investitsiya faoliyatini amalga oshirishga ruxsat beradi.

2002 yil 5 aprelda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunda quyidagilar qayd etilgan: maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda investitsiya faoliyatini amalga oshirish"ga haqli. Shundan kelib chiqqan holda maxsus vakolatli davlat organi – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilovchi me'yoriy hujjat qabul qilgan. Unga asosan, hozirgi kunda sug'urta



kompaniyalari vaqtincha bo'sh mablag'larini, jumladan sug'urta zaxiralarini quyidagi investitsiya ob'ektlariga joylashtirishlari mumkin:

- ❖ qimmatli qog'ozlar, jumladan davlat qimmatli qog'ozlari;
- ❖ bank depozitlari;
- ❖ ko'chmas mulk;
- ❖ boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitalida ishtirok etish.

O'zbekiston sug'urta tashkilotlari tomonidan investitsiya ob'ektlariga yo'naltirilgan mablag'lar dinamikasi o'ziga xos bo'lib, buni quyida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

## 12-jadval

### O'zbekiston sug'urta tashkilotlari tomonidan investitsiya ob'ektlariga yo'naltirilgan mablag'lar dinamikasi

| Ko'rsatkichlar   | Yillar |       |       |       |        |
|--|--------|-------|-------|-------|--------|
|  | 2013   | 2014  | 2015  | 2016  | 2017   |
| Investitsiyalar hajmi ( <i>mlrd so'm</i> ), shu jumladan:    | 526,6  | 623,7 | 758,1 | 867,5 | 1482,6 |
| 1. Depozitlar, ( <i>foizda</i> )                             | 45,2   | 47,1  | 46,8  | 45,0  | 45,2   |
| 2. Qimmatli qog'ozlar, ( <i>foizda</i> )                     | 44,4   | 40,2  | 39,6  | 41,4  | 43,4   |
| 3. Qarz berish, ( <i>foizda</i> )                            | 0,9    | 1,1   | 1,0   | 0,8   | 0,7    |
| 4. Ko'chmas mulk, ( <i>foizda</i> )                          | 3,7    | 4,4   | 5,1   | 5,7   | 6,6    |
| 5. Tashkilotlar ustav fondidagi ishtiroki, ( <i>foizda</i> ) | 5,0    | 7,0   | 6,7   | 7,0   | 4,1    |
| 6. Boshqa investitsiyalar, ( <i>foizda</i> )                 | 0,8    | 0,2   | 0,8   | 0,2   | 0,1    |

Jadval ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, sug'urta tashkilotlari jami investitsiya mablag'lari hajmining yuqori darajada o'sish surati 2017 yilda yuz bergan bo'lib, ushbu holat 2016 yilga nisbatan 171 foizni tashkil etgan. Bizning fikrimizcha, bunday o'sishning asosiy sabablaridan biri jamg'arib boriladigan hayot sug'urtasi bo'yicha to'plangan sug'urta mukofotlari miqdorining yuqori sur'atlarda o'sganligidir. Shu bilan birga, sug'urta tashkilotlari ixtiyorida bo'lgan bo'sh mablag'larni investitsiya ob'ektlariga yo'naltirish borasida katta o'zgarishlar yuz bermagan bo'lsada, nisbatan yuqori o'sish ko'chmas mulklarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmida bo'lganligini ko'rish mumkin. Investitsiyalarning asosiy qismi har doimgidek bank depozitlariga yo'naltirilgan. Buning sababi, birinchidan sug'urta tashkilotlari va banklar o'rtasidagi

hamkorlikning yaxshi yo'lga qo'yilganligi bo'lsa, ikkinchidan boshqa sohalarga nisbatan bank sohasining ishonchli va daromadli soha ekanligidadir. Sug'urta tashkilotlari tomonidan investitsiya ob'ektlariga joylashtirilgan mablag'larning katta qismini qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq faoliyat tashkil etib, mazkur qimmatli qog'ozlarning ham asosiy qismi tijorat banklarining aksiyalari hamda davlat ulushi mavjud bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlari hisoblanadi. 2017 yilda sug'urta tashkilotlari tomonidan investitsiya ob'ektlariga joylashtirilgan mablag'larning eng kichik qismi boshqa sohalarga (0,1 foiz) hamda qarz berish (0,7 foiz), tashkilotlar ustav fondidagi ishtiroki (4,1 foiz) va ko'chmas mulkka yo'naltirilgan mablaglar (6,6 foiz) tashkil etmoqda.

Umuman olganda, sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyati o'sish darajasi yuqori va likvidlik darajasi hamda moliyaviy risk darajasining nisbatan pastligi bilan xarakterlanadi. Bunday xususiyatlar bozor mexanizmlari hisobiga emas, davlatning mazkur sohani tartibga solish borasidagi harakatlari hisobiga hosil bo'lgan. SHuning uchun sug'urta tashkilotlarining daromadini oshirishga bo'lgan e'tiborni kuchsiz ekanligidan dalolat beradi. SHu bois, ushbu holatni O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlangan mamlakatlar sug'urta bozorlaridan farq qiluvchi jihatlaridan biri sifatida qarash mumkin.

Ma'lumki, o'tgan davr mobaynida respublika bank tizimida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida banklar faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida", "Bank siri to'g'risida", "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmi moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida", "Elektron to'lovlar to'g'risida", "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida" va "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonunlari qabul qilinib, hayotga joriy etildi. Natijada, bank operatsiyalarini amalga oshirish va hisobotlar tuzish borasida tub texnologik va huquqiy o'zgarishlar ro'y berdi. Tabiiyki, mazkur o'zgarishlar depozit operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq masalalariga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi.

Bundan tashqari, o'tgan davr mobaynida respublika bank tizimiga zamonaviy yangi texnologiyalar joriy etila boshlandi. Xususan, tijorat banklari tarkibiy tuzilishida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, ko'pgina yirik tijorat banklarining filiallari tashqarisida tashkil etilayotgan shoxobchalar, masalan minibanklar hamda omonatlar operatsiyalarini bajaruvchi turg'un va sayyor operatsion kassalar faoliyat yurita boshlashdi. Shu yilning boshiga kelib,

jismoniy shaxslarning omonatlarini qabul qilish bilan shug'ullanadigan omonat kassalarning soni 5 mingga yaqinlashgani fikrimizning yaqqol dalilidir.

Yuqoridagi omillar, banklar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning omonat (depozit)lari bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarining asosiy tamoyillari hamda unda qo'llaniladigan hujjatlar va ularni rasmiylashtirish tartibi, omonat operatsiyalarini shaxsiy hisobvaraqlarida aks ettirish, omonat kassalarda ish kunini yakunlash, kunlik hisobotlar tuzish va ularni so'nggi nazoratdan o'tkazish kabi masalalarni to'liq yoritish, bundan tashqari bank tizimida omonat operatsiyalari bo'yicha maxsus bo'linma tashkil qilish bo'yicha qoidalar o'rnatish hamda depozit operatsiyalari bilan bog'liq boshqa barcha masalalarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjat yaratish vazifasini vujudga keltirdi.

#### **Nazorat savollari.**

1. Sug'urta zahirasi tushunchasining iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering.
2. Sug'urta zahiralarning turlarini turlarini aytib bering.
3. Sug'urta zahiralarning tuzilishini aytib bering.
4. Sug'urta zaxiralarini investitsiya ob'ektlariga joylashtirish tartibini aytib bering.

## X BOB. SUG'URTA BIZNESINI SOLIQQA TORTISH TURLARI VA UNING TARTIBI

### 10.1 Sug'urta biznesini tartibga solishda soliqlarning zarurligi va ahamiyati

Sug'urta tashkilotlari yuridik shaxs sifatida soliq qonunchiligida soliq to'lovchi bo'lib hisoblanadi. Shu boisdan, sug'urta tashkilotlari soliq to'lovchi sifatida ularning huquq va majburiyatlari Soliq kodeksida ko'rsatib o'tilgan. Sug'urta tashkilotlari soliqlarni qonunchilikda belgilangan tartibda maxalliy va davlat byudjetiga to'lab beradilar.

Sug'urta faoliyati ham tijorat faoliyatining shakllaridan biri hisoblanadi. Demak, sug'urta faoliyatining maqsadlaridan biri ham foyda olishga qaratilgan. Soliq kodeksiga muvofiq yuridik shaxs sifatida daromad (foyda) solig'i va boshqa soliq turlarini maxalliy va davlat byudjetiga to'lashlari ta'kidlab o'tilgan.

Umuman olganda sug'urta faoliyatini butunligicha qamragan holda soliqlar orqali tartibga solib bo'lmaydi. Chunki faqatgina davlat oldidagi soliqlarni to'lash bilan bog'liq munosabatlarni nazorat qilish bilan cheklanishi mumkin. Soliqlar sug'urta faoliyatiga faqatgina qonunlarda nazarda tutilgan soliq huquqbuzarligi ro'y berganda ushbu huquqbuzarlikni bartaraf etish uchun, qolaversa shu sababli soliq to'lashdan qochish holatlari, daromadni yashirish holatlari ro'y berganda yoki davlat oldida soliqlar bo'yicha qarzdorlik haddan tashqari oshib ketganligi aniqlansa, kerak bo'lsa ushbu sug'urta tashkiloti o'z mol-mulki doirasida javobgarlikka tortish masalasi bo'yicha uning faoliyatiga aralashishi mumkin. SHuning uchun biz mazkur bobda, sug'urta faoliyatini soliqlar orqali tartibga solish mumkin bo'lgan tomonlarini fikrimizni davom ettiramiz. Soliq kodeksining 1-moddasi<sup>20</sup>da Kodeks soliq tizimining huquqiy asoslarini, soliq to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlarini belgilaydi, soliq ishlarini yuritish tartibotini va soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni tartibga solib turishligi haqida bayon etilgan.

Sug'urta tashkilotlari ham yuridik shaxs hisoblanib, ularning yuridik javobgarligi mavjud. CHunki soliq huquqbuzarligi uchun javobgarlik mavjud bo'lib uning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- faqat aybdor, jamiyatga qarshi huquqqa zid qilmishlar uchun javobgarlik;
- qonuniylik;
- adolatlilik;

<sup>20</sup>§1P. Солик кодекси 1-моддаси.

- jazo muqarrar va tezkorligi.

Dastlabki ikki tamoyil qonun chiqaruvchi organga taalluqli bo'lib, davlat tomonidan yuridik javobgarlik asoslari belgilanishida inobatga olinadi. Mamlakatimiz soliq tizimida soliq to'lovchilarga nisbatan soliq huquqbuzarligi degan tushuncha mavjuddir. Bu tushunchaning kelib chiqishini qarab chiqadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining soliq haqidagi qonun hujjatlarida soliq huquqbuzarligi haqida ta'rif berilmagan<sup>51</sup>. Unda faqat "soliq haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi" haqida gapirilgan va ayrim unsurlar sanab o'tilgan, masalan, "daromad (foyda)ni yashirish...", "hisobga qo'yishdan bosh tortish...", "hisobvaraqa-fakturalarni belgilangan tartibni buzgan holda rasmiylashtirish...", "buxgalterlik hisobining mavjud emasligi..." Soliq huquqbuzarligi unsurlarining ko'pchilik ifodalari aniq va tushunarli yuridik mazmunga ega bo'lmagan ta'riflarni o'zida mujassamlantirgan. Afsuski, aksariyat hollarda huquqbuzarlik nimadan iborat, qaysi amalda sodir etilgan qilmishlar soliq sohasidagi huquqbuzarlik sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Soliq huquqbuzarligi tushunchasiga ta'rif beramiz:

**Soliq huquqbuzarligi**<sup>52</sup> deb huquqning turli sohasi qonunchilik hujjatlarining me'yorlari tomonidan yuridik javobgarlik ko'zda tutilgan, qonunchilik me'yorlarini bajarmasligi yoki kerakligicha bo'lmagan tarzda bajarilishida ifodalangan huquqqa xilof, aybdor qilmish (harakat, harakatsizlik)ga aytiladi.

Ushbu ta'rif umumlashtiruvchi xususiyatga ega va huquqbuzarlikning turli xillari: ma'muriy, jinoiy, moliyaviy-huquqiy huquqbuzarliklarni qamrab oladi.

Soliq huquqbuzarligi quyidagi turlarga bo'linadi:

- davlatning moliyaviy manfaatlariga qarshi huquqbuzarliklar;
- soliq to'lovchilarning erkinliklari, huquqlari va qonuniy manfaatlariga qarshi huquqbuzarliklar;
- faoliyati soliq solish bilan bog'liq bo'lgan davlat organlarining faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq huquqbuzarliklar;
- soliq tizimini ma'muriylashtirish bilan bog'liq huquqbuzarliklar.

Soliq huquqbuzarliklari ijtimoiy xavfi(ziyoni)ning yuridik ifodasi bo'lib ularning Soliq kodeksi, Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks bilan ta'qiqlanishi hisoblanadi.

Sug'urta kompaniyalari ham yuqorida ko'rsatib o'tilgan, soliq huquqbuzarliklari bo'yicha yuridik shaxs sifatida bundan mustasno emas.

<sup>51</sup> "Солік ҳуқуқи" ДБ Ҳисаб "Консультинформ" Тошкент 2004н (118-119бетлар)

<sup>52</sup> "Солік ҳуқуқи" ДБ Ҳисаб "Консультинформ" Тошкент 2004н (118-119бетлар)



O'zbekiston Respublikasida soliq munosabatlarini tartibga soluvchi va uni olib boruvchi, soliq qonunchigini amaliyotda tadbqiq etish va uning amal qilishini nazorat qiluvchi hamda davlat byudjetini soliqlar orqali mablag' bilan o'z vaqtida va doimiy ravishda ta'minlash vazifasi topshirilgan asosiy davlatning vakolatli organlaridan biri bu davlat soliq xizmati organlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonun<sup>53</sup>da davlat soliq xizmati organlarining vazifalari, huquqlari va majburiyatlari ko'rsatib o'tilgan. Ushbu Qonunning 3-moddasining 1-bandida Davlat soliq xizmati organlariga qo'yidagilar kirishi qayd etilgan: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va uning viloyatlardagi soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shaharlardagi tumanlarning davlat soliq inspeksiyalari. Mazkur moddaning 5-bandida davlat soliq xizmati organlarining o'z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiyligi ta'kidlab o'tilgan.

Ushbu Qonunning 4-moddasida davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari aniq qilib ko'rsatilgan. Unda:

- soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilish;
- soliq tug'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash, soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha majburiyatlarni bajarishlarida yordam ko'rsatish;
- soliq siyosatining ro'yobga chiqarilishida bevosita qatnashish;
- soliqqa tortiladigan ob'ektlar va sub'ektlarning to'liq hamda o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlash;
- soliqlar bo'yicha huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish.

5-modda esa davlat soliq xizmati organlarining huquqlari haqida bo'lib, unda:

- soliq to'lovchilar<sup>54</sup>ning (shu jumladan, soliq to'lovchi bilan bog'liq bo'lgan sub'ektlarning) moliyaviy hujjatlari, shartnomalari, rejalari, smetalari, daromadlar haqida deklaratsiyalari va soliqlarni hisoblab chiqarish hamda to'lash bilan bog'liq boshqa hujjatlarini shuningdek eksport-import operatsiyalari bilan bog'liq hujjatlarini tekshirish, tekshiruv vaqtida yuzaga keladigan masalalar bo'yicha zarur tushuntirishlar, ma'lumotnomalar va axborot

<sup>53</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotnomasi 1997 й 9-soni (57-67 betlar)

<sup>54</sup> Bu erda ushbu bobda soliq to'lovchi yuridik shaxs debni bilan kelganla suzurla tanqidolardir tushuniladi

olish;

- yuridik va jismoniy shaxslardan soliq to'lovchilarning faoliyatiga taalluqli axborotlar, ma'lumotnomalar, hujjatlar va ularning nusxalarini olish;

- soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishiga yo'l qo'yayotgan yuridik va jismoniy shaxslardan daromadni (foydani) va soliqqa tortiladigan boshqa ob'ektlar yashirilganligidan dalolat beruvchi hujjatlarni, shuningdek huquqbuzarlik predmetlarini olib qo'yish;

- savdo qoidalariga, tovarlarni berish va xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya qilinishini tekshirish;

- yuridik va jismoniy shaxslardan qonun hujjatlarining buzilganligi aniqlangan hollarni bartaraf etishni talab qilish;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliqlarga oid qonunbuzarliklar haqidagi ishlarni ko'rib chiqish va yuridik hamda jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy jazolar qo'llash;

- ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo choralarini qo'llash;

- yuridik va jismoniy shaxslarning g'ayriqonuniy ravishda olgan mablag'larin davlat daromadiga undirish haqida ularga nisbatan sudda da'vo qo'zg'atish.

- soliqlar bo'yicha boqimandalarni, shuningdek jarima summalarini qonun hujjatlariga muvofiq so'zsiz undirib olish;

- daromadlar (foyda) yoki boshqa soliqqa tortish ob'ektlarini yashirish hollari aniqlanganida qonu hujjatlariga muvofiq surishtiruv o'tkazish, jinoy ishlar qo'zg'atish va ularni tergovga tegishlilikiga ko'ra o'tkazish.

YUqorida ko'rsatib o'tilgan davlat soliq organlariga hukumat tomonidan berilgan huquqlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asosan soliq to'lovchilarning davlat byudjeti oldidagi majburiy to'lovlarni amalga oshirishini talab qilishlari va nazorat qilishini fushunishimiz, bu bilan jumladan sug'urta tashkilotlarini ham soliqlar bo'yicha majburiyatlarini nazarda tutishimiz mumkin.

"Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasiga muvofiq Soliq to'lovchilarning hisobga olinishini va soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlash maqsadida banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlari jumladan sug'urta tashkilotlari :

• xo'jalik yurituvchi sub'ektlar davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinganliklarini tasdiqlovchi hujjat taqdim etgan taqdirdagina ular uchun hisob-kitob va boshqa hisobvaraqlari ochishlari mumkin va bu hisobvaraqlar

ochilganligi haqida ular ochilgan kunning ertasidan kechiktirmay mazkur organga xabar beradilar;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar byudjet oldidagi o'z majburiyatlarini bajarganliklari to'g'risida davlat soliq xizmati organlarining xulosasi taqdim etilgan taqdirdagina xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisob-kitob va boshqa hisobvaraqlarini yopishlari mumkin;

- davlat soliq xizmati organlarining soliq to'lovchi mijozlaridan belgilangan muddatda to'lanmagan soliqlar va jarimalarni so'zsiz undirish to'g'risidagi farmoyishlarini (inkasso topshiriqlarini) mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan, alimentlar undirish haqidagi, mualliflik shartnomalari bo'yicha haq to'lashga doir, shuningdek hayot va sog'liqqa etkazilgan zaraning o'rini qoplash haqidagi talablarni qondirish uchun hisobvaraqdan pul mablag'lari o'tkazilishi yoki berilishini nazarda tutadigan ijro hujjatlari bo'yicha mablag'lar hisobidan chiqarilganidan keyin bajaridilar;

- soliq to'lovchi mijozning mablag'lari bo'lsa, uning hisb-kitob yoki boshqa hisobvarag'idan mablag'larni hisobdan chiqarish operatsiyasi amalga oshirilgan kuni soliqlar va jarima summalarini byudjet daromadiga o'tkazadilar;

- yuridik shaxslarning so'mdagi mablag'lari etishmagan va valyuta hisobvarag'ida mablag'lari mavjud bo'lgan taqdirda, davlat soliq xizmati organlarining taqdimnomasiga binoan mazkur valyuta mablag'larini byudjet oldidagi qarzni to'lash uchun zarur bo'lgan hajmda sotuv kunidagi kurs bo'yicha valyuta birjasida so'zsiz tartibda sotadilar;

- davlat soliq xizmati organlarining yozma talabi bo'yicha soliq to'lovchi mijozlarning hisob-kitob yoki boshqa hisobvaraqlaridan pul mablag'lari berish, o'tkazish yoki ularni hisobdan chiqarishga doir barcha operatsiyalarni to'xtatib qo'yadilar;

- davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslariga yuridik shaxslarning hisob – kitob va boshqa hisob varaqlari bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarni tekshirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo'l qo'yadilar.

Davlat soliq xizmati organlari boshqa organlar bilan jumladan sug'urta tashkilotlarini soliqlar bilan tartibga solishning bir ko'rinishi sifatida bank va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi Qonunning yuqorida ta'kidlangan 7-moddasi bandlaridagi ruxsat berilgan hamkorlik imkoniyatlari orqali sug'urta tashkilotlari faoliyatini tartibga solish misolida ko'rish mumkin.

Soliq haqidagi qonun hujjatlarining me'yorlari buzilganda, ularni buzganlik uchun tegishli jazo qo'llaniladi, sababi soliq huquqbuzarligini aniqlash uchun.

Agar soliq huquqbuzarlgi sodir etilgan bo'lsa, huquqiy nuqtai nazardan qaralganda u qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan harakat qilgan. Bu huquqiy aksiomadir. Soliq xizmati ushbu soliq huquqbuzarlikni isbotlashi va uni sodir etish holatlariga baho berishi shart. Biroq soliq haqidagi qonun hujjatlari ko'pincha ziddiyatli bo'lib, isbotlash mushkul kechadi.

Ma'lumki, yuridik shaxslarga nisbatan ayb mansabdor shaxslarning ayb mansabdor shaxslarning aybi orqali belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi soliq huquqbuzarlgi uchun javobgarlikni tashkilotlarga nisbatan ham, jismoniy shaxslarga nisbatan ham beligilaydi. Yuridik shaxsning soliq huquqbuzarlriga yo'l qo'yganligi uchun javobgarlikka tortilishi etarlicha asoslar mavjud bo'lgan hollarda uning mansabdor shaxslarning ma'muriy, jinoiy yoki boshqa javobgarlikdan ozod etmaydi. Agar huquqbuzarlik yuridik shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, u holda mansabdor shaxslarga nisbatan ish qo'zg'atish bunday yuridik shaxsdan moliyaviy jazolarni undirish bo'yicha ish yuritish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

Agar ma'muriy-huquqiy javobgarlikning chorasi sifatida ma'muriy jazo ishtirok etsa, moliyaviy-huquqiy javobgarlikning chorasi sifatida jarima va penya o'atnashadi. Jarima va penya – bu soliq to'lovchi tomonidan soliq haqidagi qonun hujjatlari me'yorlarining (davlat oldidagi soliq majburiyatlarining) bajarilmaganligi yoki keraklicha bo'lmagan tarzda bajarilganligi hollarida undiriladigan pul summalaridir.

Jarima - bu soliq haqidagi qonun hujjatlarida foizlarda yoki muayyan miqdor (masalan, eng kam ish haqining miqdori, soliqlar va yig'implarning qo'shimcha hisoblab yozilgan summasi)ga nisbatan baravar miqdorda belgilanadigan bir marta undiriladigan summadir. Soliq organlarida ro'yxatdan o'tishdan bo'yin tovlaganlik uchun eng kam ish haqi miqdorining ellik baravari miqdorida, lekin bunday faoliyat natijasida olingan daromadning (foydaning) o'n foizidan kam bo'lmagan miqdorda jarima undiriladi.<sup>55</sup>

Penya – bu soliqlar yoki yig'implarni to'lash muddati o'tkazib yuborilgan har bir taqvim kuni uchun ortib boruvchi yakun bilan undiriladigan pul summasidir. Masalan, soliqlar yoki yig'implar bo'yicha to'lov muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun 0.07 foiz miqdorida penya undiriladi, to'lov kuni ham shunga kiradi.<sup>56</sup>

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 135-moddasining 8-bandining ta'siriga soliqlar va yig'implar bo'yicha bo'nak ham tushdi. Bundan tashqari,

<sup>55</sup> Soliq kodeksi

<sup>56</sup> Soliq kodeksi

penya ko'rinishidagi javobgarlikka yuridik shaxslar ham, jismoniy shaxslar ham tortiladi. Penya undirilishi soliq majburiyatlaridan ozod etmaydi.

O'zbekistonda amal qilib turgan soliq huquqbuzarligi tizimi sohaga tegishlilik bo'yicha o'urilgan bo'lib, u yuridik javobgarlik belgilangan majburiyatning bajarilmaganligi uchun huquqiy munosabatlar xususiyati bilan aniqlanadi va huquqbuzarlikning quyidagi turlarini o'z ichiga oladi:

a) soliq xususiyatidagi soliq huquqbuzarliklari;

b) ma'muriy-huquqiy xususiyatdagi soliq huquqbuzarliklari (ma'muriy soliq huquqbuzarliklari);

v) jinoiy-huquqiy xususiyatdagi soliq huquqbuzarliklari (soliq jinoyati).

Soliq huquqbuzarligining turiga mos ravishda yuridik javobgarlik turlari ham ajratiladi:

- moliyaviy – huquqiy;
- ma'muriy ;
- jinoiy javobgarlik.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 135-moddasining 3-bandi eng qattiq moliyaviy sanksiyalarni o'zida aks ettirgan. Soliq to'lovchidan: a) daromad (foyda) yashirilgan taqdirda, yashirilgan daromadning (foydaning butun summasi va yana shuncha miqdorda jarima undiriladi; b) soliq solinadigan boshqa ob'ektlar yashirilgan taqdirda, yashirilgan soliq solish ob'ekti uchun olinadigan summasi va yana shuncha miqdorda jarima undiriladi. Soliq to'lovchi yuqoridagi xatti-harakatlari sanksiyalar qo'llanilgandan keyin bir yil ichida takroran sodir etgan taqdirda, undan tegishli summa va yana shu summaning ikki baravari miqdorida jarima undiriladi.

Davlat soliq xizmati organlaridan *qasddan yashirish* deganda, soliq to'lovchining quyidagi xatti-harakatlari tushuniladi:

- hujjatlarni qalbakilashtirish (tozalash, noqonuniy tuzatish);
- soxta birlamchi buxgalterlik hujjatlaridan foydalanish;
- ishlab chiqarishda foydalanilmagan moddiy xarajatlarni hisobdan chiqarish;
- korxonada ishlamaydigan, lekin uning shtatida bo'lgan xodimlarga ish haqi yozish yo'li bilan mehnatga haq to'lash xarajatlarini oshirish;
- xizmat ko'rsatishdan tushgan tushumlarni hisobotdan keyingi davrga ko'chirish (sofosh va daromad hajmini qasddan pasaytirish);
- moddiy, yoqilg'i-energetik resurslar xarajati va amortizatsiya (eskirish)ni hisoblab yozish me'yorlarini sun'iy ravishda oshirish yoki noto'g'ri qo'llash;
- hujjatlarni yo'q qilish yoki ularni ko'rsatishdan bosh tortish;



- davlat ro'yxatidan va soliq organlarida ro'yxatdan o'tmay turib, xo'jalik (tadbirkorlik) faoliyatini yuritish;

- davlat soliq xizmati organlarining yozma xabarnomasi mavjud bo'lgan hollarda, ikki va undan ortiq manbadan daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar tomonidan daromadlar haqida deklaratsiyaning taqdim etilmaganligi.

Biz yoritib o'tgan moliyaviy jazolar, sanksiyalar, penyalari va jarimalar soliq huquqbuzarligi uchun javobgarlik tortish va moliyaviy jazolash usullari hisoblanadi. Xudi shuni ta'kidlash kerakki, ushbu yuqorida sanab o'tilgan moliyaviy jazolash usullari yuridik shaxslar jumlasiga kiruvchi sug'urta tashkilotlari uchun ham qo'llaniladi. Va shu orqali ularning faoliyati ham soliqlar orqali ma'lum miqdorda tartibga solinib turiladi.

Sug'urta faoliyatini soliqlar orqali tartibga solishning zarurligi shundan iboratki, sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalarining sug'urta faoliyatidan va investitsiya faoliyatidan olgan daromadlarini 2002 yil 31 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq uch yil muddatga ya'ni 2005 yil I fevralgacha daromad (foyda) solig'ini to'lashdan ozod etildi va undan bo'shagan mablag'larni kadrlarni qayta tayyorlashga, joylarda agentliklar tashkil etishga, kompaniya moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirishlari lozimligi ko'rsatib o'tilgan. Va shu bo'sh qolgan mablag'lar harakatini nazorat qilish davlat soliq organlari zimmasiga yuklatilgan. Demak shundan xulosa qilishimiz mumkin, soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi orqali sug'urta sohasini rivojlantirishga katta yordam berish mumkinligini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

### **10.2 Sug'urta faoliyatini soliqqa tortishning huquqiy asoslari**

Mamlakatimizda sug'urta tashkilotlari uchun qonunchiligimizda alohida soliqqa tortish mexanizmi ishlab chiqilmagan bo'lib, ular ham soliq kodeksida nazarda tutilgan soliq to'lovchi yuridik shaxs sifatida soliqqa tortiladi.

Sug'urta tashkilotlarining faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha vakolatli organ Moliya vazirligi qoshidagi Davlat sug'urta nazorati inspeksiyasi hisoblanib, ushbu maxsus vakolatli davlat organi O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 5 aprelda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risda"gi Qonunining 10-moddasiga muvofiq o'z faoliyatlarini yuritadilar.

Sug'urta faoliyatini soliqqa tortishning huquqiy asoslari bo'lib O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi

Moliya Vazirligi va boshqa vakolatli organlarning chiqargan me'yoriy hujjatlari hisoblanadi.

Sug'urta faoliyatini soliqqa tortish deganda, sug'urta xizmatlarini sotishdan yoki uni realizatsiyasidan tushgan tushumlar va undan olingan foydani bir qismini davlat byudjetiga majburiy tartibda o'tkazilishi tushuniladi.

Sug'urta tashkilotlari soliq to'lovchi sifatida Soliq kodeksining o'zlarining huquqlari va majburiyatlariga ega.

Soliq to'lovchilar quyidagi huquqlarga ega:

1) soliq organlaridan soliq haqidagi qonun hujjatlari masalalari bo'yicha axborot va maslahatlar olish;

2) ushbu Kodeksda va boshqa qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda va asoslarda soliq imtiyozlaridan foydalanish;

3) byudjetga ortiqcha miqdorda tushgan soliqlar va yig'imlar summasini qaytarish to'g'risida yozma ariza bilan murojaat qilish;

4) soliqlar va yig'imlar bo'yicha byudjet oldidagi o'z majburiyatlarini bajarish yuzasidan soliq organlaridagi mavjud ma'lumotlar bilan tanishish;

5) soliq organlari o'tkazgan tekshiruv materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish, tekshiruvlarning natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda soliq organiga o'zining yozma e'tirozlarini o'n kunlik muddat ichida taqdim etish;

6) soliq organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari ustidan yuqori soliq organlariga yoki sudga shikoyat qilish;

7) soliq solish ob'ektini hisobga olishda, soliqlar va yig'imlarni hisoblab chiqarish va to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish.

Soliq to'lovchilar ushbu Kodeksda va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'zga huquqlarga ham egadir.

Soliq to'lovchilar quyidagi majburiyatlarga ega:

1) belgilangan tartibda va muddatlarda soliq organlarida ro'yxatdan o'tish, pochta manzili o'zgargan taqdirda esa (notijorat tashkilotlar qayta ro'yxatdan o'tkazilgan taqdirda ham), bu haqda soliq organlarini o'n kunlik muddat ichida yozma ravishda xabardor etish;

2) soliqlar va yig'imlarning tegishli summasini o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lash;

3) buxgalteriya hisobini va hisob hujjatlarini qonun hujjatlariga muvofiq yuritish;

4) moliyaviy hisobotni, soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarni yoki daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyalarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq organlariga taqdim etish;

5) soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar va ma'lumotlarni, shuningdek soliqlar va yig'implar yuzasidan imtiyozlar huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni soliq organlariga taqdim etish;

6) soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish, to'lash masalalarini tekshirish uchun soliq organlarining mansabdor shaxslarini daromad olish yoki soliq solish ob'ektlarining saqlanishi bilan bog'liq binolar va joylarga kirishiga ruxsat berish;

7) soliq organlarining soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzish hollarini bartaraf etish to'g'risidagi talablarini bajarish.

Soliq to'lovchilar ushbu Kodeksda va boshqa qonun hujjatlarida o'z zimmalariga yuklatilgan boshqa majburiyatlarni ham bajaradilar.

YUqorida ko'rsatilgan soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari sug'urta tashkilotlari uchun ham taalluqli bo'lib unga berilgan huquqlardan foydalanishi va soliq majburiyatlarini bajarishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonunga muvofiq davlat soliq xizmati organlari soliq to'lovchilarga berilgan huquq va majburiyatlarga mutunosib ravishda o'z huquq va majburiyatlarini bajaradilar.

Sug'urta faoliyatini soliqqa tortishda asos bo'ladigan dastlabki huquqiy hujjat bu O'zbekiston Respublikasi soliq kodesi bo'lib hisoblanadi.

Soliq kodeksi yuridik shaxslarni soliqqa tortish bo'yicha umumiy huquqiy baza bo'lib hisoblanadi va uning 2-moddasida soliq haqidagi qonun hujjatlarini haqida shunday deyilgan:

- Soliq haqidagi qonun hujjatlarini ushbu Kodeksdan, soliqlar hamda yig'implar sohasidagi munosabatlarni tartibga soladigan boshqa qonunlar va qonun hujjatlaridan iboratdir;

- Soliq haqidagi qonun hujjatlarining boshqa qonunlar va qonun hujjatlaridan o'rin olgan normalari ushbu Kodeksga muvofiq bo'lishi lozim.

Soliq kodeksining 6-bobi chegirmalar va zararlar hisoblanib, 19-moddasi ya'ni jami daromaddan chegiramalar bo'lib sug'urta tashkilotlari soliq solinadigan daromadlarni (foydalarni) belgilashda jami daromaddan quyidagi chegirmalar amalga oshiriladi:

- qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha berilgan to'lov summalari;

amal qilishi hisobot yili oxirigacha tugamagan sug'urta va qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha to'lov summalari;

- sug'urta va qayta sug'urta majburiyatlari bo'yicha amalga oshirilgan va hisoblangan to'lov summalari;

- o'tgan yillardagi sug'urta hodisalari bo'yicha tugallanmagan to'lov summalari, shu jumladan da'vo muddati doirasidagi majburiyatlar summalari;

- sug'urta holatining ro'y berganligi haqida ma'lum qilingan, lekin zarar miqdori taqdim etilmagan shartnomalar bo'yicha sug'urta summalari;

- sug'urta tashkiloti sug'urta hodisalari ro'y berishini bartaraf etish va uning oldini olishga doir tadbirlarni (preventiv tadbirlarni) moliyalashga sarflaydigan mablaglar summalari;

- sug'urta tashkilotlarining zaxira fondlari bu tashkilotlar ustav fondining yigirma besh foiziga etguniga qadar sug'urta tashkilotlari o'z daromadlarining yigirma foizi miqdorida zaxira fondlariga qiladigan ajratmalar.

Jami daromaddan chegirib tashlanadigan xarajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalarni aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Agar amalga oshirilgan xarajat xarajatlarning bir necha toifasiga kiritilgan bo'lsa, u faqat bir marta jami daromaddan chegirib tashlanishi mumkin.

Asosiy vositalar sotib olish va ularni montaj qilishga, nomoddiy aktivlar sotib olishga qilingan xarajatlar, shuningdek boshqa kapital xarajatlar amortizatsiya tariqasida keyingi davrlarda jami daromaddan chegirib tashlanishi lozim.

Yana bir asosiy huquqiy hujjatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 31 yanvarda qabul qilingan "Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3022-son farmoni<sup>57</sup>da sug'urta tashkilotlari uchun bir qancha imtiyoz va talablar belgilab qo'yildi. Unga ko'ra:

-2002 yil 1 fevraldan boshlab, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, sug'urta tashkilotlari 3 yil muddatga daromad (foyda) solig'idan ozod qilinishi va shuning natijasida bo'shaydigan mablag'lar aniq maqsadni ko'zlagan holda mazkur tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga, mintaqalarda keng tarmoqli agentlik shaxobchalarini tashkil etishga, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashga, shu jumladan, chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashga yo'naltirilishi nazarda tutiladi;

<sup>57</sup> O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2002 yil 2(38)-son (55-bet)

- soliq olishdan bo'shaydigan mablag'larni tarkibida davlat ulushi bo'lgan sug'urta tashkilotlari ustav jang'armalarini ko'paytirishga yo'naltirish chog'ida mazkur mablag'lar davlatga tegishli ulush miqdoriga qo'shib hisoblanadi;

- 2002 yil 1 fevraldan boshlab to'rt yil mobaynida sug'urta tashkiloti tugatilgan yoki u sug'urta faoliyatini to'xtatgan hollarda daromad (foyda) solig'ining summasi ushbu farmonga muvofiq berilgan imtiyozli davr uchun to'liq miqdorda undirilib olinadi;

- yuridik shaxslarning ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha sarf-xarajatlari daromad (foyda) solig'ini hisob-kitob qilish chog'ida qonunchilikda belgilangan me'yorlar doirasida soliqqa tortiladigan baza hisobidan chegirib tashlanishi lozim.

Ushbu Farmon 2005 yil 1 fevralgacha amal qilib undan keyin barcha sug'urta tashkilotlari daromad (foyda) solig'ini 2006 yil 1 aprelgacha amalda to'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-325-son qarori<sup>58</sup>ning 4-ilovasiga muvofiq sug'urta tashkilotlarining sug'urta xizmatlaridan oladigan daromadlari 2006 yil 1 apreldan boshlab, 3 yil muddatga daromad (foyda) solig'ini to'lashdan ozod etildi.

Sug'urta tashkilotlari moliyaviy natijani O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevralda qabul qilingan "Mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida" 54-sonli qarori<sup>59</sup>ga muvofiq shakllantiradilar.

Ushbu qarorga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2005 yil 18 oktyabr kuni 1517-son bilan davlat ro'yxatiga olingan «Sug'urta tashkilotlari tomonidan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirishning xususiyatlari to'g'risida» Nizomi ham sug'urta tashkilotlarining moliyaviy natijalarini shakllantirishda asos bo'lib hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotlarini investitsiya faoliyati va undan oladigan daromadlarini shakllantirishni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2000 yil 26 iyul kuni 952-son bilan davlat ro'yxatiga olingan "O'zbekiston Respublikasi hududidagi sug'urta tashkilotlarining sug'urta zaxiralarini joylashtirish to'g'risida"gi Nizomda

<sup>58</sup> O'zbekiston Respublikasi Qonun loyihalari to'plami, 2006 yil aprel №16 (47-67 betlar)

<sup>59</sup> O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to'plami, 1999 yil fevral oyi soni (25-52 betlar)



sug'urta tashkilotlarining sug'urta zaxiralarini investitsiya faoliyatiga joylashtirish miqdorlari ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 952-moddasida sug'urta hodisasidan ko'riladigan zararni kamaytirish to'g'risida bo'lib, unda mulkiy sug'urta shartnomasidan nazarda tutilgan sug'urta ho'disasi ro'y berganida, sug'urta qildiruvchi ehtimol tutilgan zararni kamaytirish uchun oqilona va mumkin bo'lgan choralarni ko'rar ekan, agar o'ziga ma'lum qilingan bo'lsa, sug'urtalovchining ko'rsatmalariga amal qilishi lozim.

Zararni kamaytirish maqsadida qiligan, sug'urtalovchi qoplashi lozim bo'lgan xarajatlar zarur bo'lgan bo'lsa yoki sug'urtalovchining ko'rsatmalarini bajarish uchun qilingan bo'lsa, tegishli choralar foydasiz bo'lib chiqsa ham, sug'urtalovchi tomonidan qoplanishi lozim. Bunday xarajatlar summasining sug'urta qiymatiga nisbatiga mutanosib ravishda, boshqa zararlarni qoplash bilan birgalikda ular sug'urta pulidan oshib ketishi mumkinligidan qat'i nazar, qoplanadi.

Sug'urta qiluvchi ehtimol tutilgan zararni kamaytirish uchun qasddan choralar ko'rmagani oqibatida ko'rilgan zararni qoplashdan sug'urtalovchi ozod qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2002 yil 14 yanvardagi 15-sonli va 2002-12-sonli qarori<sup>69</sup> bilan tadiqlangan "Yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig'ini hisoblabchiqarish va byudjetga to'lash tartibi to'g'risidagi" yo'riqnomaga asosan ushbu yo'riqнома O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining II bo'limi 13-43-moddalariga muvofiq ishlab chiqilgan. Ushbu yo'riqnomaga asosan sug'urta tashkilotlari ham daromad (foyda)ni shakllantirish va uni soliqqa tortish tartibi berilgan.

### **10.3 Sug'urta tashkilotlarini soliqqa tortishning xorij tajribasi**

(AQSH sug'urta kompaniyalari misolida)

AQSH sug'urta industriyasiga tavsif beradigan bo'lsak, ushbu mamlakatda sug'urta sohasi iqtisodiy sistemada muhim sohalaridan biri bo'lib moliyaviy va iqtisodiy risklarni sug'urtalovchi tomonidan baholanib uning ixtiyoriga beriladi.

Risklar sug'urtada ikki tarmoqqa ajratiladi:

1. Hayot va sog'liq sug'urtasi;
2. mol mulk va baxtsiz hodisalar sug'urtasi.

O'z navbatida hayot va sog'liq sug'urtasi 3 klassga bo'linadi:

<sup>69</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari 1-4 soni, 2005y (122-137 betlar).

- umumiy hayot sug'urtasi;
- baxtsiz hodisa va sog'liqni sug'urtalash;
- annuitetlar.

Hayot sug'urtasi inson hayotining maxsus olingan vaqt oralig'ida o'lim oqibatida iqtisodiy yo'qotishlardan himoya qiladi. Misol uchun muddatli hayot sug'urta polisi siz sug'urta kompaniyasiga sug'urta badalini to'lab hayotingizni sug'urtalanganlik hujjati ya'ni sug'urta polisi beriladi. Muddatli hayot sug'urtasi eng ko'p tarqalgan hayot sug'urtasi turilaridan bo'lib, uning mukofoti orqali maxsus vaqt orlag'idagi o'limdan sug'urtalanadi. Hayot sug'urtasi polisi sug'urtalovchi uchun sug'urtadan tushgan sug'urta mukofotlarini investitsiya qiladi va shu bilan u bankning funksiyasini bajaradi.

Polis egalari sug'urta mukofotlarini investitsiya qilishdan tushgan daromadlarga qarab ularga sug'urta qoplamalari miqdori qaytariladi va sug'urta polislarini bekor qilishadi.

Polis turlariga tegishli (o'zgaruvchan, universal, hayot sug'urtasi va boshqa turlari) polis egalari to'lagan sug'urta mukofotlarining bir qismi o'lim hodisasi ro'y berganda uni qoplashga, bir qismi esa daromad olish uchun depozitga investitsiya qilinadi. Ma'lum vaqtdan keyin polisdan olinadigan pul hisoblab qaytariladi.

Iqtisodiy ma'lumot sifatida biz ushbu paragrafda Viskonsin (Wisconsin) sug'urta kompaniya<sup>(1)</sup>si haqidagi ma'lumotlardan foydalanamiz.

Kalendar yili mobaynida 1620 ta Viskonsin (Wisconsin) sug'urta kompaniyalari taxminan 19,9 mlrd.AQSH dollar<sup>(2)</sup> (\$) sug'urta mukofoti to'plagan (buni biz quyida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin). Bu sug'urta kompaniyalarning 254 tasi Viskonsin shtatida, 1336 tasi esa boshqa shtatlarda, xorijiy mamlakatlarda joylashgan.

Sug'urta mukofotlarining katta qismi baxtsiz hodisa va sog'liq sug'urtasining tarkibi gurux, jismoniy shaxs va kredit oluvchining baxtsiz hodisa va sog'lig'i sug'urtasidan kelib tushadigan mukofotlar hissasiga to'g'ri keladi.

Baxtsiz hodisa va sog'liq sug'urtasi bo'yicha \$7095,7 mln mukofotlar kelib tushgan, gurux polisleri \$6156,3 mln, 289 ta kompaniyadan 5 tasining polisleri bozorning 42,1 foizini tashkil etadi. Bozorda eng yuqori ulushga ega bo'lgan 5ta sug'urta kompaniyasi bo'lib, ular o'z ichiga *Health Services Insurance Corporation* (8,4%), *Blue Cross & Blue Shield United of Wisconsin* (7,3%) va *Compeer Dean Health Plan, Inc* (7,0%) larni oladi. *Blue Cross & Blue Shield*

<sup>(1)</sup>Commerce Clearing House, State Tax Guide, 2002

<sup>(2)</sup>AQSH dollari so'zi o'rninga bundan buyon dollar (\$) belgisi qo'llaniladi

sug'urta kompaniyasi etakchi sug'urta kompaniyalaridan biri bo'lib baxtsiz hodisa va sog'liq sug'urtasi bo'yicha \$861,4 mln sug'urta mukofoti to'plagan va bozorda 13,0 foiz hissasi bor. Qo'shimcha qilib yana shuni aytish mumkinki, baxtsiz hodisa va sog'liq sug'urtasi sektorining kredit polislari \$78.0 mln ni tashkil qiladi.

Baxtsiz hodisa va sog'liq sug'urtasidan keyingi o'rinda turuvchi sug'urta turi avtomobil sug'urtasi bo'lib, uning mukofotlari \$ 2470 mln.dir.

13-jadval<sup>63</sup>

2015 yilda Wisconsin sug'urta kompaniyasi tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlari haqida ma'lumot

| №   | Sug'urta turlari   | Sug'urta mukofotlari (AQSH dollarida) |
|-----|--|---------------------------------------|
| 1   | Hayot sug'urta (Life insurance) tarmog'i bo'yicha jami                                     | \$ 2 063 435 774                      |
| 1.1 | Doimiy mukofotlar  | \$ 1 661 042 889                      |
| 1.2 | Guruxiy mukofotlar   | \$ 356 235 732                        |
| 1.3 | <i>Credit life insurance</i>   | \$ 46 068 111                         |
| 1.4 | Industrial sug'urta  | \$ 89402                              |
| 2   | Baxtsiz hodisa va sog'liq sug'urtasi bo'yicha jami   | \$ 7 095 654 734                      |
| 2.1 | Guruxiy sug'urtalash mukofotlar  | \$ 6 156 272 437                      |
| 2.2 | Individual sug'urta mukofotlari  | \$ 861 356 840                        |
| 2.3 | <i>Credit insurance</i>  | \$ 78 025 457                         |
| 3   | Annuitetlar (Annuities)  | \$ 4 873 281 358                      |
| 4   | Avtomobil sug'urtasi bo'yicha jami   | \$ 2 407 044 091                      |
| 4.1 | Xususiy yo'lovchi tashuvchi avtomobillar sug'urtasi bo'yicha tushgan mukofotlar            | \$ 1 970 255 218                      |
| 4.2 | YUK tashuvchi avtomobillar sug'urtasi bo'yicha   | \$ 436 788 873                        |
| 5   | Sub'ektiv risklar bo'yicha   | \$ 1 021 874 080                      |
| 5.1 | Uy egalari sug'urtalash bo'yicha   | \$ 520 598 470                        |
| 5.2 | Tadbirkorlarni sug'urtalash bo'yicha   | \$ 417 599 421                        |
| 5.3 | Firma egalari sug'urtalash bo'yicha  | \$ 83 676 189                         |
| 6   | YOng'indan sug'urta qilish bo'yicha jami   | \$ 83 945 893                         |
| 7   | Qolgan boshqa sug'urta turlari bo'yicha jami   | \$ 2 345 819 299                      |
| 7.1 | Ishchilar kompensatsiyasi sug'urtasi   | \$ 1 207 198 401                      |
| 7.2 | Avtomobil egalari javobgarligi sug'urtasi  | \$ 472 284 238                        |
| 7.3 | Tibbiyot xodimlari javobgarligi sug'urtasi yoki noqonuniy tibbiyot javobgarligi sug'urtasi | \$ 62 580 533                         |
| 7.4 | Mol mulk huquqi sug'urtasi   | \$ 83 234 447                         |
| 7.5 | Kafolat sug'urtasi   | \$ 30 152 599                         |
| 7.6 | Garov sug'urtasi   | \$ 74 937 131                         |

<sup>63</sup>www.Wisconsin Insurance Report.com

|                                       |                                  |                          |
|---------------------------------------|----------------------------------|--------------------------|
| 7.7                                   | Ishonch sug'urtasi               | \$ 14 937 131            |
| 7.8                                   | Kredit qaytarilishini sug'urtasi | \$ 4 179 503             |
| 7.9                                   | Boshqa sug'urta turlari          | \$ 396 933 819           |
| <b>Jami sug'urta turlari bo'yicha</b> |                                  | <b>\$ 19 891 055 229</b> |

Xususiy yo'lovchilar avtomobil sug'urtasi bo'yicha \$1970,3 mln bo'lib uning sug'urta bozordagi lider sug'urta kompaniyalari American Family Mutual Insurance Company bozordagi ulushi 21,1 % va State Farm Mutual Avtomobile Insurance Company niki esa 11,9 % dir.

Tijorat yuk avtomobillari uchun \$436,8 mln qoldiq hisoblangan va uning etakchi sug'urta kompaniyasi bo'lmish Acuity Mutual Insurance bozordagi ulushi 7,0% ni tashkil etadi.

Keyingi eng katta sug'urta bozori bu hayot sug'urtasi tarmog'iga tegishli bo'lib uning bozordagi sug'urta mukofotlar hajmi \$ 2.063,4 mlnga to'g'ri keladi. Bu katta sektorda doimiy hayot sug'urtasi bilan shug'ullanib keluvchi Northwestern Mutual sug'urta kompaniyasi bo'lib uning bozordagi salmog'i 17,1 foizdir va guruhiy sug'urtalash , kredit sug'urtasi hamda boshqa sug'urta turlari xizmatlarni amalga oshiradi.

Guruxiy sug'urtalash va kredit hayot (credit life insurance) sug'urtasi bo'yicha mos ravishda \$356,2 mln va \$46,1 mln sug'urta mukofotini to'plagan. Metropolitan Life Insurance Company va Minnesota Mutual Life Insurance Company lari guruxiy sug'urtalash sektorini boshqaradilar hamda mos ravishda bozordagi hissaları 13,8% va 13,1% ga to'g'ri keladi. Credit life sug'urta bozorini 3 ta sug'urta kompaniyasi boshqaradi va ularning jami bozordagi ulushlari 37,8% ni tashkil etadi. Bunday kompaniyalar sirasiga American General Assurance kompaniyasi (17,1%), CUNA Mutual sug'urta kompaniyasi (10,4%) va American Health and Life (10,3%) sug'urta kompaniyalari kiradi. Hayot sug'urtasi bilan bog'liq annuitet polislariga tegishli sug'urta mukofotlari hajmi 2015 yilda \$4873,3 mln bo'lib, ushbu sug'urta mukofotlari Lincoln National Life Insurance sug'urta kompaniyasi-nikidir. Boshqa ahamiyatli sug'urta turlari bo'yicha qaraydigan bo'lsak masalan, ishchilar kompensasiyasi sug'urtasi bo'yicha jami \$1207,2 mlanni tashkil etadi.

#### **Viskonsinda sug'urtani soliqqa tortish.**

Viskonsin shtatida joylashgan Wisconsin sug'urta kompaniyalari AQSH federal byudjetiga va maxalliy byudjetlarga soliqlar to'laydilar. Wisconsin sug'urta kompaniyalarini soliqqa tortishni 2 ta mustaqil agentlik tomonidan boshqariladi:

1) Sug'urta kompaniyalari ma'muriyati idorasidir. U milliy va chet el kompaniyalarining sug'urta mukofotlariga soliq solish, shu bilan birga hayotni sug'urtalovchilarning ichki yalpi investitsiya daromadlariga solingan soliqlarni yig'adi;

2) Daromadlarni boshqarish departamenti milliy sug'urtalovchi kompaniyalardan korporativ franchayz solig'i (sorporate franchise tax)<sup>64</sup>ni to'lanishini nazorat qiladi.

Viskonsinda sug'urta kompaniyalari ikki xil soliq turini to'laydi:

- korporativ franchayz solig'i (sorporate franchise tax);
- sug'urta mukofotlariga soliq (insurance premiums tax);

Korporativ franchayz solig'i (sorporate franchise tax) nohayot sug'urta turlari bilan shug'ullanuvchi sug'urta kompaniyalari va maxalliy hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi sug'urta kompaniyalarining nohayot bizneslari uchun qo'llanilib daromadlariga bir xil 7,9 % miqdorda majburiy undiriladi. Ammo korporativ franchayz solig'i sug'urtachining hisoblangan javobgarligidagi yalpi sug'urta mukofotlar solig'ining 2 foizidan oshishi mumkin emas. Viskonsin sug'urta kompaniyalari uchun korporativ franchayz solig'ini to'lashda federal daromadlarni soliqqa tortish ko'rsatmasiga asosan amalga oshiradi.

14-jadval<sup>65</sup>

**Wisconsin sug'urta kompaniyasiga tegishli sug'urta mukofotlari haqida ma'lumot**

| Sug'urta turlari                              | Sug'urta kompaniyalar turi                                  | Soliq stavkalari   |
|---|---|--|
| Hayot sug'urtasi bo'yicha                     | Xorijiy (Viskonsin bazasida emas)                           | Yalpi sug'urta mukofotlaridan 2% miqdorida   |
|   | Maxalliy (Viskonsin bazasida)                               |  |
|   | a) jami sug'urtaning 750 mln AQSH dollari yoki undan kamiga | Yalpi investitsiya daromadining 3,5% qismi yoki yalpi sug'urta mukofotlarning 2%idan kam |
|   | b) Jami sug'urtaning 750 mln AQSH dollaridan ortig'iga      | Jami mukofotlarning 2%idan yuqorisi yoki jami investitsiya daromadlarning 3,5% qismi     |
| Baxtsiz hodisa va sog'liq sug'urtasi bo'yicha | Xorijiy   | Yalpi sug'urta mukofotlaridan 2% miqdorida   |
|   | Maxalliy  | korporativ franchayz solig'i, faqat yalpi mukofotlar 2%idan oshmasligi kerak             |

<sup>64</sup> Ushbu corporate franchise solig'i buntida 1972 yildan boshlab sug'urta kompaniyalariga imtiyoz berilgan, lekin sug'urta mukofotlariga soliq (insurance premiums tax) solig'ini to'laydi.

<sup>65</sup> www.Wisconsin Insurance Report.com



|   |   |   |
|---|---|---|
| Garov kafolati sug'urtasi bo'yicha                      | Xorijiy                                   | Yalpi sug'urta mukofotlaridan 2% miqdorida                                    |
|   | Maxalliy                                  | Yalpi sug'urta mukofotlaridan 2% miqdorida                                    |
| Yong'in sug'urtasi bo'yicha                             | Xorijiy                                   | Yalpi sug'urta mukofotlaridan 2,375% miqdorida                                |
|   | Maxalliy                                  | korporativ franchayz solig'i, faqat yalpi mukofotlar 2% idan oshmasligi kerak |
| Okean dengiz floti sug'urtasi bo'yicha                  | Xorijiy                                   | Yalpi sug'urta mukofotlaridan 0,5% miqdorida                                  |
|   | Maxalliy                                  | korporativ franchayz solig'i, faqat yalpi mukofotlar 2% idan oshmasligi kerak |
| Boshqa mol mulk va baxsiz hodisalar sug'urtasi bo'yicha | Xorijiy                                   | Yalpi sug'urta mukofotlaridan 2% miqdorida                                    |
|   | Maxalliy                                  | korporativ franchayz solig'i, faqat yalpi mukofotlar 2% idan oshmasligi kerak |
| Annuitetlarga   | Barcha sug'urta kompaniyalariga           | Soliqdan ozod qilingan.   |
| Barcha sug'urta turlari bo'yicha                        | SHaharlararo sug'urtalash kompaniyalariga | Soliqdan ozod qilingan  |
| Barcha sug'urta turlari bo'yicha                        | Birgalikda foyda oluvchi jamiyatlar       | Soliqdan ozod qilingan  |
| Barcha sug'urta turlari bo'yicha                        | Foyda olmaydigan jamiyatlar               | soliqdan ozod qilingan.   |
| Barcha sug'urta turlari bo'yicha                        | O'z-o'zini sug'urtalovchilar              | Soliqdan ozod qilingan  |

Sug'urta kompaniyalarning xavf xatar sug'urta yo'nalishining har bir turiga soliq solinadi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi sug'urta kompaniya turlari davlat va maxalliy soliqlardan qisman ozod qilingan (Yong'in sug'urtasi bo'yicha tushgan sug'urta mukofotlariga alohida soliq foiz stavkalari ishlab chiqilgan 14-jadvalda).

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki xorijiy sug'urtalovchilar Viskonsin sug'urta kompaniyalariga qaraganda o'zgacha soliqqa tortiladi. Munozaralardan so'ng, har ikala maxalliy va xorijiy sug'urta kompaniyalarining ikki tomonlama munosabatlariga 1985 yilda Qo'shma Shtatlar Oliy Sudi tomonidan oydinlik kiritilgan (Metropolitan Life Insurance Company misolida). Oliy Sud qaroriga ko'ra ko'pgina shtatlarda sug'urta mukofotlarining qonuniy soliqqa tortilishi ta'minlandi.

#### **Sug'urta mukofotlariga soliq (insurance premiums tax)**

Bu soliq turini Sug'urta Komissarlari Idorasi tomonidan undiriladi va nazorat qilinadi. Ushbu soliqni barcha xorijiy sug'urta kompaniyalari va

maxalliy garov kafolati sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarga qo'llaniladi.

Mazkur soliq turining bazasi bo'lib Viskonsin shtatida olingan yalpi sug'urta mukofotlari va undan qaytarilgan va qaytarishi mo'ljallangan sug'urta mukofotlari hamda qayta sug'urtaga berilgan sug'urta mukofotlari chiqarib tashlangandan so'ng qolgan yillik sug'urta mukofotlari soliq bazasi bo'lib hisoblanadi.

Xorijiy sug'urtalovchilar tomonidan ushbu soliq turi to'lanib quyidagicha o'zgaracha stavkalar qo'llanilgan:

- yong'in sug'urtasiga – 2,375%;
- okean va dengiz floti sug'urtasiga – 0,5%;

Umumiy xulosa qilib shuni aytish mumkinki, rivojlangan mamlakatlar qatoridagi AQSHda sug'urta kompaniyalari to'laydigan soliq turlarini mamlakimizdagi soliqqa tortish mexanizmi bilan solishtirib bo'lmaydi, lekin sug'urta mukofotlariga solinadigan soliq turini bizning sug'urta tashkilotlariga qo'llash mumkin.

#### **Nazorat savollari:**

1. Sug'urta biznesini tartibga solishda soliqlarning zarurligi aytib bering.
2. Sug'urta biznesini tartibga solishda soliqlarning ahamiyatini aytib bering.
3. Sug'urta faoliyatini soliqqa tortishning huquqiy asoslarini aytib bering.
4. Sug'urta tashkilotlarini soliqqa tortishning xorij tajribasini aytib bering.
5. Sug'urta tashkilotlarini soliqqa tortishning xorij tajribasini farqini aytib bering.

## XI BOB. SUG'URTA TASHKILOTINING AKTUAR HISOBOTI VA UNING AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISH

### 11.1 Sug'urta tashkilotining aktuar hisoboti

Sug'urta tashkilotining aktuar hisoboti ikki nushada tuziladi aktuar xizmatlarini bevosita ko'rsatgan aktuariy tomonidan imzolanadi, aktuar tashkilotning rahbari tomonidan imzolanadi va ushbu tashkilotning muhri bilan tasdiqlanadi. Aktuar hisobotining varaqlari raqamlangan, tikilgan va aktuar tashkilotning muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Aktuar hisobotidagi ma'lumot mahfiydir.

Aktuar hisoboti sug'urtalovchiga aktuar xizmatlarini ko'rsatish shartnomasida nazarda tutilgan aktuar xizmatlarini ko'rsatish muddati tugaganidan keyin 10 ish kuni davomida taqdim etiladi.

Aktuar hisobotida aktuar xizmatlarini ko'rsatishning borishi, aniqlangan hato va kamchiliklar to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar, shuningdek aktuar xizmatlarini ko'rsatish natijasida olingan boshqa ma'lumotlar aks ettiriladi.

Aktuar hisoboti quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- ❖ hisobotning nomi, tuzilgan sanasi va joyi;
- ❖ kirish qismi;
- ❖ tahliliy qismi;
- ❖ yakuniy qismi.

Aktuar hisobotining kirish qismida aktuar tashkilotning (shu jumladan, bevosita aktuar xizmatlarini ko'rsatgan aktuariyning familiyasi, ismi, otasining ismi, malaka sertifikatining seriyasi, raqami va berilgan sanasi) va sug'urtalovchining (shu jumladan, sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaning seriyasi, raqami va berilgan sanasi) rekvizitlari, shuningdek aktuar xizmatlarini ko'rsatishning asosi va sug'urtalovchi faoliyatining umumiy tavsifi bayon etiladi.

Aktuar hisobotining kirish qismida quyidagilar bayon etiladi:  
aktuar xizmatlarini ko'rsatishning borishi tavsifi va umumiy natijalari;  
aktuar xizmatlarini ko'rsatish uchun sug'urtalovchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning tavsifi;

sug'urtalovchi moliyaviy yil boshiga moliyaviy holatining bazaviy tavsifi, sug'urtalovchi tomonidan oldingi aktuar xizmatlarini ko'rsatish natijasida aniqlangan hato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan choralar (aktuar tekshiruvi amalga oshirilganda);

moliyaviy yil davomida amalga oshirilgan sug'urta operatsiyalarining tahlili, tavakkalchilik siyosatini, ushlab qolish siyosatini, zahiralarni shakllantirish siyosatini, tarif siyosatini baholash, sug'urtalovchi tomonidan majburiyatlarni bajara olmaslik ehtimolini olib borilayotgan sug'urta operatsiyalarining tavakkalchilik o'lehoivi sifatida baholash (aktuar tekshiruvi amalga oshirilganda);

moliyaviy yil davomida amalga oshirilgan investitsiya operatsiyalarining, investitsiya portfelining diversifikatsiyasi, qaytarilishi, foydaliligi va likvidligining tahlili, umumiy investitsiya portfelida zahiralarning (ajratilgan aktivlarning) holati (diversifikatsiya, qaytarilish, foydalilik va likvidlik talablariga muvofiq kelgan holda) (aktuar tekshiruvi amalga oshirilganda);

tahlil, baholash va hisob-kitobning boshqa turlari;

aktuar xizmatlarini ko'rsatish natijasida aniqlangan hato va kamchiliklar, shundaylar mavjud bo'lganda;

aktuariy ixtiyoriga ko'ra boshqa ahborot.

Aktuar hisobotining yakuniy qismida aktuariyning hulosalari, maslahatlari va takliflari bayon etiladi (shu jumladan, aktuar tekshiruvi amalga oshirilganda aniqlangan hato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha, amalga oshirilayotgan sug'urta va investitsiya operatsiyalarining samaradorligini oshirish, sug'urtalovchining umumiy moliyaviy holatini yaxshilash bo'yicha maslahatlari va takliflari).

Aktuar hisoboti bir-birini istisno etuvchi, bir-biriga zid bo'lgan va yanglishtiruvchi faktlarni, ma'lumotlarni, hulosalarni va ularning har hil talqinlarini o'z ichiga olmasligi lozim.

Bila turib yolg'on aktuar hisobotlarini tuzish qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka olib keladi.

Aktuar xizmatlarini ko'rsatish davomida aktuariy tomonidan olingan sug'urtalovchi hujjatlarining mazmuniga mos kelmaydigan aktuar hisoboti bila turib yolg'on tuzilgan hisoblanadi.

## **11.2 Sug'urta biznesida sug'urta tariff stavkalarini qo'llanishi**

Sug'urta tashkilotlarida biznes jarayonlarini sifatli tashkil qilish uchun avvalo, sug'urta tariff stavkalarini to'g'ri tanlay olishi lozim. Sug'urta xizmatlarida ta'rif stavkasi sug'urta tashkilotining strategiyasini belgilab beradi. Sug'urta biznesida sug'urta tashkilotlari tomonidan ishlab chiqiladigan tariff stavkalari uning yo'nalishiga qarab umumiy sug'urtada, hayot sug'urtasida va qayta sug'urta tarifflarni ishlab chiqishga bo'linadi. Ularning har biri o'zining

xususiyatlari, muddatlari va riskliligiga qarab tariff stavkalari ishlab chiqiladi.



6-rasm. Sug'urta tariff stavkalarini qo'llash

Umumiy sug'urtada hisoblangan tariff stavkalarni sug'urta turlarini ommaviy va yirik risklarga ajratish mumkin. Ommaviy sug'urta turlari deganda, ma'lum toifadagi sug'urtalanuvchilar va ularga tegishli sug'urta risklarini qamrab oluvchi va ular bo'yicha sug'urta ob'ektlari sug'urta qoplamalarining bir xilligini ifodalovchi sug'urta turlari tushuniladi. Yirik yoki alohida risklar bo'yicha sug'urta turlari sug'urta hodisasining yuz berish ehtimotasi past bo'lganligi, lekin sug'urta zarari hajmlari kattaligi bilan ajralib turadi. Mazkur sug'urta turida bir nechta sug'urta ob'ektlarini sug'urtalash mumkin, lekin sug'urta summasining taqsimlanishi katta hajmda bo'ladi. Ushbu sug'urta turlari bo'yicha sug'urta tarifflarini hisoblashning o'ziga xos jihatlarini quyida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

Umumiy sug'urta turlari bo'yicha tariff stavkalarini aniqlash va ularning qo'llanilishi shartlarini belgilash sug'urta mahsulotini tarifkatsiya qilish deb nomlanadi. Tarifkatsiyaning asosiy bosqichlari sifatida tarifkatsiya tizimini shakllantirish va tariff stavkalarini hisoblashni keltirish mumkin.

Ma'lumki sug'urta tarifining tarkibiy qismi bo'lgan netto-stavka sug'urtalovchi uchun sug'urtalangan ob'ektning sug'urta hodisasiga uchrash ehtimolligini hisobga oluvchi sug'urta qoplamasi to'lanishining matematik kutilishini ifodalaydi. Mazkur kattalikka quyidagi omillar o'z ta'sirini o'tkazadi:

- shartnoma bo'yicha sug'urta hodisasining yuz berish ehtimolligi;

sug'urta hodisasining kutilayotgan og'irligi (bunda sug'urta qoplamasining kutilayotgan hajmining sug'urta summasiga nisbati nazarda tutiladi). Har bir sug'urtalanayotgan ob'ekt o'ziga xos xususiyatlarga ega.



Ushbu xususiyatlardan kelib chiqib mazkur ob'ektni ma'lum ob'ektlar guruhiga kiritish mumkin. Ob'ektlarning ushbu guruhi o'ziga xos ehtimollik va zararning og'irlik ko'rsatkichlariga ega. Shuning uchun mazkur guruh uchun uning xususiyatlarini hisobga oluvchi netto-stavkani hisoblab chiqish mumkin.

Hisoblangan netto-stavka barcha ob'ektlar uchun o'rtacha bo'lib, guruhga kiruvchi ob'ektlarning ko'rsatkichlaridagi chetlanishlarni hisobga oladi. Har bir ob'ektning ma'lum o'ziga xos xususiyatlari sug'urta hodisasining yuz berishiga, zararning kutilayotgan hajmiga yoki ikkala ko'rsatkichga birdaniga ta'sir etuvchi xususiyatlari bo'lishi mumkin.

15-jadval

Netto-stavkalarini hisoblash bo'yicha sug'urta turlarining tasniflanishi<sup>66</sup>

| Sug'urta turlari   |  |   |
|--|--|---|
| Hayot sug'urtasi   | Umumiy sug'urta  |   |
|  | Ommaviy sug'urta turlari   | Yirik risklar bo'yicha sug'urta turlari   |
| <b>Ayrim tegishli bo'lgan sug'urta turlari</b>   |  |   |
| <ul style="list-style-type: none"> <li>♦ Ma'lum yoshgacha yashash su</li> <li>♦ g'urtasi</li> <li>♦ Vafot etishdan sug'urtalash</li> <li>♦ Rentalar to'lovini nazarda tutuvchi barcha sug'urta turlari (shu jumladan, pensiya sug'urtasi, nogironlik sug'urtasi va boshqalar)</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>♦ Baxtsiz hodisalardan sug'urtalash</li> <li>♦ Tibbiy sug'urta</li> <li>♦ Fuqarolik javobgarligi sug'urtasi</li> <li>♦ Mol-mulk sug'urtasi va boshqalar.</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>♦ Sanoat korxonalarini sug'urtalash</li> <li>♦ Aviatsiya va kosmik sug'urta</li> <li>♦ Tabiiy ofatlardan sug'urtalash</li> </ul> |
| <b>Netto-stavkaning hisoblanishiga ta'sir etuvchi sug'urta turlarining xususiyatlari</b>   |  |   |
| <ul style="list-style-type: none"> <li>♦ Ehtimollik elementi insonning hayot davomiyligi ehtimolligi bilan bog'liq.</li> </ul>   | <ul style="list-style-type: none"> <li>♦ Bir turdagi ko'p sonli ob'ektlar va ular to'g'risidagi statistik ma'lumotlar</li> </ul>   | <ul style="list-style-type: none"> <li>♦ Sug'urta hodisalari kam sodir bo'ladi, sug'urta ob'ektlari soni chegarlangan</li> </ul>  |
| <b>Netto-stavkani hisoblashning xususiyatlari</b>  |  |   |
| <ul style="list-style-type: none"> <li>♦ Ma'lumotlar sifatida demografik statistikadan</li> </ul>  | <ul style="list-style-type: none"> <li>♦ Tariflarning hisobi statistik usullar</li> </ul>  | <ul style="list-style-type: none"> <li>♦ Netto-stavkani hisoblashda bir</li> </ul>  |

<sup>66</sup> Jadval ma'lumotlari muallif tomonidan ishlab chiqilgan

|  |   |  |
|--|---|--|
| foydalaniladi, vafot etish darajasi jadvali, sug'urta tariflarining diskontlanishi | yordami o'rtacha ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. | nechta o'n yillik ma'lumotdan foydalanish taqozo etiladi |
|--|---|--|

Yuqoridagi keltirilgan ko'rsatkichlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillar risk omillari deb nomlanadi. Masalan, yong'indan sug'urtalashda ob'ektda tez yonuvchi moddalarning mavjud bo'lishi yong'in bo'lish ehtimolini kuchaytiradi. g'ng'inga qarshi signalizatsiya va boshqa uskunalarning o'rnatilishi sug'urta hodisasi oqibatida etadigan zararining hajmini kamaytirishga sabab bo'ladi. Shunday qilib, yong'in sug'urtasida tez yonuvchi moddalarning mavjud bo'lishi va yong'inga qarshi sinalizatsiya uskunalarning o'rnatilganligi risk omili hisoblanadi. Umuman olib qaraganda, sug'urtalangan korxonalarni faoliyat turiga ko'ra guruhlariga ajratish mumkin. Lekin faoliyat turiga ko'ra guruhlariga ajratilgan korxonalariga ta'sir etuvchi risk omillarining darajasiga ko'ra katta farqqa ega bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda faoliyat turiga ko'ra biror guruhga kiritilgan ob'ekt ushbu guruh bo'yicha o'rtacha hisoblangan risklilik darajasidan yuqoriroq risklilikka ega bo'lishi mumkin. Bunday holda sug'urta ob'ektiga nisbatan o'rtacha netto-stavkani qo'llash sug'urtalovchi uchun zararli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Sug'urtalovchi mazkur muammoni sug'urta ob'ektlarini ma'lum risklar turlari va darajasiga ko'ra guruhlariga ajratgan holda sug'urta tarifini hisoblab qo'llash orqali echishi mumkin. Bunda hisoblab chiqilgan tarif stavkasi guruhga kiruvchi barcha ob'ektlarga to'g'ri kelishi mumkin. Amaliyotda sug'urta ob'ektlari bo'yicha shunday guruhlashni amalga oshirish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Bundan tashqari har bir guruh bir nechta guruhlariga bo'linishi mumkin. Har bir guruh uchun tarif stavkalarini hisoblash ortiqcha xarajatlarni talab qilishi va ularni hisoblash uchun katta hajmdagi statistik ma'lumotlarning zarurligi sug'urtalovchi uchun mazkur tadbirlarni amalga oshirishni iqtisodiy jihatdan maqsadga nomuvofiq bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun sug'urtalovchi biror yangi sug'urta mahsulotini amaliyotga kiritishda sug'urta ob'ektlarini guruhlash va ularning bir biriga o'xshashligi o'rtasidagi biror chegarani tanlashiga to'g'ri keladi.

Natijada sug'urtalovchi har bir sug'urta mahsuloti bo'yicha risk omillari va sug'urtalanayotgan ob'ektlarning guruhlari to'g'risida ma'lumotlar va ularga muvofiq keluvchi sug'urta tariflari hamda ularni qo'llash shartlari, ya'ni tarifkatsiya tizimini shakllantiradi. Mazkur tizimning murakkabligi sug'urta

mahsuloti va sug'urta ob'ektlarining turlariga bog'liq bo'ladi.

Umumiy tartibda barcha tarifkatsiya tizimlarida sug'urtalanayotgan ob'ektlar bir nechta guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh uchun bazaviy tariff stavkasi ishlab chiqiladi. Bundan tashqari sug'urtalovchi aks etirishni lozim bo'lgan barcha risk omillarining ro'yxati keltiriladi. Har bir omilning sug'urta ob'ektida mavjudligi tarifni hisoblashda maxsus koeffitsientlar orqali hisobga olinishi belgilanadi. Koeffitsientlarning bir qancha turlari bo'lib, ular ko'paytiruvchi, qo'shiluvchi yoki boshqa shakllarga ega bo'lishi mumkin. Kerakli bo'lgan koeffitsientni tanlash tarifkatsiya tizimini yaratishda sug'urta turining xarakteridan kelib chiqib sug'urtalovchi tomonidan tanlanadi.

Albatta tarifkatsiya tizimlarini sug'urtalovchilar tomonidan yaratilishining iqtisodiy asoslari ham mavjud. Tarifkatsiya tizimi sug'urtalovchi tomonidan o'z majburiyatlariga muvofiq keluvchi sug'urta zaxirasini yaratish va to'lov qobiliyatini yetarli darajada ta'minlash imkoniyatini berishi lozim.

Sug'urta tashkiloti sug'urta tariflarini hisoblashda tarifkatsiya tizimini qanchalik samarali amalga oshirsa, uning shallantirgan sug'urta zaxiralari shunchalik majburiyatlariga muvofiq bo'ladi. Tarifkatsiya tizimini ishlab chiqishda sug'urtalanuvchilarni risklar bo'yicha guruhlash va risklar antiseleksiya kabi yuqorida keltirilgan omillarni hisobga olish katta ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urtalovchilarning faoliyatida sug'urta zararliligi darajasi juda past bo'lib, bozor rivojlanish bosqichida bo'lganligi sababli, sug'urta tariflari yuqori darajada belgilangan. Albatta bu holat sug'urta tashkilotlari uchun foydali bo'lib, ular bu holatdan foydalanmoqdalar. Lekin sug'urta bozorining rivojlanishi bilan unda raqobatning keskinlashuvi vujudga keladi. Mazkur holatda sug'urta kompaniyasi faoliyatining samaradorligini ta'minlashda tarifkatsiya tizimi asosiy omil sanaladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston sug'urta tashkilotlari o'z faoliyatini amalga oshirishda samarali tarifkatsiya tizimini shakllantirishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, qayta sug'urtalash munosabatlarida ham tarif siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, qayta sug'urtalash munosabatlari qayta sug'urtalash shartnomasiga asosan amalga oshiriladi. Qayta sug'urtalovchi ushbu shartnomaga muvofiq qayta sug'urtalanuvchidan sug'urta risklarini sug'urta mukofoti evaziga qabul qiladi. Odatda, qayta sug'urtalash shartnomasiga asosan sug'urtalanayotgan riskni baholash va sug'urta hodisasi

yuz bergandan so'ng zararining hajmini aniqlash borasida qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalanuvchi kompaniyaga ishonch bildiradi. Bundan ko'rinadiki, qayta sug'urtalovchi riskni baholash va sug'urta zararini aniqlashda ko'p hollarda ishtirok etmaydi va qayta sug'urtalovchining qayta sug'urtaga berilgan shartnoma bo'yicha holat to'g'ridan-to'g'ri qayta sug'urtalanuvchining faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Ba'zi hollarda, qayta sug'urtalash shartnomasida zararlarning hajmi katta bo'lganda, sug'urta hodisasini o'rganishda qayta sug'urtalovchining vakillarini jalb etish belgilangan bo'lishi mumkin.

Qayta sug'urtalovchi ma'lum javobgarlikni o'z zimmasiga olishda sug'urta mukofotining hajmi qayta sug'urtalanuvchi bilan kelishilgan holda o'rnatiladi. Mazkur holatda qayta sug'urtalanuvchi tomonidan ushbu sug'urta riskining darajasi baholangan bo'ladi. Qayta sug'urtalanuvchi o'z sharoitidan kelib chiqib, riskning ma'lum qismini qayta sug'urtalovchiga uzatadi. Bu holatda qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalanuvchining riskni baholash bo'yicha hisob-kitobiga ishonishi yoki riskni ma'lum darajada o'rganib chiqishi mumkin.

Hozirgi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida qayta sug'urtalash munosabatlari o'zaro kompaniyalar o'rtasida ham, chet el qayta sug'urtalovchi kompaniyalari bilan ham amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 959-moddasiga muvofiq qayta sug'urtalash shartnomasiga qonunchilikdagi tadbirkorlik riskini sug'urtalash qoidalari qo'llaniladi. Shunday ekan, qayta sug'urtalovchi kompaniya ham qabul qilingan risklar bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlaridan sug'urta zaxiralarini shakllantirishi mumkin.

Sug'urta faoliyatining tarmoqlarga ajratilgan holda olib borilishi jahon andozalariga mos kelishi bilan bir qatorda mijozlar manfaatlariga ham mos keladi.

Sababi, har bir tarmoq o'ziga xos xususiyatlarga ega, ya'ni hayot tarmog'ining ob'ekti faqat inson salomatligi bilan bog'liq bo'lgani holda uzoq muddatga shartnoma tuzishni nazarda tutadi, bu esa bevosita hayot tarmog'ida faoliyat yuritadigan sug'urta kompaniyalari manfaatlariga mos keladi: ularda mijozlardan kelib tushgan sug'urta mukofotlaridan shartnomaning amal qilish davrida investitsiya manbai sifatida foydalanish imkoniyatlari bor. Shu bilan bir qatorda mazkur tarmoqqa mansub sug'urta kompaniyalari faoliyatining birmuncha salbiy jihatlari ham mavjud.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, tariff stavkalarini to'g'ri qo'llash orqali sug'urta mahsulotlaridan keladigan daromadni to'g'ri shakllantirish va risklarni to'g'ri taqsimlash shuningdek, bu orqali sug'urta tashkilotlarining moliyaviy

barqarorligini ta'minlash mumkin. Ma'lumki, moliyaviy barqarorlik koeflitsienti sug'urta tashkilotlarining sug'urta bozorida o'z o'rnini egallashi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

### 11.3 Sug'urta tashkilotlarining auditorlik tekshiruvini tashkil etish

Sug'urta faoliyatining rivojlanishi sug'urta tashkilotlarida auditing to'g'ri tashkil etilishiga bevosita bog'liqdir. Sug'urta faoliyati imkon qadar ko'proq sug'urtalanuvchilardan sug'urta mukofot(badal)larini yig'ib, muayyan sug'urta hodisalari yuz berganda ularga kafolatlangan sug'urta to'lovlarini to'lash orqali o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarishga, istiqboldagi to'lovlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan sug'urta rezervlarini shakllantirishga qaratilgan. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, o'zaro shartnoma asosida huquqiy munosabat va manfaatdorlik yuzaga kelar ekan bu jarayonda nazorat qilish tizimini takomillashtirish lozimligi yuzaga keladi. Sug'urta kompaniyalari faoliyatini nafaqat davlat organlari tomonidan nazorat qilish, balki manfaatdor shaxslar (korxonalar aksiyadorlari, ta'sischilari) tomonidan ham ushbu korxonalar moliyaviy ahvoli to'g'risida holis ma'lumotga ega bo'lish ehtiyoji yuzaga keladi.

Shunday qilib, sug'urta tashkilotlari auditing kelib chiqishi birinchi navbatda hisobotni tuzuvchilar (sub'yekt rahbarlari) manfaatlari va undan foydalanuvchilar (sub'yekt mulki egalari) manfaatlarining mos kelmasligi, xo'jalik yuritish qarorini qabul qilish uchun xolis ma'lumot zarurligi, ma'lumotlarni baholash uchun maxsus bilim lozimligi, olingan ma'lumotlarni baholash uchun kerakli materiallar tijorat siri bo'lganligi sababli yuzaga keladi.

Shunday ekan, sug'urta tashkilotlarini audit qilishda, axborotlarning qay darajada ishonchli ekanligi audit o'tkazish jarayonining ob'yektiv baho berilishiga imkon yaratadi.

Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunga muvofiq, auditorlik tekshiruvini hisobot davri moliyaviy hisoboti va u bilan bog'liq moliyaviy axborotning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga mosligini aniqlash uchun moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborotlarning ishonchlilikligi to'g'risida auditorlik tashkilotining xolis fikrini bildirish maqsadida o'tkaziladi.

Audit nazariyasi va amaliyoti sohasida taniqli amerikalik mutaxassis prof J.Robertsonning ta'kidlashicha, audit – tadbirkorlik xatarini kamaytirishga qaratilgan faoliyatdir. So'ngra u audit moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar



uchun axborot xatarini maqbul darajagacha kamaytirishga ko'maklashadi, deb xulosa beradi<sup>67</sup>.

A.Arens va Dj.Lobbejlarning fikriga ko'ra mustaqil auditor tomonidan moliyaviy hisobotlarni muntazam ravishda tekshirishning maqsadi - hisobotning moliyaviy ahvolini, faoliyat natijalarini, shuningdek, umumiy qabul qilingan buxgalteriya tamoyillariga muvofiq pul mablag'larini tavsiflovchi xolislik darajasi haqida fikr yuritishdir. Turli sohalarining o'ziga xos jihatlari moliyaviy hisobotda aks ettiriladi<sup>68</sup>.

A.D.Sheremet "audit-buxgalteriya hisobini olib borishni tartibiga rioya etilishini tekshirish asosida tashkilotlarning moliyaviy hisobotlarini mustaqil ekspertizasi" deb hisoblaydi<sup>69</sup>.

H.N.Musaevning fikriga ko'ra audit o'tkazish ma'lum bir tartib qoidalarini va ketma ketlikni talab qiladi. Ushbu tartib-qoidalar audit standartlarida o'z ifodasini topadi, audit standartlari bu barcha auditorlar tomonidan amal qilinadigan va faoliyatlarida auditga oid umumiy mazmundagi me'riy talablarning majmuasidir<sup>70</sup>.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki auditorlik standartlari asosiy maqsadi audit o'tkazishga va hujjatlar tayyorlashga, audit sifat darajasini baholashga, auditorlarni tayyorlash tartibiga va ularga rioya qilinganda auditorlik tekshiruv natijalarini kafolatlash maqsadida ishlab chiqilgan umumlashgan asosiy tamoyillarni jamlashdan iboratdir. Standartlarga audit qanday sharoitda o'tkazilayotganligidan qat'iy nazar rioya qilinishi lozim. O'z amaliyotida standartlardan chetga chiqish holatlariga yo'l qo'yadigan auditor o'z faoliyatini asoslab berishga tayyor bo'lishi lozim.

AXS 200-sonli «Mustaqil auditorning umumiy maqsadlari va auditni Auditning xalqaro standartlariga muvofiq o'tkazish» va AXS 250, «Moliyaviy hisobotlar auditida qonunlar va me'yoriy hujjatlarni e'tiborga olish» ga asosan, auditning maqsadi audit qilinayotgan shaxslarning moliyaviy (buxgalteriya) hisobotlarining ishonchliligi va buxgalteriya hisobini olib borish tartibini qonunilik va me'yoriy talablarga muvofiq amalga oshirish hisoblanadi. Auditor moliyaviy (buxgalteriya) hisobotining ishonchliligi haqidagi o'z qarashlarini barcha muhim holatlarini bayon etishi lozim.

Sug'urta tashkilotlarini audit o'tkazish jarayoni ancha murakkab hisoblanib, tekshiruv jarayonini har tomonlama mukammal tashkil qilish

<sup>67</sup> Робертсон Дж. Аудит. Пер с англ. - М. КРМГ, Компания - 1993 - 496с

<sup>68</sup> Аретс А. Лоббек Дж. Аудит. Пер с англ. Под ред. Я.В.Соколова. -М. Финансы в статистика -2001. -560 с

<sup>69</sup> Шеремет А.Д., Сулиц В.И. Аудит. Учебник - 5-е изд., перераб. и доп. - М. ИНФРА-М, 2007 - 448 с

<sup>70</sup> Н.Н.Мусаев "Аудит" ТМБ 2009-йil 37-бет

birinchi navbatda, auditorning bilim darajasiga, uning tajribasiga har jihatdan bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy hisobotini tekshirish makroiqtisodiy darajada ahamiyatli bo'lib, auditorlik tekshiruvini faoliyat yuritishi quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Sug'urta tashkilotining moliyaviy hisobotini tekshirish va natijalardan manfaatdor foydalanuvchilar qarorlari uchun, sug'urta tashkilotiga qiziqish bildirgan shaxslar, davlat organlari va jamoatchilik uchun qo'llaniladi;

2. Sug'urta tashkilotining moliyaviy hisobotini audit o'tkazish jarayoni bir qancha sabablar oqibatida buzilishi yoki bo'lmasa ma'lumotlarning etarli bo'lmasligi natijasida auditor o'zi kutgan maqsadga erisholmasligi mumkin. Masalan, sug'urta tashkilotida zahiralarni shakllantirishda me'yoriy talabga rioya qilinmagan, moliyaviy hisobotlarida sodir bo'lgan operatsiyalar noaniqlikka ega bu esa har jihatdan sub'yektga borb taqaladi;

3. Shuni aniq tan olish joizki, sug'urta tashkilotlarining buxgalteriya hisobini tashkil qilish anchagina murakkab hisoblanadi, chunki, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy hisobotlarida aks ettirilgan biznes operatsiyalarining ko'pligi va murakkabligi tufayli buxgalteriya hisobotlarining ishonchligi darajasi manfaatdor foydalanuvchilarning ko'pchiligi tomonidan mustaqil ravishda baholanishi ko'pgina chalkashliklarga olib kelishi mumkin;

4. Agar sug'urta kompaniyasi hayot tarmog'iga ixtisoslashtirilgan faoliyat bilan shug'ullanadigan bo'lsa, moliyaviy hisobotni tekshirish jarayonida yanada ko'proq noaniq savollarga duch kelishi mumkin.

Shunday bo'lsada, auditor o'z ishini bajarish jarayonida auditni tashkil qilish va o'tkazish me'yorlariga rioya qilgan holda o'z faoliyatini mustaqillik, xolislik, halollik, professional malakalilik va maxfiylik prinsiplari<sup>71</sup> asosida amalga oshiradi. Lekin noaniqliklar yuzaga kelishiga qaramasdan moliyaviy hisobot auditining maqsadi, ishonchli xulosa va hisobotlarni berishdan iborat.

Auditorlik tekshiruvini tartibga solishda auditorlik faoliyatining xalqaro standartlari muhim hisoblanadi. Ular auditorlik tekshiruvini rejalashtirish, auditorlik dalillarini to'plash, auditda tanlangan usulni qo'llash, auditorlik xulosasini tayyorlash va moliyaviy hisobotning ishonchligi haqida fikr bildirish, auditni xujjatlashtirish. Shuni aytib o'tishimiz mumkinki, standartlar auditini o'tkazish metodologiyasini ko'rib chiqmaydi, aslida metodologiya auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotgan paytida yuzaga keladi<sup>72</sup>.

<sup>71</sup>Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun, 4-moddasi

<sup>72</sup>Uyruq E.M. *Auditorlik faoliyati* - M. Birmu: Apr - 2011 -374e

Sug'urta tashkilotining buxgalteriya operatsiyalari natijasida shakllantirilgan va moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun taqdim etiladigan ma'lumotlarning ishonchli va aniq bo'lishi auditorlar tomonidan axborotni mustaqil baholash uchun ob'ektiv ehtiyoj hisoblanadi. Sug'urta tashkiloti rahbari ham auditor sug'urta faoliyati moliyaviy hisobotlarini noto'g'ri qabul qilish xavfini kamaytirishni ta'minlab berishini hisobga olishi lozim.

Shu bilan bir qatorda, auditor ham sug'urta tashkilotlarida potensial sug'urta qildiruvchilarning ishonchsizligi sug'urta tashkilotlari to'g'risidagi miqdoriy va sifati ma'lumotlarning etishmasligi, ya'ni sug'urta tashkilotlari faoliyati to'g'risida xolis va ochiq axborotning yo'qligi muammosi aynan auditorlik tekshiruv natijasida auditor tomonidan hal qilinishini tushunib etishi lozim.

Aytish mumkinki, sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatini aniqlash masalasi, u tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jlik operatsiyalarning amaldagi qonunchilikka muvofiqiligini aniqlash vazifasi, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy natijalarini hisobga olish va hisobotlarida aks ettirishning to'g'riligi va asosligini tasdiqlash uchun sug'urta tashkilotlari moliyaviy hisobotining ishonchligini ta'minlash maqsadida ular bo'yicha audit tashkil qilingan. Shu narsani alohida ta'kidlab o'tishimiz lozimki, hozirgi kunda iqtisodiy jarayonlarning har birini alohida rivojlantirish uchun ular o'rtasida kuchli bog'lanishni tashkil etib qo'yishning o'zi mikroiqtsodiy o'sishni ta'minlab, makro darajaga olib chiquvchi kuch hisoblanadi. gapimizning tasdig'ini esa, ilmiy tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar va tablillar bo'yicha ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy hisoboti auditi sug'urta xizmatlari bozori rivojlanishining ajralmas shartidir shu nuqta'i-nazardan auditor tomonidan berilgan xulosa ham sug'urta tashkiloti moliyaviy hisobotlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Auditorlik faoliyati rivojlangan jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, sifati audit nafaqat buxgalteriya hisobi va audit qoidalarini, balki tekshirilayotgan shaxsning faoliyati, muammolari va xavflarining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tushunishi kerak<sup>73</sup>. Sug'urtalovchilarni tekshirishda sug'urta faoliyatini o'ziga xos xususiyatlarini etiborsiz qoldirish mumkin emas, chunki ular maxsus sug'urta qonunchiligi, sug'urta operatsiyalarini hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlarini va moliyaviy hisobotlarni tuzish, sug'urta zaxiralarini hisoblash,

<sup>73</sup>Панкova СВ., Панкova И.И. Международные стандарты аудита: учебник - 2-е изд., перераб. и доп. - М: Магистр, 2008. - 287 с.

sug'urta tashkilotlarini soliqqa tortishning mavjud xususiyatlari va boshqalar bilan oldindan belgilangan.

Shu munosabat bilan, "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-sonli Qarori 2018 yilning 19 sentyabrida qabul qilindi. Unga asosan, auditorlik xizmatlari bozorining rivojlanishi uchun sharoitlarni yanada yaxshilash va auditorlik faoliyatini tartibga solishda xalqaro standartlarga muvofiq zamonaviy yondashuvlarni joriy etish maqsadida:

auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, shu jumladan xalqaro standartlar asosida, auditorlik xizmatlari sifatini oshirishga va ishbilarmonlar hamjamiyatining auditorlik tashkilotlari ishi natijalariga ishonchini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazorat qilishning ta'sirchan tizimini shakllantirish;

yoshlarni auditorlik kasbiga jalb etish, xususan professional jamoat birlashmalarining tegishli oliy ta'lim muassasalari bilan faol hamkorligini ta'minlash;

auditorlik tashkilotlarining xalqaro auditorlik tarmoqlariga jalb etilganlik darajasini oshirish, shu jumladan auditorlik tashkilotlarini, auditorlarni auditning xalqaro standartlarini qo'llash masalalarida faol uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni tashkil etish;

auditorlar respublika jamoat birlashmalarining xalqaro audit standartlarini belgilovchi xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish, ushbu standartlarni qo'llash sohasida jahonning ilg'or tajribasini ommalashtirish bo'yicha faoliyatini faollashtirish masalalari ko'rib chiqildi. SHuningdek, ushbu Qarorda yana quyidagilar belgilab qo'yildi:

hisobot yili yakuni bo'yicha quyidagi shartlardan bir vaqtning o'zida ikkitasiga javob bergan tijorat tashkilotlari ham har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi lozim:

aktivlarning balans qiymati eng kam ish haqining 100 ming barobar miqdoridan ortiq bo'lsa;

mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushum eng kam ish haqining 200 ming barobar miqdoridan ortiq bo'lsa;

xodimlarning o'rtacha yillik soni 100 kishidan ortiq bo'lsa;

b) auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatini faqat Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi tomonidan nashr etiladigan xalqaro audit standartlari asosida amalga oshiradi;

v) majburiy auditorlik tekshiruvlarini o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlari ishi sifatining tashqi nazorati natijalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining veb-saytida e'lon qilinadi<sup>74</sup>.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bemalol aytishimiz mumkinki, O'zbekistonda auditorlik faoliyati bo'yicha qonuniy va huquqiy baza anchagina rivojlantirilgan va navbatdagi masala sug'urta faoliyatida ham kuchli huquqiy bazani shakllantirish lozim bo'ladi, va shu asosida iqtisodiyot tarmog'ida faoliyat ko'rsatilsa, mamlakat iqtisodining barcha yo'nalishlari baravar rivojlanadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bizning ilmiy izlanishlarimiz natijasida sug'urta tashkilotlari moliyaviy hisoboti auditining asosiy yo'nalishlari sifatida uchta bo'limni taqdim qilamiz:



7-rasm. Sug'urta tashkilotlari moliyaviy hisobotining yo'nalishlari<sup>75</sup>

Sug'urta tashkilotlarida auditorlik tekshiruvini o'ziga xos xususiyatlari ham aytib o'tilgan uchta yo'nalishdan kelib chiqqan holda belgilanadi. Chunki, sug'urta mukofotlari miqdorini to'g'ri shakllantirilishi hamda ulardan zahiralarni joylashtirilishi va sug'urta to'lovlarini vaqtda to'lanishi ustidan nazorat o'rnatilishi bevosita sug'urta turlari buyicha zararlilik darajasini kamaytirish bilan birgalikda asossiz sug'urta tovonlarini to'lanishini va tashki tekshiruvlar davrida ko'llanilishi mumkin bo'lgan turli jarima va ko'ngilsizliklarni oldini oladi.

<sup>74</sup> O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida gi PQ-3946-sonli Qarori 2018-yil 19-avgust

<sup>75</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



Yo'nalishning birinchi bo'limiga to'xtalib o'tamiz: Sug'urta mukofotlari miqdorini shakllantirish bo'yicha I.V.Shaposhnikova sug'urta mukofotiga quyidagicha ta'rif beradi. Sug'urta mukofoti mijozning sug'urta shartnomasi yoki qonunga muvofiq kompaniyaga to'lovi hisoblanadi. Sug'urta mukofoti bo'lib to'lanishi ham mumkin, quyidagi formula orqali hisoblanadi<sup>76</sup>.

$$\text{Sug'urta mukofoti} = \frac{\text{sug'urta ta'rif stavkasi} * \text{Sug'urta summasi}}{100}$$

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, sug'urta kompaniyasining moliyaviy rihagi sifatida yig'ilgan sug'urta mukofotlari bo'lib hizmat qiladi. Zotan, sug'urta kompaniyalari potensial mijozlardan yig'ilgan sug'urta mukofotlari hisobiga o'zining samaradorlik ko'rsatkichlarini ta'minlab, mijozlarga ishonchli hizmatlarini ko'rsatishadi. Sug'urta mukofotlari mijoz tomonidan yaxlit yoki badal ko'rinishida bo'lib-bo'lib ham to'lanishi mumkin. Sug'urta mukofotlarini audit qilish vazifalari quyidagilardan iborat: sug'urta mukofotlarini sug'urta tashkilotining daromadlari tarkibida aks ettirishning qonuniyligini, ularning to'liqligi va hisobga olinishini to'g'riligi, shuningdek ularni buxgalteriya hisobotida asosli va o'z vaqtida aks ettirilishini tekshirish<sup>77</sup>.

Sug'urta tashkilotlari auditining ahamiyati va o'ziga xosligi, xususan, uning asosiy va muhim yo'nalish sifatida tanlanishidan maqsad, hozirgi kunda auditorlar tomonidan sug'urta mukofoti va qoplamasiga muhim bo'lishiga qaramasdan, bizning fikrimizcha, auditorlar ushbu sohada mavjud muammolarga etarlicha e'tibor bermayaptilar. Bugungi kunda sug'urta mukofotlari, zaxiralar va to'lovlarni tekshirishning aniq usuli yo'q. Bunday xulosaga kelishimizdan maqsad, ko'pgina iqtisodiy olimlar shu qarorga kelishgan, va bu fikrni biz ham qo'llab-quvvatlaymiz, sababi izlanishlarimiz natijasida sug'urta mukofotlari, sug'urta to'lovlar va zahiralari bo'yicha audit o'tkazishning metodologiyasiga duch kelmadik. Faqat umumiy holatda sug'urta mukofotini auditorolik tekshiruvidan o'tkazish tartibi aytib o'tilgan.

Sug'urta mukofotlarini hisoblash bo'yicha va imzolangan shartnomalar orqali auditorlik tekshiruvini o'tkazish bu sug'urta kompaniyasi bo'linmalari uchun ham qiyinchilik tug'diradi shunday ekan yana barcha muammolar sug'urta mukofoti bilan yuz beraveradi. Buning oldini olish maqsadida esa,

<sup>76</sup> И.В. Шапошникова «Бухгалтерский учет, анализ и аудит» Учебное пособие. Саратов, 2013 –180 с. 44-бет

<sup>77</sup> Пинкунь Н.Н. Аудит страховых премий (взносов) по прямому страхованию и со страхованию //Страховые организации бухгалтерский учет и налогообложение -2011 -№ 2

sug'urta mukofotlari qaysi sug'urta turlari bo'yicha ko'p shartnoma tuzilayotganiga ahamiyat qaratib, tanlab tekshirishga alohida urg'u berish kerak. Bundan tashqari, sug'urta mukofotlari va to'lovlari bo'yicha alohida hisob yuritishni tavsiya etamiz, yuritilgan hisob orqali sug'urta mahsulotlaridan tushadigan har qanday mukofot va qoplamaga yo'naltirilgan to'lov aniq qaerga yo'naltirilganligi ko'rinib turadi. Oxirida esa, aktiv va passiv qilib hisoblab chiqilsa, qancha qoldiq qolgani aniq ko'rinib turadi.

Shuningdek, sug'urta mukofotlarining buxgalteriyada aks ettirilishi holatini tekshirishda auditor birinchi o'rinda e'tibor qaratishi lozim bo'lgani bu shartnoma shartlari va unda nazarda tutiluvchi imtiyozlar yoki cheklavlari, ya'ni biz bilamizki, bizning qonunchiligimizga ko'ra, urush faxriylariga, guruh nogironlariga yoki sug'urta kompaniyasining doimiy mijozlariga nisbatan siylovlar qo'llaniladi. Albatta, siyovlarning bo'lgani yaxshiyu, lekin auditorlik tekshiruv jarayonida auditor diqqatini chalg'itishi mumkin.

Sug'urta mukofotini tekshirish jarayonida yana bir yuzaga keladigan holatni ham aytib o'tishimiz lozim. Ya'ni, sug'urta mukofoti sug'urta kompaniyasining hisobiga kelib tushgandan so'ng, mablag'larni bir qancha yo'nalishlarga bo'lib tashlanadi, masalan vositachilik haqi, zahiralarga ajratmalar, netto yoki brutto mukofotlar. Bizga ma'lumki ular bo'yicha me'yor deyarli belgilab qo'yilmagan, masalan, vositachilik haqi 25-30%gacha deyiladi, shu o'rinda yana auditorni chalg'ituvchi holat davom etadi. Bu holatni ham hisobga olib, sug'urta kompaniyasining tarmoq tuzilmasidan kelib chiqqan holda vositachilik to'lovlarini aniq belgilab qo'yishlarini maslahat beramiz.

Auditor sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan mukofot summasini hisobda aks ettirilgan summa bilan taqqoslaydi. Sug'urta mukofotlarini o'z vaqtida aks ettirilishini baholash sug'urtalovchi tomonidan qo'llaniladigan hisob siyosatida mustahkamlangan hisob tartibini taqqoslash asosida tuziladi. Biz ilmiy tatqiqotlarimiz natijasida sug'urta mukofotini auditorlik tekshiruvdan o'tkazish metodologiyasi bo'yicha auditor dasturini quyidagi jadvalda keltirib o'tganmiz:

Sug'urta mukofotlarini auditorlik tekshiruvdan o'tkazish dasturi<sup>78</sup>

| №  | Audit o'tkazishdagi savollar ro'yxati   | Rasmiylashtirish tartibi                                     | Dalillarni olish manbaalari                               | Ko'rsatmalar berish |
|----|---|--|---|---------------------|
| 1. | Sug'urta tashkiloti faoliyati bo'yicha olinadigan sug'urta mukofotlari                    | Sug'urta shartnoma   | Sug'urta shartnomasi yoki ularni rasmiylashtirish daftari | Bor yoki yo'q       |
| 2. | Sug'urta turlari bo'yicha shartnomalarni qayd etish kitobi (oddiy yoki elektron)          | Tasdiqlangan kitob yoki elektron kitob                       | shartnomalarni qayd etish kitobi (oddiy yoki elektron)    | Bor yoki yo'q       |
| 3. | SHartnomalarning rasmiylashtirilishi (sana, imzo)   | SHartnoma kitobi   | Sug'urta shartnomasi va kitobi                            | Bor yoki yo'q       |
| 4. | Sug'urta mukofotini hisoblash va chegirmalarni aks ettirish                               | Sug'urta shartnomasi.  | Sug'urta shartnomasi, tashkilotning ichki tartib-qoidalar | Bor yoki yo'q       |
| 5. | Sug'urta mukofotini buxgalteriya yozuvlarida to'g'ri aks ettirish                         | Buxgalteriya provodkalari                                    | Dastlabki hujjatlar, buxgalteriya jurnallari              | Bor yoki yo'q       |
| 6. | Sug'urta mukofoti uchinchi shaxslar tomonidan yig'ilganda operatsiyalarda aks ettirilishi | Sug'urta shartnomasi   | Uchinchi shaxslarning ma'lumotlari, tashkilot nizomi      | Bor yoki yo'q       |
| 7. | Sug'urta mukofotning taqsimlanishi  | Qonunchilik talablari va tashkilotning ichki-tartib qoidalar | Shablonning yuritilish                                    | Bor yoki yo'q       |
| 8. | Sug'urta mukofoti bo'yicha umumiy hisobotning yuritilishi                                 | Sug'urta shartnomalari soni                                  | Shartnomani rasmiylashtirish kitobi                       | Bor yoki yo'q       |

Yuqoridagi izohlardan kelib chiqib shuni aytib o'tish lozimki, sug'urta mukofotlarini noto'g'ri rasmiylashtirilishi natijasida birinchi o'rinda to'lovlar bilan bog'liq mutanosiblik yuzaga kelsa, keyingi o'rinlarda esa, zahiralalar hisoblanishi va daromadlari borasida tafovutlar yuzaga kelishi mumkin. Bu

<sup>78</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

bo'yicha, tekshiruv yakunida auditor o'z hisobot va xulosalari bilan bir qatorda takliflarini ham berib o'tishi lozim.

Sug'urta qoplamalarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishi, Sug'urta to'lovlarini tartibga solish sug'urta hodisasi sodir bo'lganda mijoz oldidagi majburiyatlarni bajarish maqsadida sug'urta tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan tadbirlar majmuasidir. Uni tashkil qilish darajasi ko'p jihatdan mijozlarning sug'urtalovchiga sodiqligiga bog'liq.

I.V.Shaposhnikovaning fikricha, sug'urta qoplamalari bu sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta hodisasi yuz berganda tashkilot tomonidan amalga oshiriladi agar sug'urta shartnomasi muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda mukofotning bir qismi qaytarilishi mumkin. Bu holatda qaytarilish lozim bo'lgan summa miqdori quyidagi formula orqali topiladi.

$$BS = \frac{P * (N - M)}{N} * \frac{SSD - V}{SSD}$$

BS- muddatidan oldin bekor qilingan shartnoma bo'yicha qolgan sug'urta mukofoti miqdori;

P - shartnoma bo'yicha mijoz tomonidan to'langan sug'urta mukofoti;

N- shartnoma muddati kunda

M- shartnoma kuchga kirgan kungacha bo'lgan kunlar soni, shartnomani bekor qilish to'g'risidagi xabarning rasmiylashtirilishi;

V- shartnoma bo'yicha ilgari to'langan sug'urta qoplamasi;

SSD- shartnoma bo'yicha sug'urta summasi<sup>79</sup>.

Sug'urta to'lovlarini tekshirish zaruriyati eng avvalo xarajatlarni prognozlashtirish, shuningdek, sug'urta tashkilotining daromadiga ta'sir darajasini o'rganish orqali yuzaga keladi.

Auditor eng avvalo tekshiruv olib borayotganida sug'urta tashkiloti tomonidan to'langan to'lovlar asosli va respublika qonunchiligiga zid emasligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Bizning fikrimizcha, auditor sug'urta to'lovlari bo'yicha birinchi navbatda schyotlarga ahamiyat qaratishi lozim, ma'lumki ular bo'yicha 22 schyotning tegishli sub schyotlaridan krediti bo'yicha operatsiyalar to'g'ri rasmiylashtirilganiga e'tibor qaratish zarur. Tegishli operatsiyalar yuzasidan sug'urta hodisasini isbotlaydigan asosli hujjatlar auditorga dalil bo'ladi. Yuqoridagi olimlarning fikriga asoslanib, bizningcha sug'urta to'lovlari

<sup>79</sup> И.В.Шапошникова «Бухгалтерский учет, анализ и аудит» Учебное пособие Саратов, 2013 – 180 с, 51-бет

bo'yicha auditorlik tekshiruvi quyidagi ketma-ketlik bo'yicha bajarilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- 1) sug'urta to'lovlari bo'yicha auditor reja va dasturini tuzish:
  - tekshirilayotgan hisobot yilida sug'urta mukofotlari va sug'urta to'lovlarning biri-biriga mutanosibligi;
  - to'langan sug'urta to'lovlari bo'yicha etarlicha asoslangan hujjatlarning mavjudligi;
- 2) auditorning tekshiruv amallaridan foydalanishi:
  - sug'urta to'loviga oid mos tanlab tekshirishni amalga oshirish;
  - to'lovlar bo'yicha zararlilik darajasini tahlil qilish va yuqori yoki pastligiga qarab, tegishli tavsiyalarini ishlab chiqish;
  - sug'urta to'lovlarning tashkilot sof foydasiga ta'sirini o'rganish
- 3) tekshiruv davomida yuzaga keladigan muhimlik va risk darajasini baholab, sug'urta to'loviga ta'sirini o'rganish hamda natijalarini umumlashtirishda oldingi yillarning umumiy hisobotidan foydalanish. Aytib o'tish joizki, auditor tekshiruv davomida, shartnomalarni bekor qilinishi holati yoki bir shartnoma doirasida sodir bo'lgan bir necha marta to'langan sug'urta qoplamalarini ham alohida tekshirishi lozim.

17-jadval

**Sug'urta to'lovlari auditorlik tekshiruvidan o'tkazish dasturi<sup>80</sup>**

| № | Audit o'tkazishdagi savollar ro'yxati  | Rasmiylashtirish tartibi                       | Dalillarni olish manbaalari  | Ko'rsatmalar berish |
|---|--|--|--|---------------------|
| 1 | Sug'urta to'lovlarni hisobga oladigan jurnalning mavjudligi va rasmiy lashtirilishi            | Sug'urta shartnomasi, ma'lumotnoma             | Sug'urta shartnomasi, suhurta to'lovlari bo'yicha jurnal             | Bor yoki yo'q       |
| 2 | Qoplama olish bo'yicha mijozning ko'rsatmasi   | Ariza yoki unga tenglashtirilgan boshqa hujjat | Sug'urta hodisasini tasdiqlovchi hujjatlar, sug'urta shartnomasi     | Bor yoki yo'q       |
| 3 | Sug'urta hodisasining yuz berish davri sug'urta shartnomasida keltirilgan muddatga mos kelishi | Sug'urta shartnomasi                           | Sug'urta shartnomasi, sug'urta to'lovlarni rasmiy lashtirish jurnali | Bor yoki yo'q       |

<sup>80</sup> Mutallif tomonidan ishlab chiqilgan.



|    |   |   |  |               |
|----|---|---|--|---------------|
| 4. | Sug'urta to'lovlarini qoplash davriyligi                                  | Sug'urta shartnomasi, tashkilotning ichki tartib-qoidalar   | Sug'urta shartnomasi, tashkilotning ichki Nizomi | Bor yoki yo'q |
| 5. | Sug'urta to'lovlari sug'urta hodisasi yuz bergan davrga tegishli bo'lmasa | Sug'urta shartnomasi, tegishli tashkilotning ma'lumotnomasi | tegishli tashkilotning ma'lumotnomasi            | Bor yoki yo'q |
| 6. | Sug'urta to'lovlarini buxgalteriya yozuvida aks ettirilishi               | Buxgalteriya dastlabki hujjatlari                           | Buxgalteriya yozuvlari va schyotlar              | Bor yoki yo'q |
| 7. | Sug'urta to'lovlari bo'yicha umumiy hisobotni shakllantirish              | Sug'urta to'lovlari bo'yicha moliyaviy hisobot              | Hisob registrlari, sug'urta shartnomasi          | Bor yoki yo'q |

Sug'urta to'lovlarini tekshirish va rasmiylashtirish holati xuddi mukofotdagidek murakkab jarayon hisoblanadi, negaki, to'lovlarni asossiz to'lamaslik yoki hujjatsiz to'lab berish tashkilotning moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. SHuning uchun ham auditor bu masalalarga jiddiy yondoshishi kerak.

Sug'urta zahiralari shakllantirish bo'yicha auditorlik tekshiruvini tashkil qilish.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga asosan, qabul qilingan sug'urta majburiyatlari bajarilishini ta'minlash uchun sug'urtalovchilar ham so'mda, ham chet el valyutasida to'langan sug'urta mukofotlaridan qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda va shartlarda sug'urta zaxiralarini shakllantiradilar hamda joylashtiradilar<sup>81</sup>. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirining 2008 yil 20 noyabrda 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risida"gi Nizom (2015 yil 29 oktyabrdagi 94-son buyrug'iga ILOVA

<sup>81</sup>O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 2002-yil, 21-moddasi

*Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralari to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar*ga muvofiq shakllantiriladi. Nizomga muvofiq, sug'urtalovchi buxgalteriya hisobotini tuzishda hisobot sanasiga sug'urta faoliyatini amalga oshirishdan olingan moliyaviy natijalarini aniqlashda sug'urta zaxiralari hajmini hisoblaydi. Sug'urta zaxiralari hisob-kitobi sug'urtalovchining hisob va hisobot ma'lumotlariga asoslangan holda amalga oshiriladi

Sug'urta tashkilotida mavjud bo'lgan zahiralalar shunchalik ko'pki, ba'zida bunday zahiralarni boshqa tashkilotlarda ko'rmaydi kishi. Ko'p holatlarda esa, auditorni shalg'itishi mumkin bo'lgan ehtimollikning eng yuqori qismini ham zahiralarga borib taqaladi. Sug'urta tashkiloti Nizom asosida quyidagi texnik zahiralarni shakllantirish shart:

a) ishlab topilmagan mukofot zahirasi (umumiy sug'urta (qayta sug'urta qilish) bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda);

b) mukofotlar zahirasi (hayotni sug'urta qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda);

v) keyingi yillarda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta to'lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo'ljallangan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zahirasi (FJMS BZ) (transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda);

g) sug'urta hodisasining yuz berishi bilan kelib chiquvchi hamda sug'urta shartnomasi shartlari bo'yicha qoplanishi lozim bo'lgan zarar (ziyon) hajmiga muvofiq holda aniqlanadigan va quyidagilardan tarkib topgan zararlar zahirasi:

1. xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zahirasi (XZZ);

2. sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zahirasi (SXZZ).

Sug'urtalovchi Davsug'urtanazorat bilan kelishilgan holda qo'shimcha ravishda: ogohlantirish chora-tadbirlari zahirasi (OCHZ); falokatlar zahirasi (FZ); zararlilikning tebranishi zahirasi (ZTZ); aktivlarning nomuvofiqligi zahirasi (ANZ); sug'urta faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa turdagi sug'urta zahiralarni tashkil etishi mumkin<sup>82</sup>. Nizomga asosan

---

<sup>82</sup>O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008-yil 15-dekabrda 1882-son bilan to'yxatga olingan Moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrda 107-son buyrig'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralari to'g'risida"gi Nizomi

|    |   |   |  |               |
|----|---|---|--|---------------|
| 4. | Sug'urta to'lovlarini qoplash davriyligi                                  | Sug'urta shartnomasi, tashkilotning ichki tartib-qoidalari  | Sug'urta shartnomasi, tashkilotning ichki Nizomi | Bor yoki yo'q |
| 5. | Sug'urta to'lovlari sug'urta hodisasi yuz bergan davrga tegishli bo'lmasa | Sug'urta shartnomasi, tegishli tashkilotning ma'lumotnomasi | tegishli tashkilotning ma'lumotnomasi            | Bor yoki yo'q |
| 6. | Sug'urta to'lovlarini buxgalteriya yozuvida aks ettirilishi               | Buxgalteriya dastlabki hujjatlari                           | Buxgalteriya yozuvlari va schyolar               | Bor yoki yo'q |
| 7. | Sug'urta to'lovlari bo'yicha umumiy hisobotni shakllantirish              | Sug'urta to'lovlari bo'yicha moliyaviy hisobot              | Hisob registrlari, sug'urta shartnomasi          | Bor yoki yo'q |

Sug'urta to'lovlarini tekshirish va rasmiylashtirish holati xuddi mukofotdagidek murakkab jarayon hisoblanadi, negaki, to'lovlarni asossiz to'lamaslik yoki hujjatsiz to'lab berish tashkilotning moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. SHuning uchun ham auditor bu masalalarga jiddiy yondoshishi kerak.

Sug'urta zahiralari shakllantirish bo'yicha auditorlik tekshiruvini tashkil qilish.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga asosan, qabul qilingan sug'urta majburiyatlari bajarilishini ta'minlash uchun sug'urtalovchilar ham so'mda, ham chet el valyutasida to'langan sug'urta mukofotlaridan qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda va shartlarda sug'urta zaxiralari shakllantiradilar hamda joylashtiradilar<sup>81</sup>. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirining 2008 yil 20 noyabrda 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risida"gi Nizom (2015 yil 29 oktyabrdagi 94-son buyrug'iga II.0)VA

<sup>81</sup>O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonun 2002-yil, 21-modda

*Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralari to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar*)ga muvofiq shakllantiriladi. Nizomga muvofiq, sug'urtalovchi buxgalteriya hisobotini tuzishda hisobot sanasiga sug'urta faoliyatini amalga oshirishdan olingan moliyaviy natijalarini aniqlashda sug'urta zaxiralari hajmini hisoblaydi. Sug'urta zaxiralari hisob-kitobi sug'urtalovchining hisob va hisobot ma'lumotlariga asoslangan holda amalga oshiriladi

Sug'urta tashkilotida mavjud bo'lgan zahiralalar shunchalik ko'pki, ba'zida bunday zahiralarni boshqa tashkilotlarda ko'rmaydi kishi. Ko'p holatlarda esa, auditorni shalg'itishi mumkin bo'lgan ehtimollikning eng yuqori qismi ham zahiralarga borib taqaladi. Sug'urta tashkiloti Nizom asosida quyidagi texnik zahiralarni shakllantirish shart:

a) ishlab topilmagan mukofot zahirasi (umumiy sug'urta (qayta sug'urta qilish) bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda):

b) mukofotlar zahirasi (hayotni sug'urta qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda):

v) keyingi yillarda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta to'lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo'ljallangan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zahirasi (FJMS BZ) (transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda):

g) sug'urta hodisasining yuz berishi bilan kelib chiquvchi hamda sug'urta shartnomasi shartlari bo'yicha qoplanishi lozim bo'lgan zarar (ziyon) hajmiga muvofiq holda aniqlanadigan va quyidagilardan tarkib topgan zararlar zahirasi:

1. xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zahirasi (XZZ);

2. sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zahirasi (SXZZ).

Sug'urtalovchi Davsug'urtanazorat bilan kelishilgan holda qo'shimcha ravishda: ogohlantirish chora-tadbirlari zahirasini (OCHZ); falokatlar zahirasini (FZ); zararlilikning tebranishi zahirasini (ZTZ); aktivlarning nomuvofiqligi zahirasini (ANZ); sug'urta faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa turdagi sug'urta zahiralarni tashkil etishi mumkin<sup>82</sup>. Nizomga asosan

<sup>82</sup>(O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008-yil 15-dekabrda 1882-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrda 107-son buyrig'i bilan tashqiqlangan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralari to'g'risida"gi Nizomi

sug'urta zahiralari ikkita usulda hisoblanadi: "pro rata temporis" yoki "1/24" usuli.

18-jadval

Sug'urta zahirasini hisoblash usullari<sup>83</sup>

| Pro rata temporis  | 1/24   |
|--|--|
| $IMZ = Bm_i \cdot \frac{T_i - M_i}{T_i}$ <p>bu erda:<br/> <math>I_{mi}</math> - i-shartnoma bo'yicha ishlab topilmagan mukofot;<br/> <math>Bm_i</math> - i-shartnoma bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti;<br/> <math>T_i</math> - i-shartnomaning kunlardagi amal qilish muddati;<br/> <math>M_i</math> - i-shartnomaning kuchga kirishidan boshlab hisobot sanasigacha bo'lgan kunlar soni</p> | <p>Bu usulda 4 ta guruli uchun alohida hisoblanadi. Bazaviy sug'urta mukofoti (BSM) asos bo'ladi.</p> $BSM = M_{br} - K - O,$ <p><math>M_{br}</math> - sug'urta shartnomasi bo'yicha brutto mukofot.<br/> <math>K</math> - hisobot davrida shartnomaga muvofiq hisoblangan komission haq.<br/> <math>O</math> - brutto sug'urta mukofotidan majburiy ajratmalarning ayriqligi.</p> |

A.J.Tuychiev, va O.T.Astanakulovlar auditor zahiralarni tekshirishda asosan bazaviy sug'urta mukofotini hisoblashning to'g'riligi, ishlab topilmagan mukofotlar zahirasini (IMZ) shakllantirish metodini, IMZ larni to'g'ri rasmiylashtirish, arifmetik hisob-kitoblar to'g'riligini tekshirish va h.k.larni aytib o'tadi. Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, biz tomonimizdan sug'urta zahiralarni tekshirish bo'yicha quyidagi dasturni taqdim etamiz:

19-jadval

Sug'urta zahiralarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish dasturi<sup>84</sup>

| No | Audit o'tkazishdagi savollar ro'yxati        | Rasmiylashtirish tartibi | Dalillarni olish manbaalari | Ko'rsatmal ar berish |
|----|--|--------------------------|-----------------------------|----------------------|
| 1. | IMZlarni shakllantirish tartibi              | Nizom                    | Sug'urta shartnomasi, Nizom | Bor yoki yo'q        |
| 2. | IMZlarni guruhlarda to'g'ri rasmiylashtirish | Faoliyat litsenziyasi    | Nizom                       | Bor yoki yo'q        |

<sup>83</sup>1882-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirining 2008-yil 20-noyabr(dagi)107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralari to'g'risida"gi Nizom

<sup>84</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



|    |  |                                     |  |               |
|----|--|-------------------------------------|--|---------------|
|    |  | bo'yicha                            |  |               |
| 3. | Muddatdan oldin tugatilgan shartnomalar bo'yicha zahiraning mavjudligi | Bekor qilingan sug'urta shartnomasi | Bekor qilingan shartnoma ro'yxati, Nizom | Bor yoki yo'q |
| 4. | Sug'urta zahiralarni xususiyatidan kelib chiqib ajratmaslik            | Nizom, Faoliyat litsenziyasi        | Zahiralarni yuritish kartotekasi         | Bor yoki yo'q |
| 5. | IMZ tarkibida qayta sug'urtalovchining ulushini hisobga olish          | Qayta sug'urta shartnomasi          | Nizom                                    | Bor yoki yo'q |

Turli mamlakatlarda auditning asosiy maqsadi, auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi organlar va auditor kadrlar tayyorlash tizimini tahlil qiladigan bo'lsak, masalan: Angliya auditining asosiy maqsadi buxgalteriya hisobining haqqoniyligini nazorat qilish, hisobot tizimi va korxonalar moliyaviy hisoboti to'g'risida fikr bildirish bo'lsa, Respublikamiz auditining asosiy maqsadi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riligi hamda qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliyaviy hisobotini va u bilan bog'liq moliyaviy axborotni tekshirish hisoblanadi.

Turli mamlakatlarda auditning tashkil qilinishini quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

20-jadval

Turli mamlakatlarda auditning tashkiliy tavsiflari<sup>85</sup>

| Mamlakat | Ko'rsatkich   |  |  |
|----------|---|--|--|
|          | Auditning asosiy maqsadi  | Auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi organlar                  | Auditor kadrlar tayyorlash tizimi                                  |
| Angliya  | Buxgalteriya hisobining haqqoniyligini nazorat qilish, hisobot tizimi va korxonalar moliyaviy hisoboti to'g'risida fikr bildirish | Diplomlangan buxgalter va auditorlar qo'mitasi                     | Diplomlangan buxgalter va auditorlar qo'mitasi                     |
| Fransiya | Iqtisodning nodavlat sektorida moliyaviy hisobotlar haqqoniyligining tashqi moliyaviy nazorati                                    | 1. Buxgalter-ekspeditor organi<br>2. Taftishchilar milliy palatasi | 1. Buxgalter-ekspeditor organi<br>2. Taftishchilar milliy palatasi |

<sup>85</sup>Hamdamov B.K. "Audit iqtisodi" T: TMI, 2005 y.

|             |   |  |   |
|-------------|---|--|---|
| AQSH        | Xolis auditorlar tomonidan moliyaviy hisobotni tekshirish va ekspert-konsultativ faoliyat   | 1 Auditorlar uyushmasi federatsiyasi<br>2 Ichki ta'limchilar instituti<br>3 Buxgalterlar instituti               | 1 Dptentlangan auditorlar instituti<br>2 Ichki auditorlar instituti   |
| Shvetsiya   | Kompaniyalar, korxonalar, banklar, tashkilotlar moliyaviy hisobotini va xo'jalik muomalalarini buxgalteriya shchyotlarida aks ettirishini tekshirish  | 1 Auditorlik faoliyati komissiyasi 2 Auditorlarning Shvetsiya jamoasi (SIFS)                                     | 1 Auditorlik faoliyati komissiya<br>2 Auditorlar mulkasi osharish instituti (IPEIS)<br>3 Auditorlarning Shved jamoasi |
| Rossiya     | Buxgalteriya hisobotlarini RF qonunchiligiga mosligini mastaqil buxgalteriya ekspertizasi orqali aniqlash   | RF prezidenti qoshidagi auditorlik faoliyati bo'yicha komissiyasi, SALA MF va RF MB, Rossiya auditorlar palatasi | SALAR MF va RF MB o'qituvchi metodik markazi  |
| O'zbekiston | Moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riligi hamda qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliyaviy hisobotini va u bilan bog'liq moliyaviy axborotni tekshirish | 1 Moliya Vazirligi<br>2 Buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi 2 Auditorlar palatasi                         | 1 Moliya Vazirligi<br>2 Buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi<br>3 Auditorlar palatasi                           |

G'arb mamlakatlarida o'n minglab auditorlik firmalari (faqat AQSHning o'zida qirq besh mingdan ko'p faoliyat ko'rsatadilar. Butar xilma-xil bo'lib, bir kishidan yoki bir necha qasamyod qilgan buxgalterlardan iborat (bunday firmalar 90-95%). Xususiy firmalardan tortib, to transmilliy korporatsiyalar hisoblangan va xalqaro audit amaliyotida hal qiluvchi rol o'ynaydigan, yirik auditorlik firmalari ham mavjud. G'arbdagi yirik korporatsiyalar tomonidan auditorlik xizmati bozorida hukmronlik o'rnatilishi va o'tgan XX asrda kapitalning baynalmillashishi ham auditorlik firmalarining rolini yanada oshirdi. Birinchi transmilliy auditorlik korporatsiyalari, monopolistlar vujudga keldi va kuchli mavqega ega bo'ldilar (asosan, ikkinchi jahon urushidan keyin). Bunga misol «katta sakkizlik» bo'lib, u keyinchalik tegishli o'zgarish (transformatsiya)lardan so'ng, avval «oltilik»ka aylangan va 1998 yildan boshlab esa «katta beshlik» deb atalmoqda. Ko'plab mamlakatlarning obro'li professional va ishchan nashrlari vaqti-vaqti bilan etakchi auditorlik-konsultatsion firmalarning (milliy hamda transmilliy) ro'yxatini e'lon qilib turadilar. Ushbu ro'yxatlarning ko'pchiligi ularning faoliyati to'g'risidagi har xil

statistik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu ma'lumotlar vaqti-vaqti bilan yangilanib turiladi.

SHunday qilib, auditorlik faoliyatining rivojlanishi yirik transmilliy firmalarning vujudga kelishiga olib keldi. Bunday auditorlik firmalari ichida eng yiriklari quyidagilar:

«Prais Uotterxaus Ko'pers (Price Waterhous Coopers) – Angliya-Amerika

«Deloit va Tush» (Deloitte and Touch) – Amerika-YAponiya

“Ernst va YAng” (Ernst and Young) – SHotlandiya

“KPMG” (KPMG), shu jumladan Peat Marwick, VDO va boshqalar.

Ular haqiqatan ham butun dunyoda obro' qozongan monopolistlar bo'lib, sanab o'tilgan to'rtta firma jamlangan holda – xalqaro auditorlik-konsultatsion biznesning tan olingan va tajribali lideri hisoblanadi.

Milliy an'analar, shuningdek auditorlar jamoat tashkilotlari ham auditorlik faoliyatining barpo bo'lishi va rivojlanishida juda katta rol o'ynaydi. Masalan, Amerikadagi kasamyod qilgan buxgalterlar instituti – AQBI (American Institute of Certified Public Accountants – AICPA) AQSHda auditorlik faoliyatining rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Unga quyidagi majburiyatlar yuklangan:

-qasamyod qilgan buxgalterlar uchun professional talablarni belgilash;

-buxgalteriya hisobi va audit bilan bog'liq mavzularda tadqiqotlar o'tkazish va asarlar chop qilish:

-ma'muriyat uchun maslahat xizmatlari;

-soliqqa tortish sohasidagi maslahat xizmatlari va boshqalar.

Auditorlik faoliyatining rivojlanishiga ko'plab boshqa muassasalar, assotsiatsiyalar va institutlar ham ta'sir ko'rsatgan. Ulardan har biri ma'lum vazifalarni bajarish uchun yaratilgan bo'lib, ularda auditorlik faoliyatiga juda ham xilma-xil yondoshuvlar mavjud. SHubhasiz, eng muhimlaridan biri qimmatli qog'ozlar va birja operatsiyalari bo'yicha komissiya - QQBOK (Securbties and Exchange Comission – SEC) bo'lib, u moliya bozorining rivojlanishi uchun mas'ul hisoblanadi.

Bulardan tashqari, AQSHda markaziy hisob boshqarmasi (yoki umumiy buxgalteriya hisoboti boshqarmasi) – MHB (General Accounting Office - GAO) ham mavjud. Bu federal hukumat qonunchilik shahobchasining idoradan tashqari xizmati bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonda bu borada hisob palatasi tashkil etilgan. GAO faqat AQSH Kongressi oldidagina mas'ul hisoblanadi. Unga bosh nazoratchi rahbarlik qilib, u Kongress oldida hisobot beradi. GAO auditor xodimlarining asosiy majburiyati – aynan Kongress uchun auditorlarni tasdiqlash funksiyasini bajarishdir.

Umuman olganda, sug'urta tashkilotlarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish jarayoni murakkab bo'lishiga qaramasdan, jarayonlarning tashkil qilinishi to'g'ri yo'lga qo'yilsa sug'urta tashkiloti uchun ham, auditor va boshqa foydalanuvchilar uchun ham maqsadli bo'ladi.

#### **11.4 Sug'urta tashkilotlarining auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha xulosa va hisobotni rasmiylashtirish tartibi**

Sug'urta tashkilotining auditorlik tekshirish yuzasidan xulosasi auditorlik tashkilotining hisobotning ishonchliligi to'g'risidagi fikrini ifodalaydi.

Sug'urta tashkilotining tekshirish natijalari bo'yicha auditorlik xulosasi korxonaning yillik moliyaviy hisobotining eng muhim unsurlaridan biridir. "Moliyaviy hisobotlar to'g'risida fikr hosil qilish va hisobot (xulosa) berish" nomli 700-son XAS (Xalqaro auditorlik standarti)ga binoan, auditorlik hisoboti - xo'jalik yurituvchi sub'yekt rahbari, mulkdori, ishtirokehilari (aksiyadorlari) umumiy yig'ilishiga taqdim etiladigan, auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi huquq buzilishlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar, shuningdek, auditorlik tekshiruvini o'tkazish natijasida olingan va auditorlik xulosasini tuzish uchun asos hisoblanadigan boshqa axborotdan iborat bo'lgan hujjat. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish natijasida olingan va auditorlik xulosasini tuzish uchun asos hisoblanadigan boshqa axborotdan iborat bo'lgan hujjat<sup>86</sup>.

Auditorlik xulosasi - moliyaviy hisobotning haqqoniyligi (to'g'riligi) va buxgalteriya hisobini yuritish tartibining qonun hujjatlari bilan belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining fikri yozma shaklda ifodalangan va xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan hujjat<sup>87</sup>.

Auditorlik hisobotida quyidagilar bo'ladi:

a) nomi ("Auditorlik hisoboti" yoki "Auditorlik tashkilotining hisoboti": ikkala nom bir xil kuchga ega);

b) adresatning nomi;

v) kirish qismi;

g) tahliliy qism;

d) yakuniy qism.

Auditorlik hisobotining har bir sahifasiga moliyaviy hisobotning auditorlik tekshiruvini amalga oshirgan auditor (auditorlar) imzo chekishi shart.

<sup>86</sup> "Moliyaviy hisobotlar to'g'risida fikr hosil qilish va hisobot (xulosa) berish" 700-son XAS

<sup>87</sup> Shu yerda auditorlik xulosasi band.

Auditorlik hisobotining kirish qismida auditorlik tashkiloti rekvizitlari, shu jumladan auditorlik faoliyatini amalga oshirishga litsenziyaning raqami va sanasi, auditorlar va auditorlik tekshiruvida qatnashgan boshqa shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun asos va xo'jalik yurituvchi sub'yekt faoliyatining umumiy tavsifi keltiriladi.

Auditorlik hisobotining tahliliy qismi XASga havola qilishi va unda quyidagilar bo'lishi shart:

Xizmat ko'rsatuvchi sub'yektda ichki nazorat holatini tekshirish natijalari (batafsil bayoni);

buxgalteriya hisobi holati va moliyaviy hisobotni tekshirish natijalari;

moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish paytida qonunchilik talablariga rioya etilishini tekshirish natijalari;

solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash hamda to'lashning to'g'riligini tekshirish natijalari;

aktivlarning butligini tekshirish natijalari.

Xizmat ko'rsatuvchi sub'yekt ichki nazoratining holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- ichki nazorat tizimining xizmat ko'rsatuvchi sub'yekt faoliyatining miqyoslari va xususiyatiga muvofiqligi umumiy bahosi;

- auditorlik tekshiruvini mobaynida aniqlangan ichki nazorat tizimining xizmat ko'rsatuvchi sub'yekt faoliyatining miqyoslari va xususiyatiga jiddiy nomuvofiqliklari bayoni.

Xizmat ko'rsatuvchi sub'yektning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisoboti holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini baholash;

- auditorlik tekshiruvini davomida aniqlangan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashning belgilangan tartibini jiddiy buzishlar bayoni.

Xizmat ko'rsatuvchi sub'yekt tomonidan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirish paytida qonunlarga rioya etilishini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- xizmat ko'rsatuvchi sub'yekt amalga oshirgan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarining qonunchilikka muvofiqligini baholash;



- auditorlik tekshiruvi davomida aniqlangan, xizmat ko'rsatuvchi sub'yekt amalga oshirgan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarning qonunchilikka jiddiy nomuvofiqliklari bayoni.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi va to'lashning to'g'riligini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- tuzilgan va tegishli organlarga taqdim etilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'riligining bahosi;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va to'lashning belgilangan tartibini buzishi faktlari, soliq solinadigan bazani belgilash paytidagi chetga chiqishlar bayoni.

Aktivlar butligini tekshirish natijalari aktivlarni inventarlashga asoslanishi va o'z ichiga ularning haqiqatda mavjudligi va butligi to'g'risidagi ma'lumotlarni olishi kerak.

Auditorlik hisobotining yakuniy qismi auditorlik tashkilotining aniqlangan chetga chiqishlar va huquq buzilishlarini bartaraf etishga doir tavsiyalarini, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishga doir takliflari va maslahatlarini o'zi ichiga olishi kerak.

Auditorlik tashkiloti auditorlik hisobotini tuzganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Auditorlik hisobotida keltirilgan axborot maxfiy hisoblanadi va oshkor etilmasligi kerak. Axborotni oshkor etganlik uchun ushbu axborotdan foydalana oladigan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

Auditorlik hisobotining yakunida faoliyatni tekshirgan ma'sullar tekshiruv jarayoni xalqaro auditorlik standartlariga muvofiq o'tkazilganini qayd etib, auditorlik tashkiloti rahbari va ma'sullar tomonidan imzolanaadi.

Qayd etuvchi qismda auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot qonun hujjatlariga, shuningdek moliyaviy-xo'jalik faoliyatining haqiqiy holatiga muvofiqligi va haqqoniyligini baholashga asoslanishi ko'rsatilishi kerak.

Qayd etuvchi qismda auditorlik tekshiruvi fikrni ifodalash uchun yetarlicha asoslar berishi xususida auditorlik tashkilotining tasdig'i berilishi kerak.

Auditorlik xulosasining yakuniy qismida auditorlik tashkilotining tekshirilgan moliyaviy-hisobot xo'jalik yurituvchi sub'yekt moliyaviy-xo'jalik faoliyatining haqiqiy holati to'g'risida haqqoniy tasavvur berish-bermasligi va

moliyaviy hisobot qonun hujjatlariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi xususidagi fikri ravshan bayon etilishi kerak.

Auditorlik xulosalarining quyidagi turlari mavjud:

a) ijobiy auditorlik xulosasi;

b) salbiy auditorlik xulosasi.

Auditorlik tashkiloti xizmat ko'rsatuvchi sub'yektning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy ahvolini haqqoniy yoritadi va xizmat ko'rsatuvchi sub'yekt amalga oshirgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga muvofiq degan fikrga kelganda ijobiy auditorlik xulosasi tuzilishi kerak. Auditorlik tashkiloti xizmat ko'rsatuvchi sub'yektning moliyaviy hisobotida, agar xizmat ko'rsatuvchi sub'yekt tomonidan bartaraf etilmasa, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni chalg'itishi mumkin bo'lgan buzilishlar mavjud degan fikrga kelsa, salbiy auditorlik xulosasi tuzilishi kerak. Xizmat ko'rsatuvchi sub'yekt amalga oshirgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari moliyaviy hisobotda haqqoniy aks ettirilgan, lekin qonunchilik talablariga muvofiq kelmaydigan hollarda ham salbiy auditorlik xulosasi tuziladi. Odatda xizmat ko'rsatuvchi sub'yekt rahbariyatining auditorlik tashkilotining aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish maqsadida moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritish to'g'risidagi fikriga qo'shilmasligi salbiy auditorlik xulosasini tuzishga sabab bo'ladi.

Xizmat ko'rsatuvchi sub'yekt auditorlik tekshiruvini davomida aniqlangan buzilishlarni bartaraf etgan holda salbiy auditorlik xulosasi tuzilmaydi.

Auditorlik hisoboti. Moliyaviy holat bo'yicha auditorlik hisobotining sug'urtalovchi faoliyati yuzasidan ko'rsatmasi:

Auditor izohi:

a) audit o'tkazishning maqsadi, sug'urta kompaniyasining qoniqarli deb topish bo'yicha ko'rsatmasi, auditing muhimligi, tushuntirishlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

v) sug'urta kompaniyasining hisobiga mos keladigan nazorat kitobining bo'lishi.

s) agar oldin sug'urta kompaniyasi auditorlik tekshiruvidan o'tkazilgan bo'lsa, o'sha xulosa natijasi bor yoki yo'qligi

d) shuningdek balans ma'lumotlari, foyda va zararlar hisobi, qabul qilish va to'loyni amalga oshirish hisobi o'z aksini hisobot va hisob-kitobini mavjud yoki yo'qligi

e) aktuar hisob-kitoblar, to'lov hisoblashning norma va farazlari, vakolatli shaxs tomonidan hal qilingan masalalar o'sha vakolatli shaxs imzosi bilan

keltirilgan bo'lishi kerak.<sup>88</sup> Auditorlar xulosalarida quyidagilarni ifodalashlari lozim:

- haqiqat va rejaning bajarilishi holatini berishi kerak;

- balans ma'lumotlarida sug'urtalovchilarning rejadagi va haqiqatdagi o'zgarishlari moliyaviy yil va davr oxirida ko'rinishi mumkin.

-yillik foyda hisobi moliyaviy yillik yoki davr uchun defitsit yoki profitsitning haqiqat va rejadagi o'zgarishi aks ettirilganmi yoki yo'q?

- foyda va zarar hisobida moliyaviy va davr uchun foyda yoki zararining reja va haqiqatdagi holati aks ettirilganmi yoki yo'q;

- kiritim va chiqim hisobida moliyaviy yoki choraklik hisobotda kiritim va chiqimning reja va haqiqatdagi holati aks ettirilganmi yoki yo'qligi<sup>89</sup>.

Sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalash valyutada amalga oshirilgan bo'lsa, auditor chet el valyutasi bilan amalga oshirilgan operatsiyalar qonuniyligini aniqlashi kerak. Tekshiruvning ush bu bandiga shuningdek quyidagilar kiradi:

Auditor tomonidan sug'urta to'lovlarining asoslanganligini tekshirishi (quyida batafsil ko'rib chiqiladi) Shikoyat-da'vo ishlariga rioya qilish, chunonchi sug'urta kompaniyasi zarur hollarning barchasida etkazilgan zarar uchun mas'ul shaxslarga nisbatan regressiv talab huquqidan foydalanganmi, regressiv da'vo taqdim etish tartibiga va muddatiga rioya qilinganmi va h.k. Amaldagi mehnat qonunchiligi talablariga rioya etilishini tekshirish. Auditorlar qo'shimcha holda quyidagilarni tasdiqlaydi:

- boshqaruv hisoboti va mavjud moddiy qiymatliklar moddiy holatlari bilan aks ettirilganligi va noaniqliklar yo'qligiga sharh beradi;

- sug'urta kompaniyasining sug'urtalovchi bilan tuzgan polislari muddatining bajarilish holatini ko'rib chiqadi<sup>90</sup>. Hisobotlarni to'g'ri tuzilishi va hisob siyosatiga rioya etilishi yuzasidan auditorlik tekshiruvi. Mazkur masala yuzasidan tekshiruvga kirishishdan avval auditor tekshiruvga tortilgan kompaniya bo'yicha hisobot siyosati shakllanadigan tegishli buyruq (farmoyish) mavjudligini, uning buxgalterlik hisobi bo'yicha Nizom, Korxonaning hisob siyosati hamda O'zR buxgalterlik hisobi va hisoboti to'g'risidagi Nizomga talablariga muvofiqligini aniqlashi lozim.

O'zbekiston Respublikasida buxgalterlik hisobi va hisoboti to'g'risidagi Nizomga muvofiq tashkilotning hisob siyosati to'liqlik, mazmunning shakldan

<sup>88</sup>Insurance Regulation in the United States: An overview for business and government /Peter M.Lencis: Audit of General Insurance Companies

<sup>89</sup>Insurance Regulation in the United States: An overview for business and government /Peter M.Lencis: Audit of General Insurance Companies

<sup>90</sup>Insurance Regulation in the United States: An overview for business and government /Peter M.Lencis: Audit of General Insurance Companies

ustunligi, qarama qarshiliksiz maqsadga muvofiqlik talablariga javob berishi kerak. Bevosita auditorlik tekshiruv ishlari jarayonida auditorlik tekshiruv qatnashchilari tomonidan auditorlik kompaniya tomonidan tekshirilayotgan hisobot yiliga qabul qilingan hisob siyosatiga rioya etilishi kuzatiladi.

#### **Nazorat savollari**

1. Sug'urta tashkilotining aktuar hisoboti nima.
2. Aktuar hisobot tarkibini aytib bering.
3. Sug'urta tashkilotlarini auditorlik tekshiruvdan o'tkazish tartibi qanday.
4. Sug'urta tashkilotlarining auditorlik tekshiruv natijalarini umumlashtirish tartibi qanday.

## XII BOB. SUG'URTA BIZNESIDA SUG'URTA TASHKILOTINING BO'LIMLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

### 12.1 Sug'urta tashkilotining boshqaruv tuzilmasi

Sug'urta kompaniyasi o'z faoliyatini tijorat asosida amalga oshiradi. Ya'ni, asosiy maqsadi keskin raqobat sharoitida xarajatlarni optimallashtirgan va jamoaning butun resurslarini safarbar etgan holda samarali faoliyat ko'rsatishga qaratilgan. Sug'urta kompaniyasi menejmentiga uning qaysi mulk shaklida tashkil etilganligi katta ta'sir ko'rsatadi. Bu g'oyaning muvaffaqiyatli jihati shundaki, firmaning egasi foydasiga ishlaydigan va ko'zlangan miqdordagi foyda olish uchun harakat qiladigan firma menejerlari uchun foydali manbaa bo'lib hizmat qildi<sup>91</sup>.

Ma'lumki, sug'urta kompaniyalarini amaldagi qonunchilik hujjatlariga ko'ra, davlat, aksiyadorlik va o'zaro sug'urtalash jamiyatlari shaklda tashkil etish mumkin. Ustav fondi jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan xo'jalik yurituvchi sub'ekt aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi. Jamiyat qonun hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatning har qanday turlarini amalga oshirish chogida huquqlarga ega bo'ladi va majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Jamiyat yuridik shaxs hisoblanadi va o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkiga ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, suda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Sug'urta kompaniyalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquklarini qo'lga kiritadi. Agar uning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, cheklanmagan muddatga tuziladi.

<sup>91</sup> David F. Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers. An Analysis of the Process 2005, p.4





Sug'urta kompaniyalarining oliy boshqaruv organi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Aksiyadorlarning umumiy hisobot yig'ilishi har yili, moliya yili tugaganidan keyin kupi bilan olti oy ichida o'tkaziladi. Aksiyadorlarning umumiy hisobot yig'ilishida amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan masalalar hal qilinadi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga quyidagilar kiradi<sup>14</sup>:

➤ jamiyat ustaviga (Jamiyatning Ustav fondini ko'paytirish bilan bog'liq o'zgartishlar va qo'shimchalardan boshqa) o'zgartishlar va qo'shimchalarni kiritish yoki Jamiyatning yangi taxrirdagi Ustavini tasdiqlash:

➤ jamiyatni qayta tashkil etish;

➤ jamiyatni tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

➤ jamiyat Kuzatuv kengashining miqdor tarkibini belgilash, uning a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatish;

➤ e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

➤ jamiyatning Ustav fondini kamaytirish;

➤ o'z aksiyalarini qayta sotib olish;

➤ jamiyat ijroiya organini saylash;

➤ jamiyat taftish komissiyasining a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatish;

➤ auditorlik tekshiruvni o'tkazish, auditorlik tashkilotini va uning xizmatiga to'lanadigan hakning eng ko'p miqdorini belgilash to'g'risida qaror qabul qilish;

➤ jamiyatning yillik hisobotlarini, buxgalteriya balanslarini, foyda va zararlarini hisobotini tasdiqlash, uning foyda va zararlarini taqsimlash;

➤ aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni sotib olishda aksiyadorning imtiyozli huquqini qo'llamaslik to'g'risida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;

➤ umumiy yig'ilish reglamentini tasdiqlash;

➤ aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

➤ jamiyat Bosh direktorini saylash, uning vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatish.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun jamiyat ijroiya organiga berilishi mumkin emas. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlak vakolatiga kiritilgan masalalar hal qilish

<sup>14</sup> David F. Iabbel Anthony M. Santometto. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process. 2005, p.9

uchun Jamiyatning Kuzatuv kengashiga berilishi mumkin emas, amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan masalalarni hal etish bundan mustasno. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga uzgartirishlar kiritishga xalki emas. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qarori yig'ilishda ishtirok etayotgan Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalari egasi bo'lmish aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan kabul kilinadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini utkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarga ularning nomiga eng kamida 10 kun avval yozma xabarnoma yuborish va matbuotda tegishli axborot e'lon qilish orqali ma'lum kilinadi. Xabarda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ma'lumotlar o'z ifodasini topishi lozim. Aksiyadorlarning navbatdan tashkari umumiy yig'ilishi jamiyat kuzatuv kengashining karori bilan uning o'z tashabbusiga binoan, jamiyat taftish komissiyasi talabiga ko'ra, shuningdek talab taqdim etilgan sanada jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida o'n foiziga ega bo'lgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabi bilan o'tkaziladi. Jamiyatning Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, qonun bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno. Jamiyatning Kuzatuv kengashi aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi tomonidan aksiyadorlar ichidan beshta a'zo tarkibida bir yillik muddatga saylanadi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga binoan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolariga ular uz vazifalarini bajarib turgan davrda badal to'lanishi va (yoki) Kuzatuv kengashining a'zosi vazifasini bajarish bilan bog'lik harajatlari qoplanishi mumkin. Bunday badal va to'lovlarning miqdori Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi karori bilan belgilab qo'yiladi.

## **12.2 Sug'urta tashkilotining bo'limlari faoliyatini tashkil etishda kuzatuv kengashining vakolatlari**

Sug'urta kompaniyalari Kuzatuv kengashining vakolatlariga quyidagilar kiradi<sup>93</sup>:

- ✓ jamiyat faoliyatining ustun yunalishlarini belgilash;
- ✓ jamiyat aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashkari Umumiy yig'ilishlarini chaqirish, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
- ✓ aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;

<sup>93</sup> David F. Halubel Anthony M. Santometra, *Risk Management by Insurers: An Analysis of the Progress 2005*, p.12

✓ umumiy yigilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning ro'yxati tuziladigan sanani belgilash;

✓ aksiyalarning nominal qiymatini ko'paytirish orqali yoki e'lon qilingan aksiyalarning soni va turlari doirasida jamiyat tomonidan qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish orqali jamiyat ustav fondini ko'paytirish;

✓ emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish to'g'risida qarorlar qabul qilish, agar jamiyat ustavida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa;

✓ mol-mulkning bozor qiymatini aniqlash;

✓ jamiyat tomonidan joylashtirilgan aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni olish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

✓ jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash;

✓ korporativ maslahatchini tayinlash;

✓ ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash;

✓ aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori va ularni to'lash tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

✓ jamiyatning zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish;

✓ jamiyatning boshqaruv organlari faoliyat tartibini belgilovchi hujjatlarni tasdiqlash;

✓ jamiyatning vakolatxonalarini ochish hamda filiallarini tashkil etish;

✓ jamiyatning sho'ba va tobe korxonalarini tashkil etish.

Jamiyat Kuzatuv kengashining Raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik kiladi, majlisda bayonoma yuritilishini tashkil etadi, Aksiyadorlar Umumiy yigilishida raislik kiladi. Jamiyat Kuzatuv kengashining Raisi yo'qligida uning vazifasini Kuzatuv kengashi a'zolaridan biri bajarib turadi. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisi Kuzatuv kengashining Raisi tomonidan uning o'z tashabbusi bilan, Kuzatuv kengashining a'zosi, Taftish komissiyasi, Bosh direktorning talabiga binoan chaqiriladi.

Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish uchun kvorum Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining etmish besh foizidan kam bo'lmasligi kerak. Kuzatuv kengashi a'zolarining soni etmish besh foizdan kam bo'lib qolsa, Jamiyat Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning favqulodda (navbatdan tashkari) umumiy yigilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning ana shunday favqulodda (navbatdan tashqari) Umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagina qaror qabul qilishga haqlidir.

Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisida hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi. Jamiyat Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozi Kuzatuv kengashining boshqa a'zoriga berishiga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu Ustav Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lingan hollarda Kuzatuv kengashining qarorini qabul qilishda Jamiyat Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz huquqiga ega bo'lishini nazarda tutadi. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda raislik qilgan shaxs tomonidan imzolanadi, u majlisning bayonnomasi to'g'riligi uchun javobgardir<sup>94</sup>.

Sug'urta kompaniyasining kundalik faoliyatiga rahbarlikni yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organ - Bosh direktor amalga oshiradi va u aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi tomonidan bir yillik muddatga saylanadi. Jamiyat ijroiya organining vakolatlariga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doyr barcha masalalar kiradi, Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining yoki Kuzatuv kengashining mutlak vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno. Jamiyat ijroiya organi Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

Bosh direktor Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi. shu jumladan uning manfaatlarini ifoda etadi, Jamiyat nomidan bitimlar tuzadi, shtatlarni tasdiklaydi, Jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi. Bosh direktor bilan shartnomani muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga binoan amalga oshiriladi. Jamiyat Bosh direktorining huquqlari va burchlari qonun hujjatlari, shuningdek Jamiyat tomonidan u bilan bir yillik muddatga tuziladigan shartnomada aniqlanadi.

Jamiyat nomidan shartnomani Kuzatuv kengashining raisi yoki Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs imzolaydi. Bosh direktor boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozimlarni o'rindoshlik yuli bilan egallashiga Kuzatuv kengashi roziligi bil angina yul kuyiladi. Jamiyatning Bosh direktori o'z huquqlarini amalga oshirish va burchlarini bajarish vaqtida Jamiyatning manfaatlarini ko'zlagan holda harakat qilishi lozim. Bosh direktor qonun hujjatlari va kompaniya Ustaviga muvofiq jamiyat oldida javobgar hisoblanadi.

<sup>94</sup> David F. Babbel Anthony M. Santametro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005, p.2.



Aksiyadorlik sug'urta kompaniyalarida taftish komissiyasi muhim rol o'ynaydi. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish uchun aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyadorlar safidan uch a'zo tarkibida va ikki yillik muddatga taftish komissiyasini saylaydi. Jamiyat Taftish komissiyasi faoliyatining tartibi Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan Nizomda aniqlanadi. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha Taftish komissiyasining tashabbusiga binoan, Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining, Kuzatuv kengashining qaroriga yoki jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida o'n foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga binoan amalga oshiriladi.

Jamiyat Taftish komissiyasining talabiga binoan Jamiyatning boshqaruv organlaridagi mansabdor shaxslar moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni unga taqdim etishlari shart. Jamiyatning Taftish komissiyasi qonun hujjatlariga muvofiq Aksiyadorlarning navbatdan tashkari Umumiy yig'ilishi chaqirilishini talab qilishga xaqli.

Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisob-kitobini yuritishi va moliya hisobotini taqdim etishi shart. Jamiyatda buxgalteriya hisob-kitobini tashkil etish, uning holati va to'g'ri yuritilishi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliya hisobotlari, shuningdek aksiyadorlar, kreditorlar va ommaviy axborot vositalariga Jamiyat faoliyatiga doir ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik qonun hujjatlariga muvofiq ijroiya organi zimmasida bo'ladi. Jamiyatning Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishiga taqdim etiladigan yillik hisobotidagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobotlaridagi ma'lumotlarning to'g'ri ekanligi Jamiyatning taftish komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi lozim<sup>45</sup>.

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlarni matbuotda e'lon qilishdan oldin Jamiyat yillik moliya hisobotini har yilgi tekshirish va tasdiqlash uchun Jamiyat yoki uning aksiyadorlari bilan mulkiy manfaatlar negizida bog'liq bo'lmagan auditorii jalb etishi shart. Jamiyatning yillik hisoboti Aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida 30 kun oldin Kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatining tekshiruvchi soliq va moliya organlari, boshqa davlat organlari tomonidan ularga berilgan vakolatlar doirasida, shuningdek zarur bo'lgan

<sup>45</sup> David F. Ibbot, Anthony M. Santomero, *Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process*, 7025, p. 10

hollarda - tuzilgan shartnomalar asosida auditorlik xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi.

Jamiyatni qayta tashkil etish amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qarori bilan qo'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratib chiqarish va qayta tarzida amalga oshiriladi.

Jamiyat

-Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra;

- Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq sudning qaroriga asosan;

- Amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra tugatilishi mumkin.

Jamiyat tugatilgan taqdirda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tugatish komissiyasini tuzadi, tugatishni o'tkazish tartibi va muddatini belgilaydi, kreditorlarga nisbatan da'vo qo'yish muddatini belgilaydi va bu muddat tugatish hakida e'lon kilingan vaqtdan e'tiboran ikki oydan kam va uch oydan ko'p bo'lishi mumkin emas, tugatishni sud karoriga binoan amalga oshirish hollari bundan mustasno. Tugatish komissiyasi yoki Jamiyatni tugatish ishlarini olib borayotgan har qanday boshqa organ Jamiyat joylashgan manzilidagi rasmiy matbuotda uning tugatilishi va kreditorlar tomonidan talab kuyish tartibi va muddati haqidagi xabarni e'lon qiladi. Kreditorlar tomonidan talablar qo'yish muddati Jamiyat tugatilishi haqidagi habar e'lon kilingan vaqtdan boshlab ikki oydan kam bo'lmasligi lozim. Tugatish komissiyasi kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzlarni olish choralarini ko'radi, shuningdek jamiyat tugatilishi haqida kreditorni yozma ravishda xabardor qiladi.

Kreditorlar tomonidan talablarni qo'yish uchun belgilangan muddat tamom bo'lganidan keyin Tugatish komissiyasi oraliq tugatish balansini tuzadi, bu balans Jamiyat mol-mulkingining tarkibi, kreditorlar qo'ygan talablar ro'yxati, shuningdek, ularni ko'rib chiqish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Oraliq tugatish balansi tugatilayotgan Jamiyatni davlat ro'yxatidan o'tkazgan organ bilan kelishilgan holda Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Agar tugatilayotgan Jamiyat ihtiyoridagi pul mablag'lari kreditorlarning talablarini qondirish uchun etarli bo'lmasa, tugatish komissiyasi Jamiyatning boshqa mol-mulkini kim oshdi savdosi orqali sotadi.

Tugatilayotgan Jamiyat kreditorlariga pul summalarini to'lash tugatish komissiyasi tomonidan amaldagi qonun hujjatlarida belgilab kuyilgan navbat tartibida, oraliq tugatish balansiga muvofiq, u tasdiqlangan kundan boshlab amalga oshiriladi. Kreditorlar bilan hisob-kitob qilish tugatilgan jamiyat

ixtiyorida qolgan mulk Tugatish komissiyasi tomonidan amaldagi konun xujjatlarida belgilangan tartibda aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Davlat ro'yxatiga olish organi tomonidan yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga tegishli yozuv kiritilgan vaqtdan e'tiboran Jamiyatni tugatish yakunlangan. Jamiyat esa tugatilgan hisoblanadi.

### 12.3 Sug'urta tashkilotlarida xodimlar bilan ishlash departamentining faoliyatini tashkil etilishi

Bugungi amaliyotda xodimlarni boshqarish muammosiga ikki xil yondoshuv mavjud:

- ✓ inson resurslarini boshqarish;
- ✓ xodimlarni boshqarish.

*"Inson resurslarini boshqarish"* tushunchasi boshqarishning strategik jihatlarni, shuningdek ijtimoiy rivojlanish masalalarini o'z ichiga oladi va ularga ustuvorlik beriladi. *"Xodimlarni boshqarish"* tushunchasi esa ko'proq kadrlar bilan tezkor ishlashni anglatadi.

Shuningdek sug'urta kompaniyasi yerlarida chunki moliyaviy yomon ahvoldagi katta miqdorda qiymatning ko'tarilishi olib kelishi haqida dalil mavjud, qiymatning o'sishi inqiroziy jarayonlar: qonuniy qiymatlar va ehtimol menejmentning haqiqiy iqtisodiy baho yaratishdagi e'tiborning og'ishini qo'llab-quvvatlaydi<sup>96</sup>.

Agar birinchi yondoshuv davlat miqyosida bandlik va uni muvofiqlashtirish vazifalaridan kelib chiksa, ikkinchi yondoshuv bevosita sug'urta kompaniyasi darajasidagi mehnat munosabatlari va ularni muvofiqlashtirishdan kelib chiqadi. Bu holatni bizni quyida keltirilgan jadval ma'lumotlarda izohlash mumkin.

*Xodimlarni boshqarish* deganda sug'urta kompaniyasida band bo'lgan kishilar salohiyatini rivojlantirish va undan samarali foydalanish, ularning faoliyat ko'rsatishi uchun zaruriy shart-sharoit yaratish bo'yicha o'zaro bog'langan tashkiliy - iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlar tizimi tushuniladi.

Bunday boshqaruv funksional va tashkiliy boshqaruvlarga bo'linadi. Funksional boshqaruv deganda bevosita kadrlar masalasini yechish bilan bogliq masalalar, ya'ni kadrlarni tanlash, ishdan bo'shatish, malakasini oshirish, ish xaki va hokozolar tushuniladi. Tashkiliy boshqaruv tushunchasi kadrlar ishi uchun bevosita javob beruvchi barcha shaxs va boshqarmalar,

<sup>96</sup> David F. Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Progress 2005, p. 4

ya'ni rahbarlar, kadrlar bo'limi, kasaba uyushmalari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

12.1- jadval

**Inson resurslarini boshqarish<sup>97</sup>**

| <b>BOSHQARISH TURLARI</b>   |   |
|---|---|
| <i>FAOLIYAT SOHASIGA QARAB</i>  |   |
| Inson resurslarini boshqarish (strategik yondoshuv)   | Xodimlar bilan ishlash  |
| <i>NIMAGA USTUVORLIK BERILISHIGA QARAB</i>  |   |
| mutloq yangi vazifalarni echishga;<br>- global;<br>- uzok muddatli vazifalarni echishga qarab   | ma'muriy aralashuvga zaruriyat tug'iladigan kundalik muammolarni echishga   |
| <i>QANDAY FUNKSIYALARNI BAJARISHIGA QARAB</i>   |   |
| inson resurslarini rejalashtirish shaxsiy qobiliyat va malakani oshirish; kompaniyaning xodimlarga sarflanadigan xarajat doirasida xodimlar uchun xarajatlarni rejalashtirish | kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish mehnat motivatsiyasini boshqarish texnika xavfsizligini nazorat qilish nizolarni hal qilish |
| <i>BAJARILISHI TO'G'RISIDA KIMGA MA'LUMOT BERILADI</i>  |   |
| Kompaniya bosh menejeriga   | Bosh menejer o'rinbosari  |

<sup>97</sup> Muellif tomonidan ishlab chiqilgan.

## XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMI

## ISH SHAROTI BO'YICHA:

|   |  |                             |
|---|--|-----------------------------|
| 1. Mehnatning ruhiy - fiziologik talablariga to'g'ra qaratilgan | 2. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligini ta'minlash | 3. Tabiatni muhofaza qilish |
|---|--|-----------------------------|

## MEHNAT MUNOSABATLARI BO'YICHA:

|   |   |  |                                  |  |
|---|---|--|----------------------------------|--|
| 1. Shaxsiy va guruhlar munosabatlari tahlil qilish va muvofiqlashtirish | 2. Rahbarlar munosabatlari tahlil qilish va muvofiqlashtirish | 3. Xizmat ko'rsatishdagi ixtiloflar, nizolar | 4. Asubhuzartliklarni boshqarish | 5. Kasaba uyushmalari bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish |
|---|---|--|----------------------------------|--|

## KADRLARNI HISOBGA OLISH VA RASMIYLASHTIRISH

|  |  |   |                                   |                         |
|--|--|---|-----------------------------------|-------------------------|
| 1. Ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish, bir joydan | 2. Ikkinchi joyga o'tishlarni rasmiylashtirish | 3. Kadrlar boshqaruv tizimini axborotlar bilan ta'minlash | 4. Kasbiy yo'nalishlarni aniqlash | 5. Bandlikni ta'minlash |
|--|--|---|-----------------------------------|-------------------------|

## XODIMLARNI REJALASHTIRISH VA XODIMLAR MARKETNGI

|  |                                       |   |   |
|--|---------------------------------------|---|---|
| 1. Xodimlarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish | 2. Kadrlar salohiyatini tahlil qilish | 3. Mehnat bozorini o'rganish, xodimlarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, reklamlarni uyushtirish | 4. Kompaniyani kadrlar bilan ta'minlovchi tashqi manbaalar bilan aloqasini o'rnatish, vakant(bo'sh) joylarga nomzodlarni aniqlash va baholash |
|--|---------------------------------------|---|---|

## KADRLARNI RIVOJLANTIRISH

|  |  |  |
|--|--|--|
| Kadrlarni joriy baholash borish hamda kadrlarga iqtisodiy va | 2. Qayta tayyorlash va malakasini oshirish; zaxiradagi kadrlar bilan | 3. Yangi xodimlarni kasbiy va ijtimoiy - psixologik ko'makchasini ta'minlash |
|--|--|--|



|   |   |  |   |  |
|---|---|--|---|--|
| texnikaviy bilimlar berish  | ishlash, amal va martabani nazorat qilish va rejalashtirish   |  |   |  |
| <b>MEHNATNI RAG'BATLANTIRISH VOSITALARINI TAKOMILLASHTIRISH</b>                     |   |  |   |  |
| 1. Mehnat jarayonlarini normalashtirish va tarifikatsiyalash                        | 2. Ish xaqi haqqini ishlab chiqish  | 3. Ma'naviy rag'batlantirish vositalaridan foydalanish | 4. Foyda va kapitalga qatnashish xissasini ishlab chiqish | 5. Motivatsiya va uni boshqarish   |
| <b>XUQUQIY XIZMAT</b>   |   |  |   |  |
| 1. Mehnat munosabalaridagi huquqiy masalalarni, echish                              | 2. Xodimlarni boshqarishga taalluqli fannoyishti hujjatlarini kelishish                                       | 3. Xo'jalik faoliyatidagi huquqiy masalalarni echish   |   |  |
| <b>IJTIMOIY TUZILMANI RIVOLLANTIRISH</b>  |   |  |   |  |
| 1. Umumiy o'qitilish muassasalarini boshqarish; kommunal xo'jalik sohani boshqarish | 2. Jismoniy tarbiya va madaniyatni rivojlantirish; sog'liqni muhofaza qilish va hordiq chiqarishni ta'minlash | 3. Bolalar muassasalari bilan ta'minlash               | 4. Ijtimoiy nizolarni boshqarish                          | 5. Xalq iste'mol mollari va oziq-ovqat maxsulotlari sotilishini ta'minlash |
| <b>BOSHQARISHNING TASHKILIY TARKIBINI ISHLAB CHIQISH TIZIMI</b>                     |   |  |   |  |
| 1. Boshqarishning shakllangan tashkiliy tarkibini tahlil qilish                     | 2. Boshqarishning tashkiliy tarkibini loyihalashtirish  | 3. Shartlar to'vratini ishlab chiqish                  | 4. Boshqarishning yangi tashkiliy tarkibini tuzish        |  |

Sug'urta kompaniyasida band bo'lgan barcha xodimlar ikki toifadan iborat:

- xizmat ko'rsatuvchilar;
  - boshqaruvchilar (rahbarlar, mutaxassis-menajerlar).
- Xodimlarni, ya'ni inson omilini boshqarish quyidagi jihatlarni boshqarishni o'z ichiga oladi:

Sug'urta kompaniyalarini boshqarish tizimida mehnat resurslarini boshqarish juda ham murakkabdir. Chunki, xizmatlar ko'rsatish va boshqarish masalalarining markazida odamlar - ishchilar, mutaxassislar va rahbarlar turadi. Sug'urta kompaniyasi oldida turgan maqsadga erishish va rejalarining bajarilishi faqat shular ishtirokida bo'ladi. Inson omilini hisobga olmaslik, insonga e'tiborsizlik oxir-oqibatda, sug'urta faoliyati samaradorligini pasayishiga olib keladi. Mehnat resurslarini boshqarishning asosiy maqsadi ishchilar va xodimlarning qobiliyatlarini, yanada jadal va unuvli mehnat qilishga safarbar etishdir.

Mavjud xodimlarni baholashda, eng avvalo ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi omillarga, xususan mehnat bozoridagi vaziyatga e'tiborni qaratmoq lozim. Zero, mehnat bozoridagi holat, ko'p jihatdan quyidagilarga bog'liq:

- ❖ aholi soni, yoshi, jinsi salmog'idagi o'zgarishlarga;
- ❖ tarmoq va hududiy bandlikdagi o'zgarishlarga;
- ❖ qo'shimcha ishchi kuchini yollash darajasiga;
- ❖ ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'atiga;
- ❖ mehnat resurslarini boshqarish usuliga va hokazo.

Ichki omillarni baholash uchun quyidagi ma'lumotlar tahlilini bajarmoq zarur:

➢ doimiy band bo'lgan xodimlar soni, familiyasi, yashash joyi, ishga qabul qilingan vaqti va hokazo;

➢ xodimlarning tarkibi (malakasi, mutaxassisligi, yosh tarkibi, milliy tarkibi, nogironlar salmog'i, ishchi va xizmatchilar va hokazo).

➢ xodimlar qo'nimsizligi;

➢ ish kunining davomliligi (to'liq yoki qisman bandligi, necha va qaysi smenada ishlashi, ta'tilning davomliligi va hokazo);

➢ ish xaqi, uning tarkibi, qo'shimcha ish xaki, ta'rif yoki ta'rifdan yuqori to'lov va hokazo.

Qayd qilingan tashqi va ichki omillarning ta'sirida mehnat bozoridagi vaziyat o'zgarib turadi va shunga mos ravishda mehnat resurslariga bo'lgan talab va taklif ko'lami aniqlanadi.

Mehnat resurslariga bo'lgan talabni rejalashtirish xodimlarni rejalashtirish jarayonining boshlangich bosqichi bo'lib, uni tuzishda quyidagi ma'lumotlar asos vazifasini bajaradi<sup>99</sup>:

- mavjud va rejalashtirilayotgan ish joylari;

<sup>99</sup> David F. Babbel Anthony M. Santometro, *Risk Management by Insurers: An Analysis of the Progress 2005*, p.8

- tashkiliy va texnik tadbirlar rejasi;
- shtatlar ro'yxati va bo'sh lavozimlarni to'ldirish rejasi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv vazifalarining murakkablashuvi sug'urta kompaniyasi rahbarlariga xodimlarni to'g'ri tanlash, ularni joi-joyiga kuyish va tarooyalash ishlariga juda katta ma'suliyat bilan yondoshishni talab qiladi. Bu erda so'z, eng avvalo ish tavsifi va ishga kabul kilinadigan xodimga nisbatan talablarni belgilash to'g'risida borayapti.

Shuningdek xodimlarni boshqarish samaradorligi, ko'p jihatdan xodimlarni tanlashga bog'liq. Xodimlarni tanlash - bu ikki tomonli jarayondir. Bir tomondan, sug'urta kompaniyasi da'vogarga ish berish yoki bermaslikni hal qilsa, ikkinchi tomondan da'vogar, agar uni ishga taklif qilishsa, u bu taklifni qilishi kerakmi yoki kerak emasligini hal qiladi. Bu jarayonda rahbar quyidagi holatlarga o'z e'tiborini qaratmog'i lozim:

✓ da'vogarlarni, ayniksa, o'zi to'g'risida kishqacha ma'lumotlarni taqdim etganlarni bilib olish uchun iloji bo'lgan barcha tadbirlarni ko'tmoq kerak.

✓ ochiq berilgan tavsiyalarga ortiqcha ishonmasdan, o'zingiz shaxsan surishtirib bilganingiz durust. Ancha ochiq fikr olish uchun nomzodning sobiq ish beruvchisiga ko'ng'iroq qilish yoki u bilan shaxsan uchrashish lozim. O'sha rahbarning mazkur xodimdan ajralayotganiga qanday qarayotganini e'tibor bilan kuzatish kerak.

✓ har bir da'vogarning oilaviy xotirjamligini surishtirib ko'rish lozim.

✓ birinchi navbatda shuni ta'minlamok kerakki, ishga qabul qilinayotgan odam muzokaralar chog'ida o'zining bo'lajak ishining barcha xususiyatlarini tasavvur qilsin, kelgusida xafa bo'lib yurmasin, bunda biron bir salbiy xollarga yo'liqmasin.

✓ da'vogarga berilgan baholar va tavsiyalarni tahlil qilganda, shuningdek muzokaralar olib borilganda:

- \* uning topshirilayotgan ishini bajara olishiga;
- \* zarur bo'lib qolganda kasbiy ma'lumotini oshira bilishiga;
- \* texnikaga nisbatan e'tiboriga;
- \* fe'l-atvoriga;
- \* xalolligi, mulohazaliligi, turmushda hozir-nozirligi va to'g'riligiga;
- \* tashabbuskorligi, hayotga talabchanligiga;
- \* ishga hamda ish kunining davomiyligiga;
- \* og'ir sharoitda o'zini tutishiga;
- \* salomatligi, tashki ko'rinishi, vaqtni taqsimlay bilishiga;
- \* hunari va bo'sh vaqtlardagi mashg'ulotlariga diqqat qilish lozim.

\* har bir da'vogarga, u bilan turmushi to'g'risida suhbatlashish va barcha zarur savollarga javob olish uchun etarli darajada vaqt ajratish kerak<sup>100</sup>

Bulardan tashqari unutmash kerakki, ishga qabul qilinayotgan nomzod topshiriladigan ishni bajarishga yaroqligina bo'lib qolmay, balki sug'urta kompaniyasining boshqa xodimlari bilan chiqish ketadigan ham bo'lish kerak. Agar u so'ngi talabga muvofiq kelmasa, odatda yaxshi mustaxassisning ham bahridan o'tish kerak. Ishga qabul qilingan odam o'z hamkasblariga qo'shilib ketganda o'zini o'z uyidagidek his etishi muhimdir. U o'z burchlarini qanday eplayotganini diqqat bilan quzatishi, bunda unga yordam berishi kerak, uning yangi joyda o'zini tutib olish uchun vaqt kerakligini anglamoq lozim.

Sug'urta kompaniyalarida xodimlarni tanlash va ularga adolatli baho berish boshqarishning eng murakkab qirralaridan hisoblanadi. Shu sababli, ularni to'g'ri tanlash va joy-joyiga qo'yishda zarur mas'uliyat bilan yondoshilmasa, ish yakunlari kutilgan samarani bermasligi aniq. Xodimlarni tanlash uslubi qanchalik puxta ishlab chiqilgan bo'lsa, shunchalik sug'urtalovchining mehnat faoliyatida kutilmagan samaradorlikka tez erishish amaliyotda isbot etilgan.

Sug'urta kompaniyalarida xodimlarni tanlashda ularning ko'p qirrali xislatlarini aniqlash imkonini beruvchi quyidagi maxsus usullar qo'llaniladi:

- ❖ anketa ma'lumotlarini tahlil qilish usuli;
- ❖ ruhiy test o'tkazish usuli;
- ❖ amaliy ish o'yinlarini o'tkazish usuli;
- ❖ malakaviy test o'tkazish usuli;
- ❖ taqrizlarni tekshirish usuli;
- ❖ suhbat o'tkazish usuli;
- ❖ attestatsiyadan o'tkazish usuli;
- ❖ reyting usuli.

Baholash mezonlari va kaysi bir usullar samaraliroq yoki an'anaviy usul ekanligini tasvirlovchi kursatkichlarni quyidagi jadvalda keltiramiz.

<sup>100</sup> David F. Babbel/ Anthony M. Santometro, *Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process* 2005, p. 13.

## Xodimlarni tanlash va ularga baxo berish usullari

| N <sup>o</sup> | Baholanuvchi sifatlar                       | Anketa ma'lumotlarini tahtlili | Rubiy testlarni o'tkazish | Amaliy ish o'yinlari | Malakaviy testlar o'tkazish | Takrizlarni tekshirish | Suxbat o'tkazish |
|----------------|---|--------------------------------|---------------------------|----------------------|-----------------------------|------------------------|------------------|
| 1              | 2   | 3                              | 4                         | 5                    | 6                           | 7                      | 8                |
| 1              | Idrokliligi (intellekt)                     |                                | ++                        | ++                   |                             |                        | +                |
| 2              | Bilimdonligi (umumiy, iqtisodiy va xuquqiy) | -                              |                           |                      | ++                          |                        | +                |
| 3              | Kasbiy bilim va tajribasi                   | +                              |                           | +                    | ++                          | +                      | +                |
| 4              | Tashkilotchilik qobiliyati va tajribasi     | +                              |                           | ++                   | +                           | +                      | +                |
| 5              | Kirishumliligi va tajribasi                 |                                | +                         | ++                   |                             |                        | ++               |
| 6              | Shaxsiy xislatlari va qobiliyati            |                                | ++                        | +                    |                             | +                      | ++               |
| 7              | Sog'lig'i va ish qobiliyati                 | +                              |                           | +                    |                             | +                      | +                |
| 8              | Tashki ko'rinishi va o'zini tuta bilishi    |                                |                           | +                    |                             |                        | ++               |
| 9              | Motivatsiya                                 |                                |                           |                      |                             |                        | ++               |

**Izoh:** (++) - mazkur sifatni baxolash uchun samaraliroq usul

(+) - keng va tez-tez ko'llaniladigan an'anaviy usul.

Ko'rib turibmizki, xodimning intellektual qobiliyatini baxolashda ruxiy testlarni va amaliy ish o'yinlarini o'tkazish usuli ko'proq samara berar ekan. Suhbat o'tkazish esa mazkur sifatni aniqlashda odatiy usul bo'lib hisoblanadi. Ammo bu usul 5, 6, 7, 8 va 9 sifatlarini aniqlashda samarali usullar katoriga kiradi<sup>101</sup>.

Bu usullar rahbar xodimlarning ham qo'yidagi xislatlarini aniqlash imkonini beradi:

<sup>101</sup> David F. Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005, p.6



### **Ijtimoiy-fuqarolik etukligi, ya'ni:**

- ijtimoiy manfaatni shaxsiy manfaatidan yuqori qo'ya olishi;
- tanqidni qabul qila olishi va o'z-o'zini tanqidga moyillik darajasi;
- jamoa ishlariga faol katnashishi;
- siyosiy, ma'naviy etukligi.

### **Mehnatga bo'lgan munosabati, ya'ni:**

- berilgan topshiriqqa bo'lgan mas'ullikni sezish darajasi;
- kishilarga bo'lgan e'tiboriligi;
- o'zining va boshqalarning intizomiga bo'lgan talabi;
- ishidagi estetik (badiiy) daraja.

### **Bilim darajasi va ish tajribasi, ya'ni:**

- egallayotgan lavozimiga ixtisosligining mos tushishi;
- sug'urta faoliyatini boshqarishning ob'ektiv asoslarini bilishi;
- boshqarishning ilg'or usullarini bilishi;
- mazkur kompaniyadagi ish staji;
- omilkorligi;
- yangilikni xis qila olish tuyg'usi va h.k.

### **Tashkilotchilik qobiliyati, ya'ni:**

- boshqaruv tizimini tashkil qila olishi;
- o'z mehnatini tashkil qila bilishi;
- ishchan majlislarni olib bora olishi;
- o'z imkoniyatlarini va mehnatini baholay olishi;
- boshqalar imkoniyati va mehnatini baholay olishi.

### **Odamlar bilan ishlay olishi, ya'ni:**

- bo'ysinuvchilar bilan til topa bilishi;
- turli korxonalar rahbarlari bilan ishlay olishi;
- jamoani jipslashtira olish krbiliyati;
- kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'ya olish krbiliyati;

### **Hujjatlar va axborotlar bilan ishlay olishi, ya'ni:**

- maqsadni aniq va qisqa qo'ya bilishi;
- farmoyish, buyruk va amaliy xatlarni tuza bilishi;
- hujjatlarni o'qiy olish krbiliyati;
- topshiriklarni aniq bera olishi;
- zamonaviy kompyuter texnologiyalarini bilishi va ularni o'z ishida qo'llay olishi;

### **Ma'naviy-axloqiy xislatlari, ya'ni:**

- halol, vijdonli, to'g'ri;
- insofli, muruvvatli;
- xushmuomala, og'ir, vazmin;
- chidamli, sabotli;
- kamtar, sodda;
- sog'lom.

Har bir aniq holatda qayd qilingan xislatlar ekspertlar tomonidan (mazkur ishga kabul kilinayotgan xodimga mosini) tanlab olinadi va aksincha unga mos keluvchi boshqa xislatlar bu tarkibda bo'lmasa, u xolda qo'shimcha maxsus fazilatlar baholash mezonlariga kiritiladi.

Baholashning belgilab ko'yilgan tartibi attestatsiya deb ataladi. U mutaxassislarning lavozimga layoqatini, malakasini, bilim darajasi va xulq-atvorini aniqlashga va shu asosda ishga tayinlash yoki unvon berishga, shuningdek, ishdan chetlatishga xizmat qiladi<sup>102</sup>.

Attestatsiya jarayonida xodimlarning malakasiga, uning bajarayotgan ishiga yoki lavozimiga loyikligiga xolisona baho berilishi kerak. Attestatsiya kilinayotgan xodimning ishiga baho berishda, uning reja topshiriqlarini bajarishdagi shaxsiy xizmati, mehnat intizomi, o'z vazifasini sidqidildan bajarishi kabilar inobatga olinishi zarur. Ana shular asosida attestatsiya qiluvchilar ochiq ovoz berish yuli bilan qo'yidagi baholarni berishi mumkin:

- \* bajarayotgan lavozimiga loyiq;
- \* xodim ko'rsatilgan nuqsonlarni keyingi o'tkaziladigan attestatsiyagacha yo'qotsa, bajarayotgan lavozimiga loyiq;
- \* egallab turgan lavozimiga loyiq emas.

Shuningdek, sug'urta kompaniyalarida xodimlar bilan ishlashni boshqarishda ana shu xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash muhim o'rin tutadi.

#### **12.4 Sug'urta tashkilotlar faoliyatida sugurta xizmatlarini tashkil etilishi**

Sug'urta kompaniyasida samarali tashkiliy tuzilmaning asosiy tamoyili o'z mijozlari ehtiyojini sug'urta xizmatining bahosi va sifati orqali qondirishni nazarda tutib ish ko'rish bilan bog'liqdir. Kompaniyaning asosiy vazifasi sug'urta xizmatlarini sotish bo'lib, investitsiya, yuridik, texnik, aktuar hisob-kitoblar bo'limlari unga xizmat qiluvchilar hisoblanadi.

<sup>102</sup>David F. Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005, p.3

Hozirgi paytda jahon amaliyotida sug'urta xizmatlarini sotishning bir nechta usullari mavjud<sup>103</sup>. Ular quyidagilardan iborat:

- maxsus sug'urta vositachilari-brokerlar orqali;
- bevosita sug'urtachining ofisida;
- sug'urta xizmatlarini sotish asosiy vazifasi hisoblanmaydigan mustaqil vositachilar - banklar, supermarketlar, pochta bo'limlari orqali;
- sug'urta agentlari orqali;
- telefon yoki internet orqali.

Sug'urta xizmatlarini sotishning qulay va arzon usuli bu polisni to'g'ridan to'g'ri sug'urtachining ofisida yoki kompaniyaning biror bir shahobchasida sotish hisoblanadi. Bu usulning kamchiligi shundaki, u kam sonli, ya'ni sug'urta xizmatlarini mustaqil tanlab sotib oluvchi mijozlarga mo'ljallangan.

Agentlik shahobchalari sug'urta xizmatlarini sotishda nisbatan samarali tarmoq hisoblanadi. Bu usulning ustunligi shundaki, agent mijozlar o'rtasidan keragini tanlab, unga taklifning muhimlik darajasini va sug'urta polisining zarurligini etkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. SHuning uchun ham agentlar faoliyati faol bo'lmagan mijozlar bilan ishlashda, hamda sotilishi murakkab hisoblangan sug'urta xizmatlarini amalga oshirishda samara beradi. SHu bilan bir qatorda agentlik shahobchalaridan foydalanish qimmatga tushadi va raqobat bozorida ularni ta'minlashga ketadigan xarajatlar yig'iladigan sug'urta mukofotlarining 60-65 foizgacha qismini tashkil etadi.

Keyingi paytda rivojlangan mamlakatlarda sug'urta xizmatlarini banklar orqali sotishga alohida e'tibor berilmoqda. Bunda sug'urtalanuvchilar bank mijozlari bo'ladi. Sug'urta xizmatlarini amalga oshirishning bu usuli unchalik ham qimmat hisoblanmaydi. Bunda bank xizmatlarini ko'rsatuvchi xodimlar maxsus kurslardan o'tib mijozlarga sug'urta xizmatlarinin ko'rsatishlari mumkin bo'ladi. Afsuski, mamlakatimizda sug'urta xizmatlarini banklar orqali sotish yo'lga qo'yilmagan.

Hozirgi kunda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda asosan uzoq muddatli xayot sug'urtasi polislari banklar orqali sotiladi. SHuni ta'kidlash lozimki, banklarda bu turdagi sug'urta xizmatlarni ko'rsatish bugungi kunda, ayniqsa, istiqbollidir.

Sug'urta xizmatlarini sotishda u yoki bu usulning samaradorligi mijoz sug'urta xizmatini sotib olish haqida qaror qabul qilayotgan vaqtda aniqlanadi. Sug'urtada qaror qabul qilish murakkab jarayon bo'lib, u bir nechta bosqichlardan iboratdir. Agar sug'urtachi muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lsa,

<sup>103</sup> David F. Ezzbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005, p.12

bu bosqichlarinig har birida mijozga ma'lum darajada ta'sir o'tkazishi kerak bo'ladi<sup>104</sup>.

Yuqorida biz sug'urta xizmatlarini sotishning bevosita usullarini ko'rib chiqdik. Lekin so'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlarda sug'urta xizmatlarining bilvosita savdosiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bilvosita savdoda sug'urta xizmati biror bir boshqa xizmat, masalan bank xizmati bilan birgalikda sotiladidi. Bilvosita savdoda samaraga erishish uchun sug'urta polisining narxi asosiy xizmat narxiga nisbatan pastroq bo'lishi lozim.

Mijozning e'tiborini tortish vositasi sifatida rivojlangan mamlakatlarda internet orqali sug'urtalash keng yo'lga qo'yilmoqda.

Pricewaterhouse Coopers auditorlik firmasining ma'lumotlariga ko'ra<sup>105</sup> jaltan sug'urta bozorining internet aylanmalari 250 mln. dollarni tashkil etmoqda, bu esa dunyodagi internet savdolaridan tushadigan daromadlarning 2-2,5 foizini tashkil etadi demakdir. Sug'urta xizmatlarini internet orqali sotib olishning keng tarqalishi internetdan foydalanuvchilar sonining ortishidan tashqari, internet orqali shartnomalar tuzishning soddaligi va tezligi bilan asoslanadi. Internet maydonlaridagi taxlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, sug'urtachilarining saytida shartnoma tuzadiganlar uchun maxsus chegirmalar mavjud bo'lib, ular ba'zi hollarda 20 foizgacha etadi.

Internet orqali sug'urtalash bozori 90- yillarning o'rtalarida AQSHda vujudga keldi. Birinchi bo'lib sug'urta brokerlari o'z saytlariga ega bo'ldilar va keyinchalik ularni barcha turdagi sug'urta xizmatlarini taklif qiluvchi yirik sug'urta portaliga aylantirdilar. Internet orqali sug'urtalash bozoridagi yirik sug'urta portallariga 1994 yilda vujudga kelgan Find My Insurance.com va 1995 yildan beri faoliyat yuritib kelayotgan Ins.web.com kabilarni misol keltirish mumkin. AQSHda internet orqali sug'urtalash bozorining rivojlanish bosqichi 1996-1998 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrga kelib ushbu sektorning yirik liderlari paydo bo'ldi.

2000 yilda AQSHda «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi internet orqali sug'urtalashning rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. SHundan so'ng sug'urta kompaniyalari o'z mijozlarining sug'urta polislarini to'g'ridan to'g'ri elektron manzillariga yuboradigan bo'ldilar. Odatda polisini pochta orqali yoki vakil orqali yuborishga o'rtacha 10 AQSH dollari miqdorida mablag' sarflanar edi.

Internet orqali sug'urtalash xizmatlari G'arbiy Evropada hali

<sup>104</sup> David F. Ebbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005, p.

<sup>105</sup> David F. Ebbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005, p.9

AQSHdagidek on line bozor darajasiga etmagan. Moliyaviy xizmatlarni internet orqali sotuvchi saytlar Evropada nisbatan kam, shu sababli on line savdolaridan keluvchi daromadlar xam shunga yarasha kamdir.

Sug'urtachi uchun o'zining saytini yaratish yoki hamkorlarining saytlarida o'zi haqida ma'lumotlarni berishdan maqsad sug'urta xizmatlari savdosini rag'batlantirishdir. Sugurta xizmatlaridan keladigan foydani oshirish uchun sug'urta kompaniyalari quyidagilardan<sup>166</sup>:

- sug'urta kompaniyasining axborot berish xususiyatiga ega saytlaridan;
- sug'urta kompaniyasining virtual ofisi hisoblanuvchi saytlardan;
- bir nechta sug'urta kompaniyalari xizmatlarini bir vaqtning o'zida taklif qilish imkoniyatini beruvchi sug'urta portallaridan foydalanadilar.

Xizmatlarini bozorga olib chiqishdan manfaatdor sug'urta kompaniyalari ma'lumotlarni o'z internet saxifalarida joylashtiradilar. Bunda kompaniya faoliyati, vakolatxonalari, faoliyatiga daxldor ma'lumotlarni xanda boshqa marketing va reklama ma'lumotlarini berishi mumkin. Barcha joylashtirilgan ma'lumotlar faqat ma'lumot berish xususiyatiga ega bo'lib, sug'urta xizmatlarni bozorga olib chiqishning dastlabki bosqichida mijozlarni jalb qilishda foyda beradi.

Sug'urta kompaniyasining sayti virtual ofisga aylanishi uchun sayt quyidagilarni, ya'ni:

- tanlangan sug'urta turi va to'ldirilgan arizaga ko'ra sug'urta polisiga buyurtma berish, rasmiylashtirish va sotishni o'z ichiga olishi;
- sug'urtalanuvchi uchun yig'ilgan sugurta mukofotlari va to'langan sug'urta qoplamalari haqidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettirishi zarur.

Agar sug'urta kompaniyasining sayti yuqoridagi talabga javob bersa, uni to'laqonli virtual ofis deyish mumkin. Internet vakolatxonaga tashrif buyurgan har bir mijoz o'zini tizimda ro'yxatdan o'tkazishi lozim, shundan so'ng u sug'urta mukofotini hisoblash uchun arizani zarur ma'lumotlar bilan to'ldiradi hamda mijoz o'ziga mos to'lov turini tanlaydi, bu plastik kartochka orqli, naqd yoki naqd pulsiz shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari mijoz polisini qanday olish usulini ham tanlaydi, bu vositachi orqali yoki bevosita kompaniyaning ofisida bo'lishi mumkin. Shunday modelga asoslangan saytlar sug'urta xizmatlarni sotishda yaxshi samara beradi deb hisoblaymiz.

Sotish hajmini oshirish va yangi mijozlarni jalb qilish maqsadida sug'urta kompaniyalari o'z takliflarini yirik sug'urta kompaniyalari ma'lumotlarini o'zida mujassamlashtirgan portallarda joylashtirishlari mumkin. Portalga kirgan

<sup>166</sup> David F. Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005, p. 12



mijoz turli sug'urta kompaniyalari tomonidan taklif qilinayotgan aynan bir turdagi sug'urta xizmatlari narxini solishtirishi, u yoki bu turdagi sug'urta xizmatlari tarkibiga yana qanday qo'shimcha xizmatlar kiritilganligidan xabardor bo'lishlari mumkin bo'ladi.

Bunday portal savdo ishtirokchilarini on line<sup>107</sup> tizimda sug'urta polisini sotib olish mumkin bo'lgan yagona virtual sug'urta tizimiga birlashtiradi. Bitta portalda turli kompaniyalar xizmatlari taklif qilinadi. Odatda portalga tashrif buyargan mijozga, avvalo, o'ziga kerakli sug'urta dasturini tanlash taklif qilinadi, shundan so'ng sug'urta kompaniyasi tanlanadi. SHuningdek bitta virtual maydonda bir vaqtning o'zida bir nechta sug'urtachilarning bir turdagi sug'urta xizmatlarini taklif qilishlari orqali sug'urtalanuvchiga tanlash imkoniyati beriladi. Portalning axborot tizimi avtomatik tarzda sug'urta mukofotlarini xisoblab, sug'urtalanuvchiga turli kompaniyalarda sug'urtalash bo'yicha variantlarni taklif qiladi. Sug'urta portallari modeli ommaviy standart hisoblanuvchi risklardan sug'urtalashga juda qulaydir.

Ommaviy standart hisoblanuvchi sug'urta turlariga hayot sug'urtasining barcha xillarini, baxtsiz xodisalar sug'urtasi, kasalliklar sug'urtasi, transport vositalari sug'urtasi, fuqorolarning mol-mulki sug'urtasi, avtotransport vositalarining uchinchi shaxslar oldidagi javobgarligi sug'urtasini kiritish mumkin.

Bugun rahbardan talab qilinadigan narsa tashabbuskorlik, ilg'or mehnat madaniyati tajribasini joriy etishda fidoyilik, odamlar kayfiyatini bilish, ular tashvishi bilan yashash, yangi ish joylarini yaratish, xalqning ma'naviy va moddiy faravonligini ta'minlashdir. Prezident kadrlar faoliyatiga baho berib, ularni uch toifaga bo'ladi.

Birinchi toifa – eski tuzumni qo'msab yurgan kishilar. Ikkinchisi, eng xavfli – imonsiz, e'tiqodsiz kishilardir. Bundaylarga vatan manfaati begona, ular shaxsiy huzur-halovat, mansab uchun hech narsadan toyimaydilar. Vatan manfaati, mustaqillik manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadigan, qalbida o'ti va erk tuyg'usi bor, g'ayratli, kuyunchak yana bir toifa kadrlar borki, mening butun umidim va ishonchim ana shulardan, dedi Prezident. Bular hozircha ozchilikni tashkil etadi, tajribalari ham kam. Lekin men Prezident sifatida etishib kelayotgan mana shu fidoyi. qalbi olov avlod vakillarining joylarda rahbarlik qilishini istayman. Har bir rahbar biz taklif etayotgan islohotlarni qalbdan his etsin, uni bajarishga qodirmi-yo'qligini o'ylab ko'rsin, qadamini shunga qarab qo'ysin.

<sup>107</sup> David F. Babbel Anthony M. Santametro. Risk Management by Insurers. An Analysis of the Process 2005, p.11

Rahbar xodimlarni qabul qilish madaniyatiga ega bo'lishi lozim. Chunki, xodimlarni qabul qilish, ularning tashvishlariga quloq solish, og'irlarini engil qilish har bir rahbarning burchi va vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun ham qabul madaniyatiga rioya qilish uchun rahbar quyidagilarga e'tibor bermog'i lozim:

- suhbatdoshingizni qancha vaqtingiz borligi to'g'risida ogohlantiring;
- faqat suhbatdoshingiz gaplariga mo'ljal olib vaziyatni ko'z oldingizga

keltiring;

- to'xtatib bo'lmaydigan, uzil-kesil munozaradan o'zingizni triying;
- o'z fikringizni ishonchli va batafsil ayting;
- o'z g'oyangizni izchillik bilan bayon eting.
- ovozingizni baland qilmasdan gapiring. so'zlaringiz dona-dona va ravon

bo'lsin;

- qarshi tanbeh hollarda o'zingizga nisbatan tanqidiy yondoshing;
- shunchaki fikrlash yoki haqiqatdan ham shunaqami-bular o'rtasidagi

farqni biling;

- savollarni shunday tuzingki, ularni tushunish bir xilda bo'lsin;
- muammo muhokamasini aniq echim bilan tugating;
- ishni qalastirmang. Zudlik bilan ko'rsatma bering;
- suhbatdoshingizning yumushi o'zi uchun o'ta muhim ekanligini

unutmang.

Qabulingizda bo'lgan kishining muommosini echish imkoniyatingiz bo'lmagan taqdirda ham siz u kishini samimiy, iltifot bilan kuzating va xayrxohlik bilan ishining o'nglanib ketishiga umid bag'shida eting. Umuman xizmat yuzasidan qabul chog'ingizda quyidagi qoidaga rioya qilsangiz nur ustiga a'lo nur bo'lur edi:

Uchrashuv chog'ida - xushfe'llik.

Quloq solish chog'ida - e'tibor, rag'bat,

Bahslashuv chog'ida - ko'p narsani bilishga qiziquvchanlik.

Tanqid chog'ida - o'zini tuta bilishlik.

Tashkilotda rahbarlardan qaysi biri, qanday masala yuzasidan kishilarni qabul qilishi aniq belgilab qo'yilishi zarur. Bo'ysunuvchilarni iltimosiga ko'ra qabul qilganda rahbar ularga iltimos va takliflarini qisqa bayon qilishni o'rgatishi lozim. Agar rahbar o'zi taklif qilib qabul etsa, bo'ysunuvchi bu haqda oldindan xabardor qilinishi kerak. Suhbat chog'ida ishonch muhitini vujudga keltirish lozim, suhbatdoshni majbur qilish, sha'nini pastga urish mumkin emas.

### **Nazorat savollari:**

1. Sug'urta tashkilotining boshqaruv tuzilmasi deganda nimani tushunasiz.
2. Sug'urta tashkilotlarida qanday bo'limlar faoliyati tashkil etilgan.
3. Sug'urta tashkilotining kuzatuv kengashi qanday vakolatlarga ega.
4. Sug'urta tashkilotlarida xodimlar bilan ishlash departamenti ganday vazifalarga ega.
5. Sug'urta tashkilotlar faoliyatida sugurta xizmatlarini tashkil etilishi deganda nimani tushunasiz.

## GOLASSARIY

| Atamaning o'zbek tilida nomlanishi | Atamaning rus tilida nomlanishi | Atamaning ingliz tilida nomlanishi | O'zbek tilida atamaning sharhi   |
|------------------------------------|---------------------------------|------------------------------------|--|
| Abandon                            | абандон                         | abandon                            | -to'liq miqdordagi sug'urta summasini o'zish uchun sug'urtalanuvchining sug'urtalangan mol-mulkdan sug'urtalovchining to'vdasiga yozilishi (sug'urtalangan kema nobud bo'lganda, u sabarsiz yo'qolganda, kema yoki yuk qarog'chilar tomonidan bosib olinganda) Abandon to'g'risidagi ariza voqea-xodisa ro'y bergandan kevin olti oy muddatida berilishi kerak. Ayrim-chet mamlakatlar qonunchiligida abandon sug'urtalanuvchining bir tomonlama akti hisoblanadi. Faqat, Angliya qonunchiligida abandon uchun sug'urtalovchining roziligi talab etiladi.  |
| agentlik bitimi                    | агентский договор               | agent agreement                    | -sug'urtalovchi bilan tuzilgan topshirik shartnomasi   |
| Sug'urtalovchilar uyushmasi        | ассоциация страховщиков         | association of insurers            | -sug'urta faoliyatini muvofiqlashtirish uyushma a'zolarining manfaatini davlatning qonun chiqaruvchi va qo'riqchi organlari ehlida lamoya etish hamda mahalliy sug'urta kompaniyalari va sotuv sug'urta kompaniyalari o'rtasida o'zaro to'vdali aloqalarni o'rnatish maqsadida tashkil etiladigan sug'urta kompaniyalarining uyushmasi. Bunga o'zaro sug'urtalash jamiyatlarini xalqaro uyushmasini, texnik risklarni sug'urtalovchi kompaniyalar ittifoqini, Buyuk Britaniya sug'urtalovchilar uyushmasini misol keltirish mumkin. Hozirgi paytda O'zbekistonda sug'urtalovchilar uyushmasi tashkil etilmagan. Faqat, avtosug'urtalovchilar ittifoqi faoliyat ko'rsatmoqda. |
| addendum                           | аддendum                        | addendum                           | -ilgari tuzilgan sug'urta va kavat sug'urtalash shartnomasiga tomonlarning o'zaro kelishuvi bilan qo'shimchalar kiritish.  |
| adjuster                           | аджастер                        | adjuster                           | -sug'urta xodisasi ro'y berishi munosabati bilan sug'urtalanuvchi tomonidan bildirilgan e'tirozni tartibga solishda sug'urta kompaniyasining manfaatlarini himoya etuvchi jismoniy yoki huquqiy shaxs. U sug'urtalanuvchi bilan unga to'lanadigan sug'urta qoplamasi miqdorini kelishishga harakat qiladi. Adjuster sug'urta xodisasi ro'y berish sabablarini o'rganadi va tahlil etadi. Ushbu tahlil natijalari bo'yicha sug'urta kompaniyasiga ekspert xulosasini tuzadi hamda avariya komissari funksiyasini bajaradi. Adjuster vazifasini sug'urta kompaniyasining tarkibiy bo'limi yoki ixtisoslashgan tashkilot amalga oshirishi mumkin.                               |
| aktuary                            | актуарий                        | actuarial                          | -lotin tilidan tarjima qilganda hisobchi degan ma'noni bildiradi. Aktuar hisob-kitoblar nazariyasini o'zlashtirib olgan sug'urta matematikasi sohasidagi mutaxassis. U sug'urta tariflarini hisoblash va metodologiyasini ishlab chiqish, uzoq muddatli sug'urta turlari bo'yicha sug'urta   |

|                       |                      |                        |  |
|-----------------------|----------------------|------------------------|--|
|                       |                      |                        | zahiralarini shakllantirish bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi Hozirgi paytda Angliyada aktuariylar instituti faoliyat ko'rsatmoqda. Aktuariylarning xalqaro uyushmasi mavjud.   |
| aktuar hisob-kitoblar | актуарные расчеты    | actuarial calculations | -sug'urta tarifi stavkalarini hisoblashning iqtisodiy-matematik usullari yig'indisi. Ushbu hisob-kitoblar katta sonlar qonuniga asoslanadi. Aktuar hisob-kitoblarning metodologiyasi, ehtimollar nazariyasi, demografiya qonuniyatlariga asoslanadi, tarifi stavkasini miqdori sug'urta hodisalari ro'y berishining ehtimoliligiga bog'liq. Demografiya ma'lumotlaridan fuqarolarning hayotini sug'urtalashda sug'urtalanuvchilarning vafotiga mos ravishda sug'urta tarifi stavkasini tabaqalashtirishda foydalaniladi. Uzoq muddatli hayotni sug'urtasi bo'yicha sug'urta summalari sug'urtalangan shaxs vafot etganda yoki u ma'lum bir yoshga etganda to'lanadi. Etlarli miqdordagi sug'urta to'ldirishni shakllantirish uchun, sug'urtalovchi shartnoma amalda bo'lgan davrda qancha shaxs vafot etishi yoki ma'lum bir yoshga etishi ehtimoliligini bilishi zarur. Aholi o'lumi darajasi xaqidagi statistik ma'lumot asosida turli yoshga etishi ehtimoliligini hisoblash hamda fuqarolarning o'limi to'g'risidagi jadvalni tuzish mumkin. |
| annuitet              | аннуитет             | annuity                | -renta va nafaqalarni sug'urtalashning hamma turlarini umumlashtiruvchi tushuncha. Bunda sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga bir vaqtning o'zida yoki bir necha yillar davomida tegishli sug'urta mukofotlarini to'laydi. Keyin sug'urtalanuvchi butun hayoti davomida sug'urta kompaniyasidan daromad oladi. Annuitetning bir turi hisoblanadigan fuqarolarning yillik daromadini sug'urtasi bugungi kunda Buyuk britaniyada, Fransiyada va AQSHda keng rivojlangan.  |
| avariya sertifikat    | аварийный сертификат | emergency certificate  | -mol-mulk sug'urta xodisasi tufayli zararlanganda, ke'rilgan zararning miqdori va xarakterini tasdiqlovchi hujjat. Avariya sertifikatini avariya komissari (adjaster) tomonidan tuziladi va tegishli komissiya xaqi hisobiga sug'urtalanuvchiga taqdim etiladi. Avariya sertifikatini sug'urtalanuvchining sug'urta qoplamasini olish to'g'risidagi arzasiga ilova etiladi va qoplamani to'lashda sug'urta kompaniyasiga asos bo'lib xizmat qiladi.  |
| anderrayter           | андеррайтер          | underwriter            | -turli risklarni sug'urtalash vakolatiga ega, sug'urta kompaniyasi tomonidan tayinlanadigan shaxs. Sug'urta kompaniyasining sug'urta portfelini shakllanishi uchun javob beradi. U sug'urta shartnomalarini tuzish, risklarni baholash va sug'urta tarifi stavkasini belgilash yuzasidan tegishli malakaga ega bo'lishi zarur. 2) Lloyd sug'urta polislarini beradigan Lloyd sug'urta korporatsiyasini a'zosi; 3) potensial mijozlarga sug'urta polisini sotish bilan shug'ullanadigan yoki manfaatdor tomonlarga sug'urta sohasi bo'yicha yuqori darajada maslahat xizmatlarni ko'rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs.   |



|                              |                             |                                 |   |
|------------------------------|-----------------------------|---------------------------------|---|
| assistans                    | ассистант                   | assistance                      | -sug'urta qildiruvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga naf' oltiruvchilarga) hamda sug'urtalovchilarga sug'urta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari (tevnik tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi shumog'adek ularga moliyaviy ko'mak beruvchi yuridik yoki insoniy shaxs)  |
| audit                        | аудит                       | audit                           | -sug'urta kompaniyasining moliyaviy hisoboti to'g'irligini yozma ravishda tasdiqlash va tekshirish. Audit ishini maxsus malakaga ega bo'lgan auditorlar amalga oshiradi. Auditorlik firmasi bilan sug'urta kompaniyasi o'rtasida shartnoma tuziladi. O'zbekiston Respublikasida audit ishini Moliya vazirligining litsenziyasiga ega bo'lgan shaxslar amalga oshirishi mumkin. Sug'urta kompaniyasining balansi auditorlar tomonidan tekshirilgandan so'ng matbuotda e'lon qilinadi.  |
| sug'urta miqdori             | страховая сумма             | amount of insurance             | -sug'urta manfaati va sug'urta riskiga mos keluvchi pul mablag'i. Xalqaro amaliyotda sug'urta summasi sug'urta qoplamasi deyiladi. Sug'urta summasiga nisbatan sug'urta mukofoti aniqlanadi va sug'urta qoplamasi to'lanadi. Sug'urta summasi iborasi ko'proq shaxsiy sug'urtada - fuqarolarning hayoti, sog'lig'ini sug'urtalashda ishlatiladi.  |
| sug'urta mukofotini aniqlash | определить страховую премию | amount of the insurance premium | -sug'urta summasi va sug'urta qoplamasi to'lovi o'rtasidagi nisbatni xarakterlovchi iqtisodiy ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich zarar miqdori ehtimoligini ko'rsatadi va undan riskni o'zgartirish ustidan nazorat o'rnatishda foydalaniladi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi quyidagi omillar ta'siri ostida shakllanadi: sug'urtalangan ob'ektlar soni va ularning sug'urta summasi, sug'urta hodsalarining soni, zarar ko'rgan ob'ektlar soni va sug'urta qoplamasi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi netto-staykka tuzilishiga qarab har bir sug'urta turi yoki javobgarlik turi bo'yicha aniqlanadi. Agar zararlilik ko'rsatkichi netto-staykka yaqinlashsa yoki undan oshib ketsa, bu holda sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. |
| risklar to'plami             | сбор рисков                 | collection                      | -bir qancha yirik sug'urta summasi ob'ektlarning bitta sug'urta hodsasi tufayli zarar ko'rishi ehtimoligini nazarda tutuvchi sug'urta risklarni yig'indisi.   |
| sug'urta bahosi              | стоимость страхования       | cost of insurance               | -sug'urtalash maqsadida aniqlanadigan mol-mulkning qiymati. Amaliyotda mol-mulklar haqiqiy qiymati, bozor qiymati va boshqa qiymatlar vositasida baholanadi. Zarur hollarda sug'urta bahosini to'g'ri hisoblash uchun malakali ekspertlar jalb etiladi. Sug'urta bahosi to'g'risidagi haqiqiy ma'lumot ta'rif stavkasi va sug'urta mukofoti miqdorini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Amaldagi qonunchilikka binoan, sug'urta summasi mol-mulkning sug'urta bahosidan oshib ketmasligi zarur.  |
| risklarni                    | выбрать                     | choose the                      | -sug'urta shartnomasini tuzish bo'yicha mijozlardan   |

|                           |                                   |                         |   |
|---------------------------|-----------------------------------|-------------------------|---|
| tanlash                   | риски                             | risks                   | kelib tushgan takliflarni tahlil etishga qaratilgan sug'urta kompaniyasining faoliyati. Sug'urta kompaniyasining muvozanatlashgan sug'urta portfelini shakllanishida risklarni tanlash iborasini amaliy jihatdan ishlatish muhimdir. Sug'urta amaliyotida risklarni tanlash ismini syurveyerlar amalga oshiradi. Risklarni tanlash – bu risk menejment sohasida olib boriladigan chora – tadbirlarning bir qismidir.  |
| franshiza                 | франшиза                          | deductible              | -sug'urta shartnomasi shartlarida ko'zda tutiladigan sug'urtalovchining zararni qoplashdan ozod etiladigan qismi. Franshiza sug'urta summasiga nisbatan foizlarda belgilanadigan shartli va shartsiz franshizalarga bo'linadi. Shartli franshizada sug'urtalovchi belgilangan franshiza summasidan oshmaydigan zararni qoplash javobgarligidan ozod etiladi. Bu holda, agar ko'rilgan zarar miqdori franshiza summasi miqдорidan oshib ketsa, sug'urta kompaniyasi zararni to'liq qoplaydi. Shartsiz franshizada ko'rilgan zarar franshiza summasidan cheginib qoplanadi. |
| denonsatsiya              | денонсация                        | denunciation            | -shartnomadan voz kechish. Agar sug'urta munosabatlarida tomonlardan biri yozma ravishda shartnomadan voz kechishi to'g'risida ikkinchi tomonga ma'lum qilmasa, shartnoma urda ko'rsatilgan muddatgacha kuchda bo'ladi.   |
| evropolis                 | европолис                         | evropolis               | -evropa iqtisodiy hamjamiyati mamlakatlarida sug'urta shartnomasi tuzganlik faktini tasdiqlovchi sug'urta polisi.   |
| ekstradent risk           | экстрадентный риск                | ekstsedent risk         | -mazkur toifadagi risk bo'yicha zararni qayta sug'urtalash to'g'risidagi kelishuv.  |
| fakultativ qayta sug'urta | факкультативное перестраховывание | facultative reinsurance | -proporsional qayta sug'urtalash shartnomasining turi. Fakultativ qayta sug'urtalashda har bir berilayotgan risk bo'yicha alohida shartnoma tuziladi. Sedent har bir risk bo'yicha qayta sug'urtalash zarur yoki zarur emaslik masalasini mustaqil ko'rib chiqadi. O'z navbatida, qayta sug'urtalovchi ham sedentning taklifini qabul qilishi yoki qabul qilmasligi ham mumkin.   |
| fronting                  | фронтинг                          | fronting                | -qabul qilib olingan riskni tegishli komissiya haqi evaziga to'jaligicha boshqa sug'urta yoki qayta qayta sug'urtalovchi kompaniyalariga berish.  |
| fronting kompaniya        | фронтированная компания           | fronting company        | -boshqa sug'urta kompaniyasining iltimosiga ko'ra, o'z nomidan sug'urta polisi beruvchi sug'urta kompaniyasi. Frontlashiruvchi sug'urta kompaniyasi qabul qilib olingan riskni yuz foiz miqdorida iltimos qilgan sug'urta kompaniyasi hisobiga o'tkazadi va buning uchun undan komission haq oladi. Hozirgi paytda, O'zbekistonda bir nechta frontlashiruvchi kompaniyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Masalan, "Anglo-Tashkent", "UzAIG" sug'urta kompaniyalari.  |
| bosh polis                | генеральный полис                 | general policy          | -sug'urta kompaniyasi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi yozma bitim. Bu bitimga muvofiq, tegishli davr mobaynida sug'urtalanuvchi barcha ob'ektlarni sug'urta kompaniyasiga sug'urtalash uchun beradi. CHet el tajribasida bu bitim «ochiq polis» yoki «polis-  |

|                              |                             |                          |  |
|------------------------------|-----------------------------|--------------------------|--|
|                              |                             |                          | abonemento deyiladi. Mazkur bochi polis asosida sug'urtalash tashqi savdo yuklari sug'urtasida keng tarqalgan. Sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga har bir to'natilgan yuk hisobdagi ma'lumotlar (yukning vazni, sug'urta summasi, yukni yumatish va qabul qilib olish punktlari) bayon etilgan arizam taqdim etsa etarli yuk avtomatik ravishda sug'urtalangan hisoblanadi.   |
| umumiy sug'urta tarmog'i     | общий страховой сектор      | general insurance sector | -shaxsiy, mulkiy sug'urta javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari.  |
| yulpi sug'urta qiymati       | Валовая страховая стоимость | gross price              | -sug'urta shartnomalarini tuzash, ish yuritish xarajatlarini hisobga olgan holdagi sug'urta mukofotlari summasi.   |
| umumiy koefitsient           | Общий коэффициент           | gross rate               | -sug'urta qoplamasini (sug'urta summasini) to'lashga mo'ljallangan netto-stavka va ish yuritish xarajatlarini qoplashga mo'ljallangan netto-stavkaga yuklama summalarini o'z ichiga olgan sug'urta mukofotlarining tarf stavkasini bildiradi. Ko'pgina odibiyotlarda ushbu ibora sug'urta tarifi ma'nosida ham ishlatiladi.  |
| yashil karta                 | зеленая карта               | green card               | -avtotransport vositalari egalariining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risidagi xalqaro shartnomalar tizimi. Mazkur sug'urta turi bo'yicha shartnoma tuzilganlik faktini tasdiqlovchi polis. 1949 yilda Evropaning 13ta davlati o'rtasida yashil karta to'g'risida shartnoma tuzilgan. Hozirga paytda yashil kartaga a'zo mamlakatlarda 30 dan ziyodni tashkil etadi. Yashil kartaga a'zo bo'lgan mamlakatlarda tegishli milliy byuroklar tashkil etilgan va u mazkur davlat hududida yashil karta bilan bog'liq ishlarni muvofiqlashtirib turadi. O'z navbatida milliy byuroklar yashil karta xalqaro byurosiga birlashgan. Qarorgohi Londonda joylashgan.  |
| sug'urta                     | страхование                 | insurance                | -yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning mafaatlarni himoya qilish.<br>Har xil noxush hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zarar qoplash hamda fuqarolarning hayotida tegishli sug'urta hodisalari ro'y berganda ularga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etiladigan va undan foydalanish bilan bog'liq (maqsadli pul fondlari) iqtisodiy munosabatlar yig'indisi. O'tkazish shartiga qarab, sug'urta majburiy va ixtiyoriy bo'ladi. Ob'ektiaga ko'ra, mulkiy, shaxsiy va javobgarlik sug'urtasiga bo'linadi. Sug'urtaning asosini risk tashkil etadi. Sug'urta - bu riskni taqsimlash usulidir. |
| depozitlarni sug'urta qilish | Страхование депозитов       | Insurance of deposits    | -banklar bankrot deb e'ton qilinganda yoki to'lov qobiliyati yo'qolganda, omonatchilarning bankdagi pul mablag'larini ularga qaytarilishini sug'urtalash. Bunda banklar sug'urtalanuvchilar hisoblanadi. Sug'urtani  |

|                        |                        |                     |   |
|------------------------|------------------------|---------------------|---|
|                        |                        |                     | maxsus sug'urta tashkilotlari amalga oshiradi. Depozitlarni sug'urtalash chek mamlakatlarda keng tarqalgan. Masalan, AQSHda depozit sug'urtasini depozitlarni sug'urtalash federal korporatsiyasi amalga oshiradi. AQSHda har bir omonatchiga to'g'ri keladigan 100 ming AQSH dollari miqdoridagi depozitni banklar majburiy sug'urtalaydi.   |
| sug'urta agenti        | страховой агент        | insurance agent     | -sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.  |
| sug'urta dalolatnomasi | страховой акт          | insurance act       | -sug'urta xodisasi ro'y berganda sug'urta kompaniyasi tomonidan tuziladigan xujjat. Dalolatnomada mol-mulkning zararlanish yoxud nobud bo'lish sabablari, ko'rilgan zarar miqdori va boshqa ko'rsatkichlar bo'ladi. Dalolatnomaga zarar hollarda sug'urta hodisasi va mol-mulkning zararlanganligini tasdiqlovchi tegishli tashkilotlarning (yong'inga qarshi kurash, davlat avtomobil nazorati, qishloq xo'jaligi, veterinariya xizmati va boshqalar) yozma hujusasi ilova etiladi. Xalqaro sug'urta munosabatlarida sug'urta dalolatnomasini adjuster tuzadi va mohiyatan avariya sertifikatiga yaqinlashadi. |
| sug'urta maydoni       | страховая площадь      | insurance area      | -sug'urtaga tortilishi zarur bo'lgan ob'ektlarning eng katta soni. Ayrim ekspertlar xulosasiga ko'ra, O'zbekistonda sug'urta maydoni hali to'la o'zlashtirilmagan. Faqat mol-mulkning 20-30 foizigina sug'urtaga tortilgan.   |
| sug'urta faoliyati     | страховая деятельность | insurance activity  | -sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati.   |
| sug'urta shartnomasi   | договор страхования    | insurance agreement | -ikki tomonlana yozma ravishdagi bitim bo'lib, bunda sug'urta kompaniyasi sug'urta hodisasi tufayli zarar ko'rilganda sug'urtalanuvchiga sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasini to'lash majburiyatini, sug'urtalanuvchi esa belgilangan muddatlarda sug'urta mukofotini to'lash majburiyatini oladi. Sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlash uchun sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga sug'urta polisi beradi. Sug'urta shartnomasini tuzishdagi asosiy, oddiy va qo'shimcha shartlar sug'urta shartnomasining mazmunini tashkil etadi.   |
| sug'urta foydasi       | страховая прибыль      | insurance benefit   | -sug'urtada moddiy manfaatdorlik chorasi. Sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida sug'urtalanuvchiga moddiy zarar keltiruvchi predmetlar - mol-mulk yoki sug'urtalanuvchining uchinchi shaxsga zarar keltirish xollari. Masalan, sug'urtalanuvchining avtomobil transporti yo'l-transport hodisalarini tufayli shikastlanganda, sug'urtalanuvchida ushbu mulkka nisbatan manfaatdorlik yuzaga keladi va sug'urta moddiy manfaatdorlik chorasini sifatida maydonga chiqadi.  |
| sug'urta huquqi        | страховое право        | insurance law       | -sug'urtalovchilar, sug'urtalanuvchilar va ular o'rtasidagi vositachilarning hatti-harakati qoidalari yig'indisi.   |



|                            |                         |                       |  |
|----------------------------|-------------------------|-----------------------|--|
|                            |                         |                       | Sug'urta xaqiqat qonun va qonun qo'llanmalarida o'z aksini topadi. Sug'urta huquqi motiva xiy huquqning bir qismi hisoblanadi.   |
| sug'urta qoplamasi         | страховое покрытие      | insurance coverage    | -mulkiy sug'urtada va sug'urtalanuvchining uchinchi shaxs oldida fuqarolik javobgarligini sug'urtasida zararni qoplash uchun sug'urta fondidan to'lanadigan pul mablag'i. Sug'urta qoplamasi sug'urta summasiga teng yoki undan kam bo'lishi mumkin. Sug'urta hodsisi to'y berganlik solati va shakli bo'yicha adyaster yoki avariya komissarining xulosasi sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta qoplamasi to'lanishida asos bo'lib xizmat qiladi.  |
| sug'urta mukofotlari       | страховые премии        | insurance premiums    | -sug'urta mukofotining miqdori sug'urta summasiga nisbatan foizlarda aniqlanadi. Sug'urta mukofotining miqdori aniq summalarda ham hisoblanishi mumkin. Masalan avtoto'liq egalarning uchinchi shaxsga zarar keltirish fuqarolik javobgarligini sug'urtasida sug'urta mukofoti aniq pul birligida ko'rsatiladi.  |
| sug'urta kompaniyasi       | страховая компания      | insurance company     | -sug'urta shartnomasini tuzish va unga xizmat qilishni amalga oshiruvchi, sug'urtalanuvchi bilan huquqiy munosabatda bo'luvchi yuridik shaxs. U o'z Nizomi asosida faoliyat yurituvchi mustaqil xo'jalik sub'ektidir. Tegishli iqtisodiy muhitda faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyalarining yig'indisi sug'urta tozami tashkil etadi. Sug'urta kompaniyalari bajaradigan sug'urta operatsiyalarga ko'ra, ular universal va ixtisoslashgan bo'ladi. Ustuv kapitali miqdori hamda kelib tushgan sug'urta mukofotlari hajmiga muvoriq, sug'urta kompaniyalarni yirik, o'rta va kichik guruhlariga bo'lish mumkin. |
| infrastruktura sub'ektlari | субъекты инфраструктуры | insurance entities    | -sug'urta bozorning professional ishtirokchilari   |
| sug'urta hodsisi           | страховое событие       | insurance event       | -stixiyali, tabiiy yoki oldindan ko'rib bo'lmaydigan voqea-hodisalarning amalda yuz berishi. Sug'urta hodsisi yuzaga kelgan zarar sug'urta kompaniyasi tomonidan shartnomaga muvofiq qoplanadi. Mulkiy sug'urtada sug'urta hodsisi devildanda, stixiyali hodisalar, yong'in, avariya, portlash, zilzila, dovol va boshqalar tushumledir. SHaxsiy sug'urtada esa sug'urta hodsisiga fuqarolarning ma'lum bir muddatgacha yashashi ularning sayotida baxtsiz hodisalarning ro'y berishi yoki o'limi kiradi. Xalqaro amaliyotda sug'urta hodsisi ba'zan «fors-majora» deb yuritiladi.                                 |
| sug'urta eksperti          | страховая экспертиза    | insurance examination | -asoslangan xulosa berish maqsodida sug'urta risklarni, sug'urta ob'ektlarni va sug'urta xodisalarini asosiy xususiyatlarini maxsus bilimlar asosida o'rganib chiqish.   |
| sug'urta polisi            | страховой полис         | insurance policy      | -sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktira tasdiqlovchi hujjat. Sug'urta polsida quyidagi rekvizitlar bo'lishi shart: sug'urta kompaniyasining yuridik manzili, sug'urtalanuvchining nomi, sug'urta ob'ekti, sug'urta mukofotining miqdori, shartnomaning amal qilish muddati. Sug'urta qoplamasini to'lashda   |



|                              |                          |                             |  |
|------------------------------|--------------------------|-----------------------------|--|
|                              |                          |                             | sug'urtalanuvchi sug'urta polisi sug'urta kompaniyasiga taqdim etishi zarur  |
| sug'urta mukofoti zahiralari | резерва страховых премий | insurance premiums reserves | -hayoti va nafaqani uzoq muddatli sug'urtalash bo'yicha to'lovlarni oldindan to'lash uchun sug'urta kompaniyasida tashkil etiladigan fond. Bu fond sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hamda sug'urtalovchi zimmasidagi majburiyatlarni bajarishda muhim o'rin tutadi. Hayot sug'urtasi shartnomalari, odatda, bir necha yilga tuziladi. Sug'urta mukofotlari kelib tushish va sug'urta summasini to'lash vaqtlari o'zaro to'g'ri kelmaganligi uchun, sug'urta kompaniyasiga kelib tushgan sug'urta mukofoti ma'lum vaqt mobaynida uning ixtiyorida bo'sh xolda bo'ladi. Kelib tushgan sug'urta mukofotlarining bir qismi joriy to'lovlar uchun sarflanadi, qolgan qismi esa zahira fondini shakllantirish uchun yunaldiriladi. Uzoq muddatli hayot sug'urtasi bo'yicha zahira fondining mablag'lari kredit resursi sifatida foydalanilishi mumkin |
| sug'urta zahiralari          | страховые резервы        | insurance reserves          | -sug'urta summalarini to'lashni kafolatlash maqsadida sug'urta kompaniyalari tashkil etgan fondlar. Agar ma'lum bir vaqtda sug'urta qoplamalarini to'lash uchun joriy sug'urta mukofotlari etmasa, sug'urta kompaniyasi zahira fondlardan foydalanishi mumkin. Sug'urta zahiralarga quyidagilar kiradi: hayoti sug'urtasi bo'yicha zahira fondlari, ro'y bergan, ammo arz qilinagan zararlarini qoplash zahiralari va boshqalar. Ushbu zahira fondlarining mablag'lari vaqtincha bo'sh bo'lgani uchun investitsiya maqsadlarida foydalanilishi mumkin. Buning natijasida sug'urta kompaniyasi qo'shimcha daromad oladi   |
| sug'urta portfeli            | страховой портфель       | insurance portfolio         | -sug'urta kompaniyasiga kelib tushgan sug'urta mukofotlarining yig'indisi. Sug'urtalangan ob'ektlar soni, sug'urta shartnomalarining miqdori ham sug'urta portfeli tushunchasini anglatadi. CHet mamlakatlar sug'urta amaliyotida ushbu ibora ishlab topilgan sug'urta mukofotning hajmi tushunchasiga to'g'ri keladi.   |
| sug'urtalanuvchi             | страхователь             | insured                     | -qonun asosida yoki ikki tomonlama shartnoma asosida sug'urta kompaniyasi bilan fuqoralik-huquqiy munosabatlarga kiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. Sug'urtalanuvchi uchunchi shaxs foydasiga sug'urta shartnomasini tuzishga vaqli. Sug'urtalanuvchi sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lashi shart. Sug'urta shartnomasini tuzish jarayonida sug'urtalanuvchi sug'urta ob'ektga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni sug'urta kompaniyasiga ma'lum qilishi shart  |
| sug'urta riski               | страхование рисков       | insurance risk              | -taxmin qilingan voqea bo'lib, ana shu voqea yuz berishdan ehtiyot shart sug'urta qilish amalga oshiriladi   |
| sug'urta tizimi              | система страхования      | insurance system            | -1) turli xil sug'urta kompaniyalari va ularni sug'urta nazorati bilan aloqadorligini yig'indisi; 2) sug'urta huquqiy munosabatlarni tashkil etishning davlat - huquqiy shakli   |

|                               |                                   |                            |  |
|-------------------------------|-----------------------------------|----------------------------|--|
| sug'urta tarifi<br>siyosati   | страховая<br>тарифная<br>политика | insurance<br>tariff policy | -sug'urta riskini baxosi, sug'urta summasiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan brutto-stavka, tarifi stavkasi (brutto-stavka) ikki qismdan iborat: netto-stavka va netto-stavkaga yuklama. Netto-stavka sug'urta kompaniyasining sug'urta fondidan qiladigan xarajatlarni qoplaydi. Netto-stavkaga yuklama sug'urta kompaniyasining isli, yuritish xarajatlarni, komissiya haqini va boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi. Sifatsiy sug'urta buvicha tarifi stavkasi mol-mulk sug'urtasining tarifi stavkasidan keskin farq qiladi. Havot sug'urtasidagi tarifi stavkasi hayotiylik talvahi va daromad normasiga muvotiq hisoblab chiqiladi.   |
| sug'urta puli                 | страховая<br>сумма                | insurance<br>money         | -sug'urta majburiyatini bajarish haqida sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmasdan o'zaro kelishgan holda bir qancha sug'urta kompaniyalarining ixtiyoriy tushmasi. Sug'urta puli, asosan, xavfli yirik ob'ektlarni sug'urtalash maqsadida tashkil etiladi. Har qaysi kompaniya o'z sug'urtalangan riskni pulga beradi va buning uchun pul orqali yig'ilgan sug'urta mukofotlarining bir qismini oladi. Olingan sug'urta mukofotlari hajmida sug'urta koplamasini to'lash bo'yicha javobgarlikni o'z zimmalarga oladi. Xorijiy mamlakatlarda aviasiya, atom, xavfli risklarni sug'urtalash uchun sug'urta puli tashkil etilgan. |
| tibbiy sug'urta               | медицинское<br>страхование        | insurance<br>medical       | -turli kasalliklardan ma'lumiy sug'urtani nazarda tutuvchi sog'liqni saqlash ishini tashkil etish shakli. Sug'urtaviy tibbiyot bo'yicha sug'urta fondi ishchi-xodimlarning ish haqidan, talonkorlarning to'vlasidan, davlat dotatsiyasi hisobidan hamda xavli-ehson fondlarining ma'buviy ajratmasi asosidan shakllanadi. Sug'urtaviy tibbiyot bo'yicha sug'urtalangan kontingentga tibbiy sug'urta polisi beriladi. Sug'urtalanuvchiga tibbiy sug'urta polisi bo'lgan taqdirda tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Bunda tibbiy sug'urta kompaniyasi, bir tomondan sug'urtalanuvchilar bilan, ikkinchi tomondan tibbiyot muassasalari bilan shartnoma tuzadi.   |
| kargo                         | карга                             | kargo                      | -transport vositasida tashiladigan va sug'urtalanishi mumkin bo'lgan yukning nomi.   |
| kasko                         | каско                             | kaska                      | -transport vositasining horti. Kasko sug'urtasi transport vositasini nohud bo'lish yoki shikastlanishi o'z ichiga oladi.   |
| kaf                           | каф                               | kaf                        | -tashqi savdo shartnomasi bo'yicha yuklarni belgilangan portgacha (joygacha) etkazib berish sharti. Bunda tashilavotgan tovarning qiymatiga dengiz transportida tashish bilan bog'liq xarajatlari kiritiladi. Ushbu shart bo'yicha tovarlarni sug'urta qilish tovar etkazib beruvchining (sohivchi) majburiyatiga kiruvadi.  |
| javobgarlikni<br>sug'urtalash | страхование<br>ответственности    | liability<br>insurance     | -boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar etkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar vuzasidan javobgarlik xavfini sug'urta  |

|                                      |                                   |                                       |  |
|--------------------------------------|-----------------------------------|---------------------------------------|--|
|                                      |                                   |                                       | qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchining o'zining yoki bunday javobgarlik yuklanishi mumkin bo'lgan boshqa shaxsning javobgarlik xavfi sug'urtalanishi mumkin  |
| javobgarlikni sug'urtalovchi chegara | Лимит ответственности страховщика | limit of liability the insurer        | -tuzilgan sug'urta shartnomasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan sug'urta kompaniyasining mumkin bo'lgan eng yuqori darajadagi javobgarligi. Sug'urtalovchining javobgarlik limiti sug'urta polisida o'z aksini topadi   |
| javobgarlik xavfi sug'urtasi         | риск страхования ответственности  | liability insurance for damage caused | -boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar etkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar yuzasidan javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchining o'zining yoki bunday javobgarlik yuklanishi mumkin bo'lgan boshqa shaxsning javobgarlik xavfi sug'urtasi  |
| hayot sug'urta tarmog'i              | сектор страхования жизни          | life insurance sector                 | -jismomiy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, melnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddat bir yilni tashkil etadi bunda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizi o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarni (annuitetlarni) qamrab oladi.   |
| sug'urta qoplamasi limiti            | лимит страхового покрытия         | limit of insurance coverage           | -sug'urta kompaniyasining filiali, bo'limi, shu'ba korxonasi tomonidan bita sug'urta hodisasi bo'yicha mustaqil to'lanadigan sug'urta qoplamasining eng yuqori miqdori. Bu miqdorni sug'urta kompaniyasi boshqaruvi joylardagi sug'urta summasining zararlilik darajasidan, kadrlarning malakasidan va boshqa omillardan kelib chiqqan holda belgilaydi  |
| risklarni joylashtirish              | разместить риски                  | locate risks                          | -1) sug'urta manfaati tufayli yuzaga keladigan sug'urtaviy huquqiy munosabatlarning boshlanish jarayoni Risklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlarni joylashtirish, teng ravishda sug'urtalash, qayta sug'urtalash va retrosessiyaga to'g'ri keladi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda risklarni joylashtirish sug'urta vositachilari orqali sug'urta bozorida amalga oshiriladi. 2) sug'urta brokeri yordamida bir vaqtning o'zida yirik va xavfli risklarni qismlarga bo'lib, bir nechta sug'urta kompaniyasida sug'urtalash uslubi. Bir qancha sug'urta kompaniyalari tarkibidan bittasi etakchi sifatida ajralib chiqadi va u sug'urta shartnomasidagi shartlarni ma'qullab, riskning tegishli qismini o'z javobgarligiga oladi. Keyin, broker boshqa sug'urta kompaniyalariga murojaat qilib, riskning qolgan qismini ham joylashtiradi |
| eksседent                            | экседент                          | loss ekscedent                        | -nonproportional qayta sug'urtalash shakli. Bunda sedentga o'z zimmasida ushlab qolingan zarardan oshgan qismi qayta sug'urtalovchi kompaniya tomonidan qoplanadi  |
| tibbiy sug'urta                      | медицинская страхования           | medical insurance                     | shohi sog'lig'ini himoya qilish vositalaridan biri. Sug'urta hodisasi ro'y berishi munosabati bilan, sug'urta polisi orqali bepul tibbiy xizmat ko'rsatilishi Tibbiy   |

|                              |                               |                                 |  |
|------------------------------|-------------------------------|---------------------------------|--|
|                              |                               |                                 | Xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta kompaniyasi to'laydi. Tibbiy sug'urta majburiy yoki istiyoriy bo'ladi.   |
| qo'shma sug'urta kompaniyasi | совместная страховая компания | mutual insurance company        | -fovda o'tishni ko'zlamaydigan netnetat shaklidagi sug'urta kompaniyasi. Sug'urta qilishning tashkiliy shakli. O'zlarining mulkiy manfaatlarini sug'urtaviy hamoyalash uchun yuridik va jismoniy shaxslarning istiyoriy bitim asosida birlashuvi. O'zaro sug'urtalash jamiyati yuridik shaxs hisoblanib, har bir sug'urtalanuvchi ushbu jamiyatning a'zosi bo'ladi. AQSH va Yaponiyada asosari, mavot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar o'zaro sug'urtalash jamiyati shaklida. Hozirgi paytda Yaponiyada o'zaro sug'urtalash jamiyatlari hayotni sug'urtalash bozorining 89,4%ni tashkil etadi.  |
| netto foiz stavkasi          | процентная ставка нетто       | net rate                        | -brutto-stavkaniing asosiy tarkibiy qismi. Netto-stavka sug'urta qoplamasini to'lashga mo'ljallangan pul mablag'lari, resurslari bo'lib, u brutto-stavkaniing 90 forzigacha miqdorini tashkil etadi.   |
| sug'urta miqdori             | страховая сумма               | amount of insurance             | -sug'urta manfaat va sug'urta riskiga mos keluvchi pul mablag'i. Xalqaro amaliyotda sug'urta summasi sug'urta qoplamasi deyiladi. Sug'urta summasiga nisbatan sug'urta mukofoti aniqlanadi va sug'urta qoplamasi to'lanadi. Sug'urta summasi iborasi, ko'proq, shaxsiy sug'urtada - fuqarolarning hayoti, sog'lig'ini sug'urtalashda ishlatiladi.  |
| sug'urta mukofotini aniqlash | определить страховую премию   | amount of the insurance warning | -sug'urta summasi va sug'urta qoplamasi to'lovi o'rtasidagi nisbatni xarakterlovchi iqtisodiy ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich zarar miqdori ehtimoligini ko'rsatadi va undan riskni o'zgarishi ustidan nazorat o'rnatishda foydalaniladi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi quyidagi omillar ta'siri ostida shakllanadi: sug'urtalangan ob'ektlar soni va ularning sug'urta summasi, sug'urta hodisalarining soni, zarar ko'rgan ob'ektlar soni va sug'urta qoplamasi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi netto-stavka tuzilishiga qarab har bir sug'urta turi yoki javobgarlik turi bo'yicha aniqlanadi. Agar zararlilik ko'rsatkichi netto-stavkaga yaqinlashsa yoki undan oshib ketsa, bu holda sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. |
| naf oluvchi                  | бенефициар                    | beneficiary                     | -sug'urta shartnomasida sug'urtalangan shaxsning yozma ravishdagi roziligi bilan sug'urta tovonini oluvchi sifatida ko'rsatilgan jismoniy yoki yuridik shaxs.  |
| fraxt                        | фрахт                         | bareboat                        | -dengiz yoki havo yo'llari orqali yukni tashishda to'lanadigan haq. Ushbu haq tarif yoki yukni tashish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha o'zaro kelishilgan narx asosida to'lanadi. Dengiz sug'urtasida yuklarni tashishda fraxt polisi yoziladi va fraxt qiluvchiga beriladi.  |
| bonus                        | бонус                         | bonus                           | -sug'urta kompaniyasi o'zi uchun qulay shartlarda sug'urta shartnomasini tuzganligi uchun.   |



|                                |  |                            |  |
|--------------------------------|--|----------------------------|--|
|                                |  |                            | sug'urtalanuvchiga, u to'laydigan sug'urta mukofoti miqdoridan chegumalar belgilaydi   |
| obligatorli qayta sug'urtalash | облигаторное перестрахование             | bondly reinsurance         | - 1) qayta sug'urtalashning majburiy shakli. Ayrim mamlakatlar qonunchiligiga ko'ra, ushbu mamlakat yuridida faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta kompaniyalari qabul qilgan risklarini bir qismini majburiy ravishda qayta sug'urtalash kompaniyasiga beradi. Bu choralar qayta sug'urtalash orqali chet elga valyutani chiqib ketishini oldini oladi; 2) sug'urta kompaniyasi (sedent) ma'lum bir sug'urta turi bo'yicha riskni qayta sug'urtalovchiga berishini va o'z navbatida, qayta sug'urtalovchi, riskni qabul qilishni nazarda tutuvchi qayta sug'urtalash shartnomasi. |
| keptiv sug'urta kompaniyasi    | кептивная страховая компания             | captive insurance company  | -ta'sislarining manfaatlarini sug'urta himoyasiga oladigan yoki yirik konsern, korporatsiyalar, yirik sanoat-moliya guruhlari tarkibiga kiruvchi sug'urta kompaniyasi. Raqobatdagi boshqa sug'urta kompaniyalarini keptiv sug'urta kompaniyasi mavjud bo'lgan tarmoqqa kirishi murakkabroq hisoblanadi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan keptiv sug'urta kompaniyalariga - «ALSKOM», «Universal sug'urta» sug'urta kompaniyalarini misol keltirish mumkin.  |
| birgalikda sug'urta qilish     | сострахование                            | coinsurance                | -bita sug'urta shartnomasi doirasida riskni ikki yoki undan ortiq sug'urta kompaniyalari o'rtasida taqsimlanishi. Ushbu shartnomada har bir sug'urtalovchining xuquq va majburiyatlari ko'rsatiladi. Birgalikda sug'urta qilishda sug'urtalanuvchiga qo'shma polis yoki har bir sug'urta kompaniyasi o'z zimmasiga olgan risk hissasiga munofiq alohida polis beriladi.  |
| aralashi sug'urta              | комбинированное страхование              | combined insurance         | -bir necha sug'urta turlari bo'yicha sug'urta qoplamasi sharti.  |
| majburiy davlat sug'urtalari   | обязательное государственное страхование | Compulsory state insurance | -qonunda belgilab qo'yilgan tartibda fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini va davlatning manfaatlarini ta'minlash maqsadida hayot, sog'liq va mol-mulkning davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladigan majburiy sug'urtasi.   |
| majburiy sug'urta              | обязательное страхование                 | compulsory insurance       | -sug'urta munosabatlarining qonun kuchiga ega bo'lgan shakli. Majburiy sug'urta qonunchilik xujjatlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu xujjatda sug'urtaga tortiladigan ob'ektlar soni, sug'urta javobgarligining hajmi, sug'urta munosabatlarida qatnashadigan tomonlarning huquq va majburiyatlari haida boshqa rekvizitlar ko'rsatiladi. Amaldagi qonunchilikka asosan, O'zbekistonda majburiy sug'urtani tegishli litsenziyaga ega bo'lgan har qanday sug'urta kompaniyasi o'tkazishi mumkin.   |
| avariya komissari              | комиссар аварии                          | Commissioner accident      | -sug'urta kompaniyasining vakolatiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs. Sug'urtalangan kema yoki yuk bo'yicha ko'rilgan zararni xarakter va miqdorini aniqlaydi, hodisa to'y berganlik sabablarini o'rganadi. Sug'urta kompaniyasi avariya komissarining chet elda ham, mamlakat ichkarisida ham tayinlashi mumkin. Avariya komissarining yuridik manzili, telefon va teleks   |



|                   |                                |                      |  |
|-------------------|--------------------------------|----------------------|--|
|                   |                                |                      | <p>raqamlari sug'urta kompaniyasi tomonidan beriladigan sug'urta politsida ko'rsatiladi. Sug'urtalanuvchi sug'urta xodisasi to'y berishi zahoni asariga komissiya murojat qilishi zarur. Avariya komissari mol-mulkning zararlanganligi darajasini aniqlaydi. Va sug'urta kompaniyasining topshirig'iga asosan ko'rilgan zararni qisqartirish qoplashi mumkin. Avariya komissari bajarilgan ishlar to'g'risida sug'urta kompaniyasi uchun avariya sertifikatini tuzadi yoki unga yozma axborot tayyorlaydi.</p>  |
| komission haq     | комиссионные<br>вознаграждения | commission<br>fee    | <p>-mijozlarni sug'urtaga tortibolishi uchun sug'urta kompaniyasi tomonidan yaratiladigan (sug'urta brokeri, agent) to'lanadigan haq. Komissiya haqining miqdori sug'urtaning turiga va kelib tushgan badalning xajmiga bog'liq holda sug'urta badaliga nisbatan to'zlarda to'lanadi.</p>  |
| raqobat           | конкуренция                    | competition          | <p>-sug'urta kompaniyalarining sug'urta bozorida o'z ulushini ega'lashi uchun o'zaro iqtisodiy musobaqasi. Raqobat sug'urtalanuvchi uchun sug'urta kompaniyalarini tanlab olishlarida ko'mak beradi. Raqobat sug'urta xizmatini kengaytirishda va ularning sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bir sug'urta xizmatini ko'rsatayotgan bir nechta sug'urta kompaniyalari raqobat sharoitida mijozlarni jalb etish uchun ularga sug'urta shartnomalarini tuzishda, sug'urta mukofotlarini to'lashda va sug'urta qoplamalarini qisqa muddatlarda to'lashda imkoniyat yaratadi.</p> |
| risklar to'plami  | сбор рисков                    | collection           | <p>-bir qancha yirik sug'urta summa olib o'qishlarining bitta sug'urta hodisasi tufayli zarar ko'rishni ehtimolligini nazarda tutuvchi sug'urta risklarini yig'indisi.</p>   |
| sug'urta bahosi   | стоимость<br>страхования       | cost of<br>insurance | <p>-sug'urtalash maqsadida aniqlanadigan mol-mulkning qiymati. Amaliyotda mol-mulklar haqqiy qiymati, bozor qiymati va boshqa qiymatlar vositasida baholanadi. Zarur hollarda sug'urta bahosini to'g'ri hisoblash uchun malakali ekspertlar jalb etiladi. Sug'urta bahosi to'g'risidagi haqqiy ma'lumot ta'rif stavkasi va sug'urta mukofoti miqdorini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Amaldagi qonunchilikka binoan, sug'urta summasi mol-mulkning sug'urta bahosidan oshib ketmasligi zarur.</p>  |
| risklarni tanlash | выбрать<br>риски               | choose the<br>risks  | <p>-sug'urta shartnomasini tuzish bo'yicha mijozlardan kelib tushgan takliflarni tahlil etishga qaratilgan sug'urta kompaniyasining faoliyati. Sug'urta kompaniyasining muvaznatlashgan sug'urta portfelini shakllanishda risklarni tanlash iborasini asosiy jihatdan ishlatish mumindir. Sug'urta amaliyotida risklarni tanlash ismi surveyorlar amalga oshiradi. Risklarni tanlash - bu risk management sohasida olib boriladigan choralar - tadbirlarning bir qismidir.</p>   |
| franshiza         | франшиза                       | deductible           | <p>-sug'urta shartnomasi shartlarida ko'zda tutiladigan sug'urtalovchining zararni qoplashdan ozod etiladigan qismi. Franshiza sug'urta summasiga nisbatan foizlarda belgilanadigan shartli va shartsiz franshizalarga</p>   |

|                           |                                 |                         |  |
|---------------------------|---------------------------------|-------------------------|--|
|                           |                                 |                         | bo'lmadi. Shartli franshizada sug'urtalovchi belgilangan franshiza summasidan oshmaydigan zararni qoplash javobgarligidan o'zod etiladi. Bu holda, agar ko'rilgan zarar miqdori franshiza summasi miqdoridan oshib ketsa, sug'urta kompaniyasi zararni to'liq qoplaydi. Shartsiz franshizada ko'rilgan zarar franshiza summasidan cheginib qoplanadi.  |
| denonsatsiya              | денонсация                      | denunciation            | -shartnomadan voz kechish. Agar sug'urta munosabatlarida tomonlardan biri yozma ravishda shartnomadan voz kechishi to'g'risida ikkinchi tomonga ma'lum qilmasa, shartnoma unda ko'rsatilgan muddatgacha kuchda bo'ladi.  |
| depozit                   | депозит                         | deposit                 | -sug'urta kompaniyasining bank muassasasida saqlanadigan pul mablag'i yoki qimmatli qog'ozlari. Bank odatda, sug'urta kompaniyasiga o'z pulini bankda saqlagan uchun foiz to'laydi. 2) ayrim mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq, chet mamlakat sug'urta kompaniyasi, agar, biror boshqa mamlakatda sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi bo'lsa, dastlab u o'sha mamlakat bank muassasasiga tegishli pul mablag'ini depozitga qo'yadi. Mazkur depozit, chet davlat sug'urta kompaniyasining boshqa mamlakat xududida sug'urta faoliyatini amalga oshirishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. |
| diversifikatsiya          | диверсификация                  | diversification         | -yirik sug'urta kompaniyalarining asosiy faoliyatdan tashqari boshqa faoliyat bilan ham shug'ullanishi. Masalan, sug'urta vositachiligi, qimmatli qog'ozlarning oldi-sotishi, ko'chmas mulk bilan shug'ullanish va xakozo.   |
| dispasher                 | диспашер                        | dispatcher              | -dengiz transportida umumiy avariya sodir bo'lganda ko'rilgan zararni kema, yuk va fraxt o'rtasida taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblarni tuzadigan mutaxassis. Rivojlangan mamlakatlarda dispasher funksiyasini maxsus kompaniyalar bajaradi. Zararlarni taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblar dispasha deyiladi va dispashani tuzganlik uchun xaqi manfaatdor tomonlar (kema egasi, yuk egasi, yukni sotib oluvchi shaxs) to'laydi.   |
| avariya sertifikat        | аварийный сертификат            | emergency certificate   | -mol-mulk sug'urta xedisasi tufayli zararlanganda, ko'rilgan zararning miqdori va xarakterini tasdiqlovchi hujjat. Avariya sertifikatini avariya komissari (adjuster) tomonidan tuziladi va tegishli komissiya xaqi hisobiga sug'urtalanuvchiga taqdim etiladi. Avariya sertifikatini sug'urtalanuvchining sug'urta qoplamasini olish to'g'risidagi arizasiga ilova etiladi va qoplamani to'lashda sug'urta kompaniyasiga asos bo'lib xizmat qiladi.   |
| evropolis                 | европолис                       | evropolis               | -evropa iqtisodiy hamjamiyati mamlakatlarida sug'urta shartnomasi tuzganlik faktini tasdiqlovchi sug'urta polisi.  |
| ekstradent risk           | экстрадент риск                 | ekstsedent risk         | -mazkur toifadagi risk bo'yicha zararni qayta sug'urtalash to'g'risidagi kelishuv.   |
| fakultativ qayta sug'urta | факкультативное перестрахование | facultative reinsurance | -proporsional qayta sug'urtalash shartnomasining turi. Fakultativ qayta sug'urtalashda har bir berilayotgan risk   |

|                          |                             |                          |   |
|--------------------------|-----------------------------|--------------------------|---|
|                          | с                           |                          | bo'yicha alohida shartnoma tuziladi. Seditent har bir risk bo'yicha qayta sug'urtalash zaruriyoki zarur emashlik masalasini mustaqil ko'rib chiqadi. O'z navbatida, qayta sug'urtalovchi ham sedinenting taklifini qabul qilishi yoki qabul qilmashigi ham mumkin.  |
| fronting                 | фронтинг                    | fronting                 | -qabul qilib olingan riskni tegishli komissiya haqi evaziga to'lagicha boshqa sug'urta yoki qayta qayta sug'urtalovchi kompaniyalariga berish.  |
| bosh polis               | генеральный полис           | general policy           | -sug'urta kompaniyasi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi yozma bitim. Bu bitimga muvofiq, tegishli davr mobaynida sug'urtalanuvchi barcha ob'ektlarni sug'urta kompaniyasiga sug'urtalash uchun beradi. CET el tajribasida bu bitim «ochiq polis» yoki «polis-abonament» deyiladi. Mazkur bosh polis asosida sug'urtalash tashqi sur'at va sur'at sug'urtasida keng tarqalgan. Sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga har bir jo'natilgan yoki haridagi mahsulotlar (yukning vazni, sug'urta sur'masi, yukni tarqatish va qabul qilib olish punktlari) bayon etilgan arizani taqdim etsa etarli yoki avtomatik ravishda sug'urtalangan hisoblanadi.                             |
| umumiy sug'urta tarmog'i | общий страховой сектор      | general insurance sector | -shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari.  |
| yalpi sug'urta qiymati   | Валовая страховая стоимость | gross prize              | -sug'urta shartnomalarini tuzish ish yuritish xarajatlarini hisobga olgan holda sug'urta mukofotlari summasi.   |
| umumiy koefitsient       | Общий коэффициент           | gross rate               | -sug'urta qoplamasi (sug'urta sur'masini) to'lashga mo'ljallangan netto-stavka va ish xarajati xarajatlarini qoplashga mo'ljallangan netto-stavkaga yuklama summalarini o'z ichiga olgan sug'urta mukofotlarining tarf stavkasini bildiradi. Ko'pgina adabiyotlarda ushbu ibora sug'urta tarifi ma'nosida ham ishlatiladi.  |
| yashil karta             | зеленая карта               | green card               | -avtotransport vositalari egalarning (qarorlik javobgarligini) majburiy sug'urtalash to'g'risidagi xalqaro shartnomalar tizimi. Mazkur sug'urta turi bo'yicha shartnoma tuzilganlik faktini tasdiqlovchi polis. 1949 yilda Evropaning 13 ta davlati o'rtasida yashil karta to'g'risida shartnoma tuzilgan. Hozirgi paytda yashil kartaga a'zo mamlakatlar 30 dan ziyodra tashkil etadi. Yashil kartaga a'zo bo'lgan mamlakatlarda tegishli milliy byuroklar tashkil etilgan va u mazkur davlat hududida yashil karta bilan bog'liq ishlarni muvofiqlashtirib turadi. O'z navbatida milliy byuroklar yashil karta xalqaro byurosiga birlashgan. Qarorgohi Londonda joylashgan. |
| sug'urta                 | страхование                 | insurance                | -vuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta sharinomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish.<br>Har xil noxush hodisalar to'y berishi natijasida ko'rilgan   |

|                              |                       |                       |   |
|------------------------------|-----------------------|-----------------------|---|
|                              |                       |                       | zararni qoplash hamda fuqorolarning hayotida tegishli sug'urta hodisalari ro'y berganda ularga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etiladigan va undan foydalanish bilan bog'liq (maqsadli pul fondlari) iqtisodiy munosabatlar yig'indisi. O'tkazish shartiga qarab, sug'urta majburiy va ixtiyoriy bo'ladi. Ob'ektiga ko'ra, mulkiy, shaxsiy va javobgarlik sug'urtasiga bo'linadi. Sug'urtaning asosini risk tashkil etadi. Sug'urta - bu riskni taqsimlash usulidir.   |
| depozitlarni sug'urta qilish | Страхование депозитов | Insurance of deposits | -banklar bankrot deb e'lon qilinganda yoki to'lov qobiliyati yo'qolganda, omonatchilarning bankdagi pul mablag'larini ularga qaytarilishini sug'urtalash. Bunda banklar sug'urtalanuvchilar hisoblanadi. Sug'urtani maxsus sug'urta tashkilotlari amalga oshiradi. Depozitlarni sug'urtalash chet mamlakatlarda keng tarqalgan. Masalan, AQSHda depozit sug'urtasini depozitlarni sug'urtalash federal korporatsiyasi amalga oshiradi. AQSHda har bir omonatchiga to'g'ri keladigan 100 ming AQSH dollari miqdoridagi depozitni banklar majburiy sug'urtalaydi.   |
| sug'urta agenti              | страховой агент       | insurance agent       | -sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.  |
| sug'urta dalolatnomasi       | страховой акт         | insurance act         | -sug'urta xodisasi ro'y berganda sug'urta kompaniyasi tomonidan tuziladigan xujjat. Dalolatnomada mol-mulkning zararlanish yoxud nobud bo'lish sabablari, ko'rilgan zarar miqdori va boshqa ko'rsatkichlar bo'ladi. Dalolatnomaga, zarur hollarda sug'urta hodisasi va mol-mulkning zararlanganligini tasdiqlovchi tegishli tashkilotlarning (yong'inga qarshi kurash, davlat avtomobil nazorati, qishloq xo'jaligi, veterinariya xizmati va boshqalar) yozma hulosasi ilova etiladi. Xalqaro sug'urta munosabatlarida sug'urta dalolatnomasini adjuster tuzadi va mohiyatan avariya sertifikatiga yaqinlashadi.                      |
| shomaj                       | шомаж                 | shomaj                | -sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida ishlab chiqarishni to'xtab qolishi bilan bog'liq foyda olmaslik riskini sug'urtasi.  |
| tarif stavkasi               | тарифная ставка       | tariff rate           | -sug'urta riskini baxosi; sug'urta summasiga nisbatan foyzlarda hisoblanadigan brutto-stavka. Tarif stavkasi (brutto-stavka) ikki qismdan iborat netto-stavka va netto-stavkaga yuklama. Netto-stavka sug'urta kompaniyasining sug'urta fondidan qiladigan xarajatlarni ifodalaydi. Netto-stavkaga yuklama sug'urta kompaniyasining ish yuritish xarajatlarni, komissiya haqqi va boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi. Shaxsiy sug'urta bo'yicha tarif stavkasi mol-mulk sug'urtasining tarif stavkasidan keskin farq qiladi. Hayot sug'urtasidagi tarif stavkasi hayotiylik jadvali va daromad nomasiga muvofiq hisoblab chiqiladi. |
| sedent                       | седент                | tsedent               | -riskni ikkilamchi joylashtirishni amalga oshiruvchi,   |

|         |        |         |   |
|---------|--------|---------|---|
|         |        |         | va'ni riskni qayta sug'urtalash uchun berilgan sug'urta kompaniyasi: Ikkinchi sedent retro sedent deb ataladi.  |
| sessiya | сессия | sessiya | -1) sug'urta riskini qayta sug'urtalashga berish jarayoni Sedent va qayta sug'urtalovchi o'rtasidan huquqiy munosabatlarda ishlatiladi. 2) Xorij amaliyotida sedenning olingan sug'urta makototi ma'nosini bildiradi. |



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR R O'YXATI

### 1. Normativ - huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga ega bo'lgan nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi Qonuni. 2002 yil 5 aprel, O'RQ-358-II-son.

2. O'zbekiston Respublikasining "Transport vositalari egalaringning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" gi Qonuni. 2008 yil 21 aprel. O'RQ-155-son.

3. O'zbekiston Respublikasining "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" gi Qonuni. 2009 yil 16 aprel. O'RQ-210-son.

4. O'zbekiston Respublikasining "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" gi Qonuni. 2015 yil 26 may. O'RQ-386-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovasion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida" gi Farmoni. 2018 yil 22 yanvardagi PF-5308-son.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ba'zi hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ayrimlarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida" gi Farmoni, 2017 yil 29 sentyabrdagi PF-5197-son.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni, 2018 yil 1 avgustdagi PF-5495-son.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori, 2007 yil 10 apreldagi PQ-618-son.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori, 2008 yil 21 maydagi PQ-872-son.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2011 yil 31 maydagi PQ-1544-son.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kafolat sug'urta" AJ faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2017 yil 9 oktyabrdagi PQ-3317-son.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2019 yil 2 avgust PQ-4412-son.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2002 yil 27 noyabrdagi №413-son.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH M Mirziyoevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi, 2017 yil 22 dekabr.

16. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008 yil 22 apreldagi 41-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida"gi Nizom.

17. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008 yil 20 noyabrdagi №107-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risida"gi Nizom.

18. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009 yil 3 iyuldagi №68-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyat to'g'risida"gi Nizom.

## **II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar**

19. I.G. Kenjaev. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo'llari. PhD., ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, T.: -2019, 32 b.

20. Baymuratov T.M. O'zbekistonda sug'urta faoliyati va uni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. I.f.n., ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, T.: -2004, 25 b.

21. Байтов А.Н. Прогнозирование и управление инвестициями страховых организаций на фондовом рынке. Страховое дело. 2004 №1. 2-8 с.

22. Гребенщиков Э.С. Инвестиционная составляющая страхового бизнеса: новые источники и возможности // Финансы 2005 №3, 30-34 с.

23. Каменская Н.Ю. Реформа страхового надзора в Европейском союзе //Страховое дело 2012, №6 51-54 с.

24. Мазанова Е.В. Статистический анализ инвестиционных возможностей страховых компаний. Автореферат диссертации на соискание кандидата экономических наук. Оренбург, 2008. – 25 с.

25. Nurullaev A.S. O'zbekistonda fermer va dehqon xo'jaliklarini sug'urtalash masalalari. I.f.n., ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati, T.; - 2007, 28 b.

26. Прокофьева Е.Л. Инвестиционные возможности страховых компаний: монография. Абакан: Издательство Государственного Университета Хакасии, 2008. – 112 с.

27. Фролова В.В. Управление инвестиционной деятельностью Российских страховых компаний. Автореферат диссертации на соискание кандидата экономических наук, Краснодар, 2013. – 27 с.

### III. Boshqa adabiyotlar

28. Vaxabov A.V., Xajibakiev SH.X, Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: Moliya, 2010. 174 b.

29. Гомелля В. Очерки экономической теории страхования. Москва, Финансы и статистика, 2010. 352 с.

30. Едренова В.Н., Мизиковский Е.А. Учет, оценка доходности и анализ финансовых вложений. Москва, Магистр: ИНФРА-М 2011. 316 с.

31. Мизиковский Е.А. Учет, оценка доходности и анализ финансовых вложений. Москва, Магистр: ИНФРА-М 2011.

32. Орланок-Малицкая Л.А., Янова С. Страхование.-М.: Юрайт, 2012. 147 с.

33. Сплетухов Ю.А., Дюжиков Е.Ф. Страхование. Уч. пособие М.: НИЦ ИНФРА-М, 2012. 201 с.

34. Fozilchaev SH.Q., Xidirov N.G'. Investitsiya va lizing asoslari. O'quv qo'llanma, T.: iqtisod-moliya -2017 y, 245 b.

35. Shennaev X.M. Sug'urta agentlari uchun qo'llanma. T.:infoCOM. UZMCHJ 2010 y, 206 b.

36. Qo'ldoshev Q.M.Sug'urta bozori. O'quv qo'llanma.T.: Moliya-iqtisod. 2011, 65 b.

37. Shennaev X.M., Kenjaev I.G'. Chet mamlakatlar sug'urtasi.T.: Moliya-iqtisod. 2012. 112 b.

38. Shennaev X.M. O'zbekiston sug'urta bozori O'quv qo'llanma.T.: Moliya-iqtisod. 2014. 210 b.
39. Shennaev X.M., Ochilov I.K., Shirinov S.E., Kenjaev I.G' Sug'urta ishi. O'quv qo'llanma.T.: Iqtisod-moliya. 2014. 247 b.
40. Kenjaev I.G'. Matiyazova S.R., Adilova G.D. Sug'urta maxsulotlari sotishni tashkil etish. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya. 2018. 215 b.
41. Abduraxmonov I. Sug'urta nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya, 2018.- 380 b.
42. Insurance Information Institute; Life Insurers fact Book American Council of Life Insurers.
43. <https://www.apsei.org.pt> - Comite European des Assuratures, CEA Statistics.
44. <https://www.louisepryor.com> - Enhanced capital requirements and Individual Capital Assesments Insurers; Comite Europeen des Assurances.
45. <https://www.allianz.com>
46. <http://www.raexpert.ru/researches/regions/investclimate>.
47. <http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb-sayti.
48. <http://www.stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti.
49. <https://www.expert.ru> - Rossiya Federasiyasi reyting kompaniyasi rasmiy veb-sayti.
50. <http://www.UzReport.com> - "SAIPRO" axborot-reyting agentligi rasmiy veb-sayti.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**I.G'. KENJAYEV**  
**M.A. ABDURAIMOVA, N.A. ABDULLAEYA**

## **SUG'URTA BIZNESI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy  
o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etgan

Редактор X. Умаров  
Художник X. Умаров  
Компьютерная верстка X. Умаров

Наширёт «NUR DURDONALARI»  
Лицензия № 6578-3160-98с5-739с-4d73-8486-3262. Гувоҳнома № 000891.  
Формат 60x84 1/16. Усл.печ.л. 34.1. Уч.-изд.л. 35.5.  
Тираж 100 экз.